

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOLMATOVA ZULFIYA TILAVOLDIYEVNA**

**“TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH  
METODIKASI” FANIDAN**

**O‘QUV QO‘LLANMA**

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	110000 –	Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi:	5111700 -	Boshlang‘ich ta‘lim va sport– tarbiyaviy ish

**FARG‘ONA-2020**

**Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna**

**Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma / Xolmatova Z.  
– Farg‘ona, 2020. – 272 b.**

**Mazkur o‘quv qo‘llanma boshlang‘ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalish (kunduzgi va sirtqi bo‘lim) talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, fan bo‘yicha ma‘ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlari jarayonida foydalanishlari mumkin.**

**Taqrizchilar:**

**Pedagogika fanlari nomzodi,  
professor M. Jumayev;**

**Pedagogika fanlari nomzodi,  
dotsent F. O‘rinova.**

**O‘quv qo‘llanma Farg‘ona davlat universiteti Kengashining 2020-yil 29-fevraldagi 7-sonli yig‘ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.**

## MUNDARIJA

<b>Kirish</b> .....	<b>5</b>
<b>I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY MASALALARI</b>	
“Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan ta’lim texnologiyasining kontseptual asoslari .....	7
“Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanining mazmuni va mohiyati.....	8
Boshlang‘ich sinflarda texnologiya darsining olib borilishi.....	10
<b>II BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN O‘QUV MODUL ISHLANMASI</b>	
<b>I-MODUL. TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASINING UMUMIY MASALALARI.</b> .....	<b>20</b>
1- mavzu. Texnologiya ta’limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari.....	20
2-mavzu. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari.....	37
3- mavzu. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta’limining mazmuni.....	43
4-mavzu. Texnologiya ta’limining shakl va metodlari .....	53
6- mavzu. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi .....	81
<b>II-MODUL. TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.</b> .....	<b>96</b>
7- mavzu. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi .....	96
8-mavzu. Qog‘oz va karton bilan ishlash darslarini mazmunini tashkil etish metodikasi .....	111
9-10 mavzu. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	122
11— mavzu. Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi....	135
12 — mavzu. Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.....	138
<b>III BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI</b>	
1- mashg‘ulot. Qog‘ozga ishlov berish usullari. Qog‘ozni buklash usullari .....	144
2- mashg‘ulot. Qog‘ozni ketma – ket buklab maketlar yasash texnologiyasi. Qog‘ozni oddiy usullarda buklab maketlar yasash texnologiyasi. ....	146
3 –mashg‘ulot. Qog‘ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash texnologiyasi. Qog‘ozdan “oq qush”ni qurish texnologiyasi. ....	152
4- mashg‘ulot. Kartondan “sanoq sonlari” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash.....	155
5–mashg‘ulot. “telefon” ko‘rgazmali qurolini yasash texnologiyasi.....	156
6- mashg‘ulot. Kartondan “olmali daraxt” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasi .....	159
7 –mashg‘ulot. Kartondan “O‘yla, izla, top” ko‘rgazmaliqurolini tayyorlash texnologiyasi .....	160
8- mashg‘ulot. Kvilling usulida tabriknoma tayyorlash texnologiyasi.....	162

9 –mashg‘ulot. O‘quvchilarni tejamkorlikka o‘rgatish. Chiqindi materiallardan turli buyumlar yasash. Chiqindi materiallaridan choynak tagligini yasash .....	164
10 –mashg‘ulot. ....	169
rangli qog‘ozlardan bayram tabriknomalarini tayyorlash texnologiyasi .....	169
11 –mashg‘ulo. Barglardan guldasta tayyorlash .....	170
12 –mashg‘ulot. Tabiiy urug‘lardan applikasiya yasash texnologiyasi.....	172
13 –mashg‘ulot. Fasllar mavzusida applikasiya yasash texnologiyasi .....	174
14 –mashg‘ulot. Kartondan rasm ramkalari yasash texnologiyasi .....	176
plastilindan mevalarini yasash texnologiyasi.....	177
16 –mashg‘ulot. Plastilindan turli o‘yinchoqlar yasash texnologiyasi .....	179
17 –mashg‘ulot. Ipdan turli o‘yinchoqlar yasash texnologiyasi .....	180
18 –mashg‘ulot. Filcha o‘yinchog‘ini tikish texnologiyasi .....	182
19 –mashg‘ulot. Kartondan harakatlanuvchi o‘yinchoqlar yasash texnologiyasi	183
20 –mashg‘ulot. Turli materiallardan svetofor maketini qurish-yasash texnologiyasi .....	185
<b>SEMINAR MASHG‘ULOTLARI MAZMUNI.....</b>	<b>187</b>
1 –mashg‘ulot. Ish joyini tashkil etish. ....	187
2 –mashg‘ulot. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi .....	190
3–mashg‘ulot. Mehnat tarbiyasiga oid tadbirlarni tashkil etish.....	194
<b>IV BOB. TEXNOLOGIYA FANINING NAZORAT ISHLARINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA METODIK KO‘RSATMALAR</b>	
Test savollari .....	197
Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakl va mazmuni .....	234
Glossariy .....	252
Amaliy mashg‘ulot uchun qo‘shimcha materiallar.....	255
Foydalanilgan adabiyotlar .....	271

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Harakatlar strategiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Harakatlar strategiyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad – O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha yoshlar uchun 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasiga yanada kengroq jalb qilishdir.

Yoshlarning bilim va iqtidorini chuqurlashtirish, ularning kelgusida malakali kadrlar bo‘lib O‘zbekistonni yanada rivojlantirishdagi ishtirokini ta‘minlash maqsadida ta’lim jarayonida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda, shunga javoban bu ishni samarali va amaliyotga joriy etishda natijaviylikka e‘tiborni qaratamiz.

Texnologiya va uni o‘qitishi metodikasi fani pedagogika, psixologiya, tasviriy san‘at, tabiatshunoslik fanlari bilan bog‘lanadi. Talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishi asosida ularni to‘garak ishlariga, ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalarini o‘rganishi va ommalashtirishga, mustaqil ishlar, ma‘ruzalar, kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishi yozishga jalb qilish tavsiya etiladi. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani ta’lim metodikalari kursi fani hisoblanib, fanning asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan holda, ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribasi bilan boyitilgan materiallar asosida yoritib beriladi. O‘quvchilarni amaliy ishga tayyorlash va ularni mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallashlarini ta‘minlaydi.

Texnologiya fanining tarbiyaviy ahamiyati o‘quvchilarda mehnatsevarlik, mas‘uliyat, intizomlilik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashda, o‘quvchilarning aqliy o‘shida eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. O‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam esa, ularda do‘stlik, birodarlik, umumlashish, jamoatchilik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Talabalarning fanni o‘zlashtirish jarayonida darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ma‘ruza matnlari, texnik vositalardan unumli foydalanish, uzatish qurilmalari yordamida slaydlardan va elektron materiallar yoki boshqa texnik

vositalardan foydalanishda pedagogik texnologiya yutuqlarini qo'llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, interfaol usullarni, ta'limiy vositalarni va ta'limiy o'yinlarni ta'lim jarayoniga tadbiq etishda muhim ahamiyatga ega.

Fanni o'qitishdan maqsadi — talabalarni boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining mazmuni va vazifalari, o'qitish usullari, ta'limiy vositalar bilan tanishtirish va ularni ta'lim jarayoniga tadbiq etish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifalari — boshlang'ich sinflarda texnologiya fanining asosiy vazifalari o'quvchilarni mehnatga tayyorlash, bilim berish va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kasblar haqida ma'lumot berish izchilligini takomillashtirish, Davlat ta'lim standartlari talabi bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berishdan iborat.

Qo'llanmada har bir nazariy, amaliy mashg'ulotlarning mavzusi, unga tayyorlanish jarayonida talaba bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar va eng muhim nazariy manbalar keltirilgan. Ushbu qo'llanma 4 ta bobdan iborat bo'lib, birinchi bobda boshlang'ich sinflarda texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy masalalari yoritilgan bo'lib, unda texnologiya va uni o'qitish metodikasi" fanidan ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari va fanining mazmuni va mohiyati ochib berilgan. Ikkinchi bobda fan dasturidan kelib chiqib berilgan ma'ruza mashg'ulotlarini tashkil etish yuzasidan modul ishlanmasi, amaliy mashg'ulotlar mazmuni, mustaqil ta'lim ishlanmalari va mashg'ulotlar uchun qo'shimcha materiallar berilgan.

Qo'llanma talabalarning mashg'ulotlarga tayyorlanishida foydalanishlari, ularning mustaqil ishlari uchun mo'ljallangan.

## **I BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI FANINING NAZARIY MASALALARI**

### ***“TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASI” FANIDAN TA‘LIM TEXNOLOGIYASINING KONTSEPTUAL ASOSLARI***

Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani bo‘yicha dastur Respublika Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim Vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo‘lib, fanni o‘zlashtirish jarayonida talabalarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga texnologiya fanini darslari o‘tish sirlarini xar tomonlama bilishga o‘rgatishdir. Mazkur fan hozirgi kunda Boshlang‘ich ta‘lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalarni kasbga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari yutuqlari asosida va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonun talablarini bajarish maqsadida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining texnologiya fanini ta‘limidan tayyorgarlik darajasiga erishish eng muhim vazifalardan biridir. SHuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi shaxsiga tarbiyaviy tasir ko‘rsatishning ijobiy omillari sifatida yangilanayotgan ta‘lim tizimidagi barcha o‘quv-tarbiya muassasalarida uslubiy fanlarning o‘qitilish dasturlariga alohida e‘tibor berilmoqda.

Metodika fanlarini o‘qitish ishlarida jumladan texnologiya o‘qitish metodikasi kursini o‘qitishni qaytadan ko‘rib chiqib, hozirgi kun talabiga moslashtirish zarurati vujudga keldi. Bu ishlar bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlash ishini takomillashtirishda, talabalarni o‘qituvchilik kasbga tayyorlashda muhim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilishda zarur bo‘lgan o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil qilishda katta yordam berishi lozim.

Texnologiya o‘qitish metodikasi kursi ma‘lum darajada ma‘ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlari mustaqil ta‘lim va pedagogik amaliyot orqali amalga oshiriladi.

Ma‘ruzalar texnologiya o‘qitish metodikasi fanining asosiy ilmiy izlanishlari natijalariga tayangan xolda, ilg‘or o‘qituvchilarning ish tajribalari bilan boyitilgan

materiallar asosida bayon qilinadi. Amaliy-seminar mashgʻulotlari hamda mustaqil taʼlim jarayonlarida esa talabalar turli-tuman metodik manbalarni oʻrganish. Metodik adabiyotlarga ijodiy yondashib, ulardan oʻqitish ishlarini tashkil qilishda, ilmiy izlanishlar olib borishda, dars ishlanmalari tuzish, turli metodik qoʻllanmalarga oid maʼruzalar yozish, egallagan bilimlari asosida boshlangʻich sinfda darslarni tashkil qilish va oʻtkazish uchun zaruriy koʻnikmalarni egallaydilar. Dars uchun ishlanmalar tuzish va tahlil qilish hamda didaktik koʻrgazmalar yasash bilan shugʻullanadilar.

Barcha maʼruza va boshqa turdagi mashgʻulotlarda turli oʻquv koʻrgazmali qurollari va texnika vositalari hamda axborot texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalaniladi.

## ***“TEXNOLOGIYA VA UNI OʻQITISH METODIKASI” FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI***

Boshlangʻich maktablarda texnologiya fanini taʼlimi va tarbiyasining asosiy vazifalari oʻquvchilarni mehnatga tayyorlash. oʻqitish va umum taʼlim maktablarining boshlangʻich sinflarida kasb tanlash izchilligini takomillashtirish. Davlat taʼlim standartlari talabi boʻyicha tarbiyalash hamda oʻquvchilarni kasb-hunar egasi boʻlib voyaga yetkazishda nazariy va amaliy bilim berishdir.

Boshlangʻich sinf texnologiya fanini darslarining maqsadi bolalarda mehnatga muhabbat va texnologiya fanini kishilariga hurmatda boʻlishni oʻrgatish. Topshirilgan ishga masʼuliyat hissini va mehnatdagi intizomni tarbiyalash. Oʻqitishni ishlab chiqarish mehnati bilan birgalikda olib borish. Salomatlik va yosh uchun zaruriy–foydali, jamiyat uchun kerakli texnologiya fanini izchilligini amalga oshirish.

Oʻquvchilarning texnologiya fanini koʻnikmalarini shakllantirishda maktab mahalla, oila va jamoatchilikning birgalikdagi harakatlari, oʻz-oʻziga xizmat qilishni tashkil qilish, kasb turlari haqida maʼlumotlar berish, kasblar bilan kengroq

tanishtirish, texnologiya fanini faxriylari murabbiyligini rivojlantirish haqida uslubiy ko'rsatmalar berish.

O'quvchilarda texnologiya fanini unumdorligi va mahsulot sifati kabi tushunchalarni tarkib toptirish. Mahalliy sanoat, hunarmandchilik, amaliy sanat turlari bilan tanishtirish. Milliy ustachilikning zamonaviy bo'lgan ganchkorlik, kulolchilik, gilamdo'zlik, kashtachilik, etikdo'zlik kabi ish turlari bilan tanishtirish jarayonida mehnatga munosabatni tarbiyalash.

### **Talabalar bilimiga qo'yiladigan talablar:**

- Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini darsligining xususiyatlari mazmuni vazifalari va maqsadi.
- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinflar bo'yicha texnologiya fanini tayyorgarligi va talablar ularning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan baho mezonini texnologiyasi.
- Asosiy o'quv vositalari darslik o'quv qo'llanmasi va boshqa vositalar hamda ulardan foydalanish metodikasi.
- Texnologiya fanini fanini o'qitishda qo'llaniladigan barcha metod va usullarni bilish.
- O'quv bilish faoliyatini tashkil qilishning asosiy va yordamchi shakllari.
- Dars ishlanmasida o'quv jarayonini o'quv materialini, unga mos metod, vosita va o'qitish shaklini tanlab rivojlantirish.
- Dastur asosida joriy rejalashtirish.
- Dastur. Darslik, metodik qo'llanma, tavsiyalarni tahlil qilib qisqacha taqriz yoza olish.
- O'zlari qiziqqan mavzu asosida kurs va bitiruv ishi tarzidagi ilmiy izlanishlarning bajarilishini uddalay olish.
- Turli jarayonlarni bajaruvchi turli xom-ashyolar bilan ishlovchi ishchilarning ish xususiyatlari haqida tushunchaga ega bo'lish.
- Turli xom-ashyolarga ishlov berishda ishlatiladigan asboblardan unumli foydalana olish.

- Tayyorlanadigan, yasaladigan, buyumlar chizmasini, shartli tasvirini o'qiy olish.

- Yasaladigan buyumlar andozasi, chizmasini tuza olish.

- Texnika xavfsizligi qoidalarini bilish, texnologiya fanini tozaligi va madaniyatiga amal qilish.

- Ilmiy asoslarga suyanan holda zamonaviy ishlab chiqarish hamda turli sohalarda ishlaydigan ishchilar texnologiya fanini xususiyatlari haqidagi bilimlarni berish.

- Pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatini anglab etish.

- Axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalana bilishlik.

Texnologiya fanini va uni o'qitish metodikasi fani pedagogika, psixologiya va yosh psixologiyasi fanlari bilan bog'liq. Texnologiya fanini va uni o'qitish metodikasi ta'limning boshqa metodik predmetlari, ona tili, matematika, tabiatshunoslik, jismoniy tarbiya bilan uzviy bog'lanadi. Predmetlar aro bog'lanishni to'g'ri amalga oshirishda o'qituvchi buni hisobga olishi juda muhimdir. Bulardan tashqari boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi yuqori sinflarda o'qitilishiga qaramasdan chizmachilik, fizika, biologiya, kimyo fanlaridan, to'qimachilik, oziq-ovqat metallurgiya asbobsozlik sanoatlari. Qishloq xo'jaligining tarmoqlari haqida tushunchalarga ega bo'lmog'i talab etiladi.

### ***BOSHLANG'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSINING OLIB BORILISHI.***

Texnologiya ta'limida o'qitishning har xil metodlaridan foydalaniladi. Ta'lim metodlarini tanlash avvalo, o'quv materialining va o'quv vazifalarining xarakteriga bog'liq.

Texnologiya ta'limiga doir o'quv vazifalari maktabdagi boshqa fanlarning o'quv vazifalari o'quvchilarga yangi bilimlar berish, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilimlarni amalda qo'llash va h. k. Bilim asosan bir xilligi uchun

ta'lim metodlari ham deyarli bir xil bo'ladi. Bu gap eng avvalo nazariy mashg'ulotlarga taalluqli bo'lib, bunday mashg'ulotlar yuqori sinf o'quv dasturlarida bevosita nazarda tutilgan. Nazariy mashg'ulotlarda pedagogika kursida ko'rsatilgan umumdidaktik tavsiyalari to'liq tatbiq etiladi. Amaliy mashg'ulotlarda o'quv materialining xarakteriga ko'ra mehnat bo'yicha amaliy mashg'ulotlar boshqa o'quv fanidan farq qiladi, bu esa ta'lim metodlaridan foydalanishda qator o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi. Mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish texnologiya ta'limi metodikasida juda muhim o'rin tutadi. Mantiqiy o'qitish metodlarining o'ziga xos xususiyatlari shuki, unda o'qitish jarayonini o'qituvchining mehnat usullarini namoyish qilish va o'quvchilarni unga taqlid qilishi asosida tashkil topadi.

Asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Topshiriqni aniqlash, uning maqsadi va bajarishni tushuntirish.
2. O'quvchilarda zarur bilimlarning mavjud bo'lishi.
3. Ta'lim metod va usullarini shakllantirayotgan ko'nikma va malakalarni xususiyatlariga moslash.
4. Instruktajning samaradorligi.
5. Mashqlarning yetarli miqdorda bo'lishi.
6. O'quvchilar faoliyatini o'z vaqtida va obyektiv baholash, o'quvchilarni baholash natijalaridan xabardorligi.
7. O'quvchilar faoliyatini faol xarakteri.

Ko'rsatmali metodni asosan o'rganiladigan obyektlar, protsesslar va ularning tasvirini namoyish qilish va o'quv qurollari bilan ishlash kabi usullar orqali amalga oshiriladi. Texnologiya ta'limida ko'rsatmali metodning xususiyati shundan iboratki, bunda ko'rsatmalilik ko'pincha o'quv materialiga illustrasiya sifatida emas balki uning o'zi bilim manbayi bo'lib ko'p hollarda esa ko'nikma va malakalarni shakllantirish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy metodlar instruktaj va mashqlar orqali amalga oshiriladi. SHu nuqtai nazardan instruktajga qo'yiladigan talablarni qarab chiqish maqsadga muvofiq:

1. Instruktaj jarayonida ta'limning har xil metod va usullarini omilkorlik bilan kombinatsiyalash.

2. Instruktaj mazmunini o'qituvchi asoslashi.

3. Instruktajni to'raligi va instruktajni elementlarga ajratish.

4. Instruktajda shunday ko'rsatmalar bo'lishi kerakki, o'quvchilar ular yordamida o'z faoliyatlarini nazorat qila olishlari lozim.

Instruktajlarni yana quyidagilarga ajratamiz: kirish, joriy va yakuniy.

Texnologiya ta'limi jarayonida tatbiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatli mashqlarda boshlash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda.

Muammoli ta'lim g'oyalari har xil sabablarga ko'ra hali texnologiya ta'limida keng qo'llanilayotir. Buning sababi mehnat darslarida muammoli ta'limning samaraligi emas, balki uni qo'llashning ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liqligidadir. O'quvchilar hamma o'quv materiallarining muammolarini mustaqil hal qilish yo'li bilan o'zlashtirishi muammoli ta'lim deyiladi. Bunda o'qituvchining tushuntirishi ham reproduktiv holati ham, masalalar yechish ham o'quvchilarning mashqlarini bajarishi ham bo'ladi.

Muammoli amaliy topshiriqlar ham ma'lum va noma'lumni o'z ichiga oladi, ammo harakat usullari bilan bog'liq bo'ladi. Bunda topshiriqlarni bajarish natijasida o'quvchi yangi harakat usulini topishi yoki ma'lum usulni yangi sharoitlarda qo'llashi kerak.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limiga tayyorlash dasturi bolalarni har tomonlama kamol toptirishga aqliy va jismoniy, axloqiy va estetik, iqtisodiy va ekologik bilimlarini shakllantirishga va tarbiyalashga qaratilgan bo'lib o'z oldiga qo'yidagi maqsadlarni qo'yadi.

a) Bolaning mehnat tajribasini ularning kishilarning ishlab chiqarish faoliyati to'g'risidagi bilimlarni kengaytirish, mehnatsevarlik, mehnatga va mehnat kishilariga munosib munosabat ruhida tarbiyalash;

b) Mehnat malakasi, mehnat madaniyati asoslarini, o'z ishi va o'rtoqlari ishini rejalashtirish va tashkil qilish malakalarini rivojlantirish.

Dasturda to'rtta asosiy ish turlari bor.

1. Qog‘oz va karton bilan ishlash.
2. Turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama (tikish va bichish) bilan ishlash.
4. Texnikaga modellash.
5. Qishloq xo‘jaligi mehnati.

O‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish bo‘limi o‘zlarining kiyim-kechaklariga va turar joylariga qarashni, nonushta, tushlik va kechki ovqat uchun dasturxon tuzashni o‘z ichiga oladi. Bu darslarni yil boshida o‘tkazish tavsiya etiladi, bundan maqsad o‘qituvchilarni va ota-onalarni yil davomida bolalarning olgan bilimlarini qanday qo‘llayotganliklarini va sinfda navbatchilik qilganda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish, uyda ota-onalariga yordam berishlariga imkon berishdir.

Texnikaga oid mehnat bo‘limi mehnatning quyidagi turlarini: qog‘oz va karton bilan ishlash, mato bilan ishlash, turli xil materiallardan plastilin, tabiiy va noorganik materiallar somon, quritilgan barglar, patlar, chig‘anoq, loy, qum, sement, yog‘och, yumshoq sim, tunuka va boshqa materiallar bilan ishlashni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilarga buyumlarni yasash tartibi haqida, ya’ni yig‘ish, ishlov berish to‘g‘risida, ishlatib ko‘rish xato va kamchiliklarni yo‘qotish haqida ish o‘rnini tashkil qilish va boshqalar to‘g‘risida tasavvur hosil bo‘ladi. Bu elementlarning barchasi keyinchalik modellar va texnikaviy o‘yinchoqlar tayyorlashda qo‘llaniladi, umumlashtiriladi, bolalarning ijodiy fikrini o‘stiradi, To‘plangan mehnat tajribasini tevarak-atrofdagi texnika bilan bog‘lashlariga yordam beradi.

Qishloq xo‘jaligi mehnati bu darslarda o‘quvchilar sinfdagi jonli tabiat burchagi va maktab tajriba hovlisida o‘simliklarni o‘stirishga, ko‘paytirishga va parvarishlashga oid ishlar bilan shug‘ullanadilar.

Texnologiya ta’limi dasturi talablari quyidagilarni o‘z ichiga oladi.

1. Buyumlarni kundalik uchun zarurligi.
2. Narsa-buyum yoki ishni bajarish jarayonida bolalarga berish mumkin bo‘lgan dasturda ko‘rsatilgan bilim va malakalarining mazmundorligi.
3. Barcha o‘quvchilarni darsda band qilish imkoniyati.

Texnologiya ta'limining yangi dasturlari, metodlari va tashkiliy shakllari asosida ishlab chiqiladi. Mehnat dasturlarida mehnat madaniyatining malaka va ko'nikmalari aks ettirilgan bo'lib, unga qarab maktab o'quvchisi, o'qituvchisi va maktab faoliyatiga baho beriladi. O'qituvchi o'quvchilarning u yoki bu xususiyatlarini, mehnat madaniyatining tarkibiy qismi birligini hisobga olganda dastur tuzib chiqadi.

Mehnat ta'limi yo'nalishlaridan birinchisi o'quvchi tassavurida inson mehnati haqida va uning mehnati orqali yaratilgan buyumlar to'g'risida, ishlab chiqarish muhiti, materiallarni ishlab chiqarish texnologiyasi, moddiy ishlab chiqarish iqtisodiyoti haqida tasavvurlar hosil qilishga har tomondan yondashishni talab qiladi.

Texnologiya ta'limining yo'nalishining ikkinchisi, o'quvchilarda oilada va turmushdagi vazifalarni taqsimlash, ularni bajarish to'g'risidagi tasavvurlarni shakllantirish.

Texnologiya ta'limining yo'nalishining uchinchisi esa hozirgi zamon o'quvchisi tabiatga ekologik munosabatda bo'lishni shakllantirish, uni qishloq xo'jaligi sohasidagi malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish kerak.

Texnologiya ta'limi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Mehnat darsining maqsadi – shaxsning turmush tarziga, mehnat madaniyatiga qaratilgan barqaror yo'l yo'riqni qaror toptirish, ijodiy mehnat qilishga, amaliy, axloqiy va ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirish, o'quvchilarni xalq xo'jaligidagi muvaffaqiyatli mehnat faoliyatida zarur bo'lgan ijodiy qobiliyatlarni, aqliy, jismoniy fazilatlarni rivojlantirishdir.

Texnologiya ta'limi o'zining bosqichlarida bolalar, o'smirlar va yoshlarning yoshi, funksional imkoniyatlarining o'ziga xosligi, ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy mavqega muvofiq ravishda ko'p tomonlama yo'nalishga ega bo'lishi lozim. U qo'ydagilarni taqozo etadi.

- Mehnatsevarlikni tarbiyalash, mehnat qilishga ehtiyojni, unga ongli, ijodiy munosabatda bo'lishni, o'z mahoratini doimo takomillashtirishga intilishni shakllantirish;

- Kasbiy faoliyati uchun ahamiyatli bo'lgan psixo-fiziologik funksiyalarini, shaxsning kasb-korlik jihatidan muhim bo'lgan umumiy va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- Tanlangan faoliyat sohasiga kasbiy faoliyatni keng politexnik bilim doirasi va kasbiy harakatchanlik bilan birga qo'shgan holda shakllantirish;

- Bunyodkorlik faoliyati jarayonida haqiqiy mehnat munosabatlariga kirishi, jamoa mehnatiga ijtimoiy tajriba to'plash;

- SHaxsning barcha sohalarida madaniyatni tarbiyalash;

- Zamonaviy iqtisodiy bilimlarni egallash, yangicha iqtisodiy tafakkurni, omilkorlikni shakllantirish, haqiqiy iqtisodiy faoliyatida ishtirok etish;

- Mustaqillikni, tashabbuskorlikni tarbiyalash, muammoli vaziyatlarni ijodiy ravishda hal qilishga hozirlikni shakllantirish, ishlab chiqarishni boshqarishda ongli ravishda va faol ishtirok etish.

Mehnat darslarida o'quv jarayonini tashkil qilish o'quvchilarni muayyan mehnat malakasi va ko'nikmalari bilan qurollantirishgagina xizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va ularni mehnatga munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mehnat darslari g'oyat zarurdir. O'qituvchining o'z fanini yaxshi bilishi o'quvchilarni muvaffaqiyat bilan o'qitishning eng muhim shartlaridan biridir.

O'z fanini yaxshi bilgan o'qituvchi biror buyum narsani tayyorlash usulini mahorat bilan tushuntirib va ko'rsatib bera oladi, bu esa mehnat amallarini o'quvchi to'g'ri idrok etishni ta'minlaydi. O'qituvchi shu munosabat bilan darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, bolalarga ko'rsatadigan buyum-narsani o'qituvchining o'zi oldindan tayyorlab ko'rishi lozim, chunki buyum-narsani tayyorlash davomida qiyin ish usullarini qo'llashga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Agar o'qituvchining o'zi narsalarni oldindan tayyorlasa o'quvchilarga uni tayyorlashning metod va usullarini ko'zda tutgan bo'ladi.

Har bir dars o'quvchilarning bilim va malaka doiralarini kengaytirishi hamda mustahkamlashi, ularda barqaror ijobiy ko'nikma va odatlar hosil qilishga yordam berishi lozim. Dars vazifasini faqat bilim berish va ko'nikma hosil qilishdan iborat qilib qo'ymasligi, balki tarbiya berish va kamol toptirish vazifalari bilan bog'lab olib borish ham zarur. SHuning uchun ham o'qituvchi o'zi o'qitayotgan bilimini bilishi lozim. Bu esa biror mavzuga tayyorlana turib, o'qituvchi mazkur dars materialini asosida o'quvchilarning axloqiylikning qanday g'oyalari anglashga olib kelajagini diqqat, fikrlash, xotira, tasavvur, irodani rivojlantirish va boshqa shu kabilar sohasida shaxs sifatini qanday kamol toptirishga erishishini aniq tasavvur qilmog'i lozim.

Agarda bolalar yaxshi yoritilmagan sinfda, yoshiga mos kelmaydigan qo'pol, og'ir asboblardan ishlasalar, bu ularning ish natijalariga juda yomon ta'sir ko'rsatadi. Mehnat madaniyati malakalari ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo'ladi, bunda mashqlar davomida har bir mashq jarayonida o'rnatiladigan tartib va ish harakati izchilligini tushuntirib berish zaruriyati bilan birga qo'shib olib boriladi.

Texnologiya fanining yangi dasturi "taqlid qilish" metodikasini mehnat darsida rad etadi, tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar butun buyumning tuzilishini yaxshi tasavvur etsalargina ish jarayonini va asboblardan ishlash usullarini tezroq va puxtaroq his qilib oladilar. Ayniqsa, birinchi sinf o'quvchisi o'qituvchiga taqlid qilishga intiladi. SHu sababli o'quvchi boshidanoq faqat to'g'ri usullarni ko'rishi va eslab qolishi lozim. Bordi-yu, o'qituvchi qo'llamasligi lozim bo'lgan noto'g'ri ish usulini har doim ta'kidlab ko'rsataversa o'quvchi shuni eslab qolishi mumkin, u o'quvchilar ongiga singib qolib, keyin uni tuzatish ancha qiyin bo'ladi.

Mehnat darslarida birinchi sinf o'quvchilarining ishlarini kuzatish natijasida o'quvchilarni topshiriqlarni olib, buyum-narsani xuddi namunadagidek yasash uchun namunaning qurilishini sinchiklab qarab chiqib, buyumni yasash yo'llarini qunt bilan izlaydilar.

Birinchi sinf mehnat darslarida, odatda tayyorlanishi kerak bo'lgan buyumning namunasi ko'rsatiladi. Bunda birinchi sinf o'quvchilari uchun real

buyum narsa, buyumning namunasi zarurligi nazarda tutiladi, bolalar unga qarab mazkur buyum narsa qanday qilinganligini, qanday qilib xuddi mana shunday tayyorlash mumkinligini o‘ylab oladilar.

O‘qituvchi yangi mavzuga metodik jihatdan qanchalik to‘g‘ri yondashmasin, uni suhbat va ko‘rsatmada qanchalik tushunarli qilib izohlamasin, baribir o‘quvchilar dastlabki vaqtlarda mehnat usullarini har doim ham to‘g‘ri qo‘llayvermaydilar. O‘quvchi ko‘p savollarni mustaqil hal qilishi kerak. O‘quvchilar mustaqil, faol fikrlash qobiliyatini, tashabbusni, uchragan qiyinchiliklarni yengishini, avval hosil qilingan mehnat bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo‘llay bilishni o‘rganishi lozim.

Mustaqil ish faoliyatida asosiy faol shaxs o‘quvchidir. Lekin shunga qaramay darsning bu bosqichida o‘qituvchining vazifasi benihoyat katta va mas’uliyatlidir. Bunday mashg‘ulotlarda maqsadni aytib, ish usullarini ko‘rsatib qo‘ya qolish kifoya, o‘quvchilarni erkin ishlashi kerak deb o‘ylash katta xato bo‘ladi. O‘qituvchi mumkin qadar kamroq so‘zlashni, sekin ohista ovoz bilan gapirishni odat qilishi, o‘quvchilarga sezdirmay ularning xarakterini kuzatishi, ularga yaqinlashish va uzoqlashishni, o‘rniga qo‘yib gapirishni yoki jim turishni o‘rganish lozim. Qoloq o‘quvchini yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchiga biriktirib qo‘yish kerak. Masalan tikishda o‘g‘il bolalar odatda orqada qoladilar ularga qizlar yordamini biriktirib qo‘yish, aksincha texnikaviy modellashda o‘quv tajriba hovlisidagi ishlarda o‘g‘il bolalar qizlarga yordamlashishlari kerak.

Shu tarzda o‘quvchilarda o‘zaro do‘stona yordam hissi tarbiyalanadi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining imkoniyatlarini hisobga olib bolalarni ruhlantirish lozim. Bolalar mustaqil ishlayotganda o‘qituvchining mehnati oson emas, balki yanada qiyinroq, biroq ijodiy mehnat singari huzurbaxshdir.

O‘quvchilar mustaqil ishlayotganda o‘qituvchi nifaoldek ko‘rinadi, lekin aslida o‘qituvchi oldida u rahbarlik qilish lozim bo‘lgan xilma-xil xarakterli o‘ttiz-qirq o‘quvchi bor. Ayrim o‘quvchilarni butun dars davomida bezovta qilmaslik lozim, ayrimlariga ko‘rsatma berish kifoya, qolganlari yordamga muhtojdir. Mustaqil mashg‘ulot vaqtida bolalar qo‘ng‘iroqni ham sezmay qoladilar, hatto

ishini davom ettirishga ruxsat etilsa quvonadigan hollar ham bo‘ladi. O‘zlariga yoqqan ishga sho‘ng‘ib ketib va tez ishlaydigan o‘rtoqlarini ko‘rib o‘quvchilar bora-bora o‘zlarining ish sur‘atini tezlashtirishni odat qilib oladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarning amaliy ishini o‘z vaqtida tekshirmaslik o‘quvchining ishga qiziqishini kamaytiradi. Ishni tekshirish va baholashga o‘quvchilarning o‘zlarini jalb qilish kerak. Bu bilan ular mehnatga ongli munosabatda bo‘lishlik, faollik va tashabbuskorlik xislatlari rivojlanadi. Mehnat natijalarini birgalikda tekshirish va baholash o‘quvchilarning xotiralarida ma’lum bir buyumni tayyorlashning barcha bosqichlari, ayrim usullari tiklanadi. Uyga topshiriq berish darsning muhim bosqichidir. Mehnatdan uyga bajarib kelish uchun beriladigan vazifani avvalo darsda ishni yaxshi uddalay olmagan o‘quvchilarga berish zarur.

Dars besh bosqichga bo‘linadi:

1. Kirish qismi – mavzu nechanchi yil o‘qitilayotganligi o‘quvchilarning o‘sish darajasiga qarab, vaqt jihatdan juda uzoq yoki qisqa bo‘lishi mumkin. Kirish qismi o‘quvchilarni emotsional qiziqtirishi, o‘quvchi ishlashi lozim bo‘lgan biror mehnat obyektini namoyish qilishda go‘zallik hissini uyg‘otishi lozim.

2. O‘qituvchining ko‘rsatmasi — ko‘rsatmalilikning xilma-xil vositalarini qo‘llab o‘qituvchi darsni bu bosqichida o‘quv ishning maqsadini eng muvofiq izchilligi bilan tanishtiradi.

3. O‘quvchilarning topshiriqni mustaqil bajarishi – darsning asosiy qismi bo‘lib, unga darsning  $2/3$ , hatto  $3/4$  qismi ajratiladi. Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarni diqqat bilan kuzatib turadi, ularning ishlariga boshchilik qiladi, ish harakatlaridagi ish holatlari, asboblardan foydalanishdagi xatolar va kamchiliklarni kuzatadi. Bordi-yu, ish o‘quvchilarga qiyinlik qilsa, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘zi bajarayotgan ish bosqichlariga e’tibor berib turishini va uning harakatiga o‘xshatib asta-sekin harakat qilishini aytadi.

a) o‘qituvchining ko‘rsatmalariga qanday amal qilinmoqda?

b) o‘quvchilarning mehnat madaniyati va ko‘nikmalari qanday?

d) material qanday saqlanmoqda, o‘quvchilar asboblarni to‘g‘ri ishlatishyaptimi?

e) o'quvchilar o'z usullarini qay darajada uqib oladilar?

4. Tekshirish va baho qo'yish. O'qituvchi har bir o'quvchining ishini qisqa tavsiflab, jurnalga baho qo'yadi (o'quvchilarga yorliq etiketkasi qilib tayyorlangan buyumni yopishtiradilar, yorliqqa ishning tugallangan vaqti, necha soat vaqt sarflaganligi, bajaruvchining familiyasi va ismi, sinfi aniq ko'rsatiladi. )

5. Uy vazifasini tushuntirish — darsning bu bosqichi darsda bajarilgan topshiriqning yakuni bilan bog'liq, o'qituvchi har bir o'quvchining faoliyatiga baho qo'yib, ishdagi kamchiliklarini ko'rsatadi va uyga berilgan topshiriqni tushuntirish davomida xatolarni tuzatish uchun qo'shimcha ko'rsatmalar beradi.

O'quvchilarning mehnati va mustaqilligini faol fikrlash faoliyati, tashabbusning paydo bo'lishi, uchragan qiyinchiliklarni yengishi, avval hosil qilingan mehnat bilimi va malakalarini oqilona va ijodiy qo'llay bilishidir.

**II BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA  
DARSLARINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN O‘QUV MODUL  
ISHLANMASI**

**I-MODUL. TEXNOLOGIYA VA UNI O‘QITISH METODIKASINING  
UMUMIY MASALALARI.**

**1- MAVZU. Texnologiya ta’limi va tarbiyasining maqsad va vazifalari.**

**Reja**

1. O‘quvchilarni mehnatga axloqiy, psixologik va amaliy tayyorlash usullari.
2. Mehnat malakalari va ko‘nikmalari.
3. O‘quvchilarni mavzu bo‘yicha muammoli masalalarda fahmlashga o‘rgatish.

Texnologiya ta’limi va kasbga tayyorlash vazifalari boshlang‘ich maktabda butun ta’lim-tarbiya sistemasi va barcha o‘quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o‘rinda mehnat darslari yetakchi rol o‘ynaydi.

Maktabda muntazam texnologiya ta’limining boshlang‘ich bosqichi boshlang‘ich sinflardagi mehnat dargohlari va kichik yoshdagi bolalarning qo‘lidan keladigan ijtimoiy foydali mehnatdir.

Boshlang‘ich maktabdagi texnologiya ta’limining asosiy vazifasi mehnatga axloqiy, psixik tayyorlash, o‘quvchilarni boshlang‘ich politexnik bilimlar bilan qurollantirish mehnatga amaliy tayyorlashdir. O‘quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash deganda, ularning bu mehnat natijalariga hurmat bilan yondashishlari nazarda tutiladi.

Mehnatga axloqiy tayyorlash – bolalar jamoasida ishlashni, do‘stona o‘zaro yordamni, ijodiy tashabbusni, tashkilotchilik qobiliyatlarini namoyish qilishdan iboratdir.

Mehnatga psixologik tayyorlash. O‘quvchilarni mehnatga psixologik tayyorlash murakkab uzoq davom etuvchi va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u butun

texnologiya ta'limi hamda tarbiyaga singib ketgandir. U garchi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, mehnatga axloqiy tayyorlashga juda yaqindir.

Bolani mehnatga psixologik tayyorlash va unda mehnatga nisbatan uning yoshiga mos keluvchi ongli hamda ijobiy munosabatlarni tarkib toptirish, unda amaliy malaka va ko'nikmalarni egallashga qiziqishni shakllantirishdan Iboratdir. O'qituvchining vazifasi o'quvchilarga yoshligidan boshlab mehnatning ijobiy tomonlarini singdirishdir. Bolalarning mehnatga qobiliyati har bir kishi jamiyatning faoliyati farovonligi uchun zarur bo'lgan vositalarni ishlab chiqarishda qatnashishi zarurligini anglashlaridir.

Mehnatga psixologik tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular sezib anglash – psixomotor, emotsional idrok, diqqat, xotira, tafakkur – mehnatning psixologik komponentlaridir.

Mehnatga o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur. Bundan tashqari bolaning xotirasini o'stirish ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat bo'yicha o'quv materiallarini eslab qolish predmetlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega. Barcha yangi ashyo, material, operatsiyalarning nomi boshlang'ich sinf o'quvchilari so'z nomini predmetni ko'rib idrok etish bilan fikran fahmlaydilar, tushunib oladilar.

O'quvchi mehnat darsida faqat tushunibgina qolmay, balki asosan material va buyumlar namunasini, ashyolarning materialga ishlov berish usulini, operatsiyalarning izchilligini ko'radi. SHuning uchun texnologiya ta'limida eshitish, ko'rish xotirasi va harakatlantiruvchi xotira ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarda mehnat darsidan mehnat darsigacha yangidan yangi bilim va ko'nikmalar mujassamlashib boradi, bu ishlarni anglash hamda xotirada saqlab qolish kerak.

Texnologiya ta'limining to'g'ri borishida emotsional jarayonlar ham xarakterlidir. Bolalarni qiyinchiliklarni yengishga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida matonat va qat'iyat bilan kirishishga o'rgatish lozim.

Boshlang'ich politexnik bilim bilan qurollantirish.

Boshlang'ich sinflarda keng ma'nodagi ilmiy asoslar haqida emas, balki politexnik ta'limning elementlari haqida gap boradi. Bu o'quvchilarda fan-texnika yutuqlariga nishatan qiziqish uyg'otishga yordam beradi.

Mehnat bo'yicha beriladigan politexnik bilim o'quvchilarga nima uchun materialga unday yoki bunday ishlov berish mumkinligini, nima uchun o'simlik soya yoki yaxshi ishlov berilmagan erda yomon o'sishini, nima uchun inson kiyim-boshini toza tutishi kerakligini anglashlariga imkoniyat yaratadi.

Politexnik tayyorgarlikka ega bo'lish qo'yilgan mehnat vazifalarni bajarishda ashyolarda to'g'ri va ratsional foydalanishda yordam beradi. SHuningdek, bu tayyorgarlik kerakli ishlab chiqarish operatsiyalarini qanday va qaysi izchillikda amalga oshirish, qanday ashyolarni qo'llash sabablarni anglashga ko'maklashadi.

O'quvchilarga berilayotgan politexnik bilim amaliy ko'nikma va malakalarga o'rgatishni ma'lum darajada nazariy amalga oshirishga imkon beruvchi zaminlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Talabalarni mehnat ko'nikmasi va muammoli o'qitish metodlari bilan qurollantirish.

Mehnatga amaliy tayyorlash texnologiya ta'limining muhim omillaridan biridir. U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy ashyo va moslamalardan foydalana bilish u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'rilay olish kabilardan tarkib topadi.

Mehnatga amaliy tayyorlash faqat kerakli bilimlar bazasidagina amalga oshishi mumkin. U boshlang'ich maktabda boshlang'ich politexnik bilimlarga asoslanadi. Texnologiya ta'limining mazmuniga muvofiq o'quvchilar mazkur yosh uchun qulay bo'lgan materiallarga ishlov berishida qo'llaniladigan oddiy ashyo va moslamalarni ishning amaliy malaka hamda ko'nikmalarini egallaydilar. Oddiy ashyo moslamalar maxsus ashyo va moslamalarning bosh asosi hisoblanadi.

Amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish asosiy ishlab chiqarish operatsiyalarni o'rgatish ham demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari duch

keladigan buyumlar texnologiyasi xilma-xildir, biroq bu masalani batafsil o'rganmasdan ish operatsiyalarning tipikligini sezib olish qiyin emas, ular materiallarni o'lchab olish va belgilash; ularni egib, qirqib, ishlov berish; qismlarini yelimlash, tikish, o'rash va bog'lash kabi yo'llar bilan birlashtirish va mustahkamlash; detallarni yig'ish va buyumni montaj qilishdir. Yakunlovchi bosqich buyumni bezashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatga amaliy tayyorlashga grafik malakalarini shakllantirishga ham taalluqlidir.

O'quvchilardagi mehnatga bo'lgan qiziqishni o'z vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashg'ulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

Bunda o'quvchilar e'tiboriga eng oddiy buyumlar, o'yinchoqlar, o'yin va o'quv qurollari tayyorlash, naqshlar chizib qirqib olish, applikatsiya ishlari havola qilinadi. Bundan tashqari, bolalarda mehnatga qiziqish uyg'otish, mehnat darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash uchun "Mohir qo'llar" to'garaklarida, kuni uzaytirilgan guruhlarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Texnologiya ta'limi jarayonining o'sishga ta'siri.

Texnologiya ta'limi vazifalari haqida gapirilganda, o'quvchilarda mehnatsevarlik mas'uliyat, intizomlik, burch hissi, jamoatchilik hissini tarbiyalashni tilga olmaslik mumkin emas. Shu bilan birgalikda mehnat odamlar tirikchiligining, moddiy va ma'naviy ta'minotining vositasi, jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir.

Bolalarni aqliy o'stirishda texnologiya ta'limining roli ko'p qirralidir. Mehnat o'quvchilarning bilim olishga intilishlarini uyg'otuvchi vositagina emas, balki uning manbayi hamdir. Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy o'stirishda jismoniy va aqliy mehnatni almashtirib turish muhim ahamiyatga ega. Biroq, har qanday mehnat ham aqliy o'sishga yordam bermasligini unutmasligimiz kerak.

Texnologiya ta'limiga ijodiy tashabbussiz yondashish mehnatni aqliy rivojlanish omiliga aylantirmaydi. Bilimlarni qo'llashni talab qilmaydigan, tafakkurni faollashtirmaydigan mehnat faoliyati aqliy qobiliyatlarni o'stirmaydi.

Mehnat eng muhim iroda va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Texnologiya ta'limida mehnatga psixologik tayyorlik, mehnat faoliyatining to'g'ri motivlari tarbiyalanadi, shaxsning har bir ongli mehnat kasb uchun zarur bo'lgan sifatlari shakllanadi.

Darslarning jihozlanganligi o'z mehnati uchun shaxsiy mas'uliyatni, mehnat madaniyatini tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Agarda bolalar yomon jihozlangan sinfda, qo'pol, og'ir va yoshlariga nomunosib ashyolar bilan shug'ullansalar, ish natijalari ko'ngildagidek bo'lmaydi. Bunday sharoitda tabiiyki, mehnatga muhabbatni, tartiblilikni, aniqlikni, ashyolarga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalash qiyin bo'ladi.

Mehnat madaniyatining tarkib topishi uchun darslarda doimo bolalarning e'tiborini ashyo va materiallarni saqlash qoidasi hamda joylashtirish tartibiga, ish joyini to'g'ri jihozlashga, materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish usullariga, ish harakatlarining me'yori va sifatiga, ish sur'atini ta'minlovchi tadbirlarga, ishlov berishda olingan aniqlik va tozalikka rioya qilish, narsani chiroyli qilib bezashni talab qilib borish kerak.

Agarda o'qituvchining talablari amaldagi faktlardan ajralib tursa, buning natijasi shartli bo'lib bo'lsa, bola har bir qadamida tartiblilikka, aniqlikka rioya qilishi lozimligiga ishonch hosil qilmasa, bolalarning mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashda muvaffaqiyatga erishishi haqida gapirish qiyin.

Mehnat malakalari madaniyati u yoki bu mehnat jarayonida belgilangan tartibga va harakatlar izchilligiga rioya qilish kerakligini muntazam tushuntirib borish bilan birga bo'ladigan ko'p bora mashq qilishlar natijasida tarkib topadi, o'quvchilarda ana shu faoliyat takomillashib boradi.

Kerakli material va ashyolar bilan yetarli ta'minlanmaganlik ham mehnat madaniyatining shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Ba'zan o'quvchilarning tayyorlanmaganliklari va uyushmaganliklari tufayli o'qituvchining ko'p vaqti

bekorga sarf bo‘ladi: biri qaychisini, biri qog‘ozini olib kelmasdan ish qilayotgan o‘rtog‘ini narsa so‘rab chalg‘itadi. Shuning uchun o‘qituvchi dars boshlashdan oldin faollar yordamida o‘quvchilar o‘rtasidagi do‘stona o‘zaro yordamga tayanib, o‘z vaqtida choralar ko‘rishi lozim. Biroq, har qanday holatda ham u o‘quvchining uyiga jo‘namasligi yoki jazo berish tartibida o‘quvchining ishsiz qoldirmasligi kerak, afsuski, bunday hollar amaliyotda uchrab turadi.

O‘quvchilar o‘rtasida yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro yordam ularda do‘stlik, birodarlik, jamoatchilik kabi fazilatlarni ta‘minlaydi.

Texnologiya ta‘limi o‘qituvchilarini tayyorlash o‘quv planida umumiy ta‘lim fanlari va maxsus fanlar siklini o‘qitish nazarda tutilgan. Maxsus fanlar siklini umumtexnik texnik va pedagogik fanlarga ajratish mumkin.

Umumtexnika fanlari (texnik mexanika asoslari, mashinashunoslik asoslari, elektrotexnika va elektronika asoslari) texnik fanlar bo‘yicha bilimlarni egallashga asos bo‘ladi. CHizmachilik va chizma geometriya, materialshunoslik ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish asoslari, ishlab chiqarishni tashkil etish va uning ekonomikasi asoslari, elektromontaj ishlari va elektr bilan ishlaydigan maishiy priborlar va hokazolar ham texnik fanlar jumlasiga kiradi.

Texnologiya ta‘limi o‘qituvchilarining psixologik-pedagogik jihatdan tayyorgarligi psixologiya, pedagogika, texnologiya ta‘limi va kasbga yo‘llash metodikasi, chizmachilik va rasm o‘qitish metodikasi, maktab gigiyenasi kabi fanlarni o‘rganishda amalga oshadi.

SHunday qilib, texnologiya ta‘limi o‘qituvchisini tayyorlashda “Texnologiya ta‘limi metodikasi” ixtisoslashtiruvchi fanlardan biridir. Bu fan boshqa fanlarni (pedagogika, psixologiya, slesarlik ishi va hokazolarni) takrorlamaydi, balki ular bilan yaqin bog‘lanishda bo‘ladi. SHu sababli oldindan inson psixik faoliyatining, o‘quv jarayonini tashkil qilishning umumiy qonuniyatlarini, shuningdek sanoat ishlab chiqarishi texnikasi, texnologiyasi tashkil qilinishi va ekonomikasi asoslarini egallamay turib “Texnologiya ta‘limi metodikasi” kursini o‘zlashtirib bo‘lmaydi.

Bo'lajak o'qituvchi "Texnologiya ta'limi metodikasi" kursini o'rganar ekan, umumiy ta'lim maktabidagi texnologiya ta'limining (mehnat tarbiyasi, politexnik ta'lim, kasbga yo'llash va hokazolarning) maqsad va vazifalarini, shu fan bo'yicha o'quv jarayonining tashkiliy prinsiplarini va uning mazmunini anglab olishi, maktab ustaxonalarida ta'lim-tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli olib borishda yordam beradigan metodik vositalar sistemasini egallashi kerak.

"Texnologiya ta'limi metodikasi" kursining alohida roli shuki, o'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida ularda mehnatga yaxshi munosabat tarkib topishi uchun obyektiv qulay sharoitlar vujudga keladi. Bo'lajak o'qituvchiga ana shu sharoitlardan qanday qilib to'la foydalanishni ko'rsatish kursning vazifalaridan biridir.

Texnologiya ta'limi metodikasi pedagogika fanining tarmog'i sifatida o'z obyektlari, vazifalari va tadqiqot metodlariga ega.

Texnologiya ta'limi jarayoni, shu jarayonning hamma jihatlari: o'quv materialining mazmuni, o'qitish metodlari, o'quvchilarning bilish faoliyati, o'qitish natijalari va boshqalar o'rganish obyekti hisoblanadi. Bu jarayonning hamma tomonini o'rganish o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda amalga oshirilishi kerak.

Pedagogika fanining tarmog'i sifatidagi texnologiya ta'limi metodikasi oldiga quyidagi asosiy tadqiqot vazifalari qo'yiladi:

1- Texnologiya ta'limi vazifalarini asoslash, ularning tarbiyaviy va ta'limiy ahamiyatini ochib berish.

Texnologiya ta'limi vazifalari fan va texnikaning rivojlanish tendensiyalariga, hozirgi zamon ishlab chiqarishining yoshlarni mehnatga tayyorlash borasidagi talablariga ham bog'liq ravishda belgilanadi.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quv materialining mazmuni bilan belgilanadigan o'ziga xos ta'limiy vazifalar, ya'ni metall qirqadigan va yog'ochga ishlov beradigan turli asboblardan foydalanish usullarini, ular bilan ishlashdagi xavfsizlik qoidalarini o'rgatish vazifalari ham hal qilinadi.

Texnologiya ta'limi jarayoni o'quvchilarda mehnatga muhabbat, jismoniy mehnat kishilariga hurmat va shaxsning boshqa axloqiy sifatлари shakllanishiga imkon berishi kerak.

## 2. O'quv materialini mazmunini asoslash.

Faoliyatning istalgan sohasida insoniyat tomonidan to'plangan bilimlar hajmi benihoya katta.

Shunday qilib, katta hajmdagi bilim va malakalardan umumiy ta'lim talablariga eng yuqori darajada javob beradigan va o'quvchilarda o'rganiladigan ishlab chiqarish jarayonlarining nazariy asoslari va amalda qo'llanishi haqida to'g'ri tasavvur hosil qila oladiganlarini ajratib olishga to'g'ri keladi.

Shuni ham nazarda tutish kerakki, o'quv programmasining mazmuni o'zgarishdan qolmaydi.

O'quv materiallarini sistemaga solish alohida muammodir. Gap shundaki, fan va o'quv jarayonidagi "sodda" va "murakkab" tushunchalari bir xil emas.

Shunday qilib, o'quv materialini sistemaga solishda fanning tuzilishi sistemasini to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olmaslik balki ta'lim-tarbiya vazifalarini nazarda tutish kerak. O'qitish metodikasi bu muhim talabni bajarishning eng samarador yo'li va vositalarini topishi kerak bu esa maktab fani mazmunini asoslash va o'quv programmasini tuzish uchun ham zarurdir.

## 3. Ta'lim jarayonini tashkil etish.

O'quv jarayonini tashkil etishning prinsip va usullarini ishlab chiqishda texnologiya ta'limi metodikasi boshqa o'quv fanlarini o'qitish tajribasidan, shuningdek didaktik tadqiqotlarning ma'lumotlaridan foydalanadi.

O'quvchilar mehnatining natijalarini baholashda boshqa fanlar uchun muhim bo'lmagan: mehnat harfsizligi qoidalariga rioya etish, ish o'rnini tashkil qilish, mehnat usullarini to'g'ri bajarish singari qator faktorlarni hisobga olishga to'g'ri keladi

Maktab praktikasida o'quvchilar ishini tashkil qilishning uchta asosiy: frontal, brigada va individual formalari o'zining ijobiylikini ko'rsatdi.

Ma'lumki, agar mehnat topshirig'i ijtimoiy foydali qimmatga ega bo'lmasa, o'quvchilarning uni bajarishga qiziqishlari ancha susayadi.

Keltirilgan misollar o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha texnologiya ta'limi metodikasi oldida mas'uliyatli vazifalar turganini ko'rsatmoqda.

4. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlar mazmuni va metodikasini asoslash.

Yuqorida ko'rsatilgan hamma vazifalarni hal qilishda texnologiya ta'limi metodikasi quyidagi asosiy ilmiy tadqiqot metodlariga asoslanadi.

1) **Kuzatish.** Kuzatish ilmiy bilish metodi sifatida shu bilan xarakterliki, kuzatish jarayonida tadqiqotchi o'quv jarayonining borishiga aralashmay, faqat nima sodir bo'layotganini qayd qilib boradi. Tadqiqotchi oldindan kuzatishning maqsadi, vazifasi va metodikasini belgilab oladi. SHundan keyingina bevosita kuzatishlarga kirishadi.

2) **Eksperiment.** Eksperiment kuzatishdan farqli ravishda tadqiqotchi vujudga keltiradigan jiddiy, aniq sharoitlarda o'tkaziladi.

Didaktik eksperimentning tipik formalari sifatida odatdagi sharoitda sinf (o'quv ustaxonasi) dagi dars va o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan gruppasi bilan o'tkaziladigan eksperimental mashg'ulotlar xizmat qiladi.

Ana shu formalardan har birining o'z afzalligi va kamchiliklari bo'ladi. Tajriba darslari butun sinf (gruppasi) bilan ishlashga doir qandaydir tavsiya tekshirilayotganda ayniqsa samarali o'tadi.

Obyektiv ma'lumotlar to'plash uchun eksperimentlar vaqtida har xil pribor va apparatlar keng qo'llanadi.

3) **Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va umumlashtirish.** Ilg'or pedagogik tajriba metodikaning pedagogika fani tarmog'i sifatida rivojlanishining muhim manbasi bo'lib xizmat qiladi. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, uni ilmiy analiz qilish o'quv jarayonini samarali tashkil etishga oid tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

4) **Nazariy tadqiqotlar.** Metodikani ishlab chiqishda kuzatish metodlari yoki eksperiment yo'li bilan tadqiq qilib bo'lmaydigan masalalarni hal qilishga ham to'g'ri keladi.

Masalan, o'quv materialining mazmunini asoslash praktikada to'plangan bilim va malakalarning tegishli kompleksini o'rganishdan boshlanadi. Bu holda tadqiqot analiz metodi bilan o'tkaziladi, ya'ni bilim va malakalarning butun kompleksi alohida elementlarga ajratiladi. SHundan keyin hamma elementlar ichidan o'quv programmasi mazmuniga kiradiganlari tanlab olinadi, ya'ni analizga teskari jarayon — sintez sodir bo'ladi. Analiz va sintez nazariy tadqiqot metodlaridir.

O'quv jarayonini tashkil etishda metodika pedagogika, yosh anatomiyasi va fiziologiyasi, gigiyena va pediatriya ma'lumotlariga tayanadi. Bu fanlarning ma'lumotlaridan foydalanib ish rejimi, mashqlarning xarakteri masalalari hal qilinadi, asboblarni hamda jihozlarga doir normativlar ishlab chiqiladi va hokazo.

2. Ta'lim va tarbiyani mehnat bilan qo'shib olib borish haqida ilg'or fikrlar.

Texnologiya ta'limining maqsadi o'quvchilarga faqat tegishli bilimlar, ko'nikma va malakalar berishdangina emas, balki ularda mehnatga, ijtimoiy va shaxsiy mulkka, kollektivga va uning alohida a'zolariga ijobiy munosabatni, umumiy foyda uchun ishlashga tayyorlikni tarbiyalashdan ham iboratdir.

Mehnatning tarbiyaviy rolining asosi uning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishidadir. O'quvchilarga mehnat jarayonida g'oyaviy-siyosiy yo'nalishda tarbiya berish kelajakda shaxsning ma'naviy sifatlarini shakllantirish jarayonining bir qismi hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov mehnat unumdorligini oshirishga katta ahamiyat bergan, —ilg'or texnikadan foydalanuvchi uyushgan ishchilar mehnatining yuqori unumdorligi ekanini uqtirgan edi.<sup>1</sup> Mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash mehnat tarbiyasining vazifasi va bosh yo'lidir. Ma'lumki, mehnatning jamiyat uchun foydali ekanini anglash, mehnat topshiriqlarini majburan emas, balki ixtiyoriy, qiziqish bilan mehnatning ilg'or metodlarini va yangi texnik vositalarni egallab olishga intilgan holda bajarish bilan xarakterlanadi. Maktab ustaxonalarida o'quvchilar bilan ishlash jarayoni ularda izchil va planli ravishda mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirish zarur. Mehnat topshiriqlarini

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T. Ma'naviyat 2008

bajarishda shaxsning javobgarlik vijdonlilik kabi xislatlarini mehnat intizomiga qat'iy amal qilgan holda kollektiv bo'lib mehnat qilish malakasini, ijtimoiy mulkka g'amxo'rlik munosabatini tarbiyalash ham o'quvchilarda mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirish bilan uzviy bog'liq

Texnologiya ta'limi jarayonida shaxsning yuqorida ko'rsatilgan xususiyatlarini o'quvchilarda qanday shakllantirishni ko'rib chiqamiz.

Topshirilgan ishga javobgarlik hissini tarbiyalash. O'rtoqlarcha hamkorlik va o'zaro yordamga asoslangan mehnat jarayonida jamiyat kishisi shakllanadi. SHuning uchun maktab ustaxonalaridagi mashg'ulotlar protsessi o'quvchilar kollektiv bo'lib ishlaydigan, yaqin va uzoq vazifalarning umumiyliigi bilan birlashadigan yo'sinda tashkil qilinadi. Mehnat topshiriqlarini bajarish jarayonida ular ba'zi ishlarni birgalikda, bir-birlariga yordam berib, fikrlar almashib, maslahatlashib bajarishlariga to'g'ri keladi. Bu imkoniyatlardan o'qituvchi o'quvchilarni tarbiyalashda keng foydalanishi kerak. Dam olish paytlarida ishning bajarilishini kontrol qilishda, yakunlar chiqarishda o'quvchilarning ijobiy harakatlari va qiliqlarini ta'kidlab o'tish kerak.

SHuni esda tutish kerakki, tarbiya natijalari mashg'ulotlarning mazmunigagina bog'liq bo'lmay, balki ularning tashkil qilinishi, o'quvchilar ishlarini kontrol qilishga ham bog'liqdir. Ko'nikmalarning shakllanish bosqichida o'quvchilarni qistash kerak emas, chunki noto'g'ri ish usullari mustahkamlanib qolishi mumkinki, keyin ularni to'g'rilash ancha mushkul.

Talabchanlikni o'quvchilarga ishonish va ularni hurmat qilish bilan birga qo'shib olib qorish—ongli intizomni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Bu prinsipni o'z vaqtida A. S. Makarenko<sup>2</sup> olg'a so'rgan. O'quvchilarni ongli intizom ruhida tarbiyalash uchun mehnat jarayonida o'quvchilarning o'zaro talabchanliklarini rivojlantirish kerak.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalar uzoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta Osiyodan o'tgan qadimiy buyuk ipak yo'li Xitoy, Vizantiya, Hindiston

---

<sup>2</sup> O'zbek Pedagogikasi antologiyasi. (tuzuvchilar K.Xoshimov, S.Ochil). T. O'qituvchi. 1996

shaharlari bilan bog‘lanib, madaniyat va sanoatni rivojlantirishga, ilmga bo‘lgan qiziqishga alohida e‘tibor berishni taqozo etadi.

Bu esa o‘z navbatida mehnat qilishga, munosabatni o‘zgartirib raqobatga arzigulik qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko‘p tarmoqli hunarmandchilik ishlarini takomillashtirib ma‘naviy madaniyatini yuksalishiga olib keladi.

Farobiyning insoniy fazilatlar to‘g‘risidagi ta‘limotidan qo‘yidagi ma‘lum xulosalarga kelish mumkin.

1. Inson o‘z mohiyati bilan ijtimoiydir, ya‘ni jamiyatda, o‘zaro munosabat, o‘zaro yordam jarayonida inson bo‘lib etishadi. Bu jamiyat insonlarning o‘zaro birikuvi yordamida insoning o‘z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo‘lgan intilishi natijasida vujudga keladi va jamiyatdan tashqarida insondan kollektividan ajralgan holda o‘zaro yordamsiz o‘z ehtiyojini qondira olmaydi.

2. Inson o‘zining barcha tug‘ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga erishishi uchun, mukammallikka erishish uchun sarf qiladi va bu yo‘lda o‘zini qurshagan tabiat hodisalaridan foydalanadi, ularni o‘ziga xos bo‘yin singdiradi, buning uchun ilm fanni, turli hunarlarni o‘rgatadi.

Farobiy shuning uchun ham ta‘lim tarbiya masalalariga juda katta e‘tibor berib, insoniy fazilatlarga erishish oliy maqsad bilan kamolotga erishish ta‘limda mehnat va aqliy tarbiyaga ega bo‘lish muhim o‘rin tutadi.

Al-Xorazmiy, Al-Roziylarning pedagogik qarashlarida ham jamiyatning rivojlanishida ta‘lim-tarbiya o‘rni yosh avlodlarni tarbiyalashda kasb-korlikning, hunarmandchilikning ijobiy ta‘siri insonlarning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishlari zarurligini targ‘ibot qilganlar.

IX-XII asr o‘rtalarida turli fan sohalarining keng ko‘lamda rivojlanishi, insoniyat tarixida buyuk ensiklopedik hisoblanadigan olimlar bilan bog‘liqdir.

Ibn Sinoning ta‘lim-tarbiyaga oid fikr mulohazalari uning bizgacha etib kelgan juda ko‘p asarlari orasida tarqoq xolda saqlanib qolgan.<sup>3</sup> Ibn Sinoning tavsiya qilgan asarida tarbiya va ta‘lim qo‘yidagilarni o‘z ichiga oladi.

---

<sup>3</sup> O‘zbek Pedagogikasi antologiyasi. (tuzuvchilar K.Xoshimov, S.Ochil). T. O‘qituvchi. 1996

1. Aqliy tarbiya.
2. Jismoniy tarbiya.
3. Estetik tarbiya.
4. Axloqiy tarbiya.
5. Mehnat tarbiyasi(hunar o'rganish).

Ibn Sino shuni alohida uqtirgan ediki: Oila a'zolarining hammasi biror mehnat bilan shug'ullanishi zarur, biror kishi sababsiz bekor yurmasin. Ibn Sinoning barcha jamiyat a'zolarining ishlab chiqarish mehnati bilan shug'ullanish kerakligini talab etadi. Hunarmand dehqonlarining mehnatini ulug'laydi va jamiyatga ham moddiy ham ma'naviy zarar etkazadigan kishilarni qattiq qoralaydi.

Ibn Sino fikricha bolaga, ma'lum bir kasb-hunar o'rgatish zarur. Bola kasb-hunarni ma'lum darajada o'rganib bo'lgandan keyin uni o'sha paytlardan boshlab o'z kasb-hunaridan foydalanishi va mustaqil hayot kechirishini o'rgatish lozim.

Beruniy mamlakatning obodonchiligi ilm fanning ravnaqiga bog'liq yoshlarning baxt saodati va kamoloti uning bilim va ma'rifatida deb biladi. Shuning uchun ham olim, yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi. Beruniy yoshlardan rahmdil, mehribon kishilarga iltifotli, xayrixoh bo'lishni, najotsiz odamga qo'l cho'zishni, makkorlik ayyorlik adolatsizlik jur'atsizlik boylikka xirs qo'yish kabi sifatlarga yo'l qo'ymaslikni talab etadi.

XVII-XV asrlar davomida Rumiy, Ulug'bek Ali-Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy kabi ulug'lar tabiiy-matematik fanlarni rivojlantirishda nihoyatda katta xizmat qilganlar.

XVI-XVIII asrlarga kelib O'rta Osiyo xalqlarining boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlari, fan va madaniyat sohalarida birmuncha yutuqlarga erishishiga sababchi bo'ldi. Bu o'zgarishlar jamiyatning ta'lim-tarbiya sohasida ham ma'lum o'zgarishlarga olib keldi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvar qori Abburashidxonov, Oqiljon SHarafiddinovlar yangi maktablar ochib, u erda ta'lim-tarbiyani texnologiya ta'limi bilan olib borganlar.

Politeknik prinsip texnologiya ta'limini o'quvchilarda hozirgi zamon ishlab chiqarishining umumiy ilmiy asoslariga doir bilimlar shakllanadigan va ular ishlab chiqarish texnik faoliyatining ko'p sohalarida qo'llanadigan umumlashgan malakalarni egallaydigan yo'sinda tashkil etishni talab qiladi. Boshqacha aytganda, o'quvchilarga ular ustaxonalardagi mashg'ulotlar jarayonida oladigan texnik bilim va malakalarning universalligini; bu bilim va malakalardan yangi ishlab chiqarish sharoitlarida foydalana olish (malakalarni ko'chirish) kerakligini ko'rsatish zarur.

O'quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim tarmoqlari bilan ikki yo'l orqali tanishtirish mumkin: a) ularning har birini izchil o'rganish; b) ishlab chiqarish jarayonlarini ularning asosi bo'lgan tabiiy-ilmiy qonuniyatlarga bog'liq holda klassifikatsiyalash va mazkur qonuniyatlarni xalq xo'jaligining bir-ikkita tarmog'i misolida o'rganish orqali.

Birinchi yo'lni maktabda qo'llab bo'lmaydi, chunki u juda ko'p o'quv vaqtini sarflashni talab qiladi. Ikkinchi yo'l esa maktabda xalq xo'jaligining eng muhim tarmoqlarini o'rganish uchun real imkoniyat yaratadi va didaktik jihatdan ancha qimmatlidir, chunki u xalq xo'jaligining o'quvchilar maktabda o'rgangan tarmoqlari bilan o'rganmagan tarmoqlari orasida uzviy bog'lanishni ta'minlaydi. Gap shundaki, turli ishlab chiqarish jarayonlari sirtidan qaraganda xar xilligidan qat'iy nazar, anchagina o'xshashlik va umumiylikka ega, chunki ular ko'pincha tabiatning bir xil qonun va hodisalaridan foydalanishga asoslangan.

Tabiat qonunlaridan har xil texnik qurilma va texnologik jarayonlarda ularning ilmiy asosi sifatida foydalanilishidan kelib chiqib, ba'zi pedagoglar politeknik ta'lim vazifalarini fan asoslariga oid fanlar doirasida to'la bajarish mumkin, deb noto'g'ri xulosaga keldilar. Fan asoslarining politeknik ta'lim ishidagi katta ahamiyatini inkor etmagan holda buning o'zi kifoya qilmasligini ko'rmaslik mumkin emas. Fan asoslariga doir fanlarni texnikadan olingan misollar bilan boyitish muammoni hal qilmaydi, chunki bunda doimo u yoki bu ishlab chiqarish hodisasining o'quv fanining mazkur temasiga bog'liq bir tomoni ko'rib chiqiladi. SHu sababli o'quvchilarda ishlab chiqarish hodisasi haqida umuman tasavvur hosil bo'lmaydi. Masalan, o'quvchilarda detal haqida fan asoslarining u

yoki bu qonunidan foydalanishning konkret misoli sifatida emas, balki mashinaning tipavoy qismi sifatida to'la tasavvur hosil qilish uchun uning vazifasi va mashinadagi o'rni haqida, zgotovkasi uchun materiallar tanlash, uni proyektlash va tayyorlash haqida gapirib berishi kerak. Ko'rinib turibdiki, bunda fan asoslari bo'yicha maktab fanlarida ko'riladigan masalalar haqidagina emas, balki ularga kirmaydigan (masalan, detalni tayyorlash) masalalari haqida ham gapirish kerak. Shunday qilib, ishlab chiqarish hodisasi haqida tabiatdagi u yoki bu qonunning illyustratsiyasi sifatida gapiradigan bo'lsak bunda faqat uning bittagina sifatini yoritish mumkin. Agar ishlab chiqarish hodisasi har tomonlama xarakterlansa, fan asoslari bo'yicha fanlarni o'rganish mantig'ini buzadi, bu fanlar mazmuniga ularga bevosita aloqasi yo'q materialni kiritishga majbur qiladi.

Bundan tashqari, mehnat usullarini egallash (bu politexnik ta'lim vazifalaridan biridir) didaktikaning asosiy prinsipiga bo'ysundirilgan va o'z mantig'iga ega bo'lgan ma'lum bir sistema bo'yicha amalga oshishi kerak. Agar mehnat usullarini egallashni fan asoslari bo'yicha ayrim fanlar vazifasiga kiritilsa, ular ana shu fanlarning tuzilishi mantig'iga bo'ysunadi.

Nihoyat, mehnat obyektlarini tanlashda fizika, matematika va boshqa fanlarning o'qituvchilari eng avval shu obyektlar o'tilayotgan tema bilan bog'liq bo'lishiga harakat qilishadi, mehnat jarayonining mazmuni esa ikkinchi planga o'tib qoladi. Natijada amaliy mashg'ulotlar uchun obyektlar tanlash juda cheklangan va texnologiya ta'limi sistemasi talablariga javob bera olmaydigan bo'lib qoladi.

Shunday qilib, o'quvchilarni hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining muhim tarmoqlari bilan tanishtirish fan asoslari bo'yicha fanlar doirasi bilan chegaralanmasligi kerak. Xuddi shuning uchun ham maktab o'quv planida texnologiya ta'limi bo'yicha maxsus fan bor.

Ta'lim jarayonining politexnik yo'nalishini ta'minlash uchun ayrim konkret ishlab chiqarish jarayonlari misolida hozirgi zamon sanoati yoki qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining umumiy asoslari o'rganiladigan didaktik vaziyatni vujudga keltirish talab qilinadi.

Texnologiya ta'limi bosqichlari orasidagi izchillik politexnik prinsip uchun katta ahamiyatga ega. Masalan, ustaxonalardagi mashg'ulotlarda o'smirlar quyi sinflarda o'zlashtirgan qator politexnik malakalarni qo'llashi va takomillashtirishi juda muhimdir. Chunonchi, qog'ozni rejalashda chizg'ich, go'niya va qalamdan foydalanish malakasini yog'och va metallni rejalashda qo'llash kerak. Bu jihatdan o'quvchilarning andaza rejalash malakalari juda foydali bo'ladi. O'quvchilar qog'ozni, gazlamani va listlik metallni qaychi bilan qirqish orasida ko'pgina umumiylik topadilar. Modellashtirish jarayonida o'quvchilar yana shu ish bo'yicha quyi sinflarda olgan bilimlarini qo'llashi va hokazolar uchun cheklanmagan imkoniyatlar vujudga keladi.

I—IV sinflarda ustaxona mashg'ulotlari bilan mehnat darslarining bog'lanishi o'z xarakteriga ko'ra bir tomonlamadir, ya'ni V—VII sinflardagi o'qitish metodikasi I—IV sinflardagi texnologiya ta'limi mazmunini hisobga olgan holda tuzilishi kerak. Ustaxonalardagi mashg'ulotlar bilan fan asoslari bo'yicha fanlar orasidagi bog'lanish bundan farqli ravishda ikki tomonlamadir: bunday bog'lanish natijasida fan asoslari bo'yicha fanlar konkret mazmun bilan boyiydi, mehnat esa fan asoslarining qonunlari pozitsiyasidan tushuniladi. SHunday qilib, didaktik bog'lanishlarni ta'minlash fan asoslari bo'yicha fanlarni o'qitishning ham, ustaxonalarda mashg'ulotlar o'tkazish politexnik saviyasini oshirish uchun ham muhimdir.

Didaktik bog'lanishning bir maromda amalga oshirilishi fan asoslari bo'yicha bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun ham, texnologiya ta'limini amalga oshirish uchun ham zarurdir. Ammo bu ikkala holda ham didaktik bog'lanishning yo'nalishi mutlaqo bir xil degan so'z emas.

Masalan, fizika, ximiya va matematika darslarida ishlab chiqarish jarayonlari va hodisalaridan tabiatning u yoki bu qonuni amaliy qo'llanilishini ko'rsatish uchun foydalanildi. Bunda ishlab chiqarish jarayonining, hodisaning darsda o'rganilgan qonunning amaliy qimmatini tasdiqlaydigan sifati qarab chiqiladi.

O'quvchilar, ma'lum fanlarni tayyorlashda o'rgangan mehnat malakalari shunga o'xshash ko'pgina fanlarni tayyorlashlari uchun asos bo'lishini tushunishlari kerak. Shu maqsadda har bir yangi operatsiyani (ish turini) o'rganishga kirishilar ekan, o'qituvchi bu operatsiyani bajarish usuli bilan bir nechtagina konkret misollar orqali tanishishlarini, amalda esa o'rganilayotgan ana shu operatsiya juda ko'p qo'llanilishini ta'kidlash lozim. O'quvchilarga mazkur operatsiyani qo'llab tayyorlanadigan detallar (buyumlar)dan o'zlari misollar keltirishlarini tavsiya etish mumkin. yog'och va metallga qo'lda ishlov berish tugallanadigan VII sinfda bu tema bo'yicha maxsus suhbat o'tkazish, o'quvchilarga tayyorlashda ma'lum operatsiyani (kesish, arralash, qirqish va hokazolarini) qo'llashlariga to'g'ri kelgan hamma fanlarni aytib chiqishni taklif qilish kerak.

Politeknik ta'lim nuqtai nazaridan har xil kasblarga doir mehnat usullari (operatsiyalari)ning izchilligini ko'rsatish ham muhimdir. Hozirgi zamon sanoat ishlab chiqarishining xarakterli xususiyatlaridan biri mehnat qurollarining tez almashinuvi, yangi mashinalarning va shunga ko'ra yangi kasblarning vujudga kelishibdir.

SHunday qilib, ustaxonalardagi mashg'ulotlarda har bir texnik obyektga, ishlab chiqarish jarayoniga o'z holicha emas, balki boshqa o'xshash obyektlar, o'xshash jarayonlarga bog'liqlikda hozirgi zamon ishlab chiqarishi asosini biror jihatdan xarakterlovchi zanjirning bir halqasi sifatida qaralishi kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. Mehnatga axloqiy tayyorlash deganda nimani tushunasiz?
2. O'quvchilarda ish unumi qanday oshiriladi?
3. O'quvchilarda mehnat ko'nikmasi qanday hosil qilinadi?
4. Mehnatga bolalarni muammoli tayyorlash nima?
5. Muammoli masalalarni hal qilishga qanday o'rgatiladi?
6. Texnologiya ta'limini o'qitishdan maqsad nima?
7. Texnologiya ta'limida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarga nimalar kiradi?

8. Mehnat tarbiyasining vazifalariga nimalar kiradi?
9. Texnologiya ta'limiga o'quvchilarni nazariy tayyorlashda nimalarga ahamiyat beriladi?
10. Sinfdan tashqari ishlar orqali tarbiyalashdan maqsad nima?
11. Texnologiya ta'limi va tarbiyasini takomillashtirishdagi muammolarga nimalar kiradi?

## **2-MAVZU. Texnologiya va uni o'qitish metodikasi fanining nazariy va amaliy asoslari**

### **Reja:**

1. Texnologiya fanini o'qitishning ahamiyati va vazifalari.
2. Texnologiya fanini o'qitish usullari.
3. Qo'l mehnatini o'qitish usullari.
4. O'qituvchilarning metodlardan foydalanishi.
5. Muammoli o'qitishning tarbiyaviy ahamiyati.

Ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning fan-texnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishni, ijodiy qobiliyatni, egallangan bilimlarni amalda ijodiy qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarda takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar har qanday faoliyatga ijodiy yondashishi asoslarini tarkib toptirish, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Texnik mehnatga o'rgatishning ahamiyati texnik mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e'tirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy kengashlar, agarda unda qatnashgan kishilar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyimni yamash, ozodalikni

saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida shunchalik muvaffaqiyatli chiqmagan bo'lar edi.

Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli metod va usullarini qo'llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarni singdirmoqdalar. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko'nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijobiy qobiliyatlarni hamda bilishga qiziqishni, mustaqil faollikni o'stirishga yordam bermoqda.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek muammoning xilma-xil usullari qo'llanib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallab olishlariga, uning bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi.

O'qitish usullari doim ham zamonaviy maktablarda qo'llangandek bo'lavermaydi. Maktab rivojlanib borgan sari o'qitish usullari ham o'zgarib boradi. O'tmish maktablarida o'qish jarayonida bo'ysundirish turi hukmronlik qilgan. Bolalar dars mazmunini anglamay ko'r-ko'rona yod olishga o'rganganlar.

Ijtimoiy taraqqiyot, ishlab chiqarishning rivojlanishi ta'sirida o'quv jarayonining anchagina mukammallashgan turi – tushuntirish vujudga kelib, u uzoq muddat eski maktab bilan birga mavjud bo'lgan. Bu turdagi o'qitishning kerakli xususiyati bayon etilayotgan matnni avval tushunishni, so'ngra yod olishni nazarda tutar edi. Bayonni yaxshiroq tushunish uchun ko'rgazmalilikka ko'proq e'tibor berila boshladi. Bu olg'a qo'yilgan qadam edi. Endi o'quvchi xotirasiga analitik-sintetika tafakkur faoliyati ham qo'shildi. O'quvchilar bayon etilayotganini aynan buyumni emas, balki o'z so'zlari bilan buyumni bajarilishini yod etishlari talab etiladi. Biroq asosiy o'rinni hali ham namuna, tayyor ko'rgazma bo'yicha ishlash egallaydi. Hozirgi zamon maktabi darsning turli muammolarga boy va zamonaviylikini oshirdi, takomillashtirildi va unga sayqal berdi. O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu, kichik mavzu, mazkur dars uchun

uning maqsad va vazifalariga muvofiq qiladigan ishni usul va ko'rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo'l mehnatini o'rganish ham zamonaviy pedagogikaning ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiy talablarga muvofiq tarzda amalga oshirishi kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi xatti-harakati, darsda o'quvchilarning diqqat va e'tibori susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning charchamasligi va zerikmasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shu narsaga o'rgatishi kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq, shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim birinchi qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. O'z faoliyatini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashi kerak. Ular darsda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulot kabi usullardan foydalanib, o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganlarni mustahkamlash kabi dars etaplarini boshdan o'rganishlari lozim. Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirilgandan keyingina sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin.

O'qitish usullari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, buyumning istalgan o'lchami bo'yicha chizib egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Qo'l mehnati o'rgatishda qo'llanadigan asosiy usullar tizimi quyidagilardir:

1. Og'zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Instruktaj.
4. Suhbat.

5. Mashqlar.
6. Amaliy ishlar.
7. Grafik ishlar.
8. Laboratoriya ishlari.
9. Mustaqil ishlar.
10. Ekskursiya.
11. Kitob bilan ishlash.
12. Kino (ta'limning texnik vositalari).
13. Muammoli ta'lim.

**Og'zaki bayon qilish usuli ikki shaklda mavjud bo'lishi mumkin:**

1. Monologik bayon qilish. Bunda faqat o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo'l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko'rinishida bo'ladi.

2. Mavzuni muammoli bayon qilish. Bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro yaqinlashuvini keltirib chiqaradi.

Hikoya qilish dastur matnini jonli va o'quvchilar tushuntirilayotgan narsalarni qanchalik o'zlashtirayotganliklarni aniqlash maqsadida ularga savollar berish bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya aslida bajarilgan ishlar, namunalar, rasmlarni ko'rsatib qilinsa ancha tushunarli bo'ladi. Bu o'rinda tushuntirayotganingda ko'rsat va tushuntir, degan qoida bajariladi. Yangi mavzuni bayon qilishda, o'quvchilar bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda bo'sh o'zlashtiruvchilarga alohida e'tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntirilayotgan mavzu yuzasidan ularga 1–2ta savol berish mumkin.

**O'qituvchi hikoyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak:**

- mazmunga ko'ra;
- bayon etilishiga ko'ra;
- material qiziqarli va o'quvchilarning fikrini faollashtiradigan;
- hikoya o'qituvchi o'quvchilar tushunchalariga asoslanishi lozim;

- hikoya jarayonini o'quvchilar yaxshiroq tushunib olishlari uchun ko'rgazmali qurollar – tikuvchilik, rasmlar va boshqa vositalardan foydalanishi muhim ahamiyatga egadir.

Qog'oz va karton faqat polegraf sanoatidagina emas, balki xalq xo'jaligining hamma tarmoqlarida ham keng qo'llaniladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish sanoatida qog'oz va kartonning 200 ga yaqin turi ishlab chiqarilmoqda.

Turli xil qog'ozlardan kitoblar, oynomalar, ro'znomalar chiqarish uchun foydalanilishini barcha o'quvchilar yaxshi biladilar. SHuning uchun ham texnologiya ta'limi darslarida o'qituvchi o'quvchilarning diqqat e'tiborini ular foydalaniladigan qog'ozning turmushda tez-tez uchraydigan va qo'l mehnati darslarida ishlatiladigan turlariga jalb qilib borish lozim.

Bu qog'ozlarning turlari quyidagilardan iborat:

Ro'znomalar qog'ozi – eng ko'p tarqalgan qog'oz turlariga kiradi.

Sifatiga ko'ra unchalik pishiq emas, namlikni, yelimni tez o'ziga singdiradi.

Yozuv qog'ozi – sathi silliq, yelim singdirilgan, namlikni kamroq singdiradi. Narsalarni ixtiro qilishda, muqovalashda, kartondan yasalgan narsalarni yelimlashda juda qulaydir.

Chizmachilik qog'ozi – eng pishiq va qalin qog'ozdir. Lattadan tayyorlashadi, uning oliy navi qo'lda qo'yiladi. Undan bayramlar uchun qiziqarli niqoblar tayyorlashda foydalaniladi.

Rasm qog'ozi – 2-nomerli bo'lib, sellyulozadan tayyorlanadi. Oliy naviga 25 foiz latta qo'shiladi. CHizmalar chizishda shuningdek qo'l mehnati darslarida foydalaniladi. Rangli va jiloli qog'oz mehnat darslarida keng qo'llaniladi. Turli xil rangda muqovalash ishlarida foydalaniladi va turli xil rangda qog'ozlar to'plami chiqariladi.

Yelimlangan qog'oz – jilo berilgan qog'oz bo'lib, bir tomoniga yelim surtilgan. Mehnat darslarida ishlatish juda qulay materialdir. Rangli jild qog'ozi turli ranglarda bo'lgan, jilo berilgan rangli qog'ozning o'rnini bosa oladi. Qo'l mehnati darslarida ko'p ishlatiladi. "SHagren' naqshdor" qog'ozi –

muqovasozlikda va tayyor narsalarning ustidan yopishtirishda, archa o'yinchoqlarini yasashda foydalaniladi.

Gul qog'oz – rangli va guli turlicha bo'lib muqovalashda, narsalarning ustidan yelimlash, bezash ishlarida keng foydalaniladi.

Millimetrli qog'oz – sathi bosma tur shaklida tayyorlanadi.

Filtr qog'oz – yelimlanmagan qog'oz.

Karton qog'ozi – deb 1 kv. metr 250 grammdan ortiq bo'lgan qog'ozga aytiladi. Kartonlarning turlariga ta'rif beradigan bo'lsak. Oq karton –uni qirqish oson. O'zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton yelimni ko'p shimadi, (ko'pincha yelimdan shishadi ham). Undan mayda narsalarni muqovalashda foydalaniladi.

Sariq karton –oq kartonga ko'ra pishiqroq, egiluvchan, yaxshi qirqiladi. Yelimdan shishmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi. Kul rangli karton –oq va sariq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin. Kartonning bu navidan o'ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.

Rangli karton – bu yupqa egiluvchan sathiga turli rangda jilo berilgan. Ishlov berish oson va ko'rinishi chiroyli. Undan hajmi kichik narsalar, papkalar, muqovalar tayyorlash ma'qul. Uning ustidan boshqa narsa yopishtirishga hojat bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinflarda qo'l mehnatga o'rgatish qog'oz va karton turlaridan tashqari quyidagi ish turlariga bo'linadi.

- Turli materiallar bilan ishlash;
- gazlama bilan ishlash
- Loyihalash va modellashtirish ishlari.
- qishloq xo'jalik ishlari.

a) Applikatsiya va mozaika ishlari.

B) loy va plastilin bilan ishlash

V) tabiat materiallari bilan ishlash.

Bu ish turlarini barchasi boshlang'ich sinflarda qo'l mehnati jarayonida o'quvchilardagi kasb tanlash ishlariga qaratilgan.

Savol va topshiriqlar:

1. Mehnat darsida qanday metodlardan foydalanish lozim?
2. Qo‘l mehnatida qaysi usuldan foydalaniladi?
3. Mehnat tarbiyasi deganda nimani tushunasiz?
4. Mehnat darsida qanday muammoli o‘qitish metodlari bor?

### **3- MAVZU. Boshlang‘ich sinflarda texnologiya ta‘limining mazmuni**

#### **Reja**

1. Texnologiya ta‘limining mazmuni va uning tashkil etilishi.
2. Mehnat malaka va ko‘nikmalari bilan qurollantirish
3. Texnologiya darslarida kompetentsion yondashuv.
4. Texnologiya fanidan o‘quv dasturini o‘rganish.

**Texnologiya ta‘limining mazmuni va uning tashkil etilishi.** Texnologiya ta‘limi dasturida o‘quvchilar mehnat darslarida egallashi lozim bo‘lgan ilmiy-texnik bilimlarining, mehnat malaka va ko‘nikmalari hajmi hamda mazmuni belgilab boriladi.

Dasturda jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlarga texnologiya ta‘limini berish, ularni tarbiyalash sohasida qo‘yilgan maqsad va vazifalar o‘z ifodasini topgan. Texnologiya ta‘limi dasturi o‘quv reja- si asosida ishlab chiqiladi. Texnologiya ta‘limi o‘qituvchisi o‘zining kundalik faoliyatida bu dasturga amal qiladi va uning bajarilishi majburiy hisoblanadi. SHu bilan bir qatorda o‘qituvchi o‘quv dasturiga mahalliy sharoitni hisobga olib ma‘lum o‘zgarishlar kiritishi mumkin. Bu borada birqancha talablar hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni pedagogikaning didaktik prinsiplarga to‘la-to‘kis javob berishi, ilmiy va mafkuraviy jihatdan puxta bo‘lishi, murakkabligi ortib borishi hisobga olingan holda va texnologiya ta‘limining tanlangan didaktik tizimiga

muvofiq ravishda, muayyan izchilikda bayon qilinishi, turmush tajribasi bilan bogʻlangan boʻlishi kerak.

**Mehnat malaka va koʻnikmalari bilan qurollantirish.** Oʻquvchilarni tarbiyalash va ularni ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlashda mehnat malakalari va koʻnikmalari katta oʻringa ega. Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga texnologiya taʼlimini berish vazifalaridan biri ularda bir qator mehnat malaka va koʻnikmalarini shakllantirishdir.

Texnologiya taʼlimi dasturi talablarini bajarishda, mavzuga oid bilim berishda, malaka va koʻnikmalarni shakllantirishda oʻquvchilarga maʼlum hajmdagi politexnik bilimlar beriladi. Boshlangʻich politexnik bilim bilan qurollantirish oʻquvchilarga predmetni yasash, ishlov berilayotgan materialning xususiyatlari, texnologik oʻziga xosliklari, materialga qoʻlda ishlov berilganda qoʻllaniladigan ashyo-moslamalarning xususiyatlari, ulardan foydalanish qoidalari haqida maʼlumot berib boriladi.

Oʻquvchilarga berilayotgan politexnik bilim, amaliy koʻnikma va malakalarga oʻrgatish maʼlum nazariy darajada amalga oshirishga imkon beruvchi zamindir.

Amaliy malaka va koʻnikmalar bilan qurollantirish amaliy mashgʻulot turlarini oʻrgatish ham demakdir. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari bajarishi kerak boʻladigan amaliy ish turlari xilma-xildir, biroq mehnat malaka va koʻnikmalarini egallamasdanoq amaliy ish jarayonidagi materiallarni oʻlchab olish va belgilash, ularni qirqib, ishlov berish, qismlarni yelimlash, tikish, oʻrash va bogʻlash kabi yoʻllar bilan birlashtirish va mustahkamlash, detallarni yigʻish va buyumni montaj qilish va buyumni bezash ishlarini bajarish bir qator qiyinchiliklar tugʻdiradi.

Oʻquvchilardagi mehnatga boʻlgan qiziqishni oʻz vaqtida aniqlash va ularga mehnat malakalarini sevgan mashgʻulotlarida takomillashtirishlariga yordam berish juda muhimdir.

Bunda oʻquvchilarning eʼtiboriga eng oddiy buyum oʻyinchoqlarni, oʻyinlarni, oʻquv qurollarini tayyorlash, naqshlar chizib va qirqib olish, applikasiya ishlari havola etiladi. Bundan tashqari oʻquvchilarda mehnatga

qiziqishni uyg‘otish, mehnat darslarida hosil qilingan bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash uchun “Mohir qo‘llar” to‘garaklarida, sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Ko‘nikma — bu kishining bilim va tajriba asosida egallangan, ma’lum harakatni ongli bajarishga bo‘lgan qobiliyatidir. Masalan: kartonni kesa bilish ko‘nikmasi, qaychini to‘g‘ri ishlata olish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo‘nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash.

Malaka — bu faoliyatdagi mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir. Bu tez va aniq bajarish, mashq qilish tufayli tarkib topgan ko‘nikma yoki bu ma’lum miqdordagi mashq va usullar bajarilganda ko‘nikmadan sakrab o‘tish degan ma’noni anglatadi. SHunung uchun mazkur ko‘nikma agarda malakani yuzaga keltirishni nazarda tutgan mashq va usullar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa u to‘g‘ri malakaga aylanishi mumkin. Biroq malakaning takomillashuv darajasi o‘qitishning turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o‘zgaruvchandir. Mashqlar jarayonida o‘quvchilar bajarilayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta-sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo‘ladi.

Mehnat malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish quyidagicha asosiy bosqichlardan tarkib topadi:

- a) boshlang‘ich tushuncha berish;
- b) mehnat harakatlarini sinov uchun bajarish;
- c) ish harakatlari natijasi;
- d) yakuniy xulosa chiqarish.

Mehnat malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirishga mo‘ljallangan amaliy ishlar faqat vaqtga ko‘ra taqsimlanganda hamda ma’lum tizim asosida o‘tkazilgandagina ijobiy natija beradi.

Amaliy ishlar tizimi quyidagi asosiy talablarni o‘z ichiga oladi:

1. Amaliy ishlarni bajariladigan topshiriqning murakkabligi oshib borishini nazarda tutgan holda joylashtirish lozim.

2. Bajarilayotgan amaliy ish mazmuni to‘liq tarzda oldingi amaliy ishga asoslanishi lozim.

3. Amaliy ish jarayonida mustaqil ishlash darajasi ortib borishi kerak.

Mehnat malakasining muvaffaqiyatli bo‘lishi bir qator ishlarga bog‘liq. O‘quvchi o‘z faoliyatini mustaqil rejalashtirmas ekan, uning malakasi hech qachon to‘liq bo‘lmaydi. Nazoratning yo‘qligi ko‘pincha xato va nuqsonlarning amaliy ishlar jarayonida ortib borishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida yetilmagan harakat va usullarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi texnologiya ta‘limi bo‘yicha ishlami amalga oshirayotganda o‘quvchilar u yoki bu ishni bajarish natijasida qanday ko‘nikma, bilim va malakalarni egallashlarini aniq bilishi kerak. Ana shunday holda o‘qituvchi sinf uchun shu vaqtda zarur bo‘lgan materiallarni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda muhimi o‘quvchilar mazkur materiallarni tayyorlash jarayonida dastur nazarda tutgan bilim va malakalami egallab olishlaridan iborat. Boshlang‘ich sinf texnologiya ta‘limi darslaridagi ta‘lim-tarbiyaviy vazifalar umumta‘lim maktablaridagi texnologiya ta‘limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg‘ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

1. Qog‘oz va karton bilan ishlash.
2. Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash.
3. Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash:
  - a) plastilin va loy ishi;
  - b) urug‘lar bilan ishlash;
  - c) applikatsiya va mozaika ishlari;
4. Loyihalash va modellashtirish:
  - a) badiiy qurish-yasash.
5. Qishloq xo‘jalik mehnati.

## **1-sinf**

### **Qog‘oz va karton bilan ishlash (13 soat)**

Qog‘oz va uning turlari, qog‘ozdan buklash usulida turli o‘yinchoqlar, qog‘ozdan savatcha, kitob uchun xat cho‘p, “Qish” manzarasini applikasiya usulida ishlash, archaga osiladigan turli o‘yinchoqlarni yasash. Turli bayramlar uchun niqoblar, maydalangan rangli qog‘ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini yasash. Karton sirtida uycha shaklini gugurt cho‘plaridan yasash. Rangli qog‘ozlardan qirqilgan geometrik shakllar bilan ishlash. Navro‘z bayramiga tabriknoma tayyorlash. Sabzavot va mevalarning urug‘idan applikasiya usulida yoysimon naqsh tuzish.

### **Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash (5 soat)**

Tikuvchilikda ishlatiladigan ashyolar. Gazlama bilan ishlash, to‘g‘ri chok tikishni o‘rganish. To‘g‘ri chok turlaridan foydalanib, quyosh tasvirini tikish. Gazlama bilan ishlash. 2 teshikli tugmachani tikish.

### **Plastilin va loy ishi (3 soat)**

Loy yoki plastilindan ishlash qoidalari haqida tushuncha. Plastilindan turli haykalchalar, jo‘ja shaklini yasash. Pazandachilikda ishlatiladigan xomashyolar, ashyo-uskunalar haqida suhbat (Plastilindan tort, pishiriqlar shaklini yasash).

### **Turli materiallar bilan ishlash (4 soat)**

“Oltin kuz” mavzusida gerbariy tayyorlash. Bahorgi dala ishlari. Maktab yer uchastkasidagi gullarni parvarishlash.

### **Badiiy qurish-yasash (8 soat)**

Tabiiy va turli materiallardan o‘yinchoqlar, parranda yoki hayvonlar shakllarini qurish-yasash. Xokandoz, rangli qog‘ozdan qirqilgan geometrik shakllarni bir-biriga yelimlash, qog‘ozni buklash va yelimlash orqali o‘yinchoqlarni, turli maketlar va uchuvchi planer qurish-yasash.

## **2-sinf**

### **Qog‘oz va karton bilan ishlash (13 soat)**

Qog‘ozlarni buklash usullari, rangli qog‘ozlardan turli gullar shaklini yasash. Qog‘ozni qirqish va buklash orqali dekorativ gullar, kitobcha uchun muqova tayyorlash. Rangli qog‘ozlardan archa bezaklarini yasash. Rangli qog‘ozlardan o‘yinchoq pirqirak, ikkiga buklangan qog‘ozlardan qirqib, applikatsiya usulida naqsh yasash. Qog‘oz va karton yordamida “Bahorgi guldasta” applikatsiya usulida tayyorlash. Uchiriladigan qog‘oz qush yasash. Qog‘ozdan applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash. Qog‘ozdan turli o‘yinchoqlar yasash.

### **Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash (3 soat)**

Oddiy chok turlaridan foydalanib igna uchun yostiqcha, gul urug‘lar uchun xaltacha tikish.

### **Texnik modellash (2 soat)**

Geometrik shakllardan robot yasash-qurish. Harakatlanadigan o‘yinchoqlar yasash.

### **Plastilin va loy ishi (5 soat)**

Turli shakllarga ega bo‘lgan o‘yinchoqlar, xalq hunarmand ustalari ishlagan ish namunalariga qarab plastilin yoki loydan o‘yinchoqlar, uy jihozlari namunalarini yasash. Svetofor maketini qurish-yasash. Gullayotgan daraxt Shoxchasini qurish-yasash.

### **Turli materiallar bilan ishlash (9 soat)**

Tabiiy urug‘lardan applikatsiya usulida naqsh tuzish. Tuxum po‘choqlaridan hajmdor o‘yinchoqlar yasash. Mozaika usulida qo‘qongul, turli sabzavot va mevalarning urug‘laridan yo‘lsimon va kvadrat ichida naqshlar tuzish, tabiiy materiallar bilan ishlash, quritilgan barglardan hayvonlar shaklini, tabiiy materiallardan jonivorlar, chiqindi materiallardan o‘yinchoqlar yasash. Maktab yer uchastkasida bahorgi dala ishlarini bajarish.

### **Badiiy qurish-yasash (2 soat)**

Rangli qog'ozlardan archa bezaklarini, Navro'z bayramiga sinfni bezash uchun turli materiallardan osma o'yinchoqlar qurish-yasash.

### **3-sinf**

#### **Qog'oz va karton bilan ishlash (13 soat)**

Qog'ozdan turli parrandalar, turli geometrik shakllar, rangli qog'ozlardan gullar yasash. Papye-mashe usulida o'yinchoqlar, idishlar, hajmdor gul tayyorlash va bezash. Qog'ozdan gullar, o'yinchoqlar, archa bezaklarini yasash. Rasm uchun ramka tayyorlash. Applikatsiya usulida bayramlarga tabriknomalar yasash.

#### **Gazlama bilan ishlash (7 soat)**

Chok turlaridan foydalanib, kartondan guldon, chovgum ushlagich, yumshoq o'yinchoq tikish. To'qish turlari haqida ma'lumot, to'qishning oddiy usullari, turli geometrik shakllarni to'qish.

#### **Texnik modellash (2 soat)**

Turli harakatli o'yinchoqlar yasash.

#### **Plastilin va loy ishi (3 soat)**

Plastilin yoki loydan turli idishlar, hayvonlar, o'yinchoqlar yasash.

#### **Turli materiallar bilan ishlash (2 soat)**

Tabiiy materiallardan turli o'yinchoq yasash. CHiqindi materiallardan turli o'yinchoqlar yasash.

### **Badiiy qurish-yasash (7 soat)**

Tabiiy xomashyolardan applikatsiya usulida, urug'lardan mozaika qurish-yasash. "Qush bolasi bilan" kompozitsiyasini qurish-yasash. "Yil fasllari" manzarasini qurish-yasash.

### **4-sinf**

#### **Qog'oz va karton bilan ishlash (10 soat)**

Texnologiya ta'limi darslarida ish qurollaridan xavfsizlik qoidalari asosida unumli foydalanish. Turli bayramlarga applikatsiya usulida tabriknoma tayyorlash.

Duradgorlik ashyolari. Qog‘ozdan turli buyumlar yasash va uni bezash. Qorbobo ustaxonasida archa bezaklarini yasash. “Qish”, “Bahor” manzaralarini applikasiya usulida ishlash. To‘g‘ri to‘rtburchak ichida applikasiyadan foydalanib, naqsh tuzish. Gilamdagi naqshlar. Kulolchilik kasbi haqida ma’lumot. Papye-mashe usulida kosa yasash. Xamir tayyorlashga o‘rgatish (qog‘ozdan chuchvara).

### **Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash (7 soat)**

Chok turlari, yumshoq o‘yinchoqlar tikish. To‘qish haqida umumiy ma’lumot, to‘qishda ishlatiladigan ashyo-uskunalar, ulardan foydalanish va xavfsizlik qoidalari, to‘qish usullari. Gazlama gullaridan applikasiya usulida guldasta tayyorlash. Ipdan o‘yinchoq yasash.

### **Texnik modellash (2 soat)**

Geometrik shakllardan uchuvchi modellar yasash.

### **Plastilin va loy ishi (5 soat)**

Plastilin bilan ishlash. Ertak qahramonlarini yasash. Oshxona jihozlari bilan tanishtirish. Plastilindan oshxona jihozlari yasash. Uy-ro‘zg‘or buyumlari bilan tanishtirish. Plastilindan uy-ro‘zg‘or buyumlari yasash.

### **Turli materiallar bilan ishlash (5 soat)**

Kuzgi gullarga qarab donlardan, urug‘lardan, tabiiy material, xomashyolardan gullar yasash. Gullarni parvarish qilish. Maktab yer uchastkasida ishlash.

### **Badiiy qurish-yasash (5 soat)**

Urug‘lardan mozaika usulida turli hayvonlarni qurish-yasash. Mustaqil ravishda tabiiy xomashyolardan kvadrat ichida naqsh qurish-yasash. Duradgorlik ashyolari bilan tanishtirish. Turli idishlar yasash va uni bezash. Geometrik shakllardan “Kuz” manzarasini qurish- yasash.

Har bir o‘quv yilida va barcha sinflarda ish turlari shu tartibda olib boriladi. Birinchidan, o‘quvchilar ma’lum nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, ularning fanlararo texnologik xususiyatlari, ularning hayotda qo‘llanilishi bilan tanishadilar. Ikkinchidan materiallarga ishlov berishda eng oddiy usullardan boshlab murakkab usullargacha amaliy o‘rganadilar.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o'qitishning an'anaviy og'zaki bayon qilish usullaridan voz kechib, test asosida mashina (kompyuter) yordamida o'qitishdan o'quvchilarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga unashdan iborat. Bunda o'qituvchi o'quvchilar bilim faoliyatini boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy yo'lovchi vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiyani samaradorligi shundan iboratki, unda turli o'qituvchilar deyarli xar xil yakuniy erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa barcha o'quv yurtlariga yagona ta'lim standart talabiga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz O'zbekistonlik pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir.

Ishlab chiqarishda natijasi kafolatlangan, lekin ijrochilar shaxsiga bog'lik bo'lmagan juda ko'p texnologik jarayonlar yaratilgan. Sanoatdagi buyumning ishchi chizmasi va yig'iladigan birikmalar chizmasi texnologik jarayonni asosini tashkil qiladi. Ularni talablarini aniq bajarish natijasida buyumlarni o'zaro almashuvchanligi, ya'ni texnologik siklni tashkil qilishni ta'minlaydi. SHuning uchun O'zbekistonda Janubiy Koreya va Turkiyadagidek ulardagi bilan bir xil sifat ko'rsatgichlariga ega bo'lgan yengil avtomobillar va kichik avtobuslar ishlab chiqarilmoqda.

Takrorlanuvchan pedagogik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishdagiga nisbatan anchagina murakkab jarayon bo'lib hisoblanadi. O'quv masalalarini turli tumanligi, ta'lim mazmuni va o'quv materialining turlicha ekanligi, bilimlarni o'zlashtirilishini o'quvchilarning shaxsiy xususiyatiga bog'liqligi va boshqa omillar bunga to'sqinlik qiladi.

Olimlarning izlanishlari natijasida takrorlanuvchan xamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiya yaratildi. Uning mohiyati o'quv maqsadining aniqligi va unga erishish uchun qat'iy belgilangan ketma-ketlik bo'yicha xar bir o'quv bo'lagini (modelini) o'zlashtirib mustaqil faoliyat ko'rsatishdan iborat bo'ladi.

Shunday qilib, o'qitish texnologiyasining predmeti o'quv jarayonini va professional tayyorgarlik sistemasini loyihalashdan iborat. Sistemali yondashish

o'qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini maqsadini aniqlash va o'quv jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o'qitish sistemasini samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o'tkazish va almashtirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi. U o'z harakat tartiblarini takrorlanuvchanligiga va ularni tula o'quv jarayoniga tadbiq etish g'oyasi, oqibat natijasida bu jarayonni "Jonli o'qituvchi"ga bo'lmay qolishiga olib keladi. Haqiqatdan xam o'quv jarayonini to'la takrorlanuvchan alohida ko'rinish (epizod)larga bo'linsa, o'qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o'zi tuzgan bo'lishi shart emas) material bilan o'qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo'lib qoladi.

O'qishga texnologik yondashish mantig'ida ikki xil g'oya yotadi. 1) O'quv jarayonini to'la to'kis o'rgatuvchi mashinalarga o'tkazdi, unda asosiy rol o'ynaydigan o'qituvchini tula ozod qilish yoki 2) uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funksiyalari chegaralash. Bu xolda o'qituvchi juda yuqori malakaga ega bo'lishi shart emas. O'qitish mazmuni va jarayoni bo'yicha mutaxassislar tomonidan ishonchli bo'lgan o'qitish sistemalarini rejalash, yaratish va ularni qo'llashga tayyorlangan sharoitda, hatto o'rtacha o'qituvchi xam yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi namunaviy didaktik loyihani amalga oshiruvchi ijrochi sifatida qaraldi, uning shaxsi va malakasi muhim rol o'ynamaydi.

#### Savollar

1. Texnologiya ta'limi dasturi nima asosida ishlab chiqiladi?
2. Dasturga qanday sharoitda o'zgartirish kiritish mumkin?
3. Texnologiya ta'limining mazmuni qanday talablarga javob berishi kerak?
4. O'quvchilardagi mehnat malakasi va ko'nikmasi qanday shakllanadi?
5. Amaliy mashqlar tizimidagi asosiy talablar nimalardan iborat?

#### **4-MAVZU. Texnologiya ta'limining shakl va metodlari**

##### **Reja:**

1. Texnologiya ta'limini tashkil etish shakllari
2. Texnologiya ta'limini tashkil etish usullari
3. Texnologiya ta'limini tashkil etish mazmuni
4. Texnologiya ta'limini samaradorligini oshirish shartlari

**Tayanch tushunchalar:** Boshlang'ich sinfda mehnatga o'rgatish metodi. Metod tushunchalari uning turlari. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bog'liqlik. O'quvchilarni mustaqil ishlarga o'rgatish sifatida o'qitishni tashkil qilishda didaktik ko'rgazmalar yasash metodlaridan foydalanish.

Yoshlarning fan-texnika rivojida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi. Texnologiya ta'limiga o'rgatishning ahamiyati mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e'tirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy kengashlarda qatnashuvchi kishilar, agar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyim yamash, ozodalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida, shunchalik muvaffaqiyatga erishmagan bo'lardilar. Texnologiya ta'limiga o'rgatishni ham zamonaviy pedagogika ishlarini to'g'ri tashkil etish va uning usullariga qo'yadigan umumiy talablariga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O'qitish metodlari – bu o'qituvchi va o'quvchilarning usullari bo'lib, bo'lar yordamida o'qituvchi o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga erishadi. O'qituvchi o'z tajribasida o'qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O'qituvchining intilishi, xatti-harakati darsda

o'quvchilarning diqqat-e'tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo'lishiga, ularning chambarmasliklariga yo'llangan bo'lishi kerak. O'qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o'quvchilarni ham shunga o'rgatishi kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim, bir qarashda hammaga ravshan bo'lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. Hayotini o'qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo'lgan o'qituvchilar o'z faoliyatini mana shu hammaga ma'lum haqiqatni o'zlashtirishdan boshlashlari kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg'ulotlar kabilardan foydalanib o'zlashtirganini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish va o'tilganini mustahkamlashni eng boshidan o'rganishlari lozim. Faqat barchaga ma'lum haqiqatlar o'zlashtirgandan keyingina va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo'llash mumkin. Texnologiya ta'limi bilimlarini egallash, o'zlashtirish, amalda qo'llash va o'quvchilarni rivojlantirish faol jarayonining muvaffaqiyati asosan o'qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog'liq. Texnologiya ta'limini amaliy mehnat faoliyati bilan birlashtirish va o'quvchilarning ilmiy bilimlarni chuqur o'zlashtirishini ta'minlashda ta'limning turli usullaridan foydalaniladi. Nazariy materialni tushuntirish chog'ida o'qituvchi o'quvchilarning bilimlari va tajribasiga suyanadi. O'quvchilar tomonidan bajariladigan barcha mehnatga oid harakatlar nazariy bilimlarni bilishga tayanadi.

Ko'r-ko'rona taxminiy yo'l bilan egallangan ko'nikma va malaka tor ma'noda bo'lib, puxta bo'la olmaydi. Amaliy topshiriqlarni tanlash mehnat tayyorgarligini nazariy va amaliy saviyasini ko'tarish vazifalariga bo'ysundirilishi kerak. O'quvchilarga berilgan topshiriqlar ularni ijodiy izlanish, ta'lim olish va adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantirishi lozim. Boshlang'ich sinflarda ish materiallarining mazmuni, hajmi va usullari o'quvchilarning tayyorgarlik bosqichiga mos kelishi zarur. O'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishda faqat soddalashtirish yo'li bilan borish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bunday yo'l bilan borish o'quvchilarning aqliy rivojlanishini ta'minlay olmaydi. Har bir mavzuni o'rganishda soddadan murakkabga qarab borish maqsadga muvofiqdir.

Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli metod va usullarini qo'llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarini singdirmoqdalar. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko'nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishni, mustaqil faollikni o'stirishga yordam bermoqdalar.

O'qitish usullari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o'quvchilar chizmani o'qituvchi chizgan o'lchamlar asosida emas, balki buyumni istalgan o'lchami bo'yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo'llay olsinlar.

Qo'l mehnatiga o'rgatishda qo'llanadigan asosiy usullar tizimi quyidagichadir:

1. Og'zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Suhbat.
4. Mashqlar.
5. Amaliy ishlar.
6. Mustaqil ishlar.
7. Ekskursiya.
8. Kitob bilan ishlash.
9. Texnik vositalar.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni texnologiya ta'limi va tarbiyasiga tayyorlashda mana shu usullardan samarali foydalanilsa, o'qituvchi o'quvchilarning texnologiya ta'limi va tarbiyasining malaka va ko'nikmalarini egallashlari va mehnatga tayyorlash to'g'ri tarbiyalansa, haqiqiy mehnatkash inson uchun zarur bo'lgan sifatlar shakllanadi.

**Og'zaki bayon qilish usuli ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin:**

1. Monologik bayon qilish. Bunda faqat o'qituvchi gapiradi, o'quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar. Qo'l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko'rinishida bo'ladi.

2. Dialogik bayon usuli. Bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro suhbatidir. Tushuntirish va hikoya qilish. Bu usulda materialni jonli va obrazli bayon qilishdir. Bu holda yangi bilimni o'qituvchining o'zi beradi. Ba'zan suhbat davomida o'quvchilarning qanchalik o'zlashtirayotganliklarini bilish maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya agar bajarilgan ishlar, natural rasmlar, fotosuratlar va shu kabilarni ko'rsatib bajarilsa, anchagina tushunarliroq bo'ladi. Bu o'rinda tushuntirayotganda "ko'rsat va tushuntir" degan qoida bajariladi. Yangi materialni bayon qilishda o'quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda o'zlashtiruvchilarga alohida e'tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idrokklarini faollashtirish maqsadida tushuntirilayotgan material yuzasidan bir-ikkita savol berish mumkin. Suhbat usuli turli o'quv maqsadlarda, ya'ni yangi dastur materialini bayon qilish, bilimlarni rejalashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlash jarayonida, o'quvchilarning bilimini tekshirish uchun qo'llanishi mumkin. Bu usulda o'quvchilardagi qiziquvchanlikni qo'zg'ab, savollar berish foydalidir. Suhbat xuddi hikoya singari ma'lum talablarga javob berish kerak, ya'ni:

- savollarni shunday shakllantirish lozimki, ular o'quvchilar tafakkurini faollashtirsin, ularni aniq va ishonarli javobni izlashga undasin;

- mavzuni ochib berishda izchillik bo'lishi uchun suhbatning rejasi oldindan to'zib qo'yilgan savollari albatta bo'lishi kerak;

- o'quvchilarning diqqati qaysi dalil va xulosalarga qaratilishi oldindan belgilanishi lozim.

Suhbat o'quv materialining chuqur va ongli egallanishiga yordam berishi, o'quvchilarda bo'lajak amaliy ishni ongli rejalashtirish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda vosita xizmatini o'tashi, egallangan bilimlarni amalda qo'llash malakalarini singdirishga yordam berishi kerak.

Mashqlar bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'qituvchi ko'nikma va malakalarni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga turli mashqlar beradi, bunda u ijodiy xarakterdagi ishlarni tashkil etib, ko'proq mustaqillik talab etuvchi mashqlarni nazarda tutadi. Bu metodning mohiyati

borgan sari murakkablashib boruvchi usul va harakatlarning ongli hamda ko'p marta takrorlanishidir. Mashqlar ommaviy va yakka tartibda bo'ladi, ya'ni butun guruhda bir xil ishni va barcha o'quvchilar turli ishlarni bajarishlari mumkin.

Mashqlarning xarakterli xususiyati ayni bir harakatning takrorlanishi bo'lgani uchun o'quvchilarda bajarilayotgan ishga nisbatan qiziqishini saqlash talab etiladi. Mashqlar yakunida ishlarni tahlil qilish, eng yaxshi ishlarning tahliliga tayanib, kim qanday natijalarga erishganligini ko'rsatish lozim. Ayni bir vaqtda kamchiliklar ustida ham to'xtash va ishning sifatini yaxshilash yoki bajarish tezligini oshirish uchun nimalar qilish kerakligini tushuntirish lozim.

Amaliy ishlar. Bu usul o'quvchilarga egallangan bilimlarini amalda qo'llashni o'rgatishga yordam beradi. Amaliy ishlarni bajarish rejasini o'quvchilarning o'zlari mustaqil to'zishlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Ko'rgazmali qurollarning o'quvchilar tomonidan bajarilishini ham amaliy ishlarga kiritish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

Mustaqil ishlar. Bu o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, biroq uning topshirig'i bilan maxsus ajratilgan vaqtda bajariladigan ishlardir. Bu o'rinda o'quvchilar o'zlarining intilishlarini qo'llab hamda aqliy va jismoniy harakatlarining natijalarini u yoki bu formada ifodalab, topshiriqda qo'yilgan maqsadga ongli ravishda erishishga harakat qiladilar.

Dastlabki darslardan boshlab ishni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilar qo'l mehnatini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy malakalar o'rtasida uzviy aloqa bo'lishi kerakligini his etsinlar.

O'quvchilarda malakani shakllantirish ongli faoliyatdan ajralgan holda bo'lmasligi kerak. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida malakalar shakllanishi bilan birga o'quvchilar o'z kuchlari, bilim va qobiliyatlarini sinovdan o'tkazadilar. Mustaqil ishlarning keng qo'llanishi o'quvchilarda ishga ijodiy yondashishni, ulardagi bilishga qiziqishlarini, olingan bilimlarni amalda qo'llay bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

Ekskursiya texnologiya ta'limining asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida o'quvchilar ishlab chiqarishdagi turli asbob-uskunalar bilan tanishadilar, mehnat va ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatadilar va o'rganadilar. Turli mehnat obyektlariga ekskursiyalar uyushtirish, o'quvchilarni mehnat kishilari bilan, ular ishlatayotgan asbob-uskunalari bilan, mehnat jarayonining tashkil etilishi va ishlab chiqariladigan mahsuloti bilan umumiy tarzda tanishtirish, yangi asbob-uskunalarining namunalari va ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasini, ilg'or ish usullari va mehnatni ilmiy tashkil etish metodlarini o'rganish maqsadida ham tashkil etilishi mumkin. Turli mehnat obyektlari bilan tanishtirish xususiyatiga ega bo'lgan ekskursiyalarni texnologiya ta'limining biror bo'limi (gazlama bilan ishlash, xizmat ko'rsatish va hokazolar) boshlanishidan oldin o'tkazish kerak. Aniq mavzuga doir ekskursiyani dasturdagi biror mavzuni o'tishdan keyin yoki undan oldin o'tkazgan ma'qul. Ekskursiya odatda 15-20 o'quvchidan iborat bitta guruh bilan ommaviy tarzda o'tkaziladi, biroq ekskursiya jarayonida ayrim o'quvchilar uchun yakka tartibda ko'rsatma va tavsiyalar, izohlar berish kerak. Mehnat o'qituvchisi ekskursiya jarayonida o'quvchilarning ishlab chiqarish jarayonini kuzatishlariga rahbarlik qilib turadi.

Turli mehnat obyektlarida o'tkaziladigan har qanday ekskursiyaning mazmuni uch bosqichda olib boriladi.

1. Kuzatish obyektini oldindan tanlash, uning aniq maqsadlari hamda vazifalarini belgilash, korxonaga dastlab o'qituvchi borib ko'rishi, zarur hujjatlarni (darsning rejasi, o'quvchilar uchun beriladigan topshiriqlar va hisobot shakllarini) tayyorlashdan iborat bo'lgan tayyorgarlik bosqichi.

2. Mehnat o'qituvchisi ekskursiya maqsadlari hamda vazifalari, korxonada hududida o'zini tutish qoidalari, kuzatish obyektlari, ekskursiya yo'nalishi to'g'risida suhbat o'tkazishi, o'quvchilarning bevosita kuzatishi va zarur vazifalarni bajarishi.

3. Ekskursiya jarayonida tug'ilgan savollarga, turli muammolarni hal qilishga qaratiladigan yakunlovchi suhbat o'tkazish bilan cheklanilmaydi. Texnologiya ta'limi bo'yicha navbatdagi mashg'ulotlarda bajarilgan vazifalarni va

hisobotlarni tahlil qilish hamda jamoa tarzida muhokama qilish yo‘li bilan ekskursiyaga yakun yasaladi. Ekskursiya bilishga qiziqishni avj oldirishda, o‘quvchilarga mustaqillik tuyg‘ularini singdirish va hayotni bilishda muhim o‘rinni egallaydi. Agarda ekskursiyalarni o‘tkazishda ishlab chiqarish vakillari ham qatnashsa, u yanada samaraliroq bo‘ladi. Ekskursiya jarayonida o‘quvchilar ishlab chiqarish texnologiyasi bilan yaqindan tanishadilar. Ekskursiyani o‘tkazishdan oldin o‘quvchilar oldiga aniq maqsadlar qo‘yish, ekskursiyadan so‘ng savol-javob o‘tkazish lozim. Masalan, to‘qimachilik kombinatiga ekskursiya uyushtirishdan oldin o‘quvchilarga guruhlar bo‘yicha topshiriqlar berish mumkin. Kitob bilan ishlash. Hozirgi kunda texnologiya ta‘limi bo‘yicha 1–4- sinflarga mo‘ljallangan “Mehnat” darsliklari asosida o‘qituvchidan o‘quvchilarni kitob bilan ishlashga o‘rgatish talab qilinadi. Bu maqsadda quyidagi kitoblardan qo‘shimcha foydalanish tavsiya etiladi:

1. X. Sanaqulov, D. Xodieva. “Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar”, metodik qo‘llanma;

2. Sanaqulov X. R, Xodieva D. P, Rustamova M. “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi darslarida modulli figuralar yasash texnologiyasi”, metodik qo‘llanma.

O‘quvchilarni kitob bilan tanishtirishdan oldin o‘qituvchining o‘zi bu kitobni puxta o‘rganib chiqishi, undan nimalarni tavsiya etish mumkinligini belgilab chiqishi lozim. O‘quvchilarni kitob bilan mustaqil ishlashga asta-sekin o‘rgatib borish kerak.

Texnik vositalar. Hozirgi kunda barcha ta‘lim sohalarini texnik vositalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Qo‘l mehnati mashg‘ulotlarida ayrim bo‘limlarni o‘rganish, kasblar haqida ma‘lumot berish, amaliy ishlarni tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish, xavf sizlik texnikasi qoidalarini tanishtirish munosabati bilan qo‘llanadi. Aytib o‘tilgan usullar texnologiya ta‘limi o‘qituvchilari tomonidan muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda. Texnologiya ta‘limi bo‘yicha bilimlarni egallash, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va o‘quvchilarni rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyati asosan o‘qituvchining bilimi hamda ishga ijodiy yondashishiga bog‘liq. Mehnat o‘qituvchisi dasturda nazarda tutilgan mehnatning barcha turlarini

bir xil yaxshi bilishi kerak. Faqat ijodiy fikr yuritib ishlaydigan, o'z ishida o'qitishning turli usullari bilan birga, pedagogik texnologiyalardan va interfaol metodlardan foydalanib darslarni tashkil etgan o'qituvchigina jamiyatning maktab oldiga qo'ygan vazifalarini muvaffaqiyatli hal etishda yordam berishi mumkin.

O'quv materialini mumkin qadar qiziqarli va o'qimishli qilinganda, u yaxshiroq egallanib, o'quvchining qalbiga singadi va uni amalda qo'llash osonroq bo'ladi.

Har bir o'quvchidagi qiziqish turlichadir, shunday ekan, o'qitishda yakka tartibda yondashishni oshirish kerak bo'ladi. Bundan tashqari bir sinf, bir yoshdagi o'quvchilarning rivojlanganlik darajasi hamda bilimlarni egallash tezligi turlichadir.

Darslarni to'g'ri tashkil etishda xar xil o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashni oldindan o'ylab qo'yilgan tuzilishi bo'lishi muhimdir. Bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham, yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilarga ham oldindan alohida topshiriqlar tayyorlab qo'yish kerak. Har bir o'qituvchiga o'z uslubi, o'z usulining o'ziga xosligiga ega bo'lish huquqi berilgan, biroq shuni aytish kerakki, bularning barchasi mustahkam bilim berish, mehnat sohasidagi malaka va ko'nikmalarini egallash, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, bilimga qiziqishini o'stirishga yordam beradi.

O'quv jarayonini takomillashtirish, o'qitishning yangi shakl hamda metodlarini tadbiq qilish, o'quvchilarda qiziqishni oshirishga, darslarning samaradorligini kuchaytirishga, bilish faolligini oshirishga yordam beradi. Bilish faolligini rivojlantirish o'z navbatida buyumga, mazkur holatda – xizmat ko'rsatuvchi mehnatga qiziqishini rivojlantirishda ko'maklashadi.

Texnologiya ta'limi metodikasini o'rganishga kirishilar ekan, avvalo metod tushunchasining kengroq ma'nosi bilan, ya'ni uning usul va priyomlar majmuyidan Iboratligi bilan tanishib chiqamiz. Master bu usul va priyomlar vositasida o'quvchilarga ma'lum maqsadga qaratilgan professional-bilimlar beradi, ulardan zarur o'quv va malakalarni shakllantiradi, ularni mustahkamlaydi, o'zlashtirish

darajasini tekshiradi, o'quvchilar esa bu o'quv va malakalarni aktiv va ongli ravishda o'zlashtiradi, professional mohirlikni egallaydi.

Metodlarni to'g'ri tanlash muhim masaladir. O'qitish metodi, dastavval, o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsad va vazifalar bilan o'quvchilarning bilimlarini, o'quv va malakalarini ongli va puxta o'zlashtirish, ularda ijodiy aktivlik va mustaqillikni o'stirishi, vazifalar bilan belgilanadi.

Texnologiya ta'limini tashkil etishga nisbatan qo'yiladigan muhim talablardan biri metodlarning xilma-xilligi va ularning muayyan maqsadga xizmat etishidir.

Ta'limda qo'llaniladigan mantiqiy metod barcha o'rta ta'lim maktablari uchun umumiy va eng ko'p tarqalgan metoddir.

O'qituvchi mantiqiy metod — hikoya, o'quv materialini og'zaki bayon etishini, suhbatni qo'llar ekan, u o'quvchilarga faqat o'zidagi bilimlarni ularga o'tkazibgina qolmay, balki o'quvchilarda ayni yo'nalishga qiziqish ham uyg'otadi.

Mantiqiy metodlar:

A) Hikoya qilib berish.

B) O'quv materialini og'zaki bayon qilib berish.

V) Suhbat.

Hikoya qilib berish — o'quv materialini jonli, obrazli qilib bayon qilib berishdir. Hikoya maksimal kontrol va o'quvchilarning galdagi ishlariga xirs bog'langan bo'lishi shart. Hikoyani dars temasini qisqacha umumlashtirib tamomlash kerak.

Jonli so'zdan har qanday metodda ham foydalaniladi, jonli so'z yordamida mehnat priyomlari, ko'rgazma qo'llanmalar izohlab ko'rsatiladi. O'qituvchining so'zi o'qitishdagi aktivlikni ta'minlash uchun, xatolarning oldini olish uchun ayni shu texnologiyasini bajarishda o'quvchiga yordam berish uchun, jihozni boshqarish vositalarining tuzilishi, boshqarish priyomlarini o'zgartirish uchun zarurdir.

O'quv materialini og'zaki bayon etish — haqiqiy materialni izchillik bilan bayon qilib berishdir. Bunda faktlarni analiz qilish va isbotlash katta o'rin oladi.

O'qituvchi o'zining bastida, o'z yozmalaridan, hisoblashlaridan foydalanadi, bunda galdagi shuning xarakteri oydinlashtiriladi.

Materialni bayon qilishda o'qituvchi o'quvchilarning nazariy bilimlari saviyasiga, ularning ishlab chiqarish ta'limi jarayonida qo'lga kiritilgan tajribalariga tayanishi lozim. Bu maqsadda u maxsus texnologiya kursi bilan ya'ni: materialshunoslik, chizmachilik programmasi bilan mukammal tanishib chiqishi, har zamonda bu darslarga qatnashishi kerak

Suhbat — bunda o'quvchilar o'qituvchining savoliga javob beradi, yoki savolning mazmuniga muvofiq, so'zga chiqadilar. Suhbatdan o'rganiladigan material to'g'risida o'quvchilarga ma'lum hajmda bilim bo'lgan xollarda foydalaniladi. Suhbat oxirida o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini umumlashtiradi.

Effektiv o'qitish metodlaridan biri suhbat ishlab chiqarish ta'limida o'quvchilarning aqliy faoliyatini va diqqatini rivojlantiradi. Suhbat oldindan tuzilib qo'yilgan reja asosida muayyan masalalarni muhokama qilish, o'qituvchi bergan savollarga o'quvchilarning javob berishlari tarzida borishi mumkin. O'quvchilarda ayni temaga doir birmuncha bilim va tasavvurlari bo'lgan taqdirdagina suhbat usuli samarali bo'lishi mumkin. Suhbatning muvaffaqiyatli chiqishi ko'p xollarda o'qituvchining o'quvchilarga to'g'ri savol qo'ya bilishiga bog'liq. Suhbatni shunday olib borish kerakki u belgilangan ta'lim — tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam etadigan bo'lsin. Suhbat aniq belgilangan maqsadga qaratilgan bo'lsin.

Ko'rgazmali metod — shaxsan mehnat priyomlarini ko'rsatish, jihozlarni, ko'rgazma qurollarni, o'quv kino filmlarini, diafilm va hokazolarni namoyish qilish demakdir.

Ko'rgazmali metodlar: A) ishlab chiqarishga ekskursiya o'tkazish. B) mehnat priyomlarini ko'rsatib berish.

Ekskursiya-ko'rgazmalik o'qitish bo'lib, bunda o'quvchilar buyumlarni texnologik hodisa va mehnat jarayonlarini, mehnatni tashkil etishni ishlab chiqarish sharoitida o'rganadilar. Mehnat ta'limi o'quvchisi ekskursiya o'tkazish

planini oldindan to'zib qo'yishi, eng xarakterli obyektlarini belgilab ular bilan mukammal tanishib chiqishi kerak.

Korxonalariga zamonaviy jihoz, ya'ni texnologik protsesslar bilan tanishish maqsadida qilinadigan ekskursiyalarda jihozni boshqarish priyomlarini, ilg'or ish metodlarini, shu o'rinda mehnatni tashkil etish kabilarni ko'rsatishning katta ahamiyati bor.

Har xil ko'rgazmali qurollarni va mehnat priyomlarni ko'rsatish metodi texnologiya ta'limida muhim o'rin tutadi. Bu masalada o'ylar ekanmiz, unga tayyorgarlik ko'rish bosqichlariga va namoyishga nisbatan talablarga alohida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Tajribaning ko'rsatishicha ko'rgazmalilik haddan oshib ketsa bu xol o'quvchilarning o'rganilayotgan hodisa mohiyatini aniqlashdan chetlashishiga sabab bo'lar ekan. SHunga qaramay, bitta buyumga tegishli ko'rgazmali qurollar uning turli tomonlarini oydinlashtirishga xizmat qilgani taqdirida ular sonining ko'proq bo'lishidan xavfsiramasa ham bo'ladi.

Odatda ko'rgazmali qurollar dars boshlanmasdan ko'rsatib qo'yilmaydi. O'quvchilarning vaqtdan ilgari ko'rgazma qurollar bilan (chala) qiziqishi, bu qurollarga jiddiy qiziqish havasini susaytirib qo'yishi mumkin. Ko'rgazma materialining mazmunini ochishga mumkin qadar o'quvchilarning o'zlarini ham jalb qilishlari zarur. Bu esa o'quvchilarda kuzatuvchanlik va bilib olish xislatlarini tarbiyalash choralaridan biridir.

Texnologiya ta'limida mehnat priyomlarini ko'rsatish masalasi alohida o'rin tutadi. Bu o'qitishning asosiy ko'rgazma materiallaridan biridir. Bundan tashqari texnologiya ta'limi o'qituvchisi mehnat priyomlarini va protsessni ko'rsata bilishi uchun, yuksak professional malakali bo'lishnigina emas, balki yetarli darajada pedagogik tajribaga ega bo'lishini ham talab etadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, namoyish qilinadigan mehnat priyomlari va protsesslari barcha o'quvchilarga ko'rinadigan bo'lishi shart. O'quvchilar ayni ish priyomlarini shakllantirish uchun qanday harakatlarni va qay tartibda ishlatish kerakligini yaxshi fahmlab olishlari zarur.

Amaliy metodlarga:

a) mashqlar.

b) laboratoriya-amali ishlari.

v) texnikaga oid ma'lumotnoma, adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlash kiradi.

Mashq-mehnat o'quvchilarni shakllantirish va sekin asta ularni malakaga aylantirish uchun ish harakatlarini ongli ravishda va ko'p marta takrorlashdan iborat. Mashqlar mehnat va ishlab chiqarish ta'limining asosiy metodidir. Mashqlar jarayonida mehnat va hunar usullarini bajarishning sifatli bo'lishiga, o'quvchilar faoliyatini sinchiklab nazorat qilishga e'tibor berish kerak.

Laboratoriyadagi amaliy ishlar-turli kasb va ixtisoslik bo'yicha malakali ishchilarni tayyorlashda tadbiiq etilishi mumkin.

Quyidagi shartlar mavjud bo'lgandagina o'quvchilarning mustaqil ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishida ta'lim – tarbiya muvaffaqiyatlariga erishish mumkin:

1. O'quvchilar bajariladigan ishning mazmunini yaxshi tushunishlari va uni bajarish tartibini aniq tasavvur qilishlari lozim.

2. O'quvchilar topshiriqni qanday asbob-uskunalar bilan bajarish kerakligini, ularning tuzilishiga va ishlashiga oid xususiyatlarini, ularni shu rejimga moslash usullarini va ishlash nuqsonlarning oldini olish choralari bilishlari kerak.

3. Ish o'rnini to'g'ri tashkil etish, buning uchun ish va o'lchov asboblari, zagotovkalarni, texnologiya hujjatlarini to'g'ri joylashtirish kerak.

4. Xavfsizlik texnikasi, sanoat sanitariyasi va mehnat gigiyenasi qoidalariga rioya qilishlari zarur.

Ilmiy –texnik tafakkurning borgan sari yoshlarning santexnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatni, egallangan bilimlarni amalda ijodiy qo'llay bilishni rivojlantirish maqsadlarida yanada takomillashtirishni ham talab qiladi. Bu esa maktab zimmasiga yoshlarda ijodga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy

yondashishi asoslarini tarkib toptirish, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Texnik mehnatga o'rgatishning ahamiyati texnik mehnat malakalarini egallash imkoniyatini berish bilan cheklanmaydi, balki bu malakalar hamma uchun kerakligini e'tirof qilish kerak. Ko'pgina ilmiy kengashlar, agarda unda qatnashgan kishilar turmush ishlarini bajarishni: ovqat pishirish, kiyimni yamash, tozalikni saqlash va shu kabilarni bilmaganlarida shunchalik muvaffaqiyatli chiqmagan bo'lar edi.

Ko'pgina o'qituvchilar o'qitishning turli metod va usullarini, qo'llab, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etib, yaxshi o'zlashtirish natijalariga erishmoqdalar va bilimga muhabbat hamda qiziqishlarni singdirmoqdalar. Bunday o'qituvchilar qo'l mehnatini o'rgatishda o'quvchilarga turmush sohasidagi bilim va ko'nikmalarni singdirish bilan birga, ularda ijodiy qobiliyatlarni va bilishga qiziqishni, mustaqil faollikni o'stirishga yordam bermoqdalar.

Qo'l mehnatga o'rgatishda boshqa fanlarni o'rgatishda bo'lganidek, o'qitishning xilma-xil usullari qo'llanib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari egallab olishlariga, shuningdek bilish qobiliyatlarini rivojlanishiga erishiladi.

O'qitish usullari doim ham zamonaviy maktablarda qo'llangandek bo'lavermaydi. Maktab rivojlanib borgan sari o'qitish usullari ham o'zgarib borgan. O'tilish maktablarida o'qish jarayonining bo'ysundirish turi hukmronlik qilgan. Bolalar dars mazmunini anglamay ko'r-ko'rona yod olishga o'rganganlar.

Ijtimoiy taraqqiyot, ishlab chiqarishning rivojlantirish ta'sirida o'quv jarayonining anchagina mukammallashgan turi – tushuntirish vujudga kelib, u uzoq muddat eski maktab bilan birga mavjud bo'lgan. Bu turdagi o'qitishning kerakli xususiyati bayon etilayotgan matni avval tushunishni, so'ngra yod olishni nazarda tutardi.

Bayonni yaxshiroq tushunish uchun ko'rgazmalikka ko'proq e'tibor berila boshladi. Bu olg'a qo'yilgan qadam edi. Endi o'quvchi xotirasiga analitik-sintaksis

tafakkur faoliyati ham qo‘shildi. O‘quvchilar bayon etilayotganini aynan buyumni emas, balki o‘z so‘zlari bilan buyumni bajarilishini yod etishlari talab etiladi. Biroq asosiy o‘rinni ham namuna, tayyor, ko‘rgazma bo‘yicha ishlash egallaydi.

Hozirgi zamon maktabi darsning zamonaviyligini oshirdi, takomillashtirildi va unga sayqal berildi. O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, har bir tayyor mavzu, kichik mavzu, mazkur dars uchun uning maqsad va vazifalariga muvofiq qiladigan ishni usul va ko‘rgazmali qurollarni tayyorlaydi.

Qo‘l mehnatini o‘rganish ham zamonaviy pedagogikaning ishlarini to‘g‘ri tashkil etish va uning usullariga qo‘yadigan umumiy talablarga muvofiq tarzda amalga oshirish kerak. O‘qitish metodlari – bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning ish usullari bo‘lib, bo‘lar yordamida o‘qituvchi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini egallashlariga erishiladi. O‘qituvchi o‘z tajribasida o‘qitishning xilma-xil usullaridan foydalanishi mumkin. O‘qituvchining intilishi, xatti-harakati, darsda o‘quvchilarning diqqat-e’tiborlari susaymasligiga, fikrlarning jamlangan bo‘lishiga, ularning charchamasligi va zerikmasliklariga yo‘llangan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi darsning har bir daqiqasini qadrlab, o‘quvchilarni ham shu narsaga o‘rgatishi kerak. Har bir o‘qituvchiga o‘z uslubi, o‘z usulining o‘ziga xosligiga ega bo‘lish huquqi berilgan. Biroq shuni aytish mumkinki, bularning barchasiga mustahkam bilim birinchi qarashda hammaga ravshan bo‘lgan haqiqatlarni egallab olganlaridagina erishish mumkin. O‘z faoliyatini o‘qituvchilik mehnatiga baxsh etmoqchi bo‘lgan o‘qituvchilar mana shu hammaga ma’lum haqiqatni o‘zlashtirishdan boshlashi kerak. Ular darslarda suhbat, gapirib berish, amaliy mashg‘ulotlar kabilardan foydalanib o‘zlashtirganini tekshirish, yangi temani tushuntirish va o‘tilganini mustahkamlashni eng boshidan o‘rganishlari lozim. Faqat barchaga ma’lum haqiqatlar o‘zlashtirgandan keyingina va sinfning imkoniyatlarini nazarda tutib, yangisini qo‘llash mumkin.

O‘qitish usullari bilimlarning shunday darajada egallanishiga xizmat qilishi kerakki, unda o‘quvchilar chizmani o‘qituvchi chizgan o‘lchamlar asosida emas, balki buyumning istalgan o‘lchami bo‘yicha chizib, egallagan bilimlarini amalda qo‘llay olsinlar.

## **Qo‘l mehnatiga o‘rgatishda qo‘llanadigan asosiy usullar tizimi qo‘yidagichadir:**

1. Og‘zaki bayon qilish.
2. Tushuntirish va hikoya qilish.
3. Instruktaj.
4. Suhbat.
5. Mashqlar.
6. Amaliy ishlar.
7. Grafik ishlar.
8. Laboratoriya ishlari.
9. Mustaqil ishlar.
10. Ekskursiya.
11. Kitob bilan ishlash.
12. Kino. Ta’limning texnik vositalari.

### **Og‘zaki bayon qilish –usuli 2 shaklda mavjud bo‘lishi mumkin:**

1. Monologik bayon qilish, bunda faqat o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab oladilar.

Qo‘l mehnati darslarida u tushuntirish va hikoya qilish, instruktaj ko‘rinishida bo‘ladi.

2. Dialogik bayon bo‘lib, bu o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro suhbatidir.

Hikoya qilish –bu dastur matni jonli va o‘quvchilar tushuntirilayotgan narsalarni qanchalik o‘zlashtirayotganliklarini aniqlash maqsadida ularga savollar bilan murojaat etish maqsadga muvofiqdir. Hikoya aslida bajarilgan ishlar, namunalar, rasmlar va shu kabilarni ko‘rsatib qilinsa, anchagina tushunarliroq bo‘ladi.

Bu o‘rinda tushuntirayotganingda ko‘rsat va tushuntir degan qoida bajariladi. Yangi mavzuni bayon qilishda, o‘quvchilarning bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Tushuntirishda bo‘sh o‘zlashtiruvchilarga alohida e’tibor berish lozim. Hikoya qilish jarayonida ularning idroklarini faollashtirish maqsadida tushuntirilayotgan mavzu yuzasidan ularga 1-2 ta savol berish mumkin.

O'qituvchi hikoyasi quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- u mazmunga ko'ra:
- bayon etilishiga ko'ra:
- material qiziqarli va o'quvchilarning fikrini aktivlashtiradigan:
- hikoya o'qituvchi o'quvchilar tushunchalariga asoslanishi lozim.

- hikoya jarayonini o'quvchilar yaxshiroq tushunib olishlari uchun ko'rgazmali qurollar tikuvchilik, rasmlar va boshqa vositalardan foydalanishi muhim ahamiyatga egadir.

## **5- MAVZU. Texnologiya ta'limi darslarida integratsion yondashuv.**

### **Reja**

1. Integratsiyalashgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning metodik xususiyatlari.
3. Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish omillari.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida asosiy bo'g'in hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatida o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo'naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakat jarayonlaridan iborat bo'lib, buning natijasida ular mehnat predmetlari, vosita va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnati va kasbga yo'naltirish amaliy ko'nikma va malakalarini egallaydilar, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga tezda qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatleri hamda tafakkurlarini rivojlantiradilar. Yangi iqtisodiy munosabatlar kasb-hunarga yo'naltirishning yangicha munosabati sharoitida

mehnat ko'nikmalari va malakalarini maqsadli shakllantirishdan iborat bo'lib, ongli va har tomonlama rivojlangan fuqaroni tarbiyalashning tarkibiy qismi hisoblanadi. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash ishlari maqsadli texnologiya ta'limining maqsad va vazifalari bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Kasbga yo'naltirishdan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsning bo'lg'usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko'maklashadi. SHu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash mehnat ta'lim va tarbiyasining vazifalaridir.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy va ilmiy texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o'quvchilarini kasb va hunarga yo'naltirishning muhimligi ancha oshdi. O'quvchilarni to'g'ri va erkin kasb tanlashga yo'naltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. To'g'ri kasb tanlash insonning kelajagini, hayot tarzini belgilashda katta ahamiyat ega. Har bir shaxs kasbni o'z qiziqishi, qobiliyati va ijtimoiy muhit nuqtayi nazaridan tanlaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borishda "Kasb o'zi nima?" degan savol tug'iladi. Kasb to'g'risida bir qancha ta'riflar berilgan.

- Kasb bu – insonga ma'lum bir talablar qo'yuvchi faoliyat turidir.
- Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir.
- Kasb – tiriklik va tirikchilik manbayi.

O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishning asosiy yosh bosqichlari mazmuni quyidagilardan iborat:

1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi – I bosqich;
2. Boshlang'ich kichik yoshdagi (1–4 sinflar) – II bosqich;
3. O'rta yoshdagi (5–7 sinflar) –III bosqich;
4. Katta yoshdagi (8–9 sinflar) – IV bosqich.

O'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini aniqlash mezonlari, ko'rsatkich va o'lchovlari.

Birinchi bosqich – maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda ularning mashg'ulotlarida qo'llaridan keladigan faoliyat turlari bo'yicha dastlabki mehnat ko'nikmalarini ijobiy, hissiy ta'sirchan shakllantirish.

Ikkinchi bosqich – kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni bilishga oid va o'yin ko'rinishdagi ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini amalga tadbiq qilish orqali mehnatga hurmat, mehnat kasb turlari, yo'nalishlari bilan tanishtirib borishini hamda ommaviy kasblarga bo'lgan qiziqishini shakllantirish.

Uchinchi bosqich – o'quvchilarni kasbga yo'naltirish mazmuni ulardagi qiziqish, qobiliyat, layoqat va shaxs sifatida jamiyatdagi o'z o'rnini topishdagi hamda ma'naviy-moddiy qadriyatning izlanuvchan-sinchkov ko'rinishlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich – o'quvchilarda kasbiy o'zlikni anglashni shakllantirish davri, ya'ni o'quvchilarni aniq bir kasbni tanlashning shaxsiy ma'noga egalligini tushunib yetishi, jamiyat oldidagi burchini, javobgarlik xislatlarini shakllantirish.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni quyidagi mezonlar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. O'quvchilarni kasb-hunar turlari bilan tanishtirish.
2. Kasblar, mehnat yutuqlari talqin etilgan asarlarni o'qishni tavsiya etish.
3. Har bir kasb haqida maxsus darslar o'tish.
4. Ishlab chiqarish korxonalari, firma, fan, maorif, madaniyat, san'at muassasalariga sayohatlar tashkil etish.
5. Mehnat ilg'orlari bilan ular erishgan yutuqlari haqida suhbatlar o'tkazish.
6. Texnologiya ta'limi yo'nalishi bo'yicha – multimedialar ko'rsatish.
7. O'quvchilarni turli xil to'garaklarga jalb etish.
8. Kasblar haqida o'yinlar tashkil etish.
9. Yangi kasb va mutaxassisliklar, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan muntazam tanishtirib borish. O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda pedagoglarning oldida turgan muhim vazifalar quyidagilar:

- o‘quvchilarni kasbga bo‘lgan qiziqishlarini yanada takomillashtirish;
- uni kasb tanlash darajasiga yetkazish;
- ko‘p qirrali qiziqishga ega bo‘lgan o‘quvchilarda o‘ziga ko‘proq yoqqan sohani, kasbni tanlashga amaliy yordam berish;
- o‘quvchilarda mehnat qiluvchi kishilarga nisbatan hurmat xislatlarini tarbiyalab borish;
- o‘quvchilarning o‘ziga xos qiziqishlarini e’tiborga olgan holda ularni asta-sekin jamiyat ijtimoiy mehnatiga jalb qilib borish;
- kasblar to‘g‘risida ma’lumotlarni yetarlicha berib borish;
- inson mehnati bilan yaratilgan moddiy boyliklarni har tomonlama tejash xislatlarni tarbiyalash;
- o‘quvchilarning o‘zi qiziqadigan kasb yo‘nalishiga jalb qilish va egallangan bilimlarni amalda qo‘llashlariga erishish;
- o‘quvchilarda mehnat va kasb tanlashga qiziqish uyg‘otish. Bu jarayon to‘g‘ri tashkil etilganda shaxsning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Kasbga yo‘naltirish uzoq muddatli yalpi dasturlar asosida va milliy xalq hunarmandchilik kasblarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayrim turdagi kasblarga yo‘naltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq iqtisodiy hududning turli sohalaridagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarni sanoat, qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlaridagi kasblar va milliy hunarmandchilik kasblariga umumta’lim maktablarining texnologiya ta’limi darslarida yo‘naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini texnologiya ta’limi va tarbiyasi jarayonida o‘qitiladigan “Loy va plastilin bilan ishlash” ish turiga oid, haykaltaroshlik, kulolchilik, rassomchilik, “Gazlama va ip turlari bilan ishlash” ish turiga oid tikuvchilik, kashtachilik, do‘ppido‘zlik, ipakchilik, to‘quvchilik, dizaynerlik, “Turli va tabiiy materiallar bilan ishlash” ish turiga oid dehqonchilik, gulchilik, bog‘bonchilik, tadbirkorlik kasb-hunarlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish, darslarni xalq milliy qadriyatlarini asosida o‘qitishni tashkil qilish lozim bo‘ladi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi har bir o'quvchiga individual ravishda kasb yoki mehnat faoliyati sohasini asosan va to'g'ri tanlashda yordamlashishdir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbayiga aylanadi. Kasb tanlashga yo'llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umum maktab vazifasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, bu ishda texnologiya ta'limi alohida o'rinni egallaydi. O'quvchilarni kasb tanlashdagi asosiy omillar ota-ona, muhit va ta'lim-tarbiyadir. Kasb tanlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni politexnik mehnat va malakalari bilan qurollantirishdan, ularni mehnat va ijtimoiy faoliyatga, kasblarni ongli ravishda tanlashga, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir. Maktabda kasb tanlash ishlari quyidagi maqsadlardan iborat:

1. O'quvchilarni kichik sinflardan boshlab xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib borish.

2. O'quvchilarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib, ommaviy kasblarning mazmuni, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarni amalga oshirish.

3. Kasb tanlashga yo'llash ishlarini olib borishda o'quvchilarni asosan maktab joylashgan hududning korxonalar, tashkilotlarining ehtiyoji uchun zarur bo'lgan kasb va mutaxassislariga yo'llash. Kasb tanlash juda muhim masala bo'lib, ko'pincha o'quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. O'qituvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning farq va metodlarini belgilab beradi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Darslarda kasb tanlashga yo'llash. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni mehnat mashg'ulotlarida bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. CHunonchi, yog'och kesuvchi, rom yasovchi, duradgorlik, tikuvchilik, oshpazlik va boshqa kasblar haqida bilim oladilar va tanishadilar.

2. Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash. Odatda, ekskursiyalarda o'quvchilarni o'quv rejasi doirasidan chiquvchi material bilan tanishtirishga qulay

sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash uchun foydalanish mumkin.

3. To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko'proq imkoniyatlar vujudga keladi.

4. Har xil mavzuda uchrashuvlar o'tkazish. Odatda, umumta'lim maktablarni bitirgandan keyin ishlab chiqarish sanoati muassasalarida ishlayotgan kishilar bilan suhbatlari o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi. Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilar turli kasb egalari bilan tanishadilar.

5. Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish. Kasb tanlashga yo'llash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum.

Masalan, "Kasblar dunyosi", "Kasb tanlash da shaxsiy va jamoat fikri" mavzusida munozaralar uyushtirish, kinofilmlarni muhokama qilish shular jumlasidandir.

6. Kasblar mazmunini chuqur o'rganish. O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilarni qiziqishlariga qarab guruh yoki mikro guruhlarga birlashtiradi. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy formalari qo'llaniladi. O'quvchilar o'z kuchi bilan referat yozadilar, ekskursiyalar o'tkazadilar.

7. Fakultativ mashg'ulotlar. Ayrim maktablarda fakultativ mashg'ulotlarga ajratilgan soatlarning ma'lum qismidan kasb tanlashga yo'llash ishi uchun foydalaniladi. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlarini va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq foyda keltirishi mumkin.

Kasbga yo'llash, qiziqtirish hamda malaka va ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv jarayonidagi ta'lim-tarbiya ishlari muhim ahamiyat kasb

etadi. Binobarin texnologiya ta'limi fanlari bo'yicha tarbiyaviy ishlarning o'ziga xos xususiyatlari, maqsadi, vazifalarining beqiyos ahamiyati mavjud.

Kasbni to'g'ri tanlash – inson turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlashiga bog'liq.

O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarning samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatini to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga, kasb-hunar tanlashiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi.

Jamiyatning xar bir fuqarosi XX1 asr bo'sag'asida turar ekan, utgan yillarni baholashga va kelajak hayotining turli qirralarini belgilab olishga urinishlari tabiiydir. Ta'lim sohalaridagilar xam bundan mustasno emas. Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot nafaqat ishlab chiqarishning ko'p sonli tarmoqlariga balki madaniyat sohasiga, ijtimoiy gumanitar bilimlar doirasiga xam yangi texnologiyalarni joriy etishni taqazo etmoqda. SHu boisdan keyingi un yilliklarda pedagogik olimlar diqqatini jalb qilgan dolzarb masalalardan biri pedagogik texnologiya (PT) hisoblanadi.

Bu muammoga qiziqish ortganligini kuyidagicha izohlash mumkin:

- ba'zi olimlarning pedagogikadagi “Zamonaviy yo'nalish” deb an'anaviy yondashishlari va o'z imkoniyatlari doirasida muammoga ilk bor kul urishlari (X. Abdukarimov, K. Zaripov, T. Nazarov, U. Nishonaliyev)

- boshqa guruh tarafdorlari ta'limning bugungi ahvoliga qayg'uradilar va uni inqirozdan qutqaruvchi kuch texnologiyalashtirish deb qaraydilar (I. Ya. Lerner, F. Fradkin va boshqalar).

- uchinchi guruh olimlari texnologiyalashtirishni obyektiv jarayon deb, yangicha sifati muammolarni yechish uchun ta'limni evolyutsion bosqichga ko'tarish shartlaridan biri ekanligini e'tirof etadilar (M. V. Klarin, M. K. Larrik, T. A. Пыина).

Biz xam keyingi fikrga qo‘shilgan xolda PTga taraqqiyot yo‘lidan borayotgan davlatlarning ta‘lim saxasidagi siyosatining bosh vazifasida qarab kelinganligini ta‘kidlaymiz.

Bunday yondashish YuNESKO tomonidan xam ma‘qullangan. 1971 yilda uning direktori Mais Rene Frantsiyaning sodiq bosh vaziri (ayni xolda ta‘lim vaziri xam) Edgardo Froga murojaat etib ta‘lim saxasida tuzilgan xalqaro komissiyaga rahbarlik qilishni va jahonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar asosida ta‘limning maqsadi, rivojlantirish yo‘llarini aniqlash vazifalarini yukladi. SHunday qilib 1972 yilning ko‘zida Buyuk Britaniya va Frantsiya kitob dukonlarida “Mavjudlik uchun o‘qish”, “Tarbiya dunyosi bugun va ertaga” nomli kitob paydo bo‘ldi va unda “Zamonaviy texnologiya va ta‘limni yangilashda harakatlantiruvchi kuch” ekanligi qayd etildi.

Muhimi shundaki, Birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ta‘limning Milliy modeli yaratildi va uni ro‘yobga chiqarish bosqichlari xar jihatdan ilmiy asoslab berildi. Uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida “o‘quv tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta‘minlash” jiddiy vazifalardan biri ekanligi ko‘rsatildi.

Xush, pedagogik texnologiya nima o‘zi? – Uning ilmiy asosida qanday nazariyalar yotadi? – Amaliyotga tadbiiq etish sharoitlari nimadan iborat?

Dastlab “Texnologiya” tushunchasiga aniqlik kiritaylik: Bu so‘z fanga 1872 yilda kirib keldi va yunoncha “texnos” – hunar, san‘at va “Logis” – fan so‘zlaridan kelib chiqqan xolda “Hunar fani” ma‘nosini anglatadi. Biroq bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni to‘liq tasvirlab bermaydi, yoxud texnologik jarayon bu mehnat vositalariga ta‘sir etish natijasida mahsulot yaratish saxasidagi mehnat hisoblanadi. Demak, bu tarifni tadqiqotimiz mavzusiga ko‘chirish mumkin, unda PT sifatida ularga oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb tariflasak xato bo‘lmaydi.

Asrimizning 40-50 yillarida o‘quv jarayoniga texnik vositalarni (radio, kino, nazorat vositalari) joriy etilishi PT ga tenglashtirildi. Faqat 60 yillarning o‘rtasida 70 yillarda bu tushuncha chet el pedagogik nashrlarda (AKSH, Yaponiya, Angliya,

Italiya, Vengriya) va boshqa xalqaro konfrensiyalarda keng muhokama etila boshlandi va uning ilmiy-tadqiqot natijalariga kura ikki yo‘nalishi ko‘rsatildi.

Birinchi yo‘nalishi: PTni “O‘qitishni texnik vositalari” ni qo‘llash sifatida belgilasa, ikkinchisi “O‘quv jarayoni texnologiyasi” sifatida qaraldi.

Tizimli yondashish ta’siri ostida asta-sekinlik bilan PT mohiyatiga aniqlik kiritila bordi va rus olimasi N. F. Talizina uning mohiyatini “Belgilangan o‘quv maqsadiga erishishning usullarini aniqlashdan iborat” deb tushuntiradi. Yuqorida keltirilgan tariflardan ko‘rinib turibdiki, utgan yillarda PT o‘quv jarayonini belgilangan ta’lim maqsadi va mazmunidan kelib chiqib loyihalash deb ifodalandi. Bu bir jihatdan to‘g‘ri, lekin teranroq fikr yuritilsa, uning bir yuklamaligi yaqqol ko‘zga tashlanadi yoki bunday yondashishda o‘quvchi shaxsi inkor etilyapti. Bu kamchilikni birinchi bo‘lib V. P. Bespalko paykali va o‘zining yirik asarlarida “PT – bu o‘qituvchi mahoratiga bog‘lik bo‘lmagan xolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o‘quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihadidir”, deb ta’rifladi.

Shu o‘rinda joizki, 80 yillardayoq V. P. Bespalko tomonidan “Pedagogik texnologiya”ning ilmiy maqsadi yaratildi.

Qator yillar davomida PT nazariyasi va amaliyoti bir-biriga bog‘lik bo‘lmagan xolda o‘rganib kelindi va u turli faoliyat doirasida edi. Bugungi kunda mutaxassislarning ilmiy salohiyatini birlashtirishga mamlakatimizda xam imkoniyatlar mavjud. Nazariya va amaliyot birligini ta’minlanishi zamonaviy PTning asl mohiyatini aniqlashga yul ochadi.

Bizning fikrimizcha, yangi PT ni pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida yoki ta’lim amaliyoti maqbullashtirishga yo‘naltirilgan tizim deb qarash mumkin emas. PT bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyat yo‘nalishlarini aniqlaydi. Bu yerda izlanishning mohiyati – pedagogik tizimni tashkil etuvchi elementlarini o‘rganish asosida yangilashdan iborat. Sabab, xar qanday o‘quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish u yoki bu pedagogik tizimni aks ettiradi.

Demak, PT – amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir.

Unda pedagogik tizim tarkibi nimalardan iborat? Pedagogik tizim o‘zaro bog‘lik bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq xolda amalga oshiradi. Binobarin, xar bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo‘lishi kerak. Agar maqsad o‘zgarsa, tizim xam o‘zgarishi muqarrardir.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” jamiyat, davlat va oila o‘z javobgarligini his etadigan. Xar tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad qilib kuydi. Demak, Milliy Dastur bizda ta’lim va tarbiya saxasidagi davlat buyurtmasi sifatida qabul qilinyapti. Faqat ijtimoiy (davlat) buyurtmasidagina ta’lim va tarbiyaning umumiy maqsad va vazifalarini aniq belgilab beradi yoki oliy (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar) ta’lim uchun pedagogik tizimning mavjudligi sharoitlarini kafolatlaydi.

Pedagogik texnologiyaning tub mohiyati, o‘qitishning an’anaviy og‘zaki bayon qilish usullaridan voz kechib, test asosida mashina (kompyuter) yordamida o‘qitishdan o‘quvchilarni ko‘proq mustaqil ta’lim olishga unashdan iborat. Bunda o‘qituvchi o‘quvchilar bilim faoliyatini boshqaruvchisi, maslahatchi, yakuniy yo‘lovchi vazifasini bajaradi.

Pedagogik texnologiyani samaradorligi shundan iboratki, unda turli o‘qituvchilar deyarli xar xil yakuniy erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa barcha o‘quv yurtlariga yagona ta’lim standart talabiga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklatilgan hozirgi davrda biz O‘zbekistonlik pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir.

Ishlab chiqarishda natijasi kafolatlangan, lekin ijrochilar shaxsiga bog‘lik bo‘lmagan juda ko‘p texnologik jarayonlar yaratilgan. Sanoatdagi buyumning ishchi chizmasi va yig‘iladigan birikmalar chizmasi texnologik jarayonni asosini tashkil qiladi. Ularni talablarini aniq bajarish natijasida buyumlarni o‘zaro almashuvchanligi, ya’ni texnologik siklni tashkil qilishni ta’minlaydi. SHuning

uchun O‘zbekistonda Janubiy Koreya va Turkiyadagidek ulardagi bilan bir xil sifat ko‘rsatgichlariga ega bo‘lgan yengil avtomobillar va kichik avtobuslar ishlab chiqarilmoqda.

Takrorlanuvchan pedagogik jarayonni yaratish, ishlab chiqarishdagiga nisbatan anchagina murakkab jarayon bo‘lib hisoblanadi. O‘quv masalalarini turli tumanligi, ta’lim mazmuni va o‘quv materialining turlicha ekanligi, bilimlarni o‘zlashtirilishini o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatiga bog‘liqligi va boshqa omillar bunga taskinlik qiladi.

Olimlarning izlanishlari natijasida takrorlanuvchan xamda yakuniy natijani kafolatlaydigan pedagogik texnologiya yaratildi. Uning mohiyati o‘quv maqsadining aniqligi va unga erishish uchun qat’iy belgilangan ketma-ketlik bo‘yicha xar bir o‘quv bo‘lagini (modelini) o‘zlashtirib mustaqil faoliyat ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi.


SHunday qilib, o‘qitish texnologiyasining predmeti o‘quv jarayonini va professional tayyorgarlik sistemasini loyihalashdan iborat. Sistemali yondashish o‘qitish tizimining barcha asosiy tomonlarini maqsadini aniqlash va o‘quv jarayonini loyihalashdan tortib, to yangi o‘qitish sistemasini samaradorligini tekshirish, uni sinovdan o‘tkazish va almashtirishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. U o‘z harakat tartiblarini takrorlanuvchanligiga va ularni tula o‘quv jarayoniga tadbiq etish g‘oyasi, oqibat natijasida bu jarayonni “Jonli o‘qituvchi”ga bo‘lmay qolishiga olib keladi. Xaqiqatdan xam o‘quv jarayonini tula takrorlanuvchan alohida ko‘rinishi (epizod)larga bo‘linsa, o‘qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o‘zi tuzgan bo‘lishi shart emas) material bilan o‘qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo‘lib qoladi.

O‘qishga texnologik yondashish mantig‘ida ikki xil g‘oya yotadi. 1) O‘quv jarayonini to‘la to‘kis o‘rgatuvchi mashinalarga o‘tkazdi, unda asosiy rol o‘ynaydigan o‘qituvchini tula ozod qilish yoki 2) uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funksiyalari chegaralash. Bu xolda o‘qituvchi juda yuqori malakaga ega bo‘lishi shart emas. O‘qitish mazmuni va jarayoni bo‘yicha mutaxassislar tomonidan ishonchli bo‘lgan o‘qitish sistemalarini rejalash, yaratish


va ularni qo'llashga tayyorlangan sharoitda, hatto o'rtacha o'qituvchi xam yuqori natijalarga erishishi mumkin. Bu yerda o'qituvchi namunaviy didaktik loyihani amalga oshiruvchi ijrochi sifatida qaraldi, uning shaxsi va malakasi muhim rol o'ynamaydi.

O'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil etish sxemasi 1-rasmda berilgan.

### Tuzatishlar kiritish.



### Tuzatishlar kiritish.



1-rasm. Pedagogik texnologiyaniyl blok – sxemasi.

Bu sxemada ham an'anaviy o'qitishga xos bo'lmagan belgini o'quv maqsadlarini aniqlashtirilishi, o'quv jarayoniga va maqsadlariga uning natijasiga qarab tuzatishlar kiritish va izchil qaytuvchan aloqani mavjud ekanini ko'rish mumkin.

## **6- MAVZU. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi**

### **Reja**

1. Xalq merosida mehnat an'analaridan o'rni.
2. Mehnat an'analarining o'quvchilar tarbiyasidagi ahamiyati.
3. Texnologiya darslarida mehnat an'analaridan foydalanishning shakllari.
4. Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi.
5. Mutafakkirlarning kasb-hunarga oid fikrlari.

Odam hunarning mohiyatini, yaxshi va yomon sifatlarini bilgandagina hunarga oid bilimlarni mukammal egallashi, hunarmandlar ahlini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Darhaqiqat, Sharq mutafakkir allomalari, hunar va hunarmandlarga katta e'tibor berganlar. Jumladan, Alisher Navoiy o'z zamonasida zargarlar, kulollar, tikuvchilar kabi turli-tuman hunar sohiblarining hammasiga zo'r hafsala, qunt va e'tibor bilan maslahat berib, xususan, rag'bat ko'rsatib hamda ularga homiylik qilganlar. Alisher Navoiyning fikricha, inson bo'lib dunyoga keldingmi, biror kasbni egalla, hunar o'rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o'tmaysan, – deydilar.

Shuningdek, donishmandlarimiz o'git qilganlarki, vaqtida ilm-hunarga muhabbat qo'ying, o'rganilgan narsalarni yodingizda tuting, ilm-hunar o'rganishga chin ixlos bilan kirishing, yoshligingizni bekorga o'tkazmang. Hatto ulug' shayxlarimizning o'zlari ham biror hunar egasi bo'lganlar. Masalan, SHayxul Mashoyix Abu Said Xarros etikdo'zlik qilgan, SHayx Muhammad Sakko mashhur pichoqchi, SHayx Xoja Bahovuddin Naqshbandiy ajoyib naqqosh bo'lganlar. Boshqalarni hunar o'rganishga da'vat etganlar. Xoja Bahovuddin Naqshbandiy aytadilar: "Dil bayoru dast bakor" ya'ni, "Diling ollohda, qo'ling doim mehnatda bo'lsin".

Insoniyat qadr-qimmatini mehnatda bilim-hunarga tayanishda, birovga xor bo‘lmaslikda, deb bilgan Sa’diy shunday ta’lim beradilar:

O‘z mehnatidan non yegan kishi,

Hotam minnatidan ozod ishi.

Muqaddas kitob “Avesto”da ham mehnat moddiy boyliklar manbai bo‘lgani uchun emas, balki u mehnatni asosan axloqiy jihat, yaxshilik manbai deb bilganligi uchun insonlarni mehnat qilishga chaqiradi. Xalq pedagogikasida “Yoshlikda egallangan bilim va hunar toshga o‘yib yozilgan hikmatdir”, – deb ta’kidlanadi.

– Farzandlarga odob, hunar o‘rgatmak merosdir, – deb nasihat qilinadi “Qobusnoma”da. – Sen obod, hunar va donishni o‘zingdan meros qilgil, toki uning haqqini bajo keltirmish bo‘lgaysan. Chunki xos kishilarning farzandga odob va hunardan yaxshiroq meros yo‘qdur. Oliy xaloyiqning farzandlariga xirpa (savdo, hunar), pisha (kasb)din yaxshiroq meros yo‘qdur. Agar xos odamlarning farzandlari yuz hunar bilsa va lekin hech kasbni bilmasa ayb emasdur. Hunar esa bir kun ishga yaragusidir”. Demak, albatta, hunar o‘rganmak zarurdir:

O‘tay o‘g‘lim bilan desang agar,

Sen o‘g‘lingga o‘rgatgil ilmu hunar.

Agar senda Qoruncha bo‘lsa ham zar,

O‘z o‘g‘lingni qoldirmagil behunar.

Hunarning nechog‘lik zarur ekanligini qator rivoyatlar, naqlar, ertaklar, dostonlarda ham o‘z aksini topgan. “Oltin baliq”, “Savdogar bilan podachi”, “Sehrli gilamcha”, “Baliqchi bola”, “Ikki naqqosh ishi” kabi ertaklar, “Hasanxon”, “Rustam”, “Ziyod” kabi dostonlar shular jumlasidandir.

Hunar egallash ham bir fazilatdir, mahoratdir.

Hunar egallashda halollik, poklik, sabr-qanoat, matonat, mehnat madaniyatiga rioya qilish muhim rol o‘ynaydi.

Ota-bobolarimiz ham hunar o‘rganishni asosiy vazifa ekanligini o‘rgatib kelganlar:

Hunar o‘rgan, chunki hunarda ko‘p sir,  
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

(Nizomiy)

Abu Rayhon Beruniy mehnat va hunar avlodidan avlodga meros bo‘lib o‘tishini sinchiklab o‘rgangan va hunarni yuqori baholagan. U “Hunarmandchilikda, mehnatda to‘liq ustozlik san’atini egallab olishi kerak”, degan fikrni aytadi. Odatda o‘sha davrda hunar va tabiiy bilimlar maktabda o‘rgatilmay yakka tartibda berilgan.

1. Ota kasbini egallash, oiladagi kattalardan yakka shogird shaklida.
2. Shogirdlik tanilgan usta qo‘lida yakka shogirdlik tartibida o‘rganilgan.

Xalqimiz bolalarda mehnatsevarlik va mehnatga qiziqishni tarbiyalash, otalarimiz izidan borib turli kasb-hunar egallash, ularda mehnat munosabatlarini kamol toptirish, kelajak hayotga tayyorlash o‘zlarining muhim vazifalari deb hisoblaganlar. O‘z farzandiga kasb-hunar o‘rgatgan. Ular ustazodalar (usta darajasiga ko‘tarilgan farzand) bo‘lib etishganlar. Tanlangan usta hunarmandlar uyida yakka shogirdlikka tushgan bola bir necha yil hunarga taalluqli bo‘lmagan yumushlarni ham bajarib yuraverganlar.

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga texnologiya ta’limining ko‘p qirrali ta’siridan to‘la foydalanish sharoitlari vujudga keldi. Bu haqda ivojlanish tarixi ishonchli dalolat beradi. Masalan, xalq maorifi haqidagi dastlabki dekretlarining biri — “Yagona mehnat maktabi haqida nizom”da mehnatga o‘qitishning, ta’limning, shaxsni har tomonlama kamol toptirishning eng muhim faktorlaridan biri sifatida qaraladi.

Maktabning tashkil topishi jarayonda xalq maorifi xodimlari orasida munozaralar bo‘ldi. O‘qituvchilar va metodistlarning bir gruppasi maktabning turmush bilan bog‘lanishini eng yaxshi ta’minlash uchun maktab o‘quv planiga texnologiya ta’limini mustaqil fan sifatida kiritish zarur deb hisobladilar. Boshqa bir qismi bunga e’tiroz bildirib, odatdagi fan asoslari bo‘yicha fanlarni o‘qitish jarayonida ham mehnatga o‘rgatish mumkin, deb hisobladilar. Ana shu ikki xil fikrni o‘qituvchi va metodistlarning uchinchi gruppasi mutlaqo rad etdi va ular

texnologiya ta'limi maktab sistemasida markaziy o'rinni egallashi kerak degan fikrni yoqlab chiqdilar. Bu gruppaga vaqillari 20-yillarda xalq maorifi organlari xodimlari orasida birmuncha muddat ko'pchilikni tashkil qildi. Natijada o'qitishning kompleks, biroz keyinroq esa proyektlar (loyiha) sistemasi paydo bo'ldi; proyektlar sistemaga binoan matematika, fizika, biologiya va boshqa o'quv fanlariga oid bilim elementlari o'quvchilarga beriladigan mehnat topshiriqlari atrofida gruppalashga boshlandi. Masalan, bog'da o'ra qazish topshirig'ini olgan o'quvchilarni bajarish uchun qancha tuproq chiqarib tashlanishini hisoblashlari (matematika), o'ra konturini belgilashlari (chizmachilik), tuproq xarakteri bilan tanishishlari (geografiya) kerak edi. O'quv jarayonini bunday tashkil etishda o'quvchilarni fan asoslaridan sistemali bilimlar bilan qurollantirishning iloji yo'qligi mutlaqo ravshan. Texnologiya ta'limining o'zi ham hech narsa yutmagan, chunki u aniq sistemasiz olib borilgan, vaqtincha tasodifiy topshiriqlar bilan bog'liq bo'lgan.

O'quv planiga boshqa o'quv fanlari bilan bir qatorda texnologiya ta'limi ham mustaqil fan bo'lib kirdi. Bu esa texnologiya ta'limi jarayoniga yangi imkoniyatlar ochib berdi. Shunga qaramay dastlabki paytlarda maktablarni maxsus tayyorlangan mehnat o'qituvchilari bilan ta'minlashning, texnologiya ta'limi uchun qanoatlanarli moddiy baza yaratishning, texnologiya ta'limi bilan fan asoslarini o'qitish orasida bog'lanishni amalga oshirishning imkoni bo'lmadi. 1937 yilda maktablarda mustaqil o'quv fani sifatidagi texnologiya ta'limi tugatildi.

Keyingi yillarda o'quvchilarning mehnat tarbiyasi asosan sinfdan tashqari, maktabdan tashqari va ijtimoiy foydali ishlar jarayonida amalga oshirildi.

Urushdan keyingi yillarda mamlakatimiz jamoatchiligining e'tibori yana o'rta maktabda texnologiya ta'limi muammosiga qaratildi. 1952 yilda maktabda politexnik ta'lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Agar shungacha maktab asosan oliy o'quv yurtlarining rezervi hisoblangan bo'lsa, shundan keyin yildan-yilga maktabni bitiruvchilar soni ortib bordi va ularning hammasi ham oliy o'quv yurtlariga kira olmay qoldi. Maktabni tamomlaganlarning katta qismi bevosita moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlashga qo'shilishi kerak edi. 1954 yilda texnologiya ta'limi o'rta maktab o'quv planiga o'sib kelayotgan

yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi. SHundan keyin yuqori sinflarda umumiy oʻrta taʼlimni kasbga tayyorlash bilan qoʻshib olib borish imkoniyatlari oʻrganila boshlandi.

Bu qonunda, xususan, hamma oʻquvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga qoʻshish haqida, taʼlimni unumli mehnat bilan bogʻlash haqida, maktabning hayot bilan, kommunistik qurilish praktikasi bilan aloqasi haqida gapiriladi. qonunda oʻrta maktablarning yuqori sinflarida umumiy taʼlim bilan kasb boʻyicha tayyorgarlikni qoʻshish xam nazarda tutildi. Kasb boʻyicha tayyorgarlikni zarur sharoitlar, avvalo, tegishli moddiy baza va malakali kadrlar mavjud joylarda amalga oshirish mumkin boʻldi. Lekin hamma maktablarda xam bunday sharoitlar mavjud emas edi. Shu sababli 1966 yilda Maktab haqidagi qonunning 4-moddasiga oʻquvchilar kasb boʻyicha tayyorlanishi uchun zarur sharoitlar mavjud maktablardagina kasb boʻyicha tayyorlanadilar-deb juzʼiy tuzatish kiritdi.

1961 yil, “siyosiy ish markaziga jamiyatning hamma aʼzolaridan mehnatga ijodiy munosabatni rivojlantirishni qoʻyadi. Jamiyat farovonligi uchun mehnat qilish har bir insonning sharaflı burchidir”. oʻquvchilarning mehnat tarbiyasi, politexnik taʼlimi va kasb tanlashi boʻyicha maktab oldida turgan vazifalar koʻrsatiladi.

Yuqoridagi sabablarga koʻra texnologiya taʼlimiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu hukumatning qator qarorlarida oʻz aksini topgan. Masalan, “Umumiy taʼlim maktablarining oʻquvchilariga taʼlim, tarbiya berishni va ularni mehnatga tayyorlashni yanada takomillashtirish haqida” (1977y. ), “Maktab oʻquvchilarining mehnat tarbiyasini, taʼlimini, ularni kasb tanlashga oʻrgatishni yaxshilash xamda ularning ijtimoiy foydali, unumli mehnatini tashkil etish toʻgʻrisida” (1984y. ) kabi qarorlarini koʻrsatish mumkin.

1984 yil aprel oyida maʼqullagan “Umumiy taʼlim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yoʻnalishlari” oʻquvchilar mehnat tayyorgarligining samaradorligini oshirish gʻoyalari bilan sugʻorilgan.

Islohotga koʻra oʻquvchilarning mehnat tayyorgarligiga ajratilgan oʻquv vaqti deyarli ikki marta orttirilgan. Maktabda umumiy kasbkorlik joriy etilmoqda,

shu tufayli o'quvchilar o'z mehnat faoliyati boshlanishiga qadar ommaviy kasblardan birini egallash imkoniga ega bo'ladi. Kasb tanlash ishlariga talablar ortmoqda. Bu muhim masalani xal qilish uchun VIII-IX sinflarda yangi "Ishlab chiqarish asoslari. Kasb tanlash" o'quv fani joriy etiladi. Bu fan o'quvchilarning politexnik ta'limini amalga oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borish quyi sinflardan boshlanadi, yuqori sinflarda esa unumli mehnat o'quvchilar mehnat faoliyatining asosiy formasi bo'lib qoladi.

1997 yilda O'zbekiston hukumati "Ta'lim to'g'risidagi" qonun qabul qilindi, bunda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida texnologiya ta'limi o'quv faniga 1-4Sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7Sinflarda haftasiga 2 soatdan va 8-9Sinflarda haftasiga 1 soatdan, hammasi bo'lib 408 soat vaqt ajratilgan.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog'ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari, qishloq xo'jalik asoslari, badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari yo'nalishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari ko'zda tutilgan.

5-7 sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy-estetik didi va dunyoqarashini kengaytiradigan, oilaviy hayot va turmushda kerak bo'ladigan yuqorida ko'rsatilgan o'quv kurslari o'quvchilarda milliy madaniyat va an'analarga mehr-muhabbat uyg'otadi. 8-9 sinflarda kasb-hunarlariga yo'nal-tirish kursi ta'lim oluvchilarning ijtimoiy dunyoqarashini kengaytiradi, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlarini ongli ravishda tanlashlariga ko'maklashadi.

Shunday qilib, umumiy ta'lim maktabi islohoti o'quvchilar mehnat tayyorgarligini yangi, yanada yuqori darajaga ko'taradi, bu esa hozirgi yuksak rivojlangan ishlab chiqarishning sotsialistik korxonalaridagi mehnatkashlarga qo'yadigan talablariga javob beradi.

### **Maktab islohotida texnologiya ta'limi vazifalari.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil 14-15 aprelda o'tkazilgan birinchi chaqiriq XIV sessiyasida Birinchi Prezident I. A. Karimov

nutqida belgilab berilgan ta'lim sohasini rivojlantirishning hozirgi dolzarb masalalari, barkamol avlodni vatanparvar, mehnatsevar, ilmiy bo'lishini ta'minlash yuzasidan vazifalarga, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asoslariga binoan ishlab chiqilgan. Ushbu dastur 1998-99 o'quv yilida respublikaning belgilangan maktablarida texnologiya ta'limi o'quv fanidan o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga binoan tuzilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida texnologiya ta'limi fanini o'qitishning maqsadi — o'quvchilarni aqliy va jismoniy mehnat turlari, jarayonlari hamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mehnat ko'nikmalari va malakalarini, mehnatga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish, ularni mehnat va kasblarni qadrlashga, ularning ahamiyatini tushunishga o'rgatish hamda kasb tanlashga tayyorlash orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish lozim bo'ladi:

**Ta'limiy vazifa** — o'quvchilarning barkamol shaxslar bo'lib shakllanishlari uchun ularga mehnat jarayonlari, kasblar, umumiy texnologiya, texnika va ishlab chiqarishning ilmiy asoslarini o'rgatish, ularni kasb tanlashga yo'naltirish, kamida uchta kasb bilan dastlabki tanishtirish orqali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish va kasb-hunar kollejlarida ta'lim olishga tayyorlashdan iborat.

**Tarbiyaviy vazifa** — o'quvchilarning mehnat ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida mehnat va kasbga munosabatlarida yuqori axloqiy sifatlarni, mehnatsevarlik vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat.

**Rivojlantiruvchi vazifa** — texnologiya ta'limi mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarga aqliy, jismoniy, axloqiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish, kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish orqali ularning barkamol shaxslar bo'lib etishishlariga yordam berishdan iborat.

Texnologiya ta'limi fanining mazmuni shartli ravishda uchga, ya'ni texnologiya ta'limi tayyorgarligi, kasblar bo'yicha tayyorgarlik va kasbgacha maxsus tayyorgarlik qismlariga bo'linadi. Bu qismlar har bir dars va mashg'ulotlarning tarkibiga singib ketgan bo'lib, ularning o'qituvchilar va

uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuqtai nazardan hisobga olingan holda tahlil qilib borilishi texnologiya ta'limi mashg'ulotlarining aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi.

Mehnat ta'limning yo'nalishlari maktab atrofidagi korxonalar, tashkilot va kasb-hunar kollejlari keng tarqalgan sohalar, kasblarga muvofiq tanlab olinadi. SHunga ko'ra har bir maktabda texnologiya ta'limining quyidagi yo'nalishlari asos qilib olinishi mumkin:

- yog'och va unga ishlov berish texnologiyasi;
- metall va unga ishlov berish texnologiyasi;
- gazlamaga ishlov berish texnologiyasi;
- pazandachilik asoslari;
- qishloq xo'jaligi asoslari va boshqalar.

5—7 sinflarda ushbu yo'nalishlardan- ayrimlari tanlanadi va 8—9 sinflarda shu tanlangan yo'nalishlarga muvofiq holda ishlab chiqarish asoslari va kasbga yo'naltirish kursi o'qitiladi.

Ushbu yo'nalishlarning har biri yuzasidan quyidagi bo'limlar bo'yicha o'zaro uyg'unlashtirilgan nazariy bilimlar beriladi va amaliy ish ko'nikmalari shakllantiriladi:

1. 1. Materialshunoslik asoslari.
2. Asbob-uskunalar haqida ma'lumot va ishlatish usullari.
3. Mashina, mexanizm, stanoklar va moslamalarning umumiy tuzilishi va ishlatish asoslari.
4. Mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasi.
5. Xalq hunarmandchiligi kasblari bo'yicha umumiy ma'lumotlar berish va o'zaro turdosh uchta kasb yo'nalishi bo'yicha kasbgacha tayyorgarlikni amalga oshirish.

Bundan tashqari har bir asosiy yo'nalish bo'yicha uy-ro'zg'or madaniyati va unga tegishli ta'mirlash ishlarini bajarish ko'nikmalari shakllantirilib boriladi.

Har bir yo'nalish bo'yicha ishlatiladigan elektrotexnika vositalari, ulardan to'g'ri foydalanish hamda ta'mirlash asoslari o'rgatiladi.

Har bir asosiy yoʻnalish boʻyicha kompyuter texnikasidan foydalanish masalalari yuzasidan dastlabki maʼlumotlarni berish koʻzda tutiladi.

Har bir dars mazmuniga bogʻliq holda iqtisodiy, huquqiy va ekologik bilimlar hamda xavfsizlik texnikasi qoidalari oʻzaro uygʻunlashtirilgan holda oʻrgatib boriladi.

5—7 sinflarda texnologiya taʼlimi yoʻnalishlarining hammasi uchun uygʻunlashtirilgan badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari mashgʻulotlari oʻtkaziladi. Dasturda badiiy mehnat texnologiyasi mashgʻulotlari barcha yoʻnalishlar uchun umumlashtirilgan holda berilgan, ulardan tegishli yoʻnalishga doir mavzular oʻqituvchi tomonidan ajratib olinishi lozim.

Texnologiya taʼlimi darslarida oʻquvchilarda kasblar turlariga oid bilim, koʻnikma va malakalar maktab joylashgan hududdagi imkoniyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tanlanadigan kasblar asosida shakllantiriladi.

Qishloq xoʻjaligi mehnati taʼlimi zaminida mashgʻulotlarning mazmuni asosan xalq hunarmandchiligi kasblari va yosh fermerlik yoʻnalishida olib borilishi maqsadga muvofiq. Yirik sanoat ishlab chiqarishi rivojlangan hududlardagi maktablarda texnologiya taʼlimi darslarida oʻquvchilarni shu sanoat sohasiga oid zamonaviy kasblarga yoʻnaltirish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Oʻquvchilarning texnologiya taʼlimini amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy va uslubiy vazifalarni hal qilish lozim:

**Tashkiliy vazifalar.** Texnologiya taʼlimi boʻyicha nazariy mashgʻulotlar uchun oʻquv xonasi va amaliy mashgʻulotlar uchun ustaxona tashkil qilish va ularda xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini yaratish.

Oʻquvchilarni mashgʻulotlar uchun zarur xom ashyo, material, asbob-uskunalar bilan taʼminlash hamda moslamalar, mexanizmlar, stanoklar bilan amaliy ishlash jarayonini tashkil qilish.

Sanitariya-gigiyena hamda mehnat xavfsizligi boʻyicha meʼyoriy hujjatlarda belgilangan talablarning toʻliq bajarilishini taʼminlash va muntazam nazorat qilib borish.

O'quvchilarning turli kasblar bo'yicha mehnat jarayonlari va kasb egalari bilan yaqindan tanishishlarini amalga oshirish uchun korxonalar, jamoa xo'jaliklari, tashkilotlar, muassasalar bilan doimiy aloqa o'rnatish.

Rasmiy hujjatlar: me'yoriy rejalashtiruvchi hujjatlar, ustaxonada xavfsizlik texnikasi, sanitariya-gigiyena va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalariga doir hujjatlarni yuritish.

**Uslubiy vazifalar.** Mashg'ulotlarning yarim va bir yillik ish rejalarini tuzish. Bunda mahalliy sharoitlar, ehtiyojlar va imkoniyatlarni hisobga olgan holda, kasblar tasnifi asosida, o'quvchilarni yaqindan tanishtirish mumkin bo'lgan kasb turlarini tanlash.

O'g'il va qiz bolalarning o'zlariga xos mehnat mashg'ulotlarini va kasb tanlashlarini amalga oshirib borish.

Mashg'ulotlarda zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalar, yangi didaktik vositalardan keng foydalanish, texnologiya ta'limi va tarbiyasining birligini ta'minlash. O'quvchilarda turli kasblarga tegishli dastlabki mehnat ko'nikma va malakalarini, mehnatsevarlikni shakllantirish.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarni aqliy va axloqiy jihatdan rivojlantirib borishda ularning yosh xususiyatlarini, shaxsiy psixologik va fiziologik sifatlarini hisobga olish.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish.

O'quvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini reyting tizimi asosida nazorat qilib borish.

Maktabda texnologiya ta'limi va tarbiyasi, kasbga yo'naltirish jarayonini tashkil qilish hamda uni amalga oshirishda pedagogika, didaktika, psixologiya, fiziologiya, xususiy metodika va maxsus fanlarning ilmiy xulosalaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan. Mashg'ulotlar mavzusi amaliyot bilan, o'quv mazmuni tarbiyaviy muammolarni hal qilish bilan uyg'unlashtirilgan holda bo'lishini ta'minlash.

Mazkur o‘quv dasturi asosida olib borilgan o‘quv-tarbiya ishlari natijalarini, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlarini aniqlash va nazorat qilish Davlat ta’lim standarti asosida amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5—9-sinflarida o‘quvchilar soni shahar maktablarida 25 va undan ortiq, qishloq maktablarida 20 va undan ortiq bo‘lsa, texnologiya ta’limi darslari shu sinflardagi o‘quvchilarni ikki guruhga ajratgan holda olib boriladi.

Xalq hunarmandchiligining ayrim nodir kasblarini o‘rgatish uchun usta-shogird yoki ota-o‘g‘il, ona-qiz shakllaridan foydalaniladi. Bunday mashg‘ulotlarni tegishli xalq ustalari bilan maktab o‘rtasida tuziladigan shartnomalar asosida tashkil qilinadi.

Dasturdagi mehnat yo‘nalishlari bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish ketma-ketligi mahalliy sharoit va imkoniyatlar hisobga olingan holda o‘qituvchi tomonidan hal qilinadi.

Texnologiya ta’limining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar 5 va 6 sinflarda 6 kundan, jami 24 soat, 7-sinfda 10 kun jami 40 soat va 8-sinfda 16 kun, jami 96 soat rejalashtirilgan bo‘lib, ular o‘quv yilining yozgi, bahorgi va qishki amaliy mashg‘ulotlar davrida o‘qituvchining tanlashi asosida o‘tkaziladi. qishloq xo‘jaligi asoslari yo‘nalishi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar o‘quv yilining tegishli mavsumlarida o‘tkaziladi. Amaliy mashg‘ulotlarning maqsadi— o‘quvchilarga o‘rgatilayotgan bilim, ko‘nikma va malakalarni bevosita ijtimoiy foydali va unumli ishlab chiqarish mehnati jarayonida (ustaxonada, fermada, korxonada, tashkilot, muassasa, jamoa xo‘jaligi ekinzorlarida yoki hunarmand usta huzurida) mustahkamlashni bozor munosabatlari qoidalari asosida tashkil qilishdan iborat.

Texnologiya ta’limining maqsadi o‘quvchilarga faqat bilim, ko‘nikma va malakalar berishgina emas, balki ularda mehnatga, jamoa va mulkka, kollektivga va uning alohida a’zolariga ongli munosabatni, shaxsiy va jamoa foydasi uchun ishlashga tayyorgarlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalash mehnat tarbiyasining vazifasi va bosh yo'lidir.

Mehnatga ongli munosabat – xar bir shaxsning axloqiy qiyofasining asosiy xususiyatidir. Xar bir mehnatchi – ishchi, jamoa a'zosi, aqliy mehnat kishisi o'z hayotini mehnatsiz tasavvur qila olmaydilar.

Xar bir kishi mehnatni shaxsiy hayoti va o'zaro yordam hissini tarbiyala berish lozim. Mehnat topshirig'ini bajarish jarayonida ular ba'zi ishlarni birgalikda, bir-birlariga yordam berdi, maslahatlashib bajarishga to'g'ri keladi. Bu imkoniyatga o'qituvchi o'quvchini tarbiyalashda keng foydalanishi lozim.

Xar bir o'quvchi o'z shaxsiy mehnati maktab jamoasining o'quv ustaxonalaridagi mehnati bilan chambarchas bog'liqligini chuqur tashinib yetishi uchun mahsulotlar tayyorlashda mehnatni aniq taqsimlashni amalda qo'llashi kerak.

Ayrim o'quvchilar ishda ehtiyotsizlikka, intizomsizlikka yul kuysalar, u xolda ishdagi uzilishlarga murosasiz munosabatda bo'lish lozim.

O'qituvchi suhbatda, instruktajda nimani va qanday asbob bilan, qay izchillikda tayyorlash haqidagina ma'lumot berish bilan chegaralanib qolmasligi. Bu yerda mazkur mehnatni ijtimoiy, jamoa uchun jamiyatini xam ta'kidlashi kerak.

Tayyorlangan mahsulotni buyurtmachiga topshirish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Unda eng aktiv ishtirok etgan o'quvchilarni taqdirlash, ularni keyinchalik sinfdoshlariga buyumni topshirish va undan foydalanish haqida gapirib beradigan bo'lsinlar.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilar o'zaro do'stlik va o'zaro yordam rahbarlik va bo'ysunish, javobgarlik munosabatiga, o'zaro talabchanlik va ish yuzasidan olib boriladigan tanqidiy munosabatlarga kirishadilar. O'qituvchi bu munosabatlarni kamol topishini diqqat bilan kuzatishi va ularni to'g'ri yo'naltirib turish kerak.

O'z-o'zini tanqidiy baholash va tanqidiy nazorat qilish, kamchiliklarga nisbatan murosasiz bo'lish hislarini tarbiyalash.

O'qituvchi tayyorlangan buyumni tekshirdi, o'qituvchiga uni sifatini mustaqil baholashni taklif qiladi. O'qituvchilar tayyorlangan buyumlarni aniqligi va sifatini aniqlashga doir sistematik ravishda mashq qilishlari ularda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini, o'z-o'zini tanqidiy baholash hisini shakllashiga yordam beradi.

Bu ko'nikmalarni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarni o'z-o'zini nazorat qilish ishiga sistematik ravishda jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Ongli intizomni tarbiyalash. O'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda avvalo o'quvchilarga kulay shart-sharoitlar yaratish, ularni ishontirish metodidan foydalanish lozim. SHu bilan birga ularning ishiga yuqori talabchanlik bilan yondashish kerak.

O'qituvchining sistemasi va qat'iy talablarni bajarish natijasida o'quvchilar ustaxonada qabul qilingan qoidalar: ish o'rnini namunali tutishga. Asboblarni ehtiyoj qilishga odatlanadilar.

Texnologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning o'z-o'ziga va o'rtoqlariga nisbatan talabchanlikni rivojlantirishga yordam beradigan uchta asosiy shartni ko'rsatamiz.

1. Jamoa a'zolari bir-birlariga ma'lum talablar kuyishga majbur qiladigan vaziyatlarni yaratish va ulardan mehnat jarayoningda foydalanish. Masalan maktab uchun taburetka tayyorlash. Ish zvenolar bo'yicha olib boriladi. Xar qaysi zveno bir tipdagi detallar – oyoqchalar uchun zagotovkalar tayyorlaydilar. Boshqa bir zveno bu detallardan taburetkani yig'ish bilan shug'ullanadilar. Bunda tayyorlangan mahsulotni miqdori va sifati xar bir zveno va alohida bajargan ish miqdori va sifatiga bog'lik bo'ladi. Tayyorlangan mahsulotning miqdori va sifati uchun o'quvchilarning o'zaro bog'liqligi va o'zaro javobgarligi shu tarzda qaror topadi.

2. Jamoa talabalarni o'z vaqtida quvvatlash mehnat jarayonida talablarni birinchi bo'lib aktinnotlar: zvenovoylar, sanitarlar, asbobchilar va boshqalar quyiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning talabchanligini rivojlantirishga, jamoada o'zlarini to'g'ri tutishlarini rivojlantirishga yordam berish kerak.

3. O'quvchilarga sistematik va izchil talabchanlik ko'rsatish lozim.

Jamiyat va shaxsiy mulkka g'amxo'rlik munosabatlarini tarbiyalash. O'quvchilarni ijtimoiy mulkka nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash uchun ularni unumli mehnatga, maktab ustaxonasi kabinetlarni jihozlashga, asboblarni ta'mirlashga jalb qilish lozim. O'quvchilarni materialni tejash, asbob, korjoma va hokazolarni ehtiyot qilishga o'rgatish, ongli intizom va yuqori mehnat madaniyatini tarbiyalashga yordam beradi.

### **Mehnat madaniyatini tarbiyalash.**

O'qituvchining yaxshi tayyorlangan buyumni estetikligini, detallarga ishlov berishning tozaligini, buyumlarni shakllarini go'zalligini xamda o'quvchi mehnat harakatini aniqligini doimo ta'kidlab turishi kerak. Jamiyatimizda mehnat go'zalligi yuqori axloqiy sistemalar bilan va mustaqillikning mustahkamlash uchun kurashni tushunish bilan uyg'un bog'langan.

Yuqori mehnat madaniyati — jamiyatimiz kishilari ajralmas sifatidir, uni o'quvchilarga texnologiya ta'limi berishda singdirib boriladi. Xonalarni jihozi va stanoklarni bo'yalishi estetik hissiyot uyg'otishi kerak. Xonalarni sanitariya-gigiyena normalari, shamollatish, stanoklarni joylashishiga qat'iy amal qilinadi. Asboblarda doim sozlangan va ishga shay bo'lishi lozim. Mashg'ulotlarga o'quvchilar kulay va chiroyli formalarda kelishlari lozim.

Umumiy ta'limni maktablari o'quvchilarini tarbiyalashda murabbiylik.

Hozirgi vaqtda mehnat jamoalari ilg'or vakillarining o'quvchi yoshlar otalik qilishi yangi mazmun bilan boyitadi va murabbiylik deb ataladi.

Murabbiylik sistemasi deyilganda mehnat jamoalarining yoshlarga mehnat tarbiyasi berish va kasbga yo'llashning hamma bosqichlarida umumiy ta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlarda, ishlab chiqarishda keksa avlodning madaniyati va tajribasini bevosita maqsadga yo'naltirilgan xolda berishni ta'minlash uchun olib boradigan pedagogik ishlar majmui tushuniladi.

Murabbiylik vositasida shogirdlarni unumli mehnatga xar tomonlama tayyorlash kuyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: ishchi sinfining eng yaxshi sinflari qabul qilish; ishlab chiqarish bilan, ishchi mehnatining mazmuni bilan tanishtirish; texnik ijodkorlikka tortish; o'quvchilarning axloqiy, mehnat jismoniy va estetik tarbiyalarga yordam beruvchi dam olishning har-xil shakllariga jalb qilish.

Murabbiylikda tarbiyaviy ta'sir metodikasiga qarab tarbiya ishi og'zaki, amaliy va ko'rgazmali shakllari bilan bir-biridan farq qiladi.

Murabbiylarning maktab o'quvchilari bilan ishlashlarida og'zaki formalar ko'proqdir: o'quvchilar bilan uchrashuvlar, tematik kechalar, ishlab chiqaruvchilar ishtirokida o'quvchilar majlislari, ishchi avlodlari ishtirokida mehnat sharafi kechalari, kasb tanlash masalalari bo'yicha axborot va konsultatsiyalar.

Yuqori sinf o'quvchilar orasida mehnat shuhrati kechalari alohida ommaviylik kasb etmoqda, bu kechalar ishlab chiqarish ilg'orlari, mehnat jamoalarini propaganda qilishning muhim formasi bo'lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqaruvchilar kasbga doir axborotlar beruvchi ekskursiyalarga g'oyat umumiy ahamiyat beriladi. Bunday ekskursiyalar o'quvchilarga kasblar olamini tahlil qilish, o'z qiziqishlari, sog'liqlari, xalq xo'jaligi talablariga to'g'ri keladigan kasblarni tanlashlariga yordam beradi.

Tarbiyaviy ishlarda muzeylardan, tematik stendlardan, texnik ijodkorlik ko'rgazmalaridan, jangovar va mehnat shuhrati xonalari va burchaklaridan. Kasbga yo'llash kabinetlaridan foydalaniladi.

Murabbiylar o'z shogirdlari bilan doim muloqotda bular ekanlar, ular xulqiga e'tibor bermasdan qolmaydilar.

O'quvchilarni ishchi kasblariga qiziqishlarini, ijtimoiy foydali mehnatidagi, texnik to'garaklardagi tirishqoqliklarga e'tibor berar ekanlar, murabbiylar o'quvchilar ijodiy hissiyot va motivlar faoliyatini qo'llad quvvatlash va mustahkamlashga intiladilar. SHu maqsadda ular o'quvchilar xulqini, ma'qullash, maqtash, tashakkur bildirish bilan baholaydilar.

Murabbiylar tarbiyalanuvchilarni noo'rin xatti-harakatlarini qoralaydilar, tanbeh berishni asosiy formasi sifatidan tanqidiy mulohazalarni aytish formasidan

foydalanadilar. Noo‘rin xatti-harakati uchun tanbeh olgan o‘quvchi qilgan xatosini tashinib yetishi va o‘z xulqini o‘zgartirishga yordam beradi, o‘z-o‘zini tanqidiy baholash o‘z-o‘zini tarbiyalashga undaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Hunar deganda nimani tushunasiz?
2. Ustoz va shogird haqida qanday fikrdasiz?
3. Farzand, albatta, ota-ona kasbini egallashi shartmi?
4. Hunarni avloddan avlodga o‘tib kelishining sabablari nimada?
5. Mutafakkir so‘zining ma’nosi nimani bildiradi?
6. Qadimdan mehnatning ulug‘lanishiga sabab nima?
7. Insonning kamol topishi qanday deb o‘ylaysiz?
8. Buyuk donishmandlar, olim, yozuvchi, shoirlarning ulug‘lanish sababi nimada deysiz?
9. Muammo deganda nimalarni xayoldan kechirasiz?

## **II-MODUL. TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI.**

### **7- MAVZU. Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi**

#### **Reja:**

1. Applikatsiya va mozaika ishida asosiy ish qurollari
2. Applikatsiya turlari o‘rgatilishi
3. Applikatsiya va mozaika ishlari bilan ishlashning ahamiyati

Applikatsiya – tasvirlash texnikasining turli formalarni qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlarida ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yinlar uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqlar, suvenirilar, devoriy gazetalar, stendlar

va hokazolarni bezashda ishlatiladi. Applikatsiya bilan shugʻullanish oʻquvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishda katta yordam beradi, tasavvurni boyitadi, kuzatuvchanlik va diqqatni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, chamalash va rangni sezishni oʻstiradi. Applikatsiya ishini bajarishda asosiy eʼtibor uning umumiy koʻrinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi oʻylangan kompozitsiya, yaʼni tasvirlash lozim boʻlgan narsalarni joylashtirish applikatsiyalar muvaffaqiyatining garovidir. Tasvirlash lozim boʻlgan narsalar yordamida figura va narsalarning holati aniqlanadi, tasvirlangan hodisalarning uygʻunligiga erishiladi. Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qogʻozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.

Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, yaʼni fonga joylashtiriladi va oʻylangan tasvir hosil qilinadi, agarda bu tasvir maʼqul boʻlmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning oʻrnini qalam bilan belgilab qoʻyiladi.

Misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashinishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib koʻramiz. Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya oʻqini oʻtkazish va elementlarni shunga koʻra joylashtirish lozim. Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi. Koʻpincha ochiq fondagi qogʻoz va fon tanlanadi. Applikatsiya moʻljallangan tasvir va elementlar miqdori qogʻozni tanlashni belgilaydi. Tasvir ustida ishlanganda asosiy eʼtibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning oʻlchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Tasvir hajmiga koʻra eng katta element asosiy tematik element boʻlishi kerak. Namuna tariqasida 1-sinf oʻquvchilari 8-Mart uchun tabriknoma yasashlari mumkin. Bu ishda bolalar andoza bilan ishlaydilar, taxlash va simmetrik qirqishni eslaydilar, chamalash koʻnikmalarini sinaydilar va rangli qogʻozdan ingichka oq va sariq toʻgʻri chiziqlarni qirqadilar. Quyosh uchun kvadrat qogʻozdan doira qirqsa boʻladi. Bolalar yasagan gullar turlicha boʻlishi mumkin. Novdalar ham qoʻlda qirqiladi.

Suhbatni oʻqituvchi “8-Mart kuni” haqida olib boradi va bunda sovgʻa masalasini eslatib oʻtadi. Eng yaxshi sovgʻa oʻz qoʻli bilan yasagan sovgʻadir.

Suhbat mehribon buvijonlarimiz, onajonlarimiz, opa-singillarimiz haqida bo'lishi mumkin. SHundan keyin namuna ko'rib chiqiladi, uning elementlari, ish usullari, kerakli materiallar aniqlanadi va ishning borishi belgilanadi.

**Applikatsiya** – badiiy asar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bunda applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko'rgazmali qurollar, turli o'yin uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqchalar, bezaklar va shu kabilarni yaratishda keng qo'llash imkonini beradi.

**Dekorativ applikatsiya** – u naqsh, gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, hodisa, harakatlar uyg'unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo'lishi mumkin.

Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan. Ular applikatsiyadan kiyim-bosh, turarjoylarini bezatishda foydalanganlar.

Applikatsiya turli xalqlarda turli materiallardan tayyorlangan. Masalan, yoqutlar applikatsiya ishida po'stloqdan foydalanishgan, bo'yalgan po'stloqdan qilingan applikatsiyalar bilan ular o'tovlarini bezashgan. Xanti-mansi, evenk va boshqa shimoliy xalqlar applikatsiyada teri, mato, mo'yna ishlatishgan. Komi, qozoq, qalmiq, osetin, buryat va boshqa xalqlar applikatsiyadan milliy kiyim, uy-ro'zg'or predmetlarini bezashda foydalanishgan.

Applikatsiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan yoki kraxmallangan mato bo'lakchalaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o'simliklar, urug'-danaklar, barglar va shu kabilardan ham foydalansa bo'ladi.

Qog'ozning yaltiraydigan marmar, bosma gul tushirilgan badxat, kumush va bronza, rasm solish va chizmachilik qog'ozni navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya bilan shug'ullanish o'quvchilarning garmonik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Applikatsiya ijodni rivojlantirishga yordam beradi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo'l mehnati, tasvirni his qilish, chamalash va rangni sezishni o'stiradi. Rangli qog'oz yoki boshqa materialdan tasvir ustidagi ish badiiy didni avj oldiradi.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikatsiya eskizi, qog'oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo'yish, yelimplash va nihoyat, quritish jarayonlari keladi. Oddiy applikatsiyalar eskizsiz bajariladi.

Applikatsiya ishlarini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy kompozitsiyasiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish – applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir.

Eng oddiy applikatsiyalar bu geometrik figuralardan qilingan fundamental applikatsiyalardir.

Applikatsiyada avval eskiz tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detaillarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

**Geometrik shaklli applikatsiyalar.** Bajarilish texnikasiga ko'ra applikatsiyalarning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. 1- va 3-sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikatsiyalar bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri to'rtburchak, uchburchak, aylananing qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarni mustahkamlaydilar.

2. Badiiy didni o'stiradi, rasm darslarida yo'l-yo'l chiziq, doira, kvadratda ornamentlar to'zish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.

3. Ayrim predmetlarni detalma-detal tahlil qilib geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar.

4. Bolalarning "ko'p, kam, uzunasiga, ko'ndalangiga, qism va qatlam, ikki qismga qirqish, to'rt qismga, teng qismlarga" kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

5. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar. Ularda estetik did tarbiyalanadi.

Geometrik shaklli applikasiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikasiyalarga ajratish mumkin.

Doira, kvadrat va ovaldan ornamentlar yasash. Ornament detallari: turli o'lchamdagi kvadrat, uchburchaklar tayyorlanadi. Kvadratda naqsh diagonal bo'yicha tuziladi – bunda shakllarni simmetrik joylashtirish qulay. Doirada naqsh markazdan radiuslar bo'ylab tuziladi.

**Geometrik figuralardan predmetli applikasiyalar.** Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishini rivojlantirish kerak. Bunda atrofimizni o'rab turgan narsalar: uy, archa, daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

O'qituvchi istalgan predmetni tanlashi mumkin. Uni bolalar bilan birgalikda ko'rib, uning ayrim detallari qaysi geometrik shakllarga o'xshashligi, ularni qanday o'lchamlarda, qaysilarini kattaroq, qaysilarini kichikroq olish, qanday izchillikda joylashtirish kerakligini aniqlaydilar.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralar va ularning qismlari bilan applikasiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarning har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan shakl paydo bo'lsin.

**Geometrik figuralardan predmetli applikasiya yasash texnologiyasi:**

- ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi;
- ochiq rangdagi qog'oz va fon tanlanadi;
- applikasiya mo'ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi;
- tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi;
- tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy mavzuga mos element bo'lishi kerak;
- tasvirlash lozim bo'lgan materiallar yordamida figura va predmetlarning holati aniqlanadi;
- tasvirlangan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi;

- tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog'ozdan qirqladi, ularni chizmaslik kerak;
- tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi;
- agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi;
- detallarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- misol tariqasida eng oddiy geometrik shakl – kvadratni olib, uning almashishini hosil qilish uchun turli holatlarda joylashtirib ko'ramiz;
- ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. Bolalarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlilik, tartibliylik tarbiyalanadi. Uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalariga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikatsiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib didaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlar shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

**Ko'p rangli applikatsiyalar.** Ko'p rangli applikatsiyalarni qirqish ancha murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikatsiyalarni bajarishda fonni tanlash juda muhimdir. Fon ifodalangan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak. Ana shunda predmet xuddi bo'rtib turgandek yorqin ko'rinadi. Hammasi o'ylagan asarga bog'liq. Fonda joylashgan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarining tabiiy joylashishi va o'lchamlarining uyg'unligiga e'tibor berish kerak. Bu ishlarni bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar oldindan belgilanmay qirqladi, ayrim detallar esa belgilangan eskizlar bo'yicha qirqladi.

Ko‘p rangli applikatsiyalardan biri dekorativ applikatsiyalardir. Dekorativ applikasiya naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlangan hodisa harakatlar uyg‘unligini aks ettiruvchi manzaralardan iborat bo‘lishi mumkin.

Dekorativ applikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materiallardan olishlari, ayrim elementlarni qo‘lda yaratishlari mumkin. SHarq naqshi applikatsiyasining bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ applikasiya bir va ko‘p rangli bo‘lishi mumkin.

**Badiiy applikatsiyalar.** Mavzuli ishlarni yaratish faqat mehnatni emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Texnologiya ta’limi darslarida applikasiya ishlarining bajarilish texnikasi o‘rganiladi.

Rangdor surat applikasiya mavzusining elementlarini, o‘quvchilar turli bayramlarga bag‘ishlangan ishlarni (tabriknomalarni, maktub va faxriy yorliqlar muqovasini, yo‘l belgilarini) bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Applikasiya ishida ochiq fondagi qog‘oz fon tarzida tanlanadi. Applikasiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog‘ozni tanlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida ishlagan asosiy e’tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarni tanlashga qaratiladi. Asar hajmiga ko‘ra eng katta detal mavzuli detal bo‘lishi kerak.

**Syujetli applikasiya.** Syujetli applikasiya asariga ko‘ra oddiy va murakkab bo‘lishi mumkin. Murakkab syujetli applikasiya – ertaklar, hikoyalar va shu kabilarga illyustratsiya sifatida yasaladi. Agarda syujet oddiy bo‘lsa, tasvirlarni oldindan belgilamasdan qirqish mumkin.

Murakkab syujetli applikasiya ham syujet tanlashdan boshlanadi. Agarda syujetni o‘quvchining o‘zi o‘ylab topgan bo‘lsa, bu rasmni chizish malakasiga ega bo‘lsa, unda avval syujetning rasmi, so‘ngra rasmlar detallari chiziladi va qirqib olinadi. Ayrim detallar turli rangdagi qog‘ozlardan qirqiladi. Agarda o‘quvchi rasmni yaxshi chiza olmasa, u tanlangan rasmdan qora qog‘oz yordamida nusxa ko‘chirishi mumkin. Bu rasm ayrim detallarga ajratiladi, rangli qalam bilan har bir detalning atrofi chizib chiqiladi. Ularni qirqib olib, syujet yoki narsa detallari

qog'ozga yig'iladi. Syujet yoki predmetning tabiiy ko'rinishiga putur yetmasligi uchun ularning qaysi tartibda yelimlanishi belgilanadi va ishga kirishiladi.

**Mavzuli applikatsiya.** Mavzuli applikatsiya ma'lum mavzuni aks ettirishi lozim. U badiiy asar uchun illyustratsiya, applikatsiya plakat bo'lishi mumkin. Badiiy tematik mavzuli applikatsiya ishi predmetlar formasini, asosiy aniqliklarni, qismlarning o'zaro aloqasini, manzara va narsalarning hajmini, rangini, soya va yorug'lik tushayotgan tomonini munosib rang berib ko'rsatish kabilarni ifodalashi kerak.

Faqat XVI asrga kelib rivojlangan qog'ozdan applikatsiya qilishni applikatsiyalarning "yosh" turi deyish mumkin. Qog'ozdan naqsh qirqish bilan o'tmishning mashhur san'atkorlari ham shug'ullanishgan. Masalan, rassom Piter Paul Rubens, daniyalik haykaltarosh Bertel Garvildson ishlari shular jumlasidandir. Mashhur ertakchi Hans Xristian Anbersen o'z ertaklari motivlari asosida qog'ozdan applikatsiyalar qirqqan. Rassom F. P. Tolstoyning XIX asrning birinchi yarmidagi siluet yaratuvchilarning eng mohir ustasi deyish mumkin. Uning 50ta siluet ishi Ermitajda saqlanmoqda.

XIX asrda siluet san'ati G.Narbut, Y.Krutikov va ko'pgina boshqa rassomlarning ijodida ham o'z aksini topdi. Applikatsiya san'ati bilan faqat professional san'atkorlarga shug'ullanib qolmay, balki xalq orasidan chiqqan mohir ustalar ham bu ish bilan shug'ullangan edilar. Ukraina va Belorussiyada qog'ozdan naqshli parda-franklar qirqishgan. Qog'ozdan kartinalar yaratib, oynalarga yopishtirilgan. Rassom Y. Lebedeva ham o'z talantini qog'ozdan applikatsiyalar qirqishga bag'ishlagan. Polshada bezak sifatida qirqilgan naqshlar yangi oqlangan devor va shiplarga yopishtirishgan.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi hamda majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan ma'lum izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiya syujetni tanlashdan boshlanib, undan keyin applikatsiya eskizi, qog'oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo'yish, yelimlash va nihoyat quritish jarayonlari keladi.

Applikatsiya ishida o'quvchilar mashg'ulotga oldindan tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga qog'oz yozib, o'ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, avtoruchka, old tomonlariga yelim, qiyqimlar uchun quti, chap tomonlariga ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plamini qo'yadilar. Har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerak bo'ladigan narsalarni yozib oladilar.

O'quvchilar ishlayotgan materiallariga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari va ish joyini toza saqlashlari kerak.

Elim bilan ishlaganda no'l va quruq latta bo'lishi lozim. Ho'l latta qo'lga yuqqan yelimni artish uchun, qurug'i yelimlanayotgan tasvirlarni ustidan bosish va ortiqcha yelimlarni artish uchun kerak.

Tolalarning ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha qirqilgan qog'oz yopishtirilganda izlar qoldiradi, uzunasiga qirqilganda bir tekis yaxshi yotadi. Ishlaganda qog'ozning bu xususiyatini e'tibordan qochirmaslik kerak. Yelim surilganda qog'oz uni shimishini, qog'oz tolalarning ko'ndalangiga, uzunligidan ko'proq kengayishini ham unutmash kerak. Agarda qog'ozni yelim surilgan zaxotiyoyq yopishtirilsa, davom etayotgan shimish va kengayish natijasida qog'ozda g'ijimlar, izlar paydo bo'ladi. SHuning uchun yelim surilgach, qog'oz biroz vaqt yopishtirilmay turishi kerak. Qog'ozning yaltiraydigan marmar, shagren, bosma gul tushirilgan qog'oz, badxat qog'ozi, kumush va bronza rasm solish va chizmachilik navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya ishida tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan kompozitsiya hosil qilinadi, agarda bu kompozitsiya ma'qul bo'lmasa detallar boshqacha joylashtiriladi. Detailarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yish kerak.

Yelimlashda yelim fonga emas, detalga suriladi. Yelimni detalning chetlariga yaxshilab surish uchun cho'tka yelimlanayotgan detal chetidan chiqib, tagidagi qog'ozga ham tegib o'tishi kerak. Yelimlangan detalning ustiga toza

qog'oz yozib, kaft bilan silab tekislanadi. Applikatsiyalar odatda qog'ozning buralib ketmasligi, tor kelmasligi uchun ustidan yengil bostirib quritiladi.

Eng oddiy applikatsiya bu geometrik figuralardan qilinadigan ornamental applikatsiyadir.

Avval ornament eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar (geometrik shakllar) o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detallarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detaldan boshlash kerakligi aniqlanadi.

1. Tabriknoma uchun rangli qog'oz tayyorlanib, u ikkiga buklanadi;
2. Ko'k rangdagi qog'ozga to'g'ri burchak chiziladi, uning o'lchami uzunasiga, tabriknoma ustining uzunligidan 1 sm kam, eniga esa enining yarmidan 2sm atrofida kattaroq;
3. Ko'k qog'ozdan qirqilgan to'g'ri burchak taklifnomaning ustiga yopishtiriladi, bunda ko'k qog'oz taklifnomani bo'yashda xalaqit bermasligi uchun bo'lish chizig'ining chap tomonidan ozgina joy qoldirib yopishtiriladi;
4. Endi quyosh va uning nurlari uchun yoy qirqiladi. Buning uchun kvadrat shakldagi qog'ozni kerakli o'lchamda qirqiladi;
5. Namuna asosida quyosh nuri qirqiladi;
6. Och ko'k va jigar rang qog'ozdan ikkita shox qirqib, namunadagidek yopishtiriladi;
7. Gullar qirqib yopishtiriladi.

Ish ijodiy tarzda bo'lganligi uchun o'quvchilar gullarni shoxlarga o'zlari mustaqil joylashtiradilar. Barglarni o'qituvchi tarqatgan andoza bo'yicha qirqadilar. Tabriknomaning ichki tomoni naqsh bilan bezatilib, tabrik so'zi yoziladi.

Mozaika monumental dekorativ san'at turlaridan biridir. Turli davrlarda va turli mamlakatlarda mozaika qo'llaniladigan materialiga ko'ra ham, naqsh va rasmlariga ko'ra ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. O'rta Osiyo madrasalari, masjidlar, hukmdorlarning saroylari mozaika bilan bezatilgan. Mozaika hozirgi kunda monumental san'atga aylangan. Mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va xalq amaliy san'ati asarlari bezatiladi. Mozaika

ishlarida oyna, sopol plitalaridan foydalaniladi. Mohir ustalar rangli koʻzgu parchalarida ajoyib mozaika asarlari yaratishadi, ular quyoshda bir-biriga qoʻshilib va porlab, shodlik kayfiyatini yaratadi.

Mozaika bu rasm sathiga ayrim parchalar (qogʻoz, oyna, sopol, gul tojibarglari, tuxum poʻsti va shu kabilar)ni qoʻyib chiqishdir.

1. Tuxum poʻstidan mozaika ishlarini bajarish uchun yuvib quritilgan tuxum poʻsti moʻyqalam yordamida akvarel boʻyoqlari bilan kerakli ranglarga boʻyaladi.

2. Boʻyoq qurigandan keyin tuxum poʻstini tanlangan rasmga koʻra mayda va yirik boʻlaklarga boʻlinadi.

3. Tuxum poʻstidan mozaika qilishda shunday tasvirni tanlash kerakki, ularning konturlari mumkin qadar tekis va mayda, egri-bugrilari boʻlmasligi kerak.

4. Kontur qora qogʻoz orqali oʻtkaziladi yoki shablondan aylantirib chiziladi.

5. Avval rasm sathining bir qismiga yelim surtiladi. U yerga tuxum poʻsti terib chiqiladi, keyin ikkinchi qismiga ham shu tartibda davom ettiriladi.

6. Ortiqcha yelim toza mato boʻlagi bilan artib tozalanadi, poʻst yaxshiroq yopishishi uchun ustidan sekin bosib qoʻyiladi. Bunday ish odatda eng oddiy konturlardan boshlanadi. Keyinroq konturlar ancha murakkablashadi. Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urugʻlari, danak, baliq tangalari, chigʻanoq, mayda toshlar bilan xilma-xil mozaika ishlarini bajarish mumkin.

Birinchi sinfda oʻquvchilar eng avvalo faqat dars mashgʻulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham toʻqnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha oʻquv anjomlari daftarlar, kitoblar, oʻquv qoʻllanmalari, bosiladigan qogʻoz turlari: yozadigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan, kitob va oynoma qogʻozlarida. Taʼlim jarayonida oʻquvchilar turli qogʻozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari: rangi, qalinligi, zichligi siyohni ishlash xususiyati, sathining xarakteri silliq gʻadir budurligi bilan tanishadilar.

Oʻquvchilar mashgʻulotlarida qogʻoz varaqalarni buklaydilar va toʻgʻrilaydilar, ularni qismlarga boʻlib yirtadilar, qirqadilar va boʻyaydilar. SHu bilan birga qogʻozni buklash yoʻli bilan turli xil narsalarni shaklini yasaydilar. “Qogʻoz va karton bilan ishlash” oʻquvchilarni garmonik rivojlantirishda katta

ahamiyatga ega. Ayniqsa, rangli qog‘oz bilan ishlash ijodini rivojlantirishga yordam beradi, fantaziyani boyitadi, kuzatuvchilik, diqqat va tasavvurni aktivlashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qo‘l mehnati, chamalash va rangni sezishni o‘stiradi.

“Qog‘oz va karton bilan ishlash” mashg‘ulotlariga o‘quvchilar oldindan quyidagicha tayyorgarlik ko‘rishadi: stolni ustiga qog‘oz yozib, o‘ng tomoniga qaychi, elim uchun cho‘tka, chizg‘ich, qalam, avtoruchka, oldi tomonlariga elim, qiyog‘imlar uchun quti, chap tomonlariga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog‘oz to‘plamini qo‘yadilar. Har bir mashg‘ulot oxirida o‘quvchilar keyingi mashg‘ulotda kerak bo‘ladigan narsalarni yozib oladilar.

O‘quvchilar ishlayotgan materiallariga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari, o‘z ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari vaqtdan unumli foydalanishlari, o‘qituvchi ko‘rsatmalariga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashlari, mashg‘ulotdan so‘ng sinfni tozalab qo‘yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo‘llanilgani kabi mehnat darslarida ham ta‘limning ko‘rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek texnika vositalaridan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek “Qog‘oz va karton bilan ishlash” mashg‘ulotlarida o‘quvchilar qog‘ozni buklash yo‘li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o‘rganib boradilar. Ana shunday mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchi quyidagi ko‘rsatmali qurollardan foydalanishi mumkin. SHu bilan birga o‘quvchilar bu ko‘rgazmalarni yasash bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasashlari ham mumkin.

Applikatsiya –badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usulidir. Bu applikatsiyadan faqat bezash maqsadlaridagina ko‘rgazmali qurollar, turli o‘yinlar uchun qo‘llanmalar, o‘yinchoqlar, bayroqchalar, suvenirilar, devoriy ro‘znomalar, stendlar, ko‘rgazmalar va kostyumlarni tayyorlashdagina emas, balki kartina, fano naqshlarni va shu kabilarni yaratishda ham keng qo‘llash imkonini beradi.

Applikatsiya tasvirlash texnikasining turli formalarini qirqish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Applikatsiya 2500 yil muqaddam ko'chmanchi xalqlarda paydo bo'lgan. Applikatsiya bilan kiyim bosh, turar joylar bezatilgan. Applikatsiya ishida asosiy material qog'ozdir, dazmollangan va kraxmallangan gazlama bo'lakchalaridan ham foydalanish mumkin. Bu materiallar bilan bir qatorda somon, quritilgan o'simliklar urug'i-danak, barglar, shu kabilardan ham foydalanadilar.

Qog'ozning yaltiraydigan marmar, shagren, bosma gul tushirilgan badxat, kumush va bronza rasm solish va chizmachilik navlari applikatsiya uchun yaroqlidir.

Applikatsiya ishlari doimo xotirada saqlanishi haqida majburiy qoida sifatida bajarilishi lozim bo'lgan ma'lum izchillikda ado etiladi. Istalgan applikatsiyadan biror narsaning qolipini tanlashdan boshlanib, undan keyin applikatsiya eskizi, qog'oz tanlash, kerakli detallarni qirqish, ularni fonga qo'yish keladi. Eng oddiy applikatsiyalar bu geometrik figuralardan qilinadigan ornamental applikatsiyadir.

Avval ornamental eskizi tuziladi, so'ngra kerakli detallar o'lchami va miqdori hisoblanadi. Detailarni tayyorlab ma'lum tartibda joylashtiriladi va yopishtirishni qaysi detallardan boshlash kerakligi aniqlanadi. So'ngra tayyorlangan materiallar bir-biriga yopishtiriladi.

### **Geometrik shaklli applikatsiyalar**

Bajarilish texnikasiga ko'ra applikatsiyaning eng oddiy turlaridan biri geometrik shaklli applikatsiyalardir. I-III sinf o'quvchilari geometrik shaklli applikatsiyalarni bajarishda quyidagi bilimlarni egallaydilar.

1. Geometrik shakllar: kvadrat, to'g'ri burchak, uchburchak, aylana qog'oz bo'lagidan va o'lchov asboblari yordamida hosil bo'lishi haqidagi mavjud bilimlarini mustahkamlaydilar.

2. Badiiy didini o'stiradi, rasm darslarida polosa, doira, kvadratda ornamentlar to'zish bo'yicha olingan bilimlarni chuqurlashtiradilar.

3. Ayrim predmetlarni detalma-detallik tahlil qilib, geometrik shakllarni to'g'ri idrok etishni o'rganadilar.

4. Bolalarning "ko'p", "kam", "uzunasiga", "ko'ndalangiga", "qism" va "qatlam", "ikki qismga qirqish", "to'rt qismga", "teng qismlarda" kabi tushunchalari mustahkamlanadi.

5. Bolalar ranglar uyg'unligini to'g'ri tanlashni o'rganadilar.

Ularda estetik did tarbiyalanadi. Geometrik shaklli applikasiyalarni ham dekorativ-ornament, predmet, syujetli applikasiyalarga ajratish mumkin.

### **Geometrik figuralardan predmetli applikasiya**

Bolalarning predmetlarni fazoviy idrok etishi rivojlanishi kerak. Buni o'rab turgan narsalar: uy, archa daraxt, mashina, idish-tovoq, jonivorlar, gullar va shu kabilarni u yoki bu darajada geometrik shakllar bilan ifodalash mumkin.

Rangli qog'ozlardan olingan doiralalar va ularning qismlari bilan applikasiya bo'yicha juda ko'p geometrik ishlarni bajarish mumkin. Doiralarning har birini shunday joylashtirish kerakki, natijada talab qilinadigan kontur paydo bo'lsin. Ishni qo'ziqorin, pufak kabi oddiy shakllarni bajarishni 1 sinfdanoq boshlash mumkin. 2-3 sinflarda murakkabroq ishlarni bajarish mumkin. Bu ishlar o'quvchilarda ijodiy va atroflicha tasavvurni, badiiy didni o'stirishga yordam beradi. Bolalarda qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qat'iyatlik, tartiblik tarbiyalanadi, uyushqoqlik bilan ishlash ko'rsatmalarga rioya qilish, tashabbuskorlik ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilar tayyorlagan applikasiyalar ona tili va matematika darslari uchun ajoyib dedaktik material, o'quvchilar nutqini o'stirish vositasi bo'lishi, ularning predmetlar shakli, rangi, fazoda joylashishi haqidagi tushunchalarini boyitishga xizmat qilishi mumkin.

### **Ko'p rangli applikasiya**

Ko'p rangli applikasiyalarni qirqish anchagina murakkab ish bo'lib, tasvirni qismlarga ajratish bilan aloqadordir. Bu turdagi applikasiyani bajarishda fonni tanlash muhimdir. Fon ifodalanadigan predmetlar rangidan ochroq bo'lishi kerak.

Ana shunda predmet xuddi bo‘rtib turgandek yorqin ko‘rinadi. Hammasi o‘ylagan kompozitsiyaga bog‘liq. Fonda joylashadigan detallar rangi ham shunga qarab tanlanadi, detallarning tabiiy joylashishi va o‘lchamlarning uyg‘unligiga e‘tibor berish kerak. Bu ishlarni bajarishning bir necha usullari mavjud: ayrim detallar konturlarini oldindan belgilamay qirqiladi; ayrim detallar esa belgilangan natuuraeskizlar bo‘yicha qirqiladi.

Ko‘p rangli applikatsiyalardan biri – dekorativ aplikatsiyadir:

Dekorativ aplikatsiya – u naqsh gullardan tashkil topib, alohida-alohida tasvirlardan tarkib topuvchi predmetli, hodisa, harakatlar uyg‘unligini aks ettiruvchi syujetdan iborat bo‘lishi mumkin.

Dekorativ aplikatsiyalarni bolalar kitob, oynoma va boshqa materiallardan olishlari, ayrim elementlarni qo‘lda yaratishlari mumkin. SHarq naqshi aplikatsiyani bu turi uchun boy material hisoblanadi. Dekorativ aplikatsiya bir va ko‘p rangli bo‘lishi mumkin.

Shakliga ko‘ra ornamentlar cheksiz va cheklangan bo‘ladi. CHEksiz ornamentda uni tashkil etuvchi ayrim elementlar ritmik yoki simmetrik almashinib turadi. Bu elementlarning rangi, shakli bir xil bo‘lishi kerak.

Cheklangan ornament shakl-kvadrat, to‘g‘ri burchak, doira, oval va shu kabilar ichiga joylashadi yoki kompanovka qilinadi. Undagi elementlar ham xuddi fazoviy uyg‘unlikda bo‘lishi kerak.

### **Badiiy aplikatsiya**

Tematik ishlarni yaratish faqat mehnatga emas, balki badiiy tayyorgarlikni ham talab qiladi. Texnologiya ta‘limi darslarida aplikatsiya ishlarini bajarish texnikasi o‘rganiladi.

Rangdor surat aplikatsiya mavzusining elementlarini o‘quvchilar turli bayramlarga bag‘ishlangan (tabriknomalar, ochiq xat muqovasini, yo‘l belgilari) ishlarini bajaradilar. Ish mavzu va fikr tanlashdan boshlanadi. Quticha ochiq fondagi qog‘oz fon tarzida tanlanadi. Aplikatsiyaga qaratilgan asarning yaratilishi va elementlar miqdori qog‘ozni tanlashni belgilaydi. Asarni yaratish ustida

ishlaganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi. Asarni yaratish hajmiga ko'ra eng katta element asosiy mavzu elementi bo'lishi kerak. Buklash yo'li bilan yasaladigan ko'rsatmali qurollar va ularning yasalishi yo'llari.

Boshlang'ich sinflardagi texnologiya ta'limi dastur materiallarini tahlil qilar ekanmiz, barcha sinflardagi ish turlaridan biri "Qog'oz va karton bilan ishlash" ekanligini ko'ramiz.

## **8-MAVZU. Qog'oz va karton bilan ishlash darslarini mazmunini tashkil etish metodikasi**

### **Reja**

1. Qog'ozning turlari va xususiyatlari
2. Kartonning turlari va xususiyatlari
3. Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari
4. Qog'oz bilan ishlashda turli xil asboblardan foydalanish

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan ham tanishadilar. Bu barcha o'quv anjomlari: daftarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalari bosiladigan qog'oz turlari – yozadigan, muqova qilinadigan, bosma, rasm solinadigan kitob va gazeta qog'ozlaridir. Qog'oz va karton boshlang'ich sinflar mehnat darslarida eng ko'p qo'llanadigan materiallardir. O'quvchilar bu materiallarga kundalik hayotda ham ko'p marta duch keladilar. Boshlang'ich sinflardagi texnologiya ta'limi dastur materiallarini tahlil qilar ekanmiz, barcha sinflardagi ish turlaridan biri "Qog'oz va karton bilan ishlash" ekanligini ko'ramiz. Boshlang'ich sinf o'quvchilari qog'oz va kartonga ishlov berishning quyidagi usullarni o'rganadilar:

1. Qog'ozni turi, navi, rangi, o'lchamiga ko'ra tanlash.
2. Qog'ozdan maketlar yasaganda qog'ozga ishlov berishning eng oddiy usullari sifatida qog'ozni o'rtasidan buklab va to'rt burchak qilib buklash (uzunasiga va ko'ndalangiga).
3. Ingichka qog'oz parchalarini to'g'rilash, bukilgan joylarini ikki tomonidan buklash.
4. 45-90 gradus burchak qilib buklash.
5. Qog'ozni buklab belgilangan chiziq bo'yicha qaychi bilan qirqish, asbobni ushlab, xavfsizlik choralari qo'llash.
6. Qog'ozni andoza bo'yicha belgilash. Qalam bilan chiziq bo'yicha oddiy belgilash.
7. Qaychi bilan kvadratlar, turli burchaklar, uchburchaklar, doiralar qirqish.
8. Qaychi bilan murakkabroq shakllar: barglar, qo'ziqorinlar, mevalarni qirqish.
9. Qog'ozdan qirqilgan applikasiya detallariga yelim surtish usullari
10. Applikasiya detallarini yelimlab yopishtirish. Tayyor mahsulotlarni quritish.
11. Qog'ozning yelim surtiladigan qismlarini oldindan ko'chirib buyum detallarini bir-biriga yopishtirish.
12. Turli o'yinchoqlarni kvadrat asos va to'g'ri burchak asosidan bukib yasash.
13. Daftar, kitoblarni muqovalash.
14. Qog'ozni buklash va turli shakllar yasash.

O'quvchilar ishlov berilayotgan materiallarning xususiyatlarini hisobga olib, ish usullaridan ongli foydalanishlari, mehnat jarayonida fan asoslarini o'rganish vaqtida egallagan bilimlarini qo'llashlari lozim.

Birinchi sinfda o'quvchilar eng avvalo faqat mehnat darsi mashg'ulotlaridagina emas, balki boshqa darslarda ham to'qnash keladigan materiallar bilan tanishadilar. Bu barcha o'quv anjomlari: daftarlar, kitoblar, o'quv qo'llanmalari, bosiladigan qog'oz turlari – yoziladigan, muqova qilinadigan,

bosma, rasm solinadigan, kitob va roʻznoma qogʻozlaridir. Taʼlim jarayonida oʻquvchilar turli qogʻozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari, rangi, qalinligi, zichligi, siyohni singdirish xususiyati, sathining xarakteri – silliq, gʻadir-budurligi bilan tanishadilar. Oʻquvchilar mashgʻulotlarda qogʻoz varaqlarini buklaydilar va toʻgʻrilaydilar, ularni qismlarga boʻlib yirtadilar va qirqadilar, boʻyaydilar. Shu bilan birga qogʻozni buklash yoʻl bilan turli xil narsalarning shaklini yasaydilar. “Qogʻoz va karton bilan ishlash” oʻquvchilarni garmonik rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, rangli qogʻoz bilan ishlash ijodni rivojlantirishga yordam beradi fantaziyani boyitadi, kuzatuvchanlik, diqqat va tasavvurni faollashtiradi, irodani tarbiyalaydi, qoʻl mehnati, chamalash va rangni sezishni oʻstiradi. Qogʻoz va karton bilan ishlash mashgʻulotlariga oldindan quyidagicha tayyorgarlik koʻriladi: stolning ustiga qogʻoz yozib, oʻng tomoniga qaychi, yelim uchun choʻtka, chizgʻich, qalam, avtoruchka, old tomonlariga yelim, qiyqimlar uchun quti chap tomonlariga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qogʻoz toʻplamini qoʻyadilar. Har bir mashgʻulot oxirida oʻquvchilar keyingi mashgʻulotda kerak boʻladigan narsalarni yozib oladilar.

Oʻquvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda boʻlishlari, oʻz ishlarini rejalashtira bilishlari, materialni tejamkorlik bilan sarflashlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, oʻqituvchi koʻrsatmalariga amal qilishlari, shu bilan birga ish joyini toza va ozoda saqlashlari, mashgʻulotdan soʻng sinfni tozalab qoʻyishlari kerak.

Barcha fanlarda qoʻllanilgani kabi mehnat darslarida taʼlimning koʻrgazmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlarning modellari, shuningdek texnika vositalaridan foydalaniladi. Yuqorida aytib oʻtganimizdek, qogʻoz va karton bilan ishlash mashgʻulotlarida oʻquvchilar qogʻozni buklash yoʻli bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham oʻrganib boradilar. Ana shunday mashgʻulotlar davomida oʻqituvchi quyidagi koʻrgazmali qurollardan foydalanishi mumkin. SHu bilan birga oʻquvchilar bu koʻrgazmalarning yasash bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida oʻzlari yasashlari ham mumkin.

Qog‘oz va karton faqat poligraf san‘atidagina emas, balki, xalq xo‘jaligining hamma tarmoqlarida ham keng qo‘llaniladi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish sanoatida qog‘oz va kartonning ikki yuzga yaqin turi ishlab chiqarilmoqda. Turli xil qog‘ozlardan kitoblar, oynomalar, ro‘znomalar chiqarish uchun foydalanishini barcha o‘quvchilar yaxshi biladilar. SHuning uchun ham texnologiya ta‘limi darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarning diqqat-e‘tiborini ular foydalanadigan qog‘ozning turmushda tez-tez uchraydigan va qo‘l mehnati darslarida ishlatiladigan turlariga jalb qilib borishi lozim.

Bu qog‘ozlarning turlari quyidagilardan iborat:

**Chizmachilik qog‘ozi** – eng pishiq va qalin qog‘ozdir. Matodan tayyorlanadi, uning oliy navi qo‘lda tayyorlanadi. Undan bayramlar uchun qiziqarli niqoblar tayyorlashda foydalaniladi.

**Rasm qog‘ozi** – ikki xil nomerli bo‘lib, selyullozadan tayyorlanadi. Oliy naviga 25% mato bo‘lagi qo‘shiladi. CHizmachilik chizishda shuningdek, qo‘l mehnati darslarida foydalaniladi.

**Rangli va jiloli qog‘oz** – mehnat darslarida keng qo‘llaniladi. Turli xil rangdagi muqovalash ishlarida va turli xil rangda qog‘ozlar to‘plami chiqariladi.

**Karton qog‘oz** – karton deb 1 kv m 250 grammdan ortiq bo‘lgan qog‘ozga aytiladi.

**Oq karton** – uni qirqish oson, o‘zi unchalik pishiq emas, tez sinadi. Bu karton yelimni ko‘p shimadi (ko‘pincha yelimdan shishadi). Undan mayda narsalarni muqovalashda foydalanish mumkun.

**Sariq karton** – oq kartondan ko‘ra pishiqroq, egiluvchan, yaxshi qirqiladi, yelimdan ko‘tarilmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi.

**Kulrang karton** – oq va sariq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin. Pichoq karton massasidagi qumdan tez o‘tmaslashadi. Kartonning bu turidan o‘ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.

**Rangli karton** – bu yupqa, egiluvchan, sathiga turli rangda jilo berilgan, ishlov berish oson va ko‘rinishi chiroyli. Hajmi kichik narsalar, papkalar, muqovalar tayyorlash uchun qulay bo‘lgan karton turidir.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar turli qog'ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari: rangi, qalinligi, zichligi, siyohni ishlatish xususiyati, sathining xarakteri silliq, g'adir-budurligi bilan tanishadilar. Ba'zi narsalarni tayyorlashda bolalar yelimdan foydalanadilar. Demak, bolalar 1-sinfdayoq tayyor yelimlarning asosiy xususiyatlari: yopishqoqligi, saqlanishi, yelimlashni o'rganishlari kerak.

Qog'oz va kartonga ishlov berish usullari unchalik murakkab emas, bolalar ularni osonlik bilan o'zlashtirib oladilar. Qog'oz va kartonga ishlov berish yuzasidan egallangan malakalar keyinchalik barcha mehnat turlari bo'yicha texnologiya ta'limida keng qo'llaniladi. Qog'ozni buklash usullari. Qog'ozni teng ikkiga buklash uchun qog'oz stol yoki parta ustiga qo'yiladi va o'ng hamda chap qo'l bilan qog'ozni o'ziga yaqin turgan tomonining ikki uchidan ushlab, uni pastki uchlari bilan tenglashtiriladi. Bunda qog'ozning uchlarning qirrasini bir-biriga to'g'ri tushishi kerak. Ana shundagina qog'oz qo'l bilan tekislanib, uning boqilgan chizig'i ustidan tirnoq bosib yurgiziladi.

Qog'ozni boqilgan joyidan yirtish. Qog'ozni yirtishdan oldin, avval ehtiyotlik bilan ochiladi, uning bir tomoni o'ng qo'l bilan bosilib, chap qo'l bilan boqilgan chiziqdan sekin yiriladi. Bo'g'ilgan chiziq ustiga chizg'ichni qo'yib ham qog'ozni yirtish mumkin. Qog'ozni boqilgan joyini pichoqda qirqish. Qog'ozni buklab, tirnoq bilan bosib iz tushiriladi. SHundan so'ng uning buklangan chizig'ini o'ng tomonga qilib stol ustiga qo'yiladi, uning orasiga pichoqni tiqib yurgiziladi.

Qog'ozni qaychi bilan qirqish. Qaychi o'ng qo'lida ushlanadi. Ish vaqtida qaychini to'g'ri ushlab, qirqilayotgan qog'ozni undagi kesish chizig'i aniq ko'rinishi uchun aylantirib turiladi.

Qog'ozni yopishtirish. Stolning ustiga gazeta yozib, uning ustiga kerakli o'lchamda qirqib olingan rangli yoki istalgan qog'oz qo'yiladi va mo'yqalam yordamida o'rtasidan chetiga avval chap, so'ngra o'ng tomonga qarab yelim suriladi. Yelim tez, yupqa qilib suriladi. Yelim surilgan qog'ozni yopishtiriladigan predmetning ustiga qo'yib, uning ustidan g'ijimlanishlar bo'lmasligi uchun toza mato bo'laki bilan bosib tekislanadi.

Qog‘oz va kartonni o‘lchash usullari. Mehnat darslarida qog‘ozni o‘lchash usullari unchalik murakkab emas va ular matematika darslarida qo‘llanadigan asboblardan yordamida bajariladi. Birinchi navbatda bu oddiy chizg‘ich, uchburchak chizg‘ich va sirkuldir. Qog‘oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko‘rinishidagi yig‘ma, chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yig‘ma chizmani o‘qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o‘lchamini aniqlash va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o‘rgatadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga namuna va mehnat darsidagi chizmani ko‘rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o‘lchami shakli qanday bo‘lishini aniqlaydilar.

Bolalar chizmaga qarab to‘g‘ri to‘rtburchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar. Qog‘oz va karton bilan ishlash mashg‘ulotlarida o‘quvchilar oldindan quyidagicha tayyorgarlik ko‘rishadi: stolning ustiga qog‘oz yozib, ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni olib tayyorlaydilar. Har bir mashg‘ulot oxirida o‘quvchilar keyingi mashg‘ulotda kerakli bo‘ladigan narsalarni yozib oladilar.

O‘quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishlari, o‘z ishini rejalashtira bilishlari, vaqtdan unumli foydalanishlari, shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda tutishlari, sinf xonasini tozalab qo‘yishlari kerak. Barcha fanlarda qo‘llanilganidek, mehnat darslarida ham ta‘limning ko‘rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, turli predmetlar shuningdek, texnik vositalardan foydalaniladi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, “Qog‘oz va karton bilan ishlash” mashg‘ulotlarida o‘quvchilar qog‘ozni buklash yo‘li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o‘rganib boradilar. Ana shunday mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchi quyidagi ko‘rsatmali qurollardan foydalanishi mumkin. SHu bilan o‘quvchilar bu ko‘rgazmalarni yasashning bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasaliishini o‘rganib borishlari mumkin.

1. "Lola" ko'rsatmali quroli.

1-bosqich. Rangli qog'ozlardan kvadrat qirqib olinadi.

2-bosqich. Uning diagonallari bo'yicha buklab, buklangan do'ppi shakliga keltiriladi.

3-bosqich. Buklashdan hosil bo'lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qarab, unga yetkazdirib buklanadi.

4-bosqich. Xuddi shuningdek orqa tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga qarab buklanadi.

5-bosqich. Hosil bo'lgan shakl cheti qog'ozning o'rtasiga, ya'ni hosil bo'lgan chiziqqa tomon buklanadi. SHaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

6-bosqich. Oxirgi buklangan shakllarning har bir orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangandan so'ng ularning uchlari bir biriga qaytarilib qayriladi. Keyin shaklni pastgi ochiq tomonidan asta puflanadi. SHaklning yuqori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada "Lola" shakli hosil bo'ladi. Lolaning bandini boshqa qog'ozni silindr shaklida o'rab, uni lolaning pastki puflangan qismiga kiritib qo'yish bilan tugallash mumkin. Bu bandga lolaning bargini, g'unchasini ham yopishtirib qo'yish mumkin. Maktabda muqovalash ishlari. Kitobni qo'lda muqovalashga aloqador barcha amaliy ishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining qo'lidan bemalol keladi. Muqova ishlarini bajarishda o'quvchilar qog'oz va kartonga ishlov berish (egish, qirqish), kartonga qog'oz yopishtirish, ayrim-ayrim varaqlarni yopishtirish kabi malakalarini mustahkamlaydilar. Ular kitobga muqova qilish usullarini o'rganib, egallab borar ekanlar, poligrafiya sanoatining tarmoqlaridan biri haqida bilim olib, muqovasozlik ishining asoslari bilan tanishadilar. Muqova ishlash ishiga aloqador kasblar bilan tanishadilar. Bundan tashqari bolalarga kitobga muhabbat, unga nisbatan tartiblilik bilan munosabatda bo'lish singdiriladi. Muqova yasash ishlarini bajarish jarayonidagi muqovani bezashda bolalardagi badiiy did, o'lcham olish, qirqish va egish ishlarida aniqlik va tartiblilik rivojlanadi. Kitoblarni tuzatishda ularni

ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatiladi. Kitoblarni tuzatish. Zararlangan sahifalarni tiklash, yirtilgan joylarni yelimlash, hoshiyalarni mustahkamlash, to'g'rilash va sahifa burchaklarini tiklash, chiqib ketgan sahifalarni mustahkam lash, yamoq solishdan iboratdir. Kitobni ta'mirlash ishlarida odatda un kleysteridan foydalaniladi. Sahifa yirtilgan bo'lsa, yirtilgan joylarning cheti nam tappon bilan to'g'rilanadi, so'ngra yelim surtib, yirtiq bo'ylab o'ng va chap tomonidan shaffof qog'oz tasmasi qo'yiladi. Kitob sahifalarining buralib ketgan, ammo hali pishiq bo'lgan uchlari nam tappon bilan to'g'rilanadi va so'ngra og'ir buyum bilan bostirib qo'yiladi. Siyqalanib ketgan burchaklar ikkala tomondan mustahkamlanadi. Sahifaning yopishmagan qismi yamoq solib to'ldiriladi. Kitobni boshqa muqovaga qo'shib, metall bilan mustahkamlanadi. SHundan keyin blokni muqova ichiga qo'yib, muqova yopiladi va blokning joylashishi tekshiriladi. Blokning ustki yoki pastki qismi chetlari teng oraliqda, taxminan 3 mm muqova ichiga kirib turishi kerak. Muqovani old tomonini pastga qilib qo'yib ochiladi va orqa tomondagi forzats qismiga yelim surtiladi va muqova yopiladi, bu operatsiya old tomondagi forzatsda ham takrorlanadi. Kitob press ostida quritiladi.

O'qituvchi buyumni namoyish qilar ekan, uni tayyorlash uchun qanday material va asboblarni kerakligini aniqlaydi. Kerakli material o'lchami, ishni bajarish tartibi o'quvchilar bilan birgalikda belgilanadi. O'zlariga tanish ishlarni o'quvchilar mustaqil, tanish bo'lmaganlarini o'qituvchining tushuntirish va ko'rsatmasi asosida bajaradilar. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish maqsadida ular materialni o'lchash va hisoblash ishlarini mavjud muqova yasash qoidalari asosida mustaqil bajarganlari ma'qul. O'qituvchi barcha vazifalar bilan bir qatorda sanitariya-gigiyena, xavfsizlik texnikasi qoidalarini nazaridan chetda qoldirmasligi kerak. Kitob uchun muqova tayyorlash O'qituvchiga tavsiya: Kitob insonlarning ma'naviy bilim oladigan va dunyo bo'ylab qadr-qimmatini yo'qotmaydigan vositadir. "Kitob mening do'stim", "Kitob bilim manbayi" kabi naqlar bejiz aytilmagan. Necha asrlar davomida kitob insonlarga ziyo tarqatadi. O'quvchining darsliklari ham ana shunday bilim beruvchi vosita bo'lib hisoblanadi. Kitoblar

insonlarga ko'p yillar davomida xizmat qilishi uchun ularni asrab-avaylab foydalanish kerak.

Qog'oz va karton bilan ishlash darslarining asosiy xususiyati shundaki, bu darsda buyumlarning umumiy ko'rinishidagi yig'ma, chizma va buyumning namunasi yoki faqat texnikaviy rasm va chizmalardan foydalaniladi.

O'qituvchi o'quvchilarning yig'ma chizmani o'qishga, chizma va namunadan barcha detallarni, ularning o'lchamini aniqlashga va har qaysi detalni mustaqil belgilab olishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quvchilarga namuna va mehnat darsidagi chizmani ko'rsatib, bolalar bilan maketni yasash uchun nechta detal tayyorlash kerakligini, ularning o'lchami, shakli qanday bo'lishini aniqlaydilar.

Bolalar chizmaga qarab to'g'ri burchak, uchburchak shaklida ekanligini aytadilar.

Qog'oz va karton bilan ishlash mashg'ulotlari o'quvchilar oldidan quyidagicha tayyorgarlik ko'rishadi: stolning ustiga qog'oz yozib boriladigan ish uchun kerakli ish qurollari va materiallarni har bir mashg'ulot oxirida o'quvchilar keyingi mashg'ulotda kerakli bo'ladigan narsalarni yozib oladilar.

O'quvchilar ishlayotgan materiallarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishlari, o'z ishini rejalashtira bo'lishlari, unumli foydalanishlari shu bilan birga ish joylarini toza va ozoda, sinf xonasini tozalab qo'yishlari kerak.

Barcha fanlarda qo'llanilgan mehnat darslarida ham ta'limning ko'rsatmali vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, mehnat darslarida turli xil namuna, rasm, chiziq sxematik namuna, turli predmetlarning shuningdek texnik vositalardan foydalaniladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek "Qog'oz va karton bilan ishlash" mashg'ulotlarida o'quvchilar qog'ozni buklash yo'li bilan turli xil narsalarning shaklini yasashni ham o'rganib boradilar. Ana shunday mashg'ulotlar davomida o'qituvchi quyidagi ko'rsatmali qurollardan foydalanish mumkin. SHu bilan o'quvchilar bu ko'rgazmalarni yasashi bosqichlariga rioya qilgan holda, dars davomida yasashlari ham mumkin.

“Lola” ko‘rsatmali quroli.

1-bosqich: Rangli qog‘ozdan kvadrat qirqib olinadi. Uning diagonallari bo‘yicha buklab, buklangan do‘ppi shakliga keltiriladi.

2-bosqich: Buklash hosil bo‘lgan uchburchakning pastki, asos tomonidagi ikki uchi yuqoridagi uchinchi uchiga qarab, unga yetkizdirib buklanadi. Xuddi shuningdek orqa, tomondagi ikki uchi ham uchinchi uchiga qarab buklanadi.

3-bosqich. Hosil bo‘lgan shaklda cheti o‘rtaga hosil bo‘lgan chiziqqa tomon buklanadi. SHaklning orqa tomoni ham shunday buklanadi.

4-bosqich. Oxirgi buklangan shakllarning har biri orqa tomoniga qaytarib buklanadi. Buklangandan so‘ng ularning uchlari bir-biriga qaytarilib qo‘yiladi. Keyin shaklning pastki ochiq tomonidan asta puflanadi. SHaklning yuqori qismidagi uchlari esa orqaga qaytarib buklanadi. Natijada “Lola” shakli hosil bo‘ladi. Lolaning bandini qog‘ozni silindr shaklida o‘rab, uni lolaning pastki, puflangan qismiga kiritib qo‘yish bilan qilish mumkin. Bu bandga lolaning birgina, g‘unchasini ham yopishtirib qo‘yish mumkin.

“Xo‘rozcha” ko‘rsatmali quroli.

Yasash bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog‘oz olinadi va uning barcha uchlari kvadrat o‘rtasiga qarab buklanadi.

2-bosqich. Hosil bo‘lgan kvadratning orqasi o‘chirilib, uning uchlari ham kvadrat o‘rtasiga etkazib buklanadi. SHunday ish yana bir marta bajariladi.

3-bosqich. Hosil bo‘lgan kvadratning uchlari o‘rtaga etkazib buklangan tomonning orqasi o‘giriladi va uning qarama-qarshi uchlaridagi shakllar, to‘rtburchak shaklida tashqariga buklanadi.

4-bosqich. Kvadratning tashqariga buklanmagan ikki uchidan ushlab uni tashqariga qaratib to‘ntarilsa, “Xo‘rozcha” hosil bo‘ladi. So‘ngra hosil bo‘lgan shaklning bir uchini buklash bilan xo‘rozchaning tumshug‘ini hosil qilish mumkin.

“Baliq” ko‘rsatma quroli.

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog‘oz olinadi. U bitta diagonali bo‘yicha teng ikkita buklanadi. So‘ngra yoyib uni bir uchi rangli tomondagi diagonalga etkazib buklanadi.

2-bosqich. Hosil bo‘lgan shaklning orqasi, qog‘ozning rangsiz tomoni o‘giriladi. Ichkariga buklangan uchining ikki tomoni diagonalga etguncha buklanadi.

3-bosqich. Xuddi shunday qolgan ikki tomoni ham diagonalga etkazib buklanadi.

4-bosqich. Hosil bo‘lgan shaklda tashqariga buklangan kvadratning uchta uchidan ikkitasi ya‘ni ichkariga buklangan uning ikki tomonidagi uchlari pastga qaratib, uning qarshisidagi uchi esa avval chap tomonga, keyin shu buklangan uchning o‘rtasidan o‘ng tomonga qarab buklanadi. Hosil bo‘lgan shaklni orqasiga o‘girib qaralsa “Baliq” hosil bo‘ladi.

“Stakan” ko‘rsatmali quroli.

Yasalish bosqichlari.

1-bosqich. Kvadrat shaklidagi rangli qog‘oz olinib, uni bitta diagonali bo‘yicha teng ikkiga buklanadi.

2-bosqich. Hosil bo‘lgan uchburchakni diagonalida uchlardan biridan uchi uchburchakning shu uchi qarshisidagi tomonga yetguncha buklanadi.

3-bosqich. Diagonallardan uchlardan ikkinchisi ham qarshisidagi tomonga etguncha buklanadi.

4-bosqich. Hosil bo‘lgan shaklning yuqoridagi ikki uchidan biri buklangan uchlar tomonga, ikkinchi uchi shaklning ichkariga buklanadi. Natijada “Stakan” hosil bo‘ladi.

Shunday qilib har bir shaklning tuzilish bosqichlari to‘g‘arak asosida bajarilishi ko‘rsatiladi. Bajarilgan shakllarning mazmuni haqida gapiriladi. Bu shakllar ertak, hikoya ishtirokchilari yoki qahramonlari sifatida foydalanish mumkinligi tushuntiriladi.

**9-10 MAVZU. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi. Tabiiy materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.**

**Reja:**

1. Turli materiallarni to'plash va ishga tayyorlash amalga oshirish.
2. Tabiiy materiallar to'plash.
3. Turli materiallar bilan ishlash ahamiyati

O'zbekiston tabiiy resurslar, foydali qazilmalar, metall va qorishmalar, plastmassalar, yog'ochlar va o'simliklarga boy o'lkadir. Respublikamizning bu tabiiy boyliklari sanoatda, turmushda foydalanadigan xomashyo bo'lishi bilan bir qatorda mehnat darslarida bajariladigan ishlar uchun kerakli material bo'lib ham xizmat qiladi. O'quvchilarda ilk yoshligidan boshlab ona tabiatga qiziqish va muhabbatni, undagi go'zalliklarni ko'ra bilishni tarbiyalash kerak. Tabiiy materiallar bilan ishlash ularni tabiatni kuzatishga majbur qiladi. Kuzatishlar esa badiiy ijodiy qobiliyatlarni, konstruktorlik g'oyasini, tushunchalarning aniqligini uyg'otadi. Turli tabiiy materiallar bilan ishlash, turlicha ishlov berilishini, turli asboblardan foydalanishni talab qiladi va ularni ishlatish bilim, ko'nikma, malakalarini beradi. Turli tabiiy materiallarni to'plash o'qituvchi qo'ygan maqsadga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar ko'rib chiqilgan va batafsil muhokama qilingan yoki o'zlari o'ylab topgan tasvir uchun material to'playdilar. Yoki aksincha, avval turli barglarni to'plab, keyin ishni bajarish tartibini aniqlashlari mumkin. Tabiiy materiallarni o'quvchilar dastlab o'qituvchi rahbarligida sayr vaqtida to'playdilar. Tabiiy materillarni to'plash jarayonida o'quvchilar atrofdagi o'simliklar dunyosi, hashoratlar bilan tanishadilar, daraxtlar, gul navlarini, nomlarini, shakllarini, tabiiy materiallarni qachon va qanday to'plash va qanday saqlash lozimligini bilib oladilar. Tabiatni qo'riqlash va unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrash masalalariga alohida e'tibor berish har bir o'quvchining burchidir.

Mehnat darslarida tabiiy materiallardan: quritilgan barglar, gullar, poliz ekinlari – qovun, tarvuz, qovoq urug‘lari, mevalar – olcha, o‘rik, shaftoli danaklari va shu kabilari, baliq tangalari va qanotlari, jo‘xori va makkajo‘xori so‘talari, paxta chanog‘i, yong‘oq po‘sti va shu kabilardan keng foydalaniladi.

Tabiiy materiallarni to‘plash, saqlash va ularga ishlov berish tabiatshunoslik darslarida egallangan bilimlarni qo‘llash hamda ularni mustahkamlash imkonini beradi. O‘quvchilar tabiatdagi ekskursiyalar vaqtida turli xil tabiiy materiallar, masalan: yong‘oqlar, barglar, shoxchalarni, ko‘l, hovuz qirg‘oqlaridan – chiroyli toshchalar, chig‘anoqlarni olib kelishadi. O‘quvchilar tabiiy to‘plash jarayonida turli materiallarni teradilar, ushlab ko‘radilar, shaklini, rangini, har birining xususiyatini o‘rganadilar. Bu esa materiallarning nomini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, bolalar yong‘oqning yumaloqligini, jigarrang ekanligini, ustki qismi g‘adir-budur ekanligini bilib oladilar, cho‘chqa yong‘og‘ini esa oval shaklda, yaltiroq sariq-jigarrang bo‘lishini bilib oladilar. Tabiat bilan bo‘lgan muloqot bolalarning tasavvurini kengaytiradi, diqqat bilan kuzatish qobiliyatini shakllantiradi, tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda idrok va tasavvurning bir butunligini saqlaydi.

Buyumlarni yasashda o‘quvchilar avval qiynalsalar, keyinchalik, uzluksiz mehnat natijasida bolaning o‘ziga ishonch, aniqlik, qoniqish va xohish kabi sifatlarga ega bo‘ladi va barmoqlari epchil harakat qiladi. Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkuri va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga katta ta‘sir qiladi.

Tabiiy materialdan buyum tayyorlash jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, boshida bolalar namunani ko‘rib chiqadilar, uning tarkibini, tayyorlash usulini tahlil qiladilar; bu jarayonni o‘zlash tirgandan so‘ng ish murakkablashadi. O‘quvchiga tayyorlanadigan o‘yinchoqning rasmi yoki foto surati ko‘rsatiladi va ular topshiriq yoki o‘zining o‘ylagan fikri asosida buyumni yasaydilar. O‘yinchoqlarni tabiiy materiallardan tayyorlashning qiziqarliligi bolalarning diqqatini rivojlantiradi, uning mustahkamligini oshiradi.

**Erkin diqqat shakllanadi.** Masalan, kuchukchani tayyorlashda bolalarga avval uning oyoqchalarini mahkamlash joylarini diqqat bilan ko‘rib chiqib (ular simmetrik holda turishi, past ham, baland ham bo‘lmasligi, haqiqiyga o‘xshashi kerak) teshiklarini belgilash, boshi va boshqa detallarini mahkamlash joylarini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi. Tabiiy materialdan qilingan buyumlar ko‘pincha bolalarning qiziquvchanligini qoniqtiradi. Bu mehnatda har doim yangilik, ijodiy izlanish, yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyati bor. O‘yinchoqlarni tayyorlashda bolalarni qulay emotsional yo‘naltirish, mehnatda muloqat quvonchi, chiroyli o‘yinchoq yasash jarayonida rohatlanish hissi umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Tabiiy materiallardan o‘yinchoqlar yasash mehnati bola shaxsining rivojlanishiga yordam beradi.

O‘yinchoqni yasash oson ish emas. Uni yasashda noaniqlikka duch kelganda, o‘quvchilarga mustaqil ravishda uni bajarish yo‘llari o‘rgatiladi. Ba‘zan biron-bir ishni yasash uchun kerakli o‘lchamda eman daraxtining g‘uddalarini tanlash, o‘yinchoq qismlarini o‘lchash yo‘llarini amalga oshirish va h.k.

Kattalar yordami bilan bola omadsizlik sababini, ularni yengish yo‘llarini o‘rganadi. SHu asnoda unda maqsadga intilish, qati‘yatlik, boshlangan ishni oxiriga yetkazish kabi sifatlar shakllanadi. Ushbu mehnat turida o‘z faoliyatini baholash va nazorat qilish sifatini shakllantirishning real imkoniyatlari bor. Tabiiy materialdan o‘yinchoq yasash mehnati individual va jamoaviy bo‘lishi mumkin. Kattalar kabi bolalarga ham jamoaviy mehnat ulkan quvonch olib keladi. Bu yerda shunisi muhimki, bolalar jamoaviy mehnatning natijasini, foydasini tushunishlari kerak.

**Turli materiallar bilan ishlash.** Turli materiallar bilan ishlaganda chiqindi materiallari: po‘kak, qutichalar, plastmassa idishlar va shu kabilardan foydalaniladi. Mashg‘ulotlarni rejalashtirish va materiallarni tanlashda mahalliy sharoitlar: o‘lka iqlimi, tabiati, ishlab chiqarish korxonalari, xalq badiiy ustaxonalari va shu kabilarni e‘tiborga olish kerak. Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, ular bolalarning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirisin, tasavvur qilishga o‘rgatsin. Turli materiallarning texnologik xususiyatlari shunday xilma-

xilki, narsalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsaga bezak beruvchi material sifatida ham foydalanish mumkin.

Turli materiallardan o‘yinchoqlar, yodgorliklar, ko‘rgazmalar, ro‘zg‘or uchun foydali buyumlar va boshqa buyumlarni yaratish badiiy modellashtirishga yaqinlashib ketadi, bolaning estetik hissiyotlari va badiiy moyilliklarini o‘stirishga yordam beradi. Bu ishlarni bajarish jarayonida bolalar quyidagi malaka va ko‘nikmalarni egallaydilar hamda mustahkamlaydilar:

1. Turli tabiiy materiallar hamda ularni to‘plash va saqlash qoidalari bilan tanishish. Atrof muhitni muhofaza qilish.
2. Turli tabiiy materiallarga ishlov berish va mustahkamlash qoidalari.
3. Buyum uchun atrof muhitdan obekt tanlash.
4. Predmetni tahlil qila bilish. Detallar uchun material, shuningdek ularga ishlov berish uchun asboblari tanlash.
5. Mustaqillikni, fantaziyani namoyon qilish. Ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish.
6. Boshqa materiallar bilan tanishish.
7. Obrazlarni yaratishda konstruktorlik va ijodiy qobiliyatlarni o‘stirish.
8. Metallga ishlov berish asboblari bilan tanishish.

Jarayon bosqichlarini taqsimlay olishni, umumiy maqsadni hisobga olgan holda o‘z faoliyatini rejalay olish qobiliyatini bolalarda shakllantirish uchun jamoaviy ishning turli shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jamoaviy mehnat bolalarda jamoalik, do‘stona munosabat, o‘zaro yordam, birodarlik kurtaklarini shakllantiradi. Jamoaviy mehnatning natijalari, ayniqsa kattalar tomonidan quvvatlanib bolalarga qanot bag‘ishlaydi, ularni yangi buyumlar yasashga undaydi. Har bir ishga ko‘tarinki ruhda kirishadilar. SHunday ekan, tarbiya va ta’lim jarayoni to‘g‘ri tashkil etilsa, turli tabiiy material bilan ishlash bolalarni barkamol o‘stirishda samarali vosita bo‘lib qoladi.

O‘quvchilar e’tiborini va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obektdan mehnat darslarida ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘llaydigan savollar ro‘yxati to‘ziladi.

Tabiiy materillarni to'playotgan har bir o'quvchi tabiiy materiallarni tartibli yig'ish va tayyorlash lozimligini bilishi, barg to'plash jarayonida daraxtlar, butalar shoxini qo'pollik bilan sindirish, gul va shu kabilarni o'ylamasdan uzish tabiatga nisbatan vahshiylik ekanligini yodda tutishi lozim. Gullarni qo'l bilan sindirib bo'lmaydi, aks holda poyasi zararlanishi mumkin. O'simliklarni to'plashda gazeta, gerbariy papkasi, qaychi, paxta bo'lishi kerak. Gazeta daftarsimon taxlanib, orasiga materiallar tartib bilan joylanadi.

Quritib olishga mo'ljallangan o'simliklar har qanday namlikdan holi bo'lishi kerak, aks holda o'simlik quritilganda unda dog'larning izi qoladi. Quritilayotgan o'simlikning tabiiy rangini asrab qolishning eng muhim sharti, ularni shamol utib turadigan joyda, yelvizakda, quyosh nurida tez quritib olishdir. O'simliklarni quritish 3 sutkadan oshmasligi kerak.

**Gerbariy ramkalarida quritish.** Gerbariy ramkalarida quritilgan o'simliklarning ko'pchiligi o'zining tabiiy rangini saqlab qoladi. Bunda o'simlik yumshoq qog'oz yoki gazeta orasiga solib qo'yiladi. Har bir varaq qog'oz va o'simlik o'rtasiga yana bir necha qavat qog'oz yoki gazeta qo'yiladi, chunki quritilayotgan o'simlik o'zidan namlik chiqaradi. SHundan so'ng papka ikkita to'rsimon ramka o'rtasiga qo'yilib, ochiq havoga qo'yiladi. Agarda havo harorati kechqurun va kechasi juda pasayadigan bo'lsa, o'simlik issiq va quruq joyga olib quritiladi.

**Pressda quritish.** Orasiga o'simlik solingan qog'ozlar gerbariy papkasi o'rniga ikkita faner listlar o'rtasiga joylanib, og'ir narsa bostirib qo'yiladi. Og'irlik pressga qancha o'simlik joylashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Mayda nozik o'simliklar kam og'irlikni va quritish uchun kamroq vaqtni talab qiladi. 2-3 soatdan so'ng qog'oz almashtiriladi. Quritish shu usulda davom ettiriladi.

**Issiq dazmol bilan quritish.** Issiq dazmol bilan odatda barglar, poyalar, maysalar quritiladi. Qavat-qavat gazeta yoki yumshoq qog'oz orasiga o'simlikni qo'yib, ustidan dazmol yurgiziladi. So'ngra ustki qavatidagi gazetani olib, quritilayotgan o'simlik shamollatiladi va quruq joyga suriladi, so'ngra gazeta yopib yana dazmollanadi. O'simlik 2-3 minutda quriydi va u o'zining tabiiy

rangini yo‘qotmaydi. Agarda quritilgan o‘simlik ko‘tarilganda o‘zining tanasini ushlab tursa, u yaxshi quritilgan hisoblanadi. Agar u sinib maydalanib ketsa, demak, u ortiqcha quritib yuborilgan hisoblanadi.

**Barglar.** Barglar o‘yinchoqlarni yasashda qiziqarli va kerakli qo‘shimcha material hisoblanadi. Ular turli shakl va ranglarda bo‘lishi mumkin. Eman daraxtlarning yirik barglarini bolalar kemalarga yelkan sifatida ishlatishadi. Barglardan kapalak qanoatlari, baliq suzgichlarini (bu o‘yinchoqlar g‘udda va bargdan yasaladi) yasashda qo‘llash mumkin. Barglarni kuzda, ular chiroyli bo‘lganida terish yaxshi. Darsda foydalaniladigan tabiiy materiallar o‘qituvchi rahbarligida ekskursiya jarayonida to‘planadi. Ekskursiyani uyushtirishdan oldin bolalarga bo‘lajak ish namunasi ko‘rsatiladi. Bolalar uni diqqat bilan ko‘rib, mashg‘ulot jarayonida foydalaniladigan tabiiy materiallar, ya’ni bargning shaklini, daraxt navlarini aniqlaydilar. SHundan so‘ng uyushtiriladigan ekskursiya rejasi to‘ziladi. Ekskursiya yo‘nalishi, tabiiy materiallarni to‘plash uchun mo‘ljallangan joylar aniqlanadi. O‘quvchilar e‘tiborini va aqliy faoliyatlarini kuzatilayotgan obektdan mehnat darslarida ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan asosiy muhim belgilari, elementlari va xususiyatlarini ajratishga, to‘planayotgan materialni to‘g‘ri baholashga yo‘llaydigan savollar ro‘yxati to‘ziladi. Daraxtzorga kelganda bolalar kayfiyati ko‘tarilib, ular har narsaga qiziqish bilan qaraydilar, barglar, ularning ranglari, shakllari bolalarni ajablantiradi. Ular tabiatning butun go‘zalligini, uning ranglarini, to‘kilgan barglar hidi va ular o‘zining elastiklik xususiyatini yo‘qotganligini, qattiqlashib, sinuvchan bo‘lib qolganligini ko‘radilar. Bolalarning atrof-tabiat bilan zavqlanishlari kamayib borishiga qarab, ularning e‘tibori barglarning shakli, daraxtlar navlariga qaratiladi. Ana shu vaqtda o‘simliklarda sodir bo‘layotgan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli bayon etib beriladi: o‘simlik yangi sharoitlarga moslashib, qish fasliga tayyorgarlik ko‘rayotganligi bilan tanishadilar.

Bolalarning e‘tibori atrofda uchib yurgan qushlar, kapalak, ninachilarga, ularning asosiy belgilariga jalb qilinadi, Uchib yurgan qushlar, ularning to‘zilish

formalari haqida, mehnat darslarida qushlar applikasiyasini tayyorlash uchun to'plangan barglar material xizmatini o'tashi to'g'risida suhbat o'tkaziladi.

O'quvchilar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglarini, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligi va diqqat qilish qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. SHundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg'ulotlarigacha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e'tiborini insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etish kerak. Ekskursiya oxirida suhbatga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga uylarida qushlar tasviri tushirilgan rasmlarni, suratlarni ko'rish, ularning tanasi va qanotlarining shakliga, rangiga alohida e'tibor berish topshiriladi.

Bunday uyushtirilgan ekskursiyadan keyingi mashg'ulotda bolalar quritilgan barglardan qush applikasiyasini zo'r ishtiyoq bilan bajaradilar, agar applikasiyalar o'z istaklariga ko'ra, o'zlari to'plagan materiallardan mustaqil yasash topshirilsa, qiziqishlari yanada ortadi.

*Bunday dars, mashg'ulot quyidagi sxemaga ega bo'ladi. Ishni bajarilish tartibini aniqlash:*

1. Predmetning qismlari joylashishini grafik tasvirlash;
2. Predmetning qismlari uchun shakli hamda o'lchamlari bir xil bo'lgan barglarni topish;
3. Ularni qog'ozga joylashtirish;
4. Ishning bajarilish texnologiyasi haqida tushuntirib berish;
5. Ishni amaliy bajarish.

*Applikasiyani bajarish bo'yicha mustaqil ish:*

1. Shaklni, o'lcham va bo'yoqlarni to'g'ri tanlash;
2. Yelimlash ishlarini tartibli bajarish;
3. Detallarning joylashishini to'g'ri tasvirlash;

4. Ish bajarilgan qog‘ozning orqasiga barglaridan foydalanilgan daraxt yoki o‘simliklarining nomlarini yozish.

*Bajarilgan ishning tahlili va baholash:*

1. Ish bajarilishida yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash;
2. Xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida to‘g‘rilash;
3. Namunali, sifatli va chiroyli bajarilgan ishlarni rag‘batlantirish.

Bargning xususiyatlari va shakllari shunday xilma-xilki, applikatsiyalar yasashda ulardan asosiy material sifatida ham, yasalgan narsalarga bezak berish materiali sifatida ham foydalanish mumkin. Bu ishlarni bajarish o‘quvchilarni estetik didini, tasavvurini oshiradi va ijodiy izlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini o‘stirishga yordam beradi.

**Urug‘lar.** O‘yinchoq uchun tabiiy materiallarga qimmatli qo‘shimcha bo‘lib daraxtlar, gullar, sabzavotlar urug‘lari xizmat qiladi. Masalan: zarang, shumtol urug‘lari. Bolalarga ular qanotchalar sifatida tanishtiriladi. Ulardan ninachi qanotlarini, quyon quloqlarini, baliq suzgichlari, tarvuz, qovun, kungaboqar urug‘laridan ko‘zlar yasash mumkin. Urug‘larni kuzda yig‘ish yaxshiroq.

- Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi;
- ochiq tondagi qog‘oz va fon tanlanadi;
- applikatsiyaga mo‘ljallangan tasvir uchun urug‘lar tanlanadi;
- tasvir ustida ishlanganda asosiy e‘tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o‘lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi;
- tasvirlash lozim bo‘lgan predmetlarning holati aniqlanadi;
- tasvirlanadigan urug‘ ranglari va hodisalarning uyg‘unligiga erishiladi;
- tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham urug‘dan tayyorlanadi, ularni chizmaslik kerak;
- urug‘lar qog‘oz sathiga joylashtiriladi va o‘yilgan tasvir hosil qilinadi;
- agar bu tasvir ma‘qul bo‘lmasa, urug‘lar boshqacha joylash tiriladi;
- urug‘larni yelimlashda pva yelimidan foydalaniladi;
- tasvirning kerakli qismi yelimlanadi va urug‘lar yopishtiriladi;
- urug‘larni yelimlashda qisqichlardan foydalaniladi;

- urug'larni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi;

- urug'lar yelimlab bo'lgandan so'ng quritish uchun qo'yiladi. Quritishda yelvizak bo'lmasligi kerak.

**Somon texnikasi** yangi yo'nalish bo'lganligi uchun asta-sekin yoshlar tomonidan o'rganilmoqda. Ayniqsa bu sohani imkoniyati cheklangan bolalarga o'rgatish quvonarli hol. Chunki ular ish jarayonida o'zlarining nogiron ekanliklarini unutib, yaratayotgan namunalaridan zavq olishadi va hunar egasi bo'lishadi.

1. Avvalo xomashyo sifatida somon kerak bo'ladi. Aynan bug'doy yig'ini boshlangan vaqtda somonning kerakli, ya'ni tepa va pastki bandlari alohida yumshoq hamda qattiqligiga qarab, qirqib olinadi. Chunki, tepa qismi quyosh nuriga yaqinligi uchun qizarib, to'qroq, pastkisi esa salqinlikda ochroq rangda bo'ladi. Ushbu qalamchalarni bunday ajratishning boisi, ular asar tayyorlash jarayonida o'z o'rniga moslab qo'llaniladi.

2. Yig'ib olingan qalamchalar 1 kun davomida suvga solib qo'yiladi va ular ho'l nam holicha olinib, qattiq bosib, birma-bir dazmol qilinadi. Ushbu sohani tanlagan hunarmand nafaqat o'z ishini bilishi, balki tasviriy san'at yo'nalishini ham puxta egallashi lozim. Asar uchun eskiz tayyorlashda bu juda asqotadi.

3. Endigi navbat chizmaga. Qog'ozga o'ylangan kompozitsiya chizib olinadi va ushbu eskiz oddiy qog'ozga ko'chiriladi. Eskizning har bir qismi alohida-alohida qirqib olinadi.

4. Dazmollangan somon qalamchalari kompozitsiyaning kerakli, ya'ni issiq, sovuq, soya, nur kabi joylariga moslab qog'oz ustidan yelim yordamida yopishtirib chiqiladi.

5. Yaratilgan asar janriga ko'ra, unga ishlov beriladi. Masalan, bolakay obrazi bo'lsa, uning yuziga ifoda berish maqsadida maxsus kuydirish uskunasi foydalaniladi. Bu uskuna yordamida asar xuddi rassom chizgandek tasvirlanadi.

Alohida ishlangan kompozitsiya o'zaro birlashtiriladi va qora mato yoki somon qalamchalaridan tayyorlangan tag qismiga yopishtiriladi. Hajmiga qarab,

ramkaga solinadi. Asosiysi, ular hech bir ranglarsiz ustaning mahorati ila asar sifatida yaratiladi. Rangsiz kompozitsiyalar ranglilaridan farqli ravishda yaratilishi, kuydirilishiga ko'ra ancha murakkab hisoblanadi. Rangli qilish mumkin, ya'ni somon ustidan bo'yoq beriladi. Latviya, Belorussiya, Litva va Rossiyaning turli shaharlarida somonchilik na'munalaridan aynan rangli qilib tayyorlanadi. Tabiiy materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar ona tabiat bilan yaqinlashishga, unga tejamkorlik va mehribonlik, ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga o'rganadi.

**Tabiiy material** – bolalar ijodiyotini rivojlantirish uchun asosiy tayanch hisoblanadi. O'quvchilarga o'yinchoq va buyumlar yasashda ulardan qanday foydalanishni o'rgatish zarur. SHu maqsadda tabiiy materiallar burchagi tashkil etiladi. Tabiiy materiallar burchagini sinfxonada, uyda tashkil etish mumkin.

Tabiiy materiallardan buyum va o'yinchoqlarni tayyorlash – qiziqarli, oddiy bo'lmagan va juda yoqimli mehnatdir.

Tabiiy materiallarni to'plash, saqlash va ularga ishlov berish tabiatshunoslik darslarida egallangan bilimlarni qo'llash hamda ularni mustahkamlash imkonini beradi.

O'quvchilar tabiatdagi ekskursiyalar vaqtida turli xil tabiiy materiallar, masalan: yong'oqlar, barglar, shoxchalarni, ko'l, hovuz qirg'oqlaridan – chiroyli toshchalar, chig'anoqlarni olib kelishadi. O'quvchilar tabiiy to'plash jarayonida turli materiallarni teradilar, ushlab ko'radilar, shaklini, rangini, har birining xususiyatini o'rganadilar. Bu esa materiallarning nomini eslab qolishga yordam beradi. Masalan, bolalar yong'oqning yumaloqligini, jigarrang ekanligini, ustki qismi g'adir-budur ekanligini bilib oladilar, cho'chqa yong'og'ini esa oval shaklda, yaltiroq sariq-jigarrang bo'lishini bilib oladilar.

Tabiat bilan bo'lgan muloqot bolalarning tasavvurini kengaytiradi, diqqat bilan kuzatish qobiliyatini shakllantiradi, tabiiy materiallardan buyumlar yaratishda idrok va tasavvurning bir butunligini saqlaydi. Buyumlarni yasashda o'quvchilar avval qiynalsalar, keyinchalik, uzluksiz mehnat natijasida bolaning o'ziga ishonch,

aniqlik, qoniqish va xohish kabi sifatlarga ega bo‘ladi va barmoqlari epchil harakat qiladi.

Tabiiy materiallar bilan ishlash bolaning aqliy rivojlanishiga, tafakkuri va fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga katta ta’sir qiladi. Tabiiy materialdan buyum tayyorlash jarayonini kuzatadigan bo‘lsak, boshida bolalar namunani ko‘rib chiqadilar, uning tarkibini, tayyorlash usulini tahlil qiladilar; bu jarayonni o‘zlashtirgandan so‘ng ish murakkablashadi. O‘quvchiga tayyorlanadigan o‘yinchoqning rasmi yoki foto surati ko‘rsatiladi va ular topshiriq yoki o‘zining o‘ylagan fikri asosida buyumni yasaydilar.

O‘yinchoqlarni tabiiy materiallardan tayyorlashning qiziqarliligi bolalarning diqqatini rivojlantiradi, uning mustahkamligini oshiradi. Erkin diqqat shakllanadi. Masalan, kuchukchani tayyorlashda bolalarga avval uning oyoqchalarini mahkamlash joylarini diqqat bilan ko‘rib chiqib (ular simmetrik holda turishi, past ham, baland ham bo‘lmasligi, haqiqiyga o‘xshashi kerak) teshiklarini belgilash, boshi va boshqa detallarini mahkamlash joylarini ko‘rib chiqish tavsiya etiladi.

Tabiiy materialdan qilingan buyumlar ko‘pincha bolalarning qiziquvchanligini qoniqtiradi. Bu mehnatda har doim yangilik, ijodiy izlanish, yanada yuqori natijalarga erishish imkoniyati bor. O‘yinchoqlarni tayyorlashda bolalarni qulay emotsional yo‘naltirish, mehnatda muloqat quvonchi, chiroyli o‘yinchoq yasash jarayonida rohatlanish hissi umumiy rivojlanishi uchun juda muhimdir. Tabiiy materiallardan o‘yinchoqlar yasash mehnati bola shaxsining rivojlanishiga yordam beradi.

Ushbu mehnat turida o‘z faoliyatini baholash va nazorat qilish sifatini shakllantirishning real imkoniyatlari bor.

Tabiiy materialdan o‘yinchoq yasash mehnati individual va jamoaviy bo‘lishi mumkin. Kattalar kabi bolalarga ham jamoaviy mehnat ulkan quvonch olib keladi. Bu yerda shunisi muhimki, bolalar jamoaviy mehnatning natijasini, foydasini tushunishlari kerak.

### **Ish xonasida ishlash talablari**

1. Ish xonasiga faqat o'qituvchi ruxsati bilan kiriladi.
2. Har bir o'quvchi faqat o'z ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoa bo'lib bajariladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z majburiyatlarini yaxshi biladilar.
3. Ish faqat o'qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishni boshlashdan oldin ish joyini tayyorlab, asboblarni to'g'ri va qulay joylashtirish: O'ng qo'l bilan ushlanadigan asboblarni o'ng tomonga, chap qo'l bilan ushlanadiganini chap tomonga qo'y, sanchiladigan, kesadigan asboblarni hech qachon ikkita asbob orasiga qo'yma, ularni doimo o'z joyiga, o'tkir tomonini narigi, dastasini o'zing tomonga qilib qo'y. Asboblarni o'ynama, ular o'yinchoq emas.
5. Ish vaqtida ish joyingizni tartibli saqlang.
6. O'tmas yoki buzuvchi asbob bilan ishlamang.
7. Asbobni ishlatganda, uni o'qituvchi ko'rsatganidek ishlatang.
8. Asboblarni asrang, ularni to'g'ri, o'z o'rnida ishlatang, so'ng ularni tozalab qo'ying.
9. Har bir detalni oldingi safargidan sifatli, chiroyli va tartibli qilishga harakat qiling.
10. Ishni tugatdingizmi, ish joyingizni tezda tozalab, tartibli qilib qo'ying.

**Ish joyini to'g'ri tashkil etish:** O'qituvchi stolning ustiga dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiradi. O'quvchining old tomoniga yelim, qiyqimlar uchun quticha va sochiq joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida halaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plami, qog'oz to'plami va kerakli materiallar joylashtiriladi.

**Sanitariya-gigiena talablari:** O'quvchi ish stolida ishlayotganda kiyimlarini kir qilmaslik uchun maxsus ish fartuklari va yenglar kiyib olinadi. Ish qurollaridan foydalanishda har bir asbobni yoki ish qurolini tartib bilan ishlatishni, ya'ni bitta ish qurolidan foydalanib bo'lib o'z joyiga qo'yib, keyin ikkinchisini qo'lga olish talab etiladi. Bunda o'quvchini ish stoli batartib bo'ladi. Ish vaqtida o'quvchi

qo'lini kiyimlariga, boshiga, yuziga tekkizmaslik, zarur bo'lganda qo'lini sochiqqa artib keyin qo'lini harakatlantirishi mumkin. Ishni tugatgandan so'ng ish qurollari va asboblarini o'z g'ilof yoki idishlariga solib tartib bilan sumkasiga yoki maxsus javonga joylashtirib qo'yishi kerak.

**To'g'ri o'tirish qoidalari:** O'quvchilar ish vaqtida to'g'ri o'tirish qoidalariga amal qilishlari kerak. Har bir asbob yoki ish qurolidan foydalanayotgan vaqtida qo'llarni keskin harakatlantirmaslik, o'rnidan turmaslik, orqasiga qaramaslik, yoniga o'girilmaslik, o'rtog'iga gapirmaslik kerak. Ish vaqtida gavdani to'g'ri tutish, bir tomonga qiyshaymaslik, oyoqlarini to'g'ri joylashtirish, qo'llarni stol ustida harakatlantirish, asbob va ish qurollarni gavdasiga yaqin olib kelmaslik, ish stolida to'g'ri o'tirish kerak. SHunda o'quvchi charchab yoki toliqib qolmaydi.

**Ustaxonadagi asbob-uskunalar.** O'quvchilar ustaxonada ishlayotganlarida har xil asboblar va moslamalardan foydalanishadi. Qaychi, qalam, chizg'ich, igna, angishvona, yelim, yelim cho'tkasi, bigiz, taglik taxtachalar, pichoq, gazlama, rangli qog'oz to'plami, plastilin, turli urug'lar, barglar, mato bo'laklari, karton to'plami, sochiq, chiqindilar uchun quticha, stol ustiga klyonka.

Ko'rilgan choralarga qaramay sinfda baxtsiz hodisa ro'y bersa, o'qituvchi birinchi yordamni ko'rsatishi va maktab vrachini chaqirishi lozim. Ish xonasida yod, bint solingan aptechka bo'lishi shart.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ijodkorlik qobiliyatlari, ko'nikma va shaxs xislatlarining shakllanishida muhim bosqich bo'lib, o'quv fanlari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda ijodiy yondashish, ta'lim jarayonini integratsiyalash asosida tashkil etishga zamin bo'ladi.

## **11— MAVZU. Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi.**

### **Reja:**

1. Plastilinning xususiyati va tarkibi.
2. Plastilinni ishlatish usullari.
3. Loyning xususiyati va ishlatish usullari.
4. Plastilin va loy bilan ishlashni tarbiyaga ta'siri.
5. Plastilin va loy bilan ishlash qoidalari.

Boshlang'ich sinflarda plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarining maqsadi va vazifasi bolalarning haykaltaroshlikning elementar asoslari bilan tanishtirish va amaliy ishlashga o'rgatishni nazarda tutadi. Bunday mashg'ulotlarni yuksak saviyada tashkil etish va o'tkazish har bir o'qituvchidan mazkur soha bo'yicha ma'lum tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchilar o'z ustilarida ko'proq ishlashlari, haykaltaroshlik va sopolchilik asoslarini yaxshi bilib olishlari kerak bo'ladi.

Mehnat darslarida loy, plastilin, mum kabi materiallardan foydalanib, ulardan turli o'yinchoqlar, jonivorlar, qushlar, ertak qahramonlari yasaladi. O'yinchoq – dekorativ san'atning eng qadimgi turlaridan biri bo'lib, qadim asarlarda loydan yasalgan narsalar bizgacha yetib kelgan. Mamlakatimizda san'at va madaniyatning rivojlanib borishiga ko'ra o'yinchoqlarning assortimenti, ularning obrazlari yildan-yilga boyib bormoqda. O'yinchoqlar yasaladigan materiallar xilma-xildir. Biroq afzallik loyga beriladi. Loy – narsalar yasashdagi asosiy material hisoblanadi, chunki u istalgan joyda topiladi, arzon va qayishqoqdir. Narsalar yasaladigan loyda boshqa narsalar – tosh, qum va shu kabilar bo'lmasligi kerak. Chunki ish qo'lda bajariladi. Shuning uchun ish boshlashdan oldin loyni tekshirib ko'rish kerak. Loy shirali va shirasiz bo'ladi. Shirasiz loyning tarkibida ko'p qum bo'lib, unda yopishqoqlik xususiyati yomon bo'ladi. Loyni aralashmalardan tozalab, ustiga suv

qo'yib, 5-6 soat saqlanadi. So'ngra suvi to'kib, qo'lga yopishmaydigan quyuproq xamir holatiga kelguncha yaxshilab ishlanadi.

Loy va plastilin ham turli narsalar yasash uchun juda qulay bo'lib, ayrim xususiyatlariga ko'ra, bir-biridan ajralib turadi. Masalan, plastilin rang-barangligi va doimo ishga tayyor holda ekanligi bilan ajralib turadi. Lekin asosiy kamchilik shundaki, plastilin issiqda tez erib ketadi va o'zining qayishqoqlik xususiyatini yo'qotadi. Bundan tashqari plastilindan ishlangan haykalchalarni ochiq joyda saqlash juda qiyin. Undan asosan kichik modellarni yasashda foydalaniladi. U sun'iy plastik massa bo'lib, loydan hech qachon qurimasligi bilan farqlanadi. Plastilinning har xil: oddiy va murakkab turlari bo'lib, ularni tayyorlashning bir nechta variantlari bor.

Birinchi variant – toza quyup loyga glitserin qo'shib bir turli massa hosil qilguncha aralashtiriladi. Glitserin tayyorlanayotgan massa qo'lga yopishmaydigan holatga kelguncha qo'shiladi.

Ikkinchi variant - quritilgan toza loy mayda qilib tuyuladi va unga vazelin qo'shib, qo'lga yopishmaydigan quyup massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Plastilinga kerakli rangdagi quruq bo'yoq massasi qo'shib va puxta aralashtirib bo'yash mumkin.

Uchinchi variant - 1 qism tuproqqa 1/5 qism ilitilgan mum hamda plastilin qo'lga yopishmaydigan darajaga yetguncha glitserin qo'shib aralashtiriladi. Plastilin va loydan narsalar yasashni u yaxshilab qo'lda ezilgandan keyin boshlash kerak.

Plastilin va loydan tashqari narsalar yasashda mumdan foydalaniladi. Mumning tabiiy va su'niy turlari mavjud. Mum ancha qimmat turadi va undan mayda narsalar yasaladi. Mum bilan ishlash qulay, u qurimaydi, suv bilan namlanishni talab qilmaydi, darz ketmaydi va undan yasaladigan narsalar uzoq saqlanadi.

Mehnat darslari uchun do'konlarda ochdan to'q rangacha bo'lgan rangli mum tayoqchalari sotiladi.

Loy bilan ishlaganda asosan oddiy asboblari, pichoq, oddiy konstruksiyadagi yog'och va metall uchli steklardan foydalaniladi. Plastilin va mum bilan ishlaganda metall steklardan foydalaniladi. Ularni qizitish hamda yo'g'on mis, alyumin yoki temir simdan tayyorlash mumkin. Sirkul, o'lchov, chizg'ich va burchaklar kabi o'lchov asboblari modellarni chizish va o'lchash ishlarida kerak bo'ladi.

Tayyor narsalardagi changlarni yo'qotish, loy narsalarni supurib tashlash, narsani solish va unga narsalar surtish jarayonida har xil mo'yqalamlar bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

**Haykaltaroshlik haqida qisqacha ma'lumot.** Haykaltaroshlik – tasviriy san'at turlaridan biridir. San'atning bu turining xususiyati tasvirning hajmi – formasidir. Plastik tasvirlar orasida aylana haykaltaroshlik yolg'iz tur emas. Undan tashqari, barelef va gorelef ham mavjud, relef aylana haykaltaroshlikdan farq qilib, yassi sathda aks etadi. Bu haykaltaroshlik turlaridan idish-tovoq sathini, binolarning old tomoni, intereri va shu kabilarni bezashda foydalaniladi.

Loy va plastilin bilan ishlashda kerak bo'ladigan usullar:

1. Yumaloqlik – bu parcha loydan shar yasash, unga olcha, olma kabilari shaklini berishdir.
2. Bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan shar yasaladi.
3. Shar yasash, so'ngra uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.
4. Yassilash – sharchadan yassi non yasaladi, qo'lning holati doimo o'zgarib turadi.
5. Yumaloq shaklga keltirilgan shar bo'lagining bir qismi cho'ziladi.
6. Surish (yamash) orqali buyumning ayrim qismlarini o'zaro biriktirish.

Loy va plastilin bilan ishlash mashg'ulotlarini tashkil etish va ish joyini bekam-u ko'st jihozlanganligi muhim ahamiyatga egadir. SHuni qayd etish lozimki, O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida narsalar yasash bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni loydan bajargan ma'qul, chunki plastilindan yasalgan narsalar issiqda o'z shaklini tez yo'qotadi.

Ishni oddiy predmetlar: sabzavot-mevalarni yasashdan boshlash kerak. Bunda tayyor namuna yoki rasm bo'yicha ishlashni taklif etish mumkin. O'quvchilar narsalarni yasash usullarini egallab olganlaridan so'ng o'yinchoqlar, badiiy bezakli dekorativ idishlarni yasashga o'tishlari mumkin.

## **12 — MAVZU. Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi**

### **Reja**

1. Gazlama turlari
2. Gazlamaga ishlov berish usullari
3. Gazlama bilan ishlashda ish joyini tashkil qilish

Tikish darslarida beriladigan politexnik bilim bolalarning bilim doiralarini kengaytiradi. Bolalarning tasavvurlarini insoniyat hayotida muhim o'rinni egallovchi hamda keng tarqalgan materiallar va ularning xususiyatlari, sanoatning gazlama va tolali materiallar ishlab chiqaruvchi tarmoqlari, materiallardan texnika va insonning madaniy hamda maishiy ehtiyojlarini qondiruvchi ishlab chiqarish kabilar bilan boyitadi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilar turli asboblarni hamda moslamalar, asosan qaychi, igna va o'lchov asboblari bilan ishlash malakalarini egallaydilar. Ular bu asbob va moslamalarning har xil turlari bilan tanishadilar.

Gazlama bilan ishlaganda mehnat madaniyati, o'z ishini rejalashtirish hamda tashkil etish ko'nikmasi rivojlanadi va takomillashadi. Bolalarning didlari ham jiddiy o'sadi va takomillashadi. Dazmol, ip va boshqa materiallarni bir-biriga moslab tanlash, o'quvchilarni ranglarning birikishi, Gazlama va ipning rangi bir-biriga muvofiq kelishiga e'tibor berishga o'rgatadi. O'qituvchi o'quv materiallarini darsda o'quvchilarni politexnik bilim bilan qurollantirish amaliy ishlar jarayonida amalga oshiriladi. U darsda ta'limning o'quvchilarning faolliklarini, aqliy

qobiliyatlarini o‘stiradigan metod va usullardan foydalanadi. 1-sinf o‘quvchilari quyidagi ko‘nikma, bilim va malakalarni egallab olishlari kerak:

1. Gazlama haqidagi umumiy tushunchalar bilan tanishtirish. O‘simlik (paxta, zig‘ir)dan tayyorlanadigan gazlamalar haqida dastlabki ma’lumotlar beriladi. Gazlamaning tuzilishi, ulardagi iplarning to‘qilishi haqidagi ilk ma’lumotlar beriladi.

2. Gazlamalar asosan nimalarga mo‘ljallanganligi bilan tanishtirish: kiyim-kechak, turmush narsalariga va shu kabilar.

3. Ishlatilishi (tikish, yamash, to‘qish iplari) va yo‘g‘on-ingichkaligiga ko‘ra farqlanadigan iplar bilan tanishtirish.

4. Tikish va to‘qishda ishlatiladigan asosiy asboblardan hamda moslamalar (nina, qaychi, angishvona, to‘g‘nog‘ich) va ularni saqlashning asosiy qoidalari bilan tanishtirish.

5. Sanchiluvchan asbob va moslamalarni ishlatganda texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirish. Tikish vaqtida to‘g‘ri o‘tirish qoidalari, gigiyena talablari.

6. Kerakli uzunlikdagi ipni o‘lchash, uni qirqish yo‘llari bilan tanishtirish (ularni tishlab, tortib o‘zishga yo‘l qo‘ymaslik), lentani o‘lchash va qirqish.

7. Ip va tolaga ishlov berish usullari bilan tanishtirish.

8. Yo‘g‘on ip va toladan to‘qishga o‘rgatish.

9. Ignaga ip o‘tkazish, tugun solish, ipni mustahkamlashni o‘rgatish.

10. “Baxya chok” (biriktiruvchi va bezovchi) tushunchalari bilan tushuntirish.

11. Oddiy andozalar tayyorlash. O‘qituvchi chizmasiga muvofiq to‘g‘ri burchak shaklidagi andozalar qilish.

12. Gazlamani andozaga ko‘ra chamalash.

13. Gazlamani qaychi bilan qirqish usullarini tanishtirish.

14. Gazlamani qalam yoki bo‘r bilan belgilangan to‘g‘ri yoki egri chiziq bo‘ylab qaychida qirqishni o‘rgatish.

15. Gazlamadan narsalar tikishni o‘rgatish.

## 16. Tugma qadash usullarini o'rgatish.

Bu mashg'ulotda o'quvchilar natural ipak va jun tolali materiallari, to'qimachilik sanoati mahsulotlari bilan tanishadilar. Namuna, rasm, chizma va berilgan o'lchamlar bo'yicha andoza olishni va gazlamaning xususiyatlarini (pishiqligi, egiluvchanligi, tuzilishi)ni o'rganadilar.

Bu darslarda o'quvchilar sinfdagi jonli tabiat burchagi va maktab o'quv tajriba hovlisi o'simlik o'stirishga oid ishlar bilan shug'ullanadilar. Jonli tabiat burchagida 1-sinf o'quvchilari xona o'simliklarini parvarishlashda hosil qilgan malakalarini mustahkamlaydilar. O'simliklarni ko'chirib o'tkazishni, ularni ildiz bosqichlarida va tupning bo'linishidan ko'paytirishni o'rganib oladilar. O'quv-tajriba hovlisida olib boriladigan ishlar sabzavot, gulli va manzarali o'simliklarni ko'chat qilib o'stirish, meva va mevali daraxtlarni parvarish qilish, ayrim dala o'simliklarini uchastkada o'stirishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi maktab hovlisida olib boriladigan ishlarda gulli, manzarali o'simliklarni o'stirish bilan cheklanishi, shu asosda bolalarga dasturda talab etilgan bilim va malakalarni berishni ko'zda tutishi mumkin.

Boshlang'ich sinflarda bolalar faqat o'simliklarni o'stirishga oid bilim va malaka hosil qilish bilangina cheklanmay, balki eng muhimi, qishloq xo'jalik mehnatini sevishlari; uyushib ishlashlari va maqsadga erishish uchun astoydil harakat qilishlarni kerak.

2-sinf dasturida ko'zda tutilgan qishloq xo'jalik mehnati turi va murakkabligi jihatdan xilma-xildir, binobarin bolalarni bu ishlarini bajarishga uyushtirish ham har xil bo'ladi. Bu bolalarning tayyorlik darajasi va ma'lum bir ravishda ularning oldiga qo'yilgan maqsadiga bog'liq. O'qituvchining vazifasi mehnatni mumkin qadar bolalarning uyushqoqligini, do'stligini va o'rtoqlarcha o'zaro bir-biriga yordam berishini mustahkamlaydigan formada tashkil etishdir.

Uchinchi sinfdan sabzavot, gulli va manzarali o'simliklarni ko'chat qilib o'stirishga oid tajriba almashish ishlarining asosiy temasi o'simliklarni o'sishi va rivojlanishini boshqarishning usul va vositalari bilan tanishishdir. Uchinchi sinfdan o'quvchilar II sinfdan boshlang'ich ayrim o'simliklarning turlarini o'rganish va

navlarini sinash ishlarini davom ettirish bilan birga, o'simliklarni o'g'itlash va qo'shimcha oziqlantirishni tajriba qiladilar. II sinfda bolalar urug'ni sepishdan oldin erga go'ng solish, rediska hovlisiga qanday ta'sir etishni bilib olganlar.

3-sinf o'quvchilari pomidor ko'chatni yoki bir yillik gulli, manzarali o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun qo'shimcha oziqlantirishga tegishli eng yaxshi o'g'itni aniqlaydilar. SHu maqsadda bolalar bir yashikdagi ko'chatni to'liq mineral o'g'it eritmasi bilan, ikkinchisini organik o'g'it eritmasi bilan, uchinchi yashikdagini esa mahalliy o'qit bilan oziqlantiradilar.

Tajribalarning umumiy mavzusi:

1. Pomidor yoki gulli, manzarali o'simliklar ko'chatini stakan, yashik yoki parnikda o'stirish.

2. Ortiqcha Shoxchalarini olib tashlashning pomidorning pishish muddatiga ta'siri.

3. Bir, ikki va uch poyali pomidorlarning o'stirish.

4. Mineral va organik ozuqalarning pomidorning o'sishi va rivojlanishiga ta'siri.

5. Turli nav pomidorlarni bir xil tuproqda o'stirish (boshqa sabzavotlar ustida ham shu tarzda tajriba olib borish mumkin). O'rni bilan ish davomida bolalarda paydo bo'ladigan savollarni hal eta oladigan oddiy tajribalar ham o'zib turish zarur.

Tajriba davomida o'quvchilarning mustaqil fikrlashlariga, tug'ilgan savollarni mustaqil ham qilishlariga mumkin qadar kengroq imkon yaratib berish lozim. SHunda ular tajriba o'tkazish yo'llarini, shuningdek tajribadan ko'zda tutilgan maqsadni yaqqol tushunib oladilar.

Bolalar uchun urug'ni stakan, yashik va erga ekish, yaganalash o'simliklarni o'sishi va rivojlanishiga qanday ta'sir etishini tajriba qilib ko'rish ayniqsa qiziqarlidir. Masalan, pomidor urug'i 18 fevralda ivitiladi, bo'rtgan urug' 24 fevralda tuproq to'ldirilgan yashik va qog'oz stakanchalarga ekiladi. Stakandalar ko'chat yashigiga qo'yiladi. Yashikdagi va stakandagi o'simliklar sug'orildi va tuprog'i yumshatildi, qisqasi yashik va stakandagi o'simliklar bir xilda parvarish

qilinadi. O‘simliklar ikki kundan keyin nish uradi. Dastlabki 2 barg ko‘rinishi bilan o‘simlik urug‘ sepiladigan yashikdan olinib, ko‘chat ekiladigan yashikka o‘tkaziladi. Ko‘chirib o‘tkazish vaqtida asosiy ildizning bir qismi chilpib tashlanadi, keyin o‘simliklarning faqat ildizi emas, balki poyasining bir qismi ham tuproqqa ko‘miladi. 22 martda o‘simlik ko‘chat yashikdan olinib, birinchi asosiy bargcha poyasini tuproqqa ko‘mib parnikka o‘tkaziladi. Xuddi shu kuni qog‘oz stakanchalardagi ko‘chatlar ham yashigi bilan parnikka qo‘yiladi.

April oyining boshida bolalar ko‘chatlarning aralash usulda ochiq joyga ekdilar va bir oy davomida kuzatdilar. Qog‘oz stakanchalarda o‘stirilib, keyin o‘tkazilgan o‘simliklar, bir joyga ekilib, shu erda o‘sgan o‘simliklardan tubdan farq qiladi. Tarmoqdagi pomidorning poyasi kalta, baquvvat, barglari sersuv, to‘q yashil rangli yaxshi rivojlangan ildizda juda ko‘p tomirchalar paydo bo‘lgan. Bu ildizchalar o‘simlikning erdagi poya qismidan o‘sib chiqqan. Aksincha, bir joyda urug‘dan o‘stirilgan pomidorning ildizi baquvvat va kam edi. Buning sababi bolalardan so‘ralganda –bolalar bu savolga osongina javob berdilar:

Biz ko‘chirib o‘tkazish vaqtida asosiy ildizning bir qismini chilpib tashladik. U sekin boshladi, yonidan chiqqan ildizchalar esa tez o‘sib ketdi, poyadan ham Shoxchalar o‘sib chiqdi. O‘simlikning poyasi bir oz tuproqqa ko‘milgani uchun qo‘shimcha ildizlar o‘sib chiqdi.

Tajriba natijasida bolalar pomidor ildiz sistemasining o‘sishi va rivojlanishini kishilarning harakatiga bog‘liq ekanligiga ishonch hosil qildilar. Tajriba uchun ikki hovli bo‘lishi kerak. Birinchi hovlidagi pomidorning bachki Shoxchalari olib tashlanadi, ikkinchi hovlidagi pomidorniki esa olinmaydi. Tajriba vaqtida o‘qituvchi bolalarga bachkilarni yulish usullarini o‘rgatadi. Ba’zida bolalar bir va ikki poyali o‘simlikni birinchi gulbargi ostidagi bachkini sezmay qoladilar. Natijada bir poyali o‘simlik o‘rniga ikkinchi poyali, ikki poyali o‘rniga esa uch poyali o‘simlik o‘sadi.

Bundan tashqari bolalar ikki poyali o‘simlikning ikkala poyasida ham hosil borligini payqaydilar. Uch poyali o‘simlikning hosili ikkita poyasida, ayrimlarida esa faqat asosiy poyasida ekanligining guvohi bo‘ladilar. O‘quvchilar ikki poyali

pomidorning mevasi yirikroq bo‘lib tezroq pishishini bilgach, qishloq xo‘jaligi uchun ikki poyali pomidor o‘stirish foydalidir degan xulosaga keladilar.

**III BOB. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA  
DARSLARINI TASHKIL ETISH YUZASIDAN AMALIY  
MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg‘ulot.**

**Qog‘ozga ishlov berish usullari. Qog‘ozni buklash usullari**

**Reja:**

1. Qog‘oz va uning turlari.
2. Qog‘oz turlarining xususiyatlari.
3. Qog‘ozga ishlov berish usullari.

**Amaliy mashg‘ulotining maqsadi:** Qog‘oz turlarini o‘rganish, qog‘oz xususiyatlarini tahlil qilish va qog‘ozga ishlov berishni o‘rganish.

**Mashg‘ulot shiori:** Tez va sifatli ishla.

**Ta‘lim usullari:** Aqliy hujum, tezkor so‘rov, namoyish etish, suhbat, amaliy ish, taqdimot.

**Ta‘lim vositalari:** Tayanch matn, metodik qo‘llanmalar, ekspert topshiriqlar, turli qog‘oz bo‘laklari, chizg‘ich, qaychi, qalam.

**O‘qituvchining vazifasi:**

- talabalarining qog‘oz turlari va ularga ishlov berish usullari haqidagi bilimlarini aniqlash;
- texnologiya fanini darslarida foydalaniladigan qog‘oz turlari haqida tushunchalar berish;
- foydalaniladigan qog‘oz turlari xususiyatlarini tahlil qilish;
- qog‘ozga ishlov berish usullari to‘g‘risida ma‘lumot berish.

Qog‘oz bilan ishlashda o‘quvchilar avvalo qog‘ozning turlari, xususiyatlari va tarkibini bilishi kerak. Bunda o‘quvchilar texnologiya fanini darslarida ishlatiladigan qog‘oz turlarini nomlarini (ro‘znoma qog‘ozi, yozuv qog‘ozi, chizmachilik qog‘ozi, rasm qog‘ozi, rangli jild qog‘ozi, oboy gul qog‘ozi, millimetrli qog‘oz, karton qog‘ozi,)

Bolaning fantaziyasi kuchli bo‘ladi. U qo‘liga tushgan oddiygina bir narsada o‘zi xohlagan shaklni ko‘radi va tasavvur qiladi. Ayniqsa, bolaning qo‘liga bir parcha qog‘oz berilsa, bola uni xohlasa qayiq, xohlasa samolyot, xohlasa paqilloq, xohlasa varrak, xohlasa geometrik figuralar shakliga kiritadi, yoki bog‘cha opasidan va ota-onasidan, aka-opalaridan o‘zi xohlayotgan narsani yasab berishlarini so‘raydilar.

### **Amaliy topshiriqlar**

Qog‘ozning turlari: rangli qog‘oz, barxit qog‘ozi, folga qog‘oz, millimetrli qog‘oz, karton qog‘oz, gul qog‘oz, rasm qog‘oz, ro‘znoma qog‘ozi, chizmachilik qog‘ozi va hokazo.

Qog‘ozning xususiyatlarini tahlil qilish: qog‘ozning silliqligi, g‘adur-budirligi, rangi, namlikni o‘ziga singdirishi, qirqilishi, yirtilishi, chizilishi, buklanishi va hokazo.

Qog‘ozga ishlov berish usullarini o‘rganish: qog‘ozni qirqish, yirtish, chizish, g‘ijimlash, tekislash, qog‘ozni ikkiga buklash, to‘rtga buklash, teng buklash, uchburchak buklash, kvadrat shakliga keltirish, ikki tomonini parallel buklash, konvert shaklida buklash, do‘ppi shaklida buklash va hokazo.

**Ro‘znoma qog‘ozi** 1. Ro‘znoma qog‘ozi haqida tushuntirib bering. 2. Ro‘znoma qog‘ozini tahlil qiling. 3. Ro‘znoma qog‘ozga ishlov berish usullarini tushuntirib bering. (Amaliy ish ko‘rinishida taqdim eting). Eslatma: Boshlang‘ich sinfda texnologiya fanini ta’limidan amaliy ishlar.

**Rangli qog‘oz** 1. Rangli qog‘oz haqida tushuntirib bering. 2. Rangli qog‘ozini tahlil qiling. 3. Rangli qog‘ozga ishlov berish usullarini tushuntirib bering. (Amaliy ish ko‘rinishida taqdim eting). Eslatma: Boshlang‘ich sinfda texnologiya fanini ta’limidan amaliy ishlar

**Rasm qog‘ozi** 1. Rasm qog‘ozi haqida tushuntirib bering. 2. Rasm qog‘ozini tahlil qiling. 3. Rasm qog‘oziga ishlov berish usullarini tushuntirib bering. (Amaliy ish ko‘rinishida taqdim eting). Eslatma: Boshlang‘ich sinfda texnologiya fanini ta’limidan amaliy ishlar )

**Karton qog‘ozi** 1. Karton qog‘ozi haqida tushuntirib bering. 2. Karton qog‘ozini tahlil qiling. 3. Karton qog‘oziga ishlov berish usullarini tushuntirib bering. (Amaliy ish ko‘rinishida taqdim eting). Eslatma: Boshlang‘ich sinfda texnologiya fanini ta’limidan amaliy ishlar – (34-35 betlarga qarang).

**Yozuv qog‘ozi** 1. Yozuv qog‘ozi haqida tushuntirib bering. 2. Yozuv qog‘ozini tahlil qiling. 3. Yozuv qog‘oziga ishlov berish usullarini tushuntirib bering. (Amaliy ish ko‘rinishida taqdim eting). Eslatma: Boshlang‘ich sinfda texnologiya fanini ta’limidan amaliy ishlar (34-35 betlarga qarang).

### **Vaziyat**

O‘qituvchi sinf xonasiga kirganida hammayoqda turli qog‘ozlar sochilib yotardi. Xonaning betartibligini ko‘rib o‘qituvchining jahli chiqdi, lekin o‘quvchilarni koyimadi. O‘quvchilarga qog‘ozlar haqida gapirib berdi:

-Ishlatilmaydigan qog‘ozlardan ham unumli foydalanish mumkin. Ulardan turli buyumlar, shakllar, mozaikalar, kitob uchun xatcho‘p, muqovadalar yasash mumkin,-dedi va ulardan ayrim namunalarni yasab ko‘rsatdi. O‘quvchilar oddiy qog‘ozdan shunday chiroyli buyumlar yasash mumkinligini ko‘rib hayratda qolishdi va endi qog‘ozlarni isrof qilmaslikka harakat qilishlarini aytdi.

## **2- amaliy mashg‘ulot.**

**Qog‘ozni ketma – ket buklab maketlar yasashtexnologiyasi. Qog‘ozni oddiy usullarda buklab maketlar yasash texnologiyasi.**

### **Reja:**

1. Qog‘ozni ketma-ket usullarda buklab maketlar yasash
2. Qog‘ozni oddiy usullarda buklab maketlar yasash
3. Qog‘ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash

**Amaliy mashg‘ulotining maqsadi:** Qog‘oz buklash usullarda maketlar yasashga o‘rgatish.

**Ta'lim usullari:** Tushuntirish, tezkor so'rov, namoyish etish, savol-javob, amaliy ish, taqdimot

**Ta'lim vositalari:** Metodik qo'llanmalar, slaydlar, amaliy topshiriqlar, turli rangli qog'oz to'plarni, chizg'ich, qaychi, qalam.

**Pedagogik vazifalar:**

- Talabalarning qog'ozni buklash usullari haqidagi bilimlarini aniqlash;
- Ish joyini to'g'ri tashkil qilish va texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha ma'lumotlar berish;

- Qog'ozni ketma-ket usullarda buklashni o'rgatadi;

- Qog'ozni oddiy usullarda buklashni o'rgatadi;

- Qog'ozni murakkab usullarda buklashni o'rgatadi;

- Talabalarning qog'ozni buklash usullari haqidagi bilimlarini aniqlash;

- Ish joyini to'g'ri tashkil qilish va texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha ma'lumotlar berish;

- Qog'ozni ketma-ket usullarda buklashni o'rgatadi;

- Qog'ozni oddiy usullarda buklashni o'rgatadi;

- Qog'ozni murakkab usullarda buklashni o'rgatadi;

**Qog'ozni buklash usullari bo'yicha topshiriqlar**

1. Qog'ozni teng ikkiga buklashni amalga oshiring

2. Qog'ozni teng to'rtga buklashni amalga oshiring

3. Qog'ozni uchburchak shaklida buklashni amalga oshiring

4. Qog'ozni konvert shaklida buklashni amalga oshiring

**Ketma-ket usullarda buklab maketlar yasash texnologiyasi**

**“Uycha” maketini yasash bosqichlari**

**1-bosqich:** Tomonlari 10 sm bo'lgan kvadrat shaklidagi qog'oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog'ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

**2-bosqich:** Hosil bo'lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

**3-bosqich:** Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori ikki tomonini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

**4-bosqich:** Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Uycha shakli hosil bo‘ldi, unga applikatsiya usulida deraza va eshik romlarini, tom qismiga tom shaklini rangli qog‘ozdan tayyorlab yelimlash kerak.

Paroxod” maketini yasash bosqichlari

**1-bosqich:** Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

**2-bosqich:** Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

**3-bosqich:** Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori ikki tomonini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

**4-bosqich:** Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Uycha shakli hosil bo‘ldi, uni teskari qilib qog‘ozga yelimlasak, paroxodning shakli hosil bo‘ladi. unga applikatsiya usulida mo‘ri qismiga tutin va pastki qismiga suv to‘lqinlarini rangli qog‘ozdan tayyorlab yelimlash kerak.

“Pirpirak” maketini yasash bosqichlari

**1-bosqich:** Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

**2-bosqich:** Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

**3-bosqich:** Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

**4-bosqich:** Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi.

**5-bosqich:** Hosil bo‘lgan shaklning ikkita qarama-qarshi burchaklarini yon tomonga tortib buklanadi, natijada pirpirakning shakli hosil bo‘ladi. Pirpirakka rangli qog‘ozdan ushlagich qismini tayyorlab yelimlab qo‘yiladi.

“Qo‘shqayiq” maketini yasash bosqichlari

**1-bosqich:** Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

**2-bosqich:** Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

**3-bosqich:** Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

**4-bosqich:** Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo‘lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

**5-bosqich:** Hosil bo‘lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo‘shqayiq maketining shakli hosil bo‘ladi.

“Elkanli qayiq” maketini yasash bosqichlari

**1-bosqich:** Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

**2-bosqich:** Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

**3-bosqich:** Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

**4-bosqich:** Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo‘lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

**5-bosqich:** Hosil bo‘lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo‘shqayiq maketining shakli hosil bo‘ladi.

**6-bosqich:** Uchburchakning bitta uchini unga qarama-qarshi bo‘lgan ikkini tomonidagi uchiga birlashtiramiz, natijada qo‘shqayiqning o‘rtasida qolgan bitta uchi o‘z-o‘zidan yuqoriga ko‘tariladi. Hosil bo‘lgan yelkanli qayiq shakliga qo‘shimcha ishlov beriladi.

“Qushcha” maketini yasash bosqichlari

**1-bosqich:** Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

**2-bosqich:** Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

**3-bosqich:** Hosil bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

**4-bosqich:** Hosil bo‘lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tortib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo‘lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

**5-bosqich:** Hosil bo‘lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo‘shqayiq maketining shakli hosil bo‘ladi.

**6-bosqich:** Uchburchakning bitta uchini unga qarama-qarshi bo‘lgan ikkini tomonidagi uchiga birlashtiramiz, natijada qo‘shqayiqning o‘rtasida qolgan bitta uchi o‘z-o‘zidan yuqoriga ko‘tariladi.

**7-bosqich:** Yelkanli qayiqning yelkan qismini orasini ochib uchburchak shakliga keltirib teskarisiga buklasak, ikkita qo‘shaloq burchagini pastga qaratib ushlasak qushchaning shakli hosil bo‘ladi.

“Samolyot” maketini yasash bosqichlari

**1-bosqich:** Tomonlari 10 sm bo‘lgan kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. Kvadrat shaklidagi qog‘ozni buklash usullari orqali 16 ta kvadrat, 32 ta uchburchak chiziqlar hosil qilinadi.

**2-bosqich:** Hosil bo‘lgan buklash chiziqlari orqali kvadrat shakli teng ikkiga buklanadi.

**3-bosqich:** Hosil bo'lgan to'g'ri to'rtburchakning yuqori va pastki tomonlarini ichki qismiga buklab uchburchak hosil qilinadi.

**4-bosqich:** Hosil bo'lgan uchburchakni burchaklarini ikki yon tomonga tartib burchak hosil qilinadi. Xuddi shu bosqich hosil bo'lgan shaklning pastki qismida ham bajariladi.

**5-bosqich:** Hosil bo'lgan shaklni orqa tomoniga teng ikkiga buklasak qo'shqayiq maketining shakli hosil bo'ladi.

**6-bosqich:** Uchburchakning bitta uchini unga qarama-qarshi bo'lgan ikkini tomonidagi uchiga birlashtiramiz, natijada qo'shqayiqning o'rtasida qolgan bitta uchi o'z-o'zidan yuqoriga ko'tariladi.

**7-bosqich:**Yelkanli qayiqning yelkan qismini orasini ochib uchburchak shakliga keltirib teskarisiga buklasak, ikkita qo'shaloq burchagini pastga qaratib ushlasak qushchaning shakli hosil bo'ladi.

**8-bosqich:** Qushcha shaklini ikkita qanotini orasini ochib shaklning yuqori qismini to'g'rilasak samolyot shakli hosil bo'ladi.

### Vaziyat

Azamat tikishga juda ham qiziqadi. Bir kuni texnologiya fanini darsida u o'qituvchiga:

- Ustoz, men tikuvchilik hunariga juda ham qiziqaman. Shu hunarni o'rganmoqchiman, - dedi.

Buni eshitgan sinfdoshlari esa rosa kulishdi. Azamat sinf xonasidan yig'lab chiqib ketdi. O'qituvchi bo'lsa bolalarga yaxshi ish qilmaganliklarini, har bir inson o'zi qiziqqan hunarni o'rganishi mumkinligini buni hech qanday uyat joyi yo'qligini tushuntirdi. Yurtimizda ham tikuvchilik bilan shug'ullanadigan ko'plab yigitlar borligini, ular bizning milliy matolarimizdan zamonaviy liboslar yaratib yurtimiz nomini jahonga tanitayotganliklarini aytib o'tdi.

- Eng asosiysi, - dedi o'qituvchi, — o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lish. Chin dildan qiziqib, harakat qilgan insongina o'zi xohlaganlariga erishadi.

Bolalar ayb ish qilganliklarini tushunishdi va Azamatni topib undan uzr so'rashdi.

### 3 – amaliy mashg‘ulot.

#### Qog‘ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash texnologiyasi.

#### Qog‘ozdan “Oq qush”ni qurish texnologiyasi.

##### Reja:

1. Qog‘ozni ketma-ket usullarda buklab maketlar yasash
2. Qog‘ozni oddiy usullarda buklab maketlar yasash
3. Qog‘ozni murakkab usullarda buklab maketlar yasash

**Amaliy mashg‘ulotining maqsadi:** Qog‘oz buklash usullarda maketlar yasashga o‘rgatish.

**Ta‘lim usullari:** Tushuntirish, tezkor so‘rov, namoyish etish, savol-javob, amaliy ish, taqdimot

**Ta‘lim vositalari:** Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, amaliy topshiriqlar, turli rangli qog‘oz to‘plarni, chizg‘ich, qaychi, qalam.

##### **Pedagogik vazifalar:**

- Talabalarning qog‘ozni buklash usullari haqidagi bilimlarini aniqlash;
- Ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish va texnika xavfsizligi qoidalari bo‘yicha ma‘lumotlar berish;

- Qog‘ozni ketma-ket usullarda buklashni o‘rgatadi;

- Qog‘ozni oddiy usullarda buklashni o‘rgatadi;

- Qog‘ozni murakkab usullarda buklashni o‘rgatadi;

##### **Qog‘ozni buklash usullari bo‘yicha topshiriqlar**

1. Qog‘ozni teng ikkiga buklashni amalga oshiring
2. Qog‘ozni teng to‘rtga buklashni amalga oshiring
3. Qog‘ozni uchburchak shaklida buklashni amalga oshiring
4. Qog‘ozni konvert shaklida buklashni amalga oshiring

“Kuchukcha” ko‘rgazmali quroli.

1. Kvadrat shaklidagi qog‘oz olinadi. U teng ikkiga buklanadi.
2. Hosil bo‘lgan shaklning ikki yon uchi pastga qaratib buklanadi.

3. Hosil boʻlgan shaklning yuqorisi va pastki tomonlari 1 sm orqaga buklanadi.

4. Hosil boʻlgan kuchukchaning bosh qismiga tana qismi rangli qogʻozdan qirqib yopishtiriladi.

“Lola” koʻrgazmali quroli.

1- Kvadrat shaklidagi rangli qogʻoz doʻppi shaklda buklanadi.

2-Hosil boʻlgan uchburchakni bir tomonining ikki uchi teng ikkiga buklanadi. Romb shakli hosil boʻldi.

1-romb shaklining yuqori uchlarini pastga qaratib uchburchak qilib buklaymiz.

2-Hosil boʻlgan shaklning pastki tomonidan havo puflab lola shaklini hosil qilamiz.

“Qurbaqa” koʻrgazmali quroli.

1- Kvadrat shaklidagi rangli qogʻoz olinadi.

2. Kvadrat shaklini buklab doʻppi shakliga keltiriladi.

3. Hosil boʻlgan uchburchakni bir tomonining ikki uchi teng ikkiga buklanadi. Romb shakli hosil boʻldi.

4. Romb shaklining pastki uchlarini yuqoriga qaratib uchburchak qilib buklaymiz.

5. Hosil boʻlgan shaklning orqa tomonidagi uchlari oʻrtasiga keltirib buklanadi.

6. Shaklining pastki uchlarini 1 sm yuqoriga va pastga buklanadi. Yuqoridagi ikkita burchaklar buklash chizigʻiga tenglashtirib orqaga buklanadi.

“Kuchukcha” koʻrgazmali quroli.

1- Kvadrat shaklidagi rangli qogʻoz uchburchak shaklda buklanadi.

2- Hosil boʻlgan uchburchak shakli teng ikkiga buklanadi.

3- Hosil boʻlgan shaklning yuqori qismi qiya qilib chap tomonga buklanadi.

4- Buklangan uchburchakning yuqori qismidan 1 sm oʻlchamda oʻng tomonga buklanadi.

5- Kuchukchanning tumshug'ini chiqarish uchun hosil bo'lgan shaklning 1 sm orqaga buklanadi.

6- Kuchukchanning dumini hosil qilish uchun shaklining pastki qismi 1 sm o'lchamda o'ng tomonga qaratib buklanadi.

O'tirgan holdagi kuchukcha shakli hosil bo'ldi.

“Oqqush” ko'rgazmali quroli.

1. A4 formatdagi rangli qog'ozni teng 8 ta bo'lakga bo'lib olinadi. 37x53 mm o'lchamdagi qog'oz bo'laklari hosil bo'ladi.

2. 37x53 mm o'lchamdagi qog'oz bo'lagini teng ikkiga buklanadi.

3. Qog'ozni o'rtasidan pastga qaratib uchburchak shaklda buklanadi.

4. Hosil bo'lgan shaklning ortiqcha pastki qismini ichki tomoniga burchak qilib buklanadi.

5. Burchak qilib buklangan qismni yuqoriga buklanadi.

6. Hosil bo'lgan shakl teng ikkiga buklanadi.

7. Hosil bo'lgan uchburchaklarni ikkitasini bitta uchburchak orasiga joylashtiriladi. Bu ishni ketma-ket bajarib doiralar hosil qilinadi. Har bir doirada 30 tadan burchak bo'lish kerak.

8. Oqqush shaklni pastki qismini hosil qilish uchun qizil rangli qog'ozdan 5 qator burchak terib chiqiladi.

9. Oqqushning keyingi bosqichlarini ikki qator sariq rangli qog'ozdan terib chiqiladi.

10. Oqqushning qanotlarini yashil rangli qog'ozdan ikki qator, ko'k rangli qog'ozdan ikki qator, pushti rangli qog'ozdan bir qator burchaklar terib chiqiladi.

11. Oqqushning bo'yin qismini turli rangdagi qog'ozlardan tayyorlangan burchaklardan terib chiqiladi. Oqqushga bezak berish uchun ko'z va lentadan bo'yinbog' tayyorlanib taqiladi.

#### 4- amaliy mashg‘ulot.

### Kartondan “Sanoq sonlari” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash

**O‘quv mashg‘ulotning maqsadi:** Talabalarga karton va uning turlari haqida ma’lumot berish va kartondan ko‘rgazmali qurollar tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish

Ta’lim usullari: “Aqliy hujum”, amaliy ish, taqdimot

Ta’lim vositalari: karton qog‘ozi, turli rangli qog‘oz, chizg‘ich, qaychi, qalam, flomaster, skoch, sirkul, bolt.

**Ko‘rgazmalar:** Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, turli rasmlar, kartondan yasalgan ko‘rgazmali quroldan namunalar (“Telefon”, “Olmali daraxt”, “O‘yla, izla, top”)

#### ***Pedagogik vazifalar:***

- Talabalarning kartondan yasaladigan ko‘rgazmali qurollar haqidagi bilimlarini aniqlash;

- Ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish bo‘yicha ma’lumotlar berish;

- Karton qog‘ozi va uning turlari haqida tushunchalar berish;

- Kartondan turli ko‘rgazmali qurollarni tayyorlash va ulardan foydalanish haqida tasavvurlarini shakllantirish

- Kartondan “Telefon”, “Olmali daraxt”, “O‘yla, izla, top” ko‘rgazmali qurollarini tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish.

Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarni bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Kartondan ko‘rgazmali qurol tayyorlash uchun ish joyini tashkil qilish fanday amalga oshiriladi?

2. Nima uchun darslarda ko‘rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi?

3. Yana qanday ko‘rgazmali qurollarni bilasiz?

4. O‘z qo‘limiz bilan qanday ko‘rgazmali qurollarni tayyorlashimiz mumkin?

5. Ko'rgazmali qurolni tayyorlash o'quvchilarning qaysi tomonlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi?

6. Kartondan tayyorlanadigan yana qanday ko'rgazmali qurollarni bilasiz?

7. Ko'rgazmali qurol turlari va ulardan foydalanish yo'llari?

8. Kartondan ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun ish joyini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?

9. Karton qog'ozi deb qanday qog'ozga aytiladi?

10. Kartoning xususiyatlari qanday?

11. Kartoning qanday turlari mavjud?

Ko'rgazmali qurollardan boshlang'ich sinflarning barcha fanlarida qo'llaniladi. Ko'rgazmali qurollar darslarni samarali tashkil etishga va o'quvchilarni egallanayotgan bilimlarni mustahkam egallashga yordam berdi. Ko'rgazmali qurollarni tayyorlashni o'quvchilarning o'zlari ham bajarish mumkin. Bu egallagan bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.

### **Vaziyat**

Bolalar fermaga sayohatga borishdi. U yerda turli parrandalar, jonivorlar bor edi. Nazira tovuqlarni ko'rib :

- Voybo' bularni. Tovuqlarni yoqtirmayman. Ular har safar mening gulzorimni payhon qilishadi.

- Yo'q, - dedi Barno, - tovuqlar yaxshi. Masalan mening tovuqlarim har kuni tuxum qo'yadi. Ular bolalar uchun juda foydali.

Ularning suhbatini eshitgan o'qituvchi bolalarga parrandalar, ularning tuxumlari haqida turli qiziqarli ma'lumotlarni berdi.

## **5–amaliy mashg'ulot.**

### **“Telefon” ko'rgazmali qurolini yasash texnologiyasi**

**O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga karton va uning turlari haqida ma'lumot berish va kartondan ko'rgazmali qurollar tayyorlash texnologiyasini o'rgatish

Ta'lim usullari: "Aqliy hujum", amaliy ish, taqdimot

Ta'lim vositalari: karton qog'ozi, turli rangli qog'oz, chizg'ich, qaychi, qalam, flomaster, skoch, sirkul, bolt.

**Ko'rgazmalar:** Metodik qo'llanmalar, slaydlar, turli rasmlar, kartondan yasalgan ko'rgazmali quroldan namunalalar

***Pedagogik vazifalar:***

- Talabalarning kartondan yasaladigan ko'rgazmali qurollar haqidagi bilimlarini aniqlash;

- Ish joyini to'g'ri tashkil qilish bo'yicha ma'lumotlar berish;

- Karton qog'ozi va uning turlari haqida tushunchalar berish;

- Kartondan turli ko'rgazmali qurollarni tayyorlash va ulardan foydalanish haqida tasavvurlarini shakllantirish

Mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarni bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun "Aqliy hujum" metodi asosida savollar beriladi.

1. Kartondan ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun ish joyini tashkil qilish fanday amalga oshiriladi?

1. Nima uchun darslarda ko'rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aytiladi?

2. Yana qanday ko'rgazmali qurollarni bilasiz?

3. O'z qo'limiz bilan qanday ko'rgazmali qurollarni tayyorlashimiz mumkin?

4. Ko'rgazmali qurolni tayyorlash o'quvchilarning qaysi tomonlarini rivojlantiradi va takomillashtiradi?

5. Kartondan tayyorlanadigan yana qanday ko'rgazmali qurollarni bilasiz?

6. Ko'rgazmali qurol turlari va ulardan foydalanish yo'llari?

7. Kartondan ko'rgazmali qurol tayyorlash uchun ish joyini tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?

8. Karton qog'ozi deb qanday qog'ozga aytiladi?

9. Kartoning xususiyatlari qanday?

10. Kartoning qanday turlari mavjud?

1. 30x44 sm o'lchamdagi karton qog'ozini olinadi.
2. Karton qog'ozini usti oq yoki boshqa rangli qog'oz bilan muqovalanadi.
3. Boshqa rangdagi karton olinib, 30x10 sm o'lchamdagi telefon trubkasi shaklida qirqib olinadi.
4. Tayyor asos kartonning yuqori qismiga telefon trubkasi shaklidagi karton yelimlanadi va buklab qo'yiladi.
5. Asos kartonning o'rtasi aniqlanadi va qalam yordamida belgilab qo'yiladi.
6. Yana boshqa karton olinib, unga sirkul yordamida chiziladi va qirqib olinadi.
7. Doira teng 8 ta bo'lakka bo'lib chizib olinadi.
8. Har bir bo'lak o'rtasiga kichik doirachalar chizib va qirqib olinadi. Har bir doira orasidagi masofa bir xil bo'lishi kerak.

***Katta doirani kartonning o'rtasiga bolt yordamida mahkamlanadi.***

9. Doira ichidagi kichik doirachalarning shakli kartonga chiziladi. Chizilgan doira ichiga lotin alifbosidagi harflar soat strelkasiga teskari ravishda 4-5 tadan joylashtiriladi.
10. Chizilgan doirachalarning bittasi bir xil rangga bo'yab qo'yiladi.
11. Doiralardagi harflar telefon raqamiga o'xshatib terilib so'zlar hosil qilinadi.
12. Bitta doira to'g'risiga rangli qog'ozdan strelka yelimlab qo'yiladi.
13. Hosil bo'lgan so'zlarning rasmlari strelka ko'rsatgan doira to'g'risiga yopishtiriladi.
14. Har bir doira to'g'risiga rasmlar yopishtirib bo'lgandan so'ng rasmlarning nomlari telefon trubka shaklidagi karton tagiga yozib qo'yiladi.
15. Ko'rgazmaning doirasi aylantirib tekshirib ko'riladi, xato va kamchiliklar to'g'rilanadi.

**Vaziyat**

O'qituvchi darsga kirish vaqtida xonada bolalar to'poloni ustidan chiqdi. O'qituvchi urishayotgan bolalarni koridorga olib chiqib, nima sababdan urishayotganlarini so'radi. Bolalar bir-birlariga qarab sababini aytmadilar.

“Bu sirmi?” - deb so‘radi o‘qituvchi. Bolalar boshlarini qimirlatdilar. Shunda o‘qituvchi bolalarga “sizlar 5 daqiqa vaqt ichida erkakchasiga gaplashib olinglar, faqat bir-biringlarni urmasdan, haqorat qilmasdan kelishinglar. Sinfga siz oldingidan ham inoqroq do‘st bo‘lib, shunday hayotiy muammolarni ham tinchtotuv yechib kirganingizni boshqalar ko‘rsin”.

## **6- amaliy mashg‘ulot.**

### **Kartondan “Olmali daraxt” ko‘rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasi**

1. 30x44 sm o‘lchamdagi karton qog‘ozi olinadi.
2. Karton qog‘ozining usti oq qog‘oz bilan muqovalanadi.
3. Kartonning yuqori va pastki qismidan bir-biriga to‘g‘ri qilib 8 ta teshik belgilanadi va nina yordamida teshib chiqiladi.
4. Ochilgan teshiklardan nina yordamida qalinroq ip o‘tkaziladi va kartonning orqa tomonidan iplar bir-biriga bog‘lab qo‘yiladi. Ip teshiklardan bimalol harakatlanishi kerak.
5. Boshqa kartondan olma shakllari qirqib olinadi va shakllarga rangli qog‘oz yopishtiriladi.
6. Qirqib olingan olma shakllari iplarga bittadan yelimlab chiqiladi va orqa tomoniga oq qog‘ozdan yopishtiriladi.
7. Olma shakllarini yelimlashda ipning tuguni kartonning pastki qismida joylashgan bo‘lishi kerak. Olma shakllarini esa kartonning yuqori qismidan yelimlanadi.
8. Kartondan katta savat shakli chizib qirqib olinadi va unga ranglar yordamida ishlov beriladi.
9. Tayyor bo‘lgan savatcha asos kartonning pastki qismiga chetlarini yelimlab yopishtiriladi. Iplar o‘tgan joyi yelimlanmaydi.

10. Iplarni harakatlantirganda olma shakllari yerga va savatchaga tushishi kerak.

11. Olma shaklining orqa tomoniga, ya'ni oq qog'ozlar ustiga har xil misollar, mashqlar va topshiriqlar yozib qo'yish mumkin.

12. O'quvchi ipni harakatlantirganda olma shakli savatchaga tushdi.

13. O'quvchi shu olma shakli orqasidagi topshiriqni yozadi.

“Olmali daraxt” ko'rgazmali qurolidan boshlang'ich sinf barcha darslari jarayonida qo'llaniladi.

### **Vaziyat**

Lobar va Sanjar 2-sinfda o'qishadi. Ular partadosh. Bir kuni mehnat darsida Sanjar partaning ustini juda ham tartibsiz qilib yubordi. Lola esa Sanjarni tartibga chaqirdi:

- Sanjar, partaning ustini tartibli saqla, axir ishlashimga xalal beryapsan.

- Agar malol kelsa boshqa partaga o'tib o'tir dedi Sanjar Lolaga. Sanjarning so'zlaridan ranjigan Lola boshqa partaga o'tib o'tirdi. Buni kuzatib turgan o'qituvchi esa bolalarga avval mehnat darsi qoidalarini yodga olishlarini aytdi va har bir o'quvchidan bu qoidalarni so'rab chiqdi. So'ngra bolalarga do'stlik tuyg'usi, do'stlarni xafa qilish yaxshi ish emasligi haqida aytib berdi. Bundan o'ziga to'g'ri xulosa chiqargan Sanjar Loladan uzr so'radi.

## **7 – amaliy mashg'ulot.**

### **Kartondan “O'yla, izla, top” ko'rgazmali qurolini tayyorlash texnologiyasi**

**O'quv mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga karton va uning turlari haqida ma'lumot berish va kartondan ko'rgazmali qurollar tayyorlash texnologiyasini o'rgatish

Ta'lim usullari: “Aqliy hujum”, amaliy ish, taqdimot

Ta'lim vositalari: karton qog'oz, turli rangli qog'oz, chizg'ich, qaychi, qalam, flomaster, skoch, sirkul, bolt.

**Ko'rgazmalar:** Metodik qo'llanmalar, slaydlar, turli rasmlar, kartondan yasalgan ko'rgazmali quoldan namunalar(“Telefon”, “Olmali daraxt”, “O'yla, izla, top”)

***Pedagogik vazifalar:***

- Talabalarning kartondan yasaladigan ko'rgazmali quollar haqidagi bilimlarini aniqlash;

- Ish joyini to'g'ri tashkil qilish bo'yicha ma'lumotlar berish;

- Karton qog'oz va uning turlari haqida tushunchalar berish;

- Kartondan turli ko'rgazmali quollarni tayyorlash va ulardan foydalanish haqida tasavvurlarini shakllantirish

1. 30×44 sm o'lchamdagi karton qog'oz olinadi.

2. Karton qog'ozining usti oq qog'oz bilan muqovalanadi.

3. Karton qog'ozining 5sm yuqori qismiga “O'yla, izla, top” deb yozib qo'yiladi.

4. Kartonning pastki qismiga 5 sm rangli kartondan turli shaklda cho'ntakcha qirqib olinib yelimlab qo'yiladi.

5. Kartonning qolgan qismini teng 9 bo'lakka bo'lib o'lchab chizib olinadi.

6. Har bir bo'lakning pastki qismiga sonlarni joylashtirish uchun rangli kartondan turli shakllarda cho'ntakcha qirqib yelimlab chiqiladi.

7. Har bir bo'lak rangli qog'oz yordamida ajratib olinadi.

8. Rangli kartondan turli shakllarda shablon yasab 1-9 gacha bo'lgan sonlarni yozib chiqamiz.

9. Har bir shablonni chetki qismi skochlanib chiqilsa ham bo'ladi.

10. 1–9 gacha bo'lgan sonlarni ko'rgazmali qurolga shunday tartibda joylashtirishimiz kerakki, har qanday yo'l bilan qo'shib hisoblanganda 15 raqami chiqishi kerak.

## **8- amaliy mashg‘ulot.**

### **Kvilling usulida tabriknoma tayyorlash texnologiyasi**

#### **Reja:**

1. Tabriknomalar haqida ma’lumot berish.
2. Kvilling usulida shakllar yasash haqida ma’lumot berish.
3. Kvilling usulida tabriknoma tayyorlash texnologiyasini tushuntirish.

#### ***Pedagogik vazifalar:***

- talabalarning tabriknoma va ularning turlari haqidagi bilimlarini aniqlash;
- kvilling usulida shakllar yasash haqida tushunchalar berish;
- kvilling usulida tabriknoma tayyorlash texnologiyasini tushuntirish.

Ta’lim usullari: Tushuntirish, aqliy hujum, amaliy ish, amaliy ish taqdimoti.

Ta’lim vositalari: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, tabriknoma turlaridan namunalar, kvilling usulida shakllar yasash bosqichlari, rangli qog‘oz, rangli karton, qaychi, chizg‘ich, qalam, yelim.

Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Tabriknomalarning qanday turlarini bilasiz?
2. Tabriknomalar nima maqsadda ishlatiladi?
3. Kvilling usulida qanday shakllar yasash mumkin?
4. Kvilling usulida tabriknoma yasashda qanday qog‘ozdan foydalaniladi?
5. Qanday bayramlarni bilasiz?

#### **Tabriknoma va uning turlari haqida ma’lumotlar.**

Tabriknomalar insonlarni yaxshi kunlarida: tug‘ilgan kunlarda, bayramlarda, to‘y-marosimlarda o‘z tilaklarini, yaxshi niyatlarini bildirish uchun taqdim etiladi. Tabriknomalar turli bayramlar uchun turli shakllarda va o‘lchamlarda ishlab chiqiladi. Tabriknomalar asosan karton qog‘ozidan tayyorlanadi. Muqovasi turli bezaklar (gullar, ramziy belgilar va boshqa shakllar) bilan bezatiladi. Asosan, 8-mart va Navro‘z bayramlariga gullar tasvirlangan tabriknomalardan, tavallud kunlariga esa insonga tilak bildiruvchi ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalar

taqdim etiladi. Yangi yil bayramida qish, Qorbobo va sovg'alar tasvirlangan tabriknomalardan, turli kasbiy bayramda kasblar, gullar, turli ramziy belgilar tasvirlangan tabriknomalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tabriknoma yasash uchun bizga quyidagi ish qurollari va materiallar kerak bo'ladi.

### **Kvilling usuli**

**Kvilling** – bu badiiy texnika, ikki taraflama rangli qog'oz tasmasi asosida bajarilgan amaliy ish, gugurt cho'piga yoki tish kovlagichga o'rab chiqiladigan va turfa xil shaklga aylantirilgandan keyin 7 turli xil figura ko'rinishida yelimlanadi.

Bu texnika tasviri asosida (nafis gullar, bejirim naqshlar, ertak qahramonlari, hayvonlar va baliqlar, qushlar) tabriknomalarni, albomlarni, qutichalarni, rasm uchun ramkalarni bezash mumkin.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kvilling texnikasining mashg'ulotlarini birinchi bosqichdagi qog'ozni o'rash jarayoni qiyin bo'lishiga qaramay, juda maroq bilan bajarishadi.

Kvilling usulida turli narsalar shaklini yasashda uni bosqichma-bosqich o'rgatish kerak. Bajarilgan har bir yangi shaklni bir nechta mashg'ulotda olib borish kerak.

Uzunligi 16 sm eni 24 sm bo'lgan karton qog'ozi olinadi. Uni teng ikkiga buklaymiz. 16 smga 12 sm bo'lgan tabriknoma asosi hosil bo'ladi.

Turli rangdagi rangli qog'oz olinib, 1 sm qilib qalam yordamida chizib chiqiladi. CHizilgan joyidan qirqib uzun tasmalar hosil qilinadi.

Hosil bo'lgan tasmalarni tish kovlagichning bir uchiga qistiramiz. Tasmani tish kovlagichga mahkam o'rashni boshlaymiz. Bunda barmoq bilan tish kovlagichni aylantirib turamiz. Bosh spiralni bajarayotganda tasmani qattiq o'rab bo'lmaydi. Ayniqsa oxirgi o'rash vaqtida, unda spiral qattiq bo'lib ochilmay qolishi mumkin. Bir nechta tasmalarni yoki dumaloqlarni bir-biriga yelimlab, detalning hajmini katta qilish mumkin.

**Kvilling shakllari:** **Kvilling** ishining asosiy shakl doira shakli bo'lib, ana shu shakl asosida boshqa shakllar tayyorlanadi. Masalan: Tomchi shakli, barg

shakli, gul shakli va boshqa shakllar asosiy doira shaklining tomonlarini buklash va qisqartirish yo‘llari orqali hosil qilinadi.

Asos kartonining ustki qismiga tayyorlangan shakllar joylashtiriladi. SHakllar bosqichma-bosqich belgilangan joyga PVA yelimi yordamida yelimlanadi.

### **Vaziyat**

3-sinf o‘quvchilari bayram uchun onajonlariga sovg‘a tayyorlashdi. Kimdir turli gullar applikatsiyalarini, yana kimdir mozaikalar yasadi. Alisher esa oyisiga gullar solingan vaza yasadi. G‘anisher Alisherning qaychisini so‘ragan edi Alisher hozir qaychini berib tura olmasligini ishlatib bo‘lib berishini aytdi. G‘anisher esa menga hozir kerak deb turib oldi. Alisher unga baqirib yubordi:

- O‘zing uyingdan olib kelsang bo‘lmaydimi?

Jahli chiqqan G‘anisher Alisherning vazasini buklab tashladi. Bundan ranjigan Alisher G‘anisher bilan yoqalashmoqchi edi, o‘qituvchi ularni to‘xtatib qoldi va bolalarga urishish yaxshi emasligini, do‘stlar har doim bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari kerakligini aytdi. Hayot mobaynida inson uchun yelkama-elka turadigan do‘stlar juda ham zarurligini aytdi. So‘ngra mehnat darslari uchun har bir o‘quvchi o‘zining mehnat qurollaridan foydalanishlari kerakligini aytdi. O‘qituvchining so‘zlaridan ta’sirlangan do‘stlar bir-birlaridan uzr so‘rashdi. Alisherning buklangan sovg‘asini esa do‘stlar birgalikda yasashdi.

## **9 – amaliy mashg‘ulot.**

**O‘quvchilarni tejamkorlikka o‘rgatish. Chiqindi materiallardan turli buyumlar yasash. Chiqindi materiallaridan choynak tagligini yasash**

### **Reja:**

1. Chiqindi materiallari va ulardan bajarilgan ishlar haqida ma’lumot berish.
2. Chiqindi materiallaridan choynak tagligini tikish texnologiyasi.

**Amaliyotning maqsadi:** Mehnat darslari asosida bolalarni tejamkorlikka o‘rgatish tejamkorlikka o‘rgatish usullarini ishlab chiqish

**O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:** Talabalarga chiqindi materiallari va uning turlari haqida ma’lumot berish. Chiqindi materiallaridan choynak tagligini tikish texnologiyasini o‘rgatish.

O‘qituvchining vazifalari:

- chiqindi materiallari va ulardan unumli foydalanishga o‘rgatish;
- chiqindi materiallaridan bajarilgan ishlar haqida ma’lumot berish;
- chiqindi materiallaridan choynak tagligini tikish texnologiyasi bilan tanishtirish;

- amaliy ish natijalarini ko‘rish, xato va kamchiliklarni ko‘rsatish, baholash.

Ta’lim usullari: “Ko‘rsatib ber, tushuntirib ber”, Aqliy hujum”, amaliy ish.

Ta’lim vositalari: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, ko‘rgazmalar, baklajka qopqoqlari, qaychi, ip, igna, mato bo‘laklari.

Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Tejamkorlikni o‘rganish o‘quvchilarga nima beradi?
3. CHiqindi materiallaridan foydalanishni ahamiyati qanday?
4. CHiqindi materiallariga qanday asboblardan ishlov berish mumkin?

### **Ish joyini to‘g‘ri tashkil etish**

O‘quvchining chap tomoniga qaychi, chizg‘ich, qalam, o‘lchov metri joylashtiriladi. O‘quvchining o‘ng tomoniga turli chiqindi idishlar, mato bo‘laklari va har xil bezak materiallari joylashtiriladi. O‘quvchining oldi tomoniga plastmassa yelim, chiqindilar uchun quticha, igna, ip va sochiqcha joylashtiriladi.

Suv idishlari qopqog‘idan choynak tagligi tayyorlash quyidagicha bosqichlardan iborat:

1. Bir qancha metall yoki plastmassa qopqoqlarini keraksiz narsalardan tozalab olinadi.
2. Har bir qopqoqni keraksiz mato bo‘laklari bilan o‘rab, tikib chiqiladi:
3. Mato bo‘laklari tikilgan qopqoqlarni bir-biriga yopishtirish uchun ko‘rinmas choklar yordamida bir-biriga biriktirib tikib chiqiladi:

4. Qopqoqlarni bir-biriga birlashtirishimizda choynak tagligining shakliga e'tibor berishimiz kerak. Taglikning shakli turli ko'rinishlarda bo'lishi mumkin (yumaloq, to'rtburchak, uchburchak, besh burchak, romb va boshqa shakllarda)

Bolalarni yoshlik chog'idan boshlab tevarak-atrofdagi moddiy ne'matlarga, buyumlarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishga, har qanday moddiy ne'mat inson mehnatining mahsuli ekanligini va uni asrab-avaylashga o'rgatib borish zarur. Bolaning jamoatchilik va shaxsiy buyumlarga bo'lgan munosabati ilk yoshlik chog'idanoq oilada, oila a'zolarining shaxsiy va jamoatchilik mulkiga bo'lgan munosabatidan boshlanadi. Albatta, yosh avlodda tejamkorlik, ishbilarmonlik, uddaburonlik kabi sifatlarni shakllantirmasdan turib barkamol shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi. Chunki aynan shu sifatlarda bolaning inson mehnati mahsuliga, jamoatchilik mulkiga to'g'ri munosabati, uni asrab-avaylash, boyitishga hissa qo'shish istagi yotadi. O'sib borayotgan yosh avlodda bunday sifat va fazilatlarni shakllantirish ko'p jihatdan o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik mahoratni qay darajada egallaganligiga bog'liqdir.

Mehnat fanlar asosini chuqur va amaliy o'zlashtirishda, bolalarni mehnatga bo'lgan munosabatini ijodiy ish faoliyatida mustaqil shakllantirishda, fikr yuritishga o'rgatuvchi ilmiy vositalardan biridir. Ko'p asrlik tajriba shuni ko'rsatadiki, insonlarning mehnati tufayli cheksiz boyliklar va imkoniyatlarning yechiladi. Texnologiya fani iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili hisoblanib, o'quvchilarning chuqur iqtisodiy bilimni mustahkamlaydi.

Hali-hanuz iqtisodiy mehnat tarbiyasida ilg'or umumbashariy va milliy g'urur, ularning tarbiyaviy xarakteri o'z ifodasini topgani yo'q. SHuning uchun mehnat darslarida o'quvchilarning iqtisodiy faolligini oshirish va tadbirkorlik mehnat faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish va kuchaytirish lozim.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu vazifalardan biri tadbirkorlik bo'lib, bu mahsulot ishlab chiqarish uni sota bilish, tushgan mablag'ni joy-joyiga sarflay olishdir. Bu tadbirkorlik talablarini mehnat darslari jarayonida darslar nechog'lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o'quvchilar shunchalik iqtisodiy bilimga va malakaga ega bo'ladilar. Avvalo bu

darslarning mazmunini to'g'ri belgilab olish zarur. Texnologiya ta'limi va tarbiyasining ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalganligi;

- Mehnat darslarini bozor iqtisodi talablari asosida pedagogik texnologiyalardan va malakalardan unumli foydalanish;

- O'quvchilarni qiziqishlarini hisobga olib amaliy to'garaklarga jalb qilish;

- O'quvchilarni mehnat darslarida iqtisodiy bilim berishda yoshi, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish;

- O'quvchilarni mehnat natijalarini rag'batlantirish va kamchiliklarni do'stona hal qilish;

Mehnat darslari bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak- atrofdagi hayotni o'ziga xos tarzda bog'lovchi omil bo'lishi lozim.

Shuning uchun hozirgi kunda mehnat darslarida "o'z-o'zini boshqarish" va "o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash" kabi tadbirkorlik ishlarini tashkil qilish lozim.

Masalan o'quvchilarning mehnat darslarida materiallarni isrof qilmaslikni, ishning sifatliiligini, estetik jihatdan bejirim va chiroyli bo'lishiga e'tibor berishlari kerak. Shu bois boshlang'ich sinflarda texnologiya ta'limi va tarbiyasi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarini, kelgusi mehnat faoliyatida muhim o'rin egallash ekanligi ko'rsatish, tushuntirish pedagog o'qituvchilarning oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligini ta'kidlash zarur. O'quvchilarda texnologiya ta'limi jarayonida tadbirkorlik tushunchalarining dastlabki bosqichlarini amalga oshirishda qo'yidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutiladi.

1. O'quvchilarni texnologiya ta'limiga oid nazariy va amaliy bilim berishni uzviyligini mustahkamlash;

2. Kasblar xususiyatni farqlay bilishga o'rgatish orqali ularni turli kasblarni to'g'ri tanlashga yo'naltirish;

3. Unumli mehnat qilib yuqori samaradorlikka erishishni o'rgatish;

4. Mehnat jarayonida erishilgan natijani maktab jamoasi va ota-onalar ishtirokida namoyish etish;

5. Bajirilgan ishlar sifatini oshirishda kim oshdi savdo maskanlarini tashkil etish;

O'quvchilarda tadbirkorlik tushunchalarini shakllantirishda maktab, mahalla, oila va jamoatchilikni birgalikdagi harakati o'z-o'ziga xizmat qilishni tashkil etish, mahsulot sifati hamda turli ish turlari jarayonida mehnat natijalarining unumdorligi keskin o'sishda o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki tadbirlarda erishilgan yutuqlar bo'yicha o'quvchilarning bajargan buyumlari maktab muzeylari yoki sinf burchagida namuna sifatida saqlash, ota-onalarga sovg'a sifatida taqdim etish o'quvchilarda amaliy mehnatda ish sifatini yanada oshirish, ijobiy natijalarga erishishda samarali ta'sir ko'rsatadi.

O'quvchilarning bajargan ishlaridan maktab sharoitidan kelib chiqib har xil ko'rgazmalar va o'quvchilarning o'zlari uchun maktab bozori tashkil qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bunda o'quvchilar o'zlari bajargan ishlar natijalarini, diqqatga, e'tiborga sazovor bo'lganligini, o'zini mablag' bilan qisman ta'minlanganligini, o'zini boshqara olishini ko'rib, o'z mehnatiga va o'zgalar mehnatiga hurmat bilan qaraydi. O'quvchi ongida mehnatga muhabbat o'z samarasini topadi.

Natijada davlatimizning iqtisodini yuqori darajaga ko'tara oladigan, o'zining kasbini, hunarini hurmat qiladigan, jamiyatimizning rivojlanishida o'zini hissasini qo'sha oladigan barkamol avlodni tarbiyalashimizda yordam beradi.

## **10 – amaliy mashg‘ulot.**

### **Rangli qog‘ozlardan bayram tabriknomalarini tayyorlash texnologiyasi**

#### **Reja:**

1. Bayram tabriknomalari haqida ma’lumot berish.
2. Rangli qog‘ozlardan tabriknomalar tayyorlash.
3. Rangli qog‘ozlardan tabriknomalar tayyorlash texnologiyasini tushuntirish.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:** Talabalarga bayram tabriknomalari haqida ma’lumot berish. Rangli qog‘ozlardan bayram tabriknomalarini yasash texnologiyasini o‘rgatish.

#### ***Pedagogning vazifalari:***

- talabalarning bayram tabriknomalari haqidagi bilimlarini aniqlash;
- bayram tabriknomalari haqida ma’lumot berish;
- rangli qog‘ozlardan tabriknomalar tayyorlash texnologiyasini o‘rgatish.

Ta’lim usullari: Tushuntirish, “Aqliy hujum”, amaliy ish, ko‘rgazmalilik.

Ta’lim vositalari: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, ko‘rgazmalar, rangli qog‘ozlardan tayyorlangan tabriknomalardan namunalar, rangli qog‘oz, rangli karton, qaychi, yelim, chizg‘ich, qalam.

#### **Amaliy ish**

Uzunligi 16 sm, eni 24 sm bo‘lgan karton qog‘ozi olinadi. Uni teng ikkiga buklaymiz. 16 smga 12 sm bo‘lgan tabriknoma hosil bo‘ladi. Tabriknomaning yuz qismiga Navro‘z bayramiga tegishli gullar, kapalak, qaldirg‘och, quyosh rasmi chiziladi. Rangli qog‘ozdan chizilgan rasmlar asosida detallar qirqib olinadi. Gullar va o‘tlar, kapalak, quyosh va qaldirg‘och.

O‘quvchilarga ko‘rsatilib birgalikda bajariladi. Ularga ish qoidasi ham o‘rgatilib boriladi. Bolalar qaychidan ehtiyot bo‘lib foydalanishni, qog‘ozni kesayotganda qo‘lini kesib olmaslik haqida aytiladi. Gul-lolalarning andozasi bolalarga tarqatiladi. Ranglarga qarab kesib yoki chizib oladilar. So‘ngra yopishtirish ishlari bosqichma-bosqich bajariladi.

Bolalar yelimdan unumli foydalanish kerakligi, to'kib parta va kiyimlarini yelim qilib qo'ymasligi ta'kidlanadi.

Tabriknoma yasab bo'lgandan so'ng, uning ichiga doskadagi tabriknomani ko'chirib oladilar. Tabriknoma tayyor bo'ldi, tekshirib, baholab chiqiladi. Kimning yasagan ishi chiroyli, toza, to'g'ri bo'lsa, rag'batlantiriladi.

## **11 – amaliy mashg'ulot**

### **Barglardan guldasta tayyorlash**

#### **Reja:**

1. Barglar haqida ma'lumot berish.
2. Barglardan applikasiya yasash haqida ma'lumot berish.
3. Barglardan applikasiya yasash darslarini tashkil etish tartibini tushuntirish.

**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** Talabalarga barglar va barglardan applikasiya yasash haqida ma'lumot berish. Barglardan applikasiya yasash texnologiyasini o'rgatish.

Pedagogning vazifalari:

- talabalarning barglardan applikasiya yasash haqidagi bilimlarini aniqlash;
- ish joyini to'g'ri tashkil qilish va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilishni eslatish;
- applikasiya ishini bajarish haqida tushunchalar berish;
- barglardan applikasiya yasash texnologiyasini o'rgatish.

Ta'lim usullari: "Aqliy hujum", ko'rgazmalilik, amaliy ish.

Ta'lim vositalari: Tayanch matn, metodik qo'llanmalar, slaydlar, oq qog'oz, barglar to'plami, yelim, chizg'ich, qaychi, qalam.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun "Aqliy hujum" metodi asosida savollar beriladi.

1. Qanday daraxt barglarini bilasiz?
2. Daraxt barglarining xususiyatlari bir xilmi?

3. Mashg'ulotga kerakli materiallar qanday joylashtiriladi?

4. Qanday asboblardan bilan ishlaganda texnika xavfsizligi qoidalaridan foydalaniladi?

5. Tabiiy materiallar bilan ishlashning maqsadi?

Barglar o'yinchoqlarni yasashda qiziqarli va kerakli qo'shimcha material hisoblanadi. Ular turli shakl va ranglarda bo'lishi mumkin. Eman daraxtlarining yirik barglarini bolalar kemalarga yelkan sifatida ishlatishadi. Barglardan kapalak qanotlari, baliq suzgichlarini (bu o'yinchoqlar g'udda va bargdan yasaladi) yasashda qo'llash mumkin. Barglarni kuzda, ular chiroyli bo'lganida terish yaxshi.

O'quvchilar barglarni to'plar ekanlar, ularning ranglarini, shakllarini qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligi va diqqat qilish qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi. To'plangan barglar oldindan tayyorlab qo'yilgan daftar varaqlari orasiga qo'yiladi. Shundan keyin bolalarga barglarning mehnat mashg'ulotlarigacha rangini yo'qotmasligi, buralib ketmasligi uchun qanday ishlov berish kerakligi tushuntiriladi. Har bir ekskursiyada bolalarning e'tiborini insonning yaratuvchilik mehnatiga albatta jalb etish kerak. Ekskursiya oxirida suhbatga yakun yasaladi, ekskursiyada egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bundan tashqari, bolalarga uylarida qushlar tasviri tushirilgan rasmlarni, suratlarni ko'rish, ularning tanasi va qanotlarining shakliga, rangiga alohida e'tibor berish topshiriladi.

## 12 – amaliy mashg‘ulot

### Tabiiy urug‘lardan applikasiya yasash texnologiyasi

#### Reja:

1. Urug‘ va ularning turlari haqida ma’lumot berish.
2. Urug‘larni darsga tayyorlash va ishlatish bo‘yicha ma’lumotlar berish.
3. Urug‘lardan applikasiya yasash texnologiyasini tushuntirish.
4. Taqdimot va baholash.

**Amaliy mashg‘ulot maqsadi:** Urug‘ turlari va ularni ishlatish haqida ma’lumotlar berish. Urug‘lardan applikasiya yasash texnologiyasini o‘rgatish.

#### *Pedagogik vazifalar:*

- talabalarning urug‘lar va ularni ishlatish haqidagi bilimlarini aniqlash;
- urug‘lardan applikasiya yasash haqida tushunchalar berish;
- urug‘lardan applikasiya yasash texnologiyasini tushuntirish;
- amaliy ish natijalarini ko‘radi, xato va kamchiliklarni ko‘rsatadi, baholaydi.

Ta’lim usullari: Tushuntirish, aqliy hujum, amaliy ish.

Ta’lim vositalari: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, turli urug‘lar, chizg‘ich, qaychi, qalam, yelim, qog‘oz.

Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Qanday urug‘ turlarini bilasiz?
2. Qanday urug‘lardan mehnat darslarida foydalanish mumkin?
3. Urug‘larni yelimlashda qanday yelimdan foydalaniladi?
4. Urug‘larni qanday ishga tayyorlash mumkin?

#### **Urug‘lar va ularni ishlatish haqida ma’lumotlar**

Turli meva va sabzavot, poliz ekinlarining urug‘lari yordamida xilma-xil applikasiya ishlarini bajarish mumkin. Ayni bir ishda xilma-xil meva urug‘laridan foydalanish mumkin.

Meva va poliz ekinlarining urug‘lari tabiatda keng tarqalgan, to‘plash va saqlash oson bo‘lgan material hisoblanadi.

- Urug‘lar meva va poliz ekinlaridan ajratib olinadi;
- ortiqcha narsalardan tozalab yuvib quritiladi;
- quritishda urug‘larning shakli buzilmasligi uchun qog‘oz orasiga solib quritiladi;

urug‘larqurigan dano‘ngakvarelbo‘yoqlaridan foydalanib rang berish mumkin.

Bolalar turli urug‘lardan applikasiyalar qilishni yaxshi ko‘rishadi.

Ishtiyoq bilan bolalar turli ranglarda bo‘lgan urug‘larni terib chiroylinaqshlar hosil qilishi mumkin. Bunday mashg‘ulotlar qo‘l barmoqlarining mayda mushaklarini rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar turli urug‘larni, applikasiyalar tayyorlashni yaxshi ko‘rishadi. Bunday mashg‘ulotlarda yelimni urug‘ga emas, urug‘ yopishtiriladigan joyga suriladi va ustidan urug‘lar qo‘yiladi va sochiq bilan bostiriladi.

### **Guruhlarga amaliy ish topshiriqlari**

1. Urug‘lardan mevalar shaklini yasang.
2. Urug‘lardan hayvonlar shaklini yasang.
3. Urug‘lardan qushlar shaklini yasang.
4. Urug‘lardan gullar shaklini yasang.
5. Urug‘lardan ertakqahramonlar shaklini yasang.

### **Ish joyini to‘g‘ri tashkil etish**

Stol ustiga plyonka yoki dasturxon solinadi. O‘quvchining o‘ng tomonida yelim uchun cho‘tka, qalam, chizg‘ich joylashtiriladi, o‘quvchining chap tomonida applikasiya uchun qog‘oz yoki karton, urug‘lar joylashtiriladi, o‘quvchining old tomoniga yelim uchun quticha, yelim va sochiq joylashtiriladi.

**Tarvuz va qovun urug‘idan naqsh yasash bosqichlari. Urug‘dan applikasiya yasash texnologiyasi**

- ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi, keyin fon va shakl tanlanadi;
- applikasiyaga mo‘ljallangan tasvir uchun urug‘lar tanlanadi;

- tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi;
- tasvirlash lozim bo'lgan predmetlarning holati aniqlanadi;
- urug'larni yelimlashda PVA yelimidan foydalaniladi;
- tasvirlanadigan urug' ranglari va hodisalarning uyg'unligiga erishiladi;
- tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham urug'dan tayyorlanadi, ularni chizmaslik kerak;
- urug'lar qog'oz sathiga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi;
- agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa urug'lar boshqacha joylashtiriladi;
- tasvirni kerakli qismi yelimlanadi va urug'lar yopishtiriladi;
- urug'larni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rnini qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- urug'larni yelimlab bo'lgandan so'ng quritish uchun qo'yiladi. Quritishda yelvizak bo'lmasligi kerak.

### **13 – Amaliy mashg'ulot**

#### **Fasllar mavzusida applikatsiya yasash texnologiyasi**

##### **Reja:**

1. Applikatsiya san'ati haqida ma'lumot.
2. Fasllar mavzusida applikatsiya yasash texnologiyasini o'rgatish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga fasllar haqida ma'lumot berish. Applikatsiya ishlarini tushuntirish. Fasllar mavzusida applikatsiya yasashni o'rgatish

##### ***Pedagogik vazifalar:***

- talabalarning applikatsiyalar va fasllar haqidagi bilimlarini aniqlash;
- applikatsiya yasash haqida tushunchalar berish;
- fasllar mavzusida applikatsiya yasash texnologiyasini tushuntirish.

Ta'lim usullari: Tushuntirish, "Aqliy hujum", amaliy ish, ko'rgazmalilik.  
Ta'lim vositalari: Metodik qo'llanmalar, slaydlar, ko'rgazmalar, applikatsiyadan namunalar, rangli qog'ozlar to'plami, chizg'ich, qaychi, qalam, yelim.

### **Applikatsiya san'ati haqida**

Applikatsiya ishini bajarishda asosiy e'tibor uning umumiy ko'rinishiga qaratilishi kerak. Yaxshi o'ylangan kompozitsiya, ya'ni tasvirlash lozim bo'lgan narsalarni joylashtirish applikatsiya muvaffaqiyatining garovidir.

Fasllar mavzusida applikatsiya yasash uchun qaysi faslni tasvirlash kerakligi aniqlanib olinadi. Mavzuni yoritish qaysi faslga to'g'ri kelsa shu fasl haqida ma'lumot beriladi va shu fasl mavzusida applikatsiya tayyorlanadi.

### **"Qish" mavzusida applikatsiya yasash texnologiyasi:**

- Ish mavzu va fikrni tanlashdan boshlanadi.
- Ochiq tondagi qog'oz va fon tanlanadi va tasvirlash lozim bo'lgan applikatsiya tasviri chiziladi.
- Applikatsiya mo'ljallangan tasvir va elementlar miqdori qog'ozni tanlashni belgilaydi.
- Tasvir ustida ishlanganda asosiy e'tibor tanlangan mavzuning mazmuniga, kerakli materiallar, ularning o'lchamlari, ranglarini tanlashga qaratiladi.
- Tasvir hajmiga ko'ra eng katta element asosiy mavzuga mos element bo'lishi kerak.
- Tasvirlash lozim bo'lgan materiallar yordamida figura va predmetlarning holati aniqlanadi.
- Tasvirlangan hodisalarning uyg'unligiga erishiladi.
- Tasvirning barcha detallari, hatto eng kichiklari ham qog'ozdan qirqiladi, ularni chizmaslik kerak.
- Tayyorlangan detallar yelimlanadigan sath, ya'ni fonga joylashtiriladi va o'ylangan tasvir hosil qilinadi.
- Agarda bu tasvir ma'qul bo'lmasa, detallar boshqacha joylashtiriladi.
- Detailarni yopishtirishda joyni adashtirmaslik uchun ularning o'rni qalam bilan belgilab qo'yiladi.

- Ishni boshlash uchun markazni topish, simmetriya o'qini o'tkazish va elementlarni shunga ko'ra joylashtirish lozim.

## **14 – Amaliy mashg'ulot**

### **Kartondan rasm ramkalari yasash texnologiyasi**

#### **Reja:**

1. Rasm ramkalari haqida ma'lumot berish.
2. Kartondan rasm ramkalari yasash haqida ma'lumot berish.
3. Kartondan rasm ramkalari yasash texnologiyasini tushuntirish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Rasm ramkalari haqida ma'lumot berish. Kartondan rasm ramkalari yasash haqida tushunchalar berish. Kartondan rasm ramkalari yasash texnologiyasini o'rgatish.

#### ***Pedagogik vazifalar:***

- talabalarning rasm ramkalari haqidagi bilimlarini aniqlash;
- kartondan rasm ramkalari yasash haqida tushunchalar berish;
- kartondan rasm ramkalari yasash texnologiyasini o'rgatish.

Ta'lim usullari: Tushuntirish, amaliy ish, ko'rgazmalilik.

Ta'lim vositalari: Metodik qo'llanmalar, slaydlar, kartondan yasalgan ramkalardan namunalari, ko'rgazmalar, karton, kley, qaychi, qog'oz, turli bezaklar.

#### **Kartondan rasm ramkasi yasash texnologiyasi:**

O'qituvchi rasm ramkalari haqidagi bilim va tasavvurlarini aniqlaydi.

– Rasm ramkalari nimalardan tayyorlanadi?

– Rasm ramkasidan nima maqsadda foydalanadi?

– Kartondan rasm ramkalari qanday yasaladi?

– Rasm ramkasiga bezak berishda qanday materiallardan foydalansa bo'ladi?

O'qituvchi o'quvchilarning javobini umumlashtirgan holda suhbatga yakun yasab, rangli karton, rangli qog'oz tanlab olib rasm uchun ramka tayyorlash usullari haqida tushunchalar beradi. Bunday ramkalardan qanday maqsadda

foydalanish, uning tayyorlanishi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Amaliy ishni boshlashdan oldin o'quvchilarning darsga tayyorligini tekshiradi.

**Yasash bosqichlari:** Ikki xil rangdagi rangli va rangsiz karton olinadi. Uzunligi 15 sm, bo'yi 10 sm o'lchamda kesib olinadi. Rangli kartonga rasm ramkaning shakli chiziladi va stek yordamida kesib olinadi.

Rangli karton rangsiz kartonga yelimlanadi. Rasm solish uchun ramkaning bir qismi ochiq qoldiriladi.

Rasm ramkasining orqa tomoniga tirkagich tayyorlash uchun rangsiz kartondan tirkagichning shakli chizib, qirqib olinadi va rasm ramka orqasiga mahkamlanadi.

Tayyor rasm ramkalariga bezak berish ishlari amalga oshiriladi. Bezak berishda turli qirqilgan gullardan, pistonlardan, munchoqlardan foydalanish mumkin.

## **15 – Amaliy mashg'ulot**

### **Plastilindan mevalarini yasash texnologiyasi**

#### **Reja:**

1. Plastilin haqida ma'lumot berish.
2. Plastilin bilan ishlash qoidalari.
3. Plastilinga ishlov berish usullari.
4. Plastilindan turli uy jihozlarini yasash texnologiyasini tushuntirish.

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: Talabalarga plastilin va uning turlari haqida ma'lumot berish. Plastilinga ishlov berish va turli shakllar yasash texnologiyasini o'rgatish.

#### ***Pedagogning vazifalari:***

- talabalarining plastilin haqidagi bilimlarini aniqlash;
- plastilin va uning turlari haqida ma'lumot berish;
- plastilinga ishlov berish bo'yicha ko'rsatmalar berish;
- plastilindan turli shakllar yasash texnologiyasini o'rgatish.

Ta'lim usullari: Tushuntirish, "Aqliy hujum", amaliy ish, ko'rgazmalilik.

Ta'lim vositalari: Metodik qo'llanmalar, slaydlar, ko'rgazmalar, plastilindan yasalgan o'yinchoqlardan namunalar, plastilin qalamchalari, stek, taxtakach, sochiq.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun "Aqliy hujum" metodi asosida savollar beriladi.

1. Plastilinning qanday turlarini bilasiz?
2. Plastilin qanday xususiyatlarga ega?
3. Plastilindan nimalar yasash mumkin?
4. Plastilinga qanday ishlov beriladi?
5. Plastilindan turli shakllar yasash texnologiyasini bilasizmi?

#### **Plastilin bilan ishlashda kerak bo'ladigan qoidalar:**

1. Plastilin bilan ishlashda ayrim qonun-qoidalarga rioya qilishga to'g'ri keladi.
2. Plastilin sovuq bo'lganda ancha qattiqlashib qoladi.
3. Ish boshlashdan oldin esa uni bir oz yumshatish kerak bo'ladi.
4. Buning uchun plastilin solingan quticha mashg'ulot boshlanishidan oldinroq issiqlik manbayiga yaqinroq joyga qo'yiladi yoki salgina namlangan qo'lning kaftida tutib turiladi.
5. Natijada plastilin yumshab, ishga tayyor bo'ladi.
6. Plastilinni qo'lda uzoq vaqt ushlab turish yaramaydi.
7. Chunki plastilin haddan tashqari yumshab, yopishqoq bo'lib qoladi.

#### **Plastilinga ishlov berish usullari**

1 Yumaloqlash bu olma kabilar shaklini berishdir. Bir bo'lak loydan kaftda aylana harakatlar bilan yasaladi.

2. Oval yasash. Keyin uzunasiga harakatlar bilan uni tuxum, ustun kabilarga aylantirish.

3. Yassilash – sharikdan yassi non yasaladi, qo'lning holati doimo o'zgarib turadi.

4. Cho'zish – sharikning bir qismi cho'ziladi.

5. Surish(yamash) – buyumning ayrim qismlarini o‘zaro biriktirish.

### **Plastilindan choynak yasash texnologiyasi**

1. Plastilinni kerakli hajmda olib yumaloq shaklga keltiriladi.
2. Choynakning jo‘mragi, qopqog‘i, dastasi alohida plastilindan olib yasaladi.
3. Choynakga avval jo‘mragi biriktiriladi.
4. Keyin dastasi va qopqog‘i biriktiriladi.
5. Choynakga bezak berish uchun gul shakllari qizil rangli plastillindan tayyorlanadi va choynakka biriktiriladi.
6. Oxirgi ish choynakning barcha qismlarni biriktirilgan joylari tekislanadi.

## **16 – Amaliy mashg‘ulot**

### **Plastilindan turli o‘yinchoqlar yasash texnologiyasi**

#### **Reja:**

1. Plastilin haqida ma’lumot berish.
2. Plastilin bilan ishlash qoidalari.
3. Plastilinga ishlov berish.
4. Plastilindan turli o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini tushuntirish.

Amaliy mashg‘ulotning maqsadi: Talabalarga plastilin va uning turlari haqida ma’lumot berish. Plastilinga ishlov berish va turli o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini o‘rgatish.

#### ***Pedagogning vazifalari:***

- talabalarining plastilin haqidagi bilimlarini aniqlash;
- plastilin va uning turlari haqida ma’lumot berish;
- plastilinga ishlov berish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish;
- plastilindan turli o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini o‘rgatish;
- natijalar taqdimoti, muhokama va baholashga o‘rgatish.

Ta’lim usullari: Tushuntirish, “Aqliy hujum”, amaliy ish, ko‘rgazmalilik.

Ta'lim vositalari: Metodik qo'llanmalar, slaydlar, ko'rgazmalar, plastilindan yasalgan o'yinchoqlardan namunalari, plastilin qalamchalari stek, taxtakach, sochiq.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun "Aqliy hujum" metodi asosida savollar beriladi.

1. Plastilinga shakl berish usullarini bilasizmi?
2. Qanday o'yinchoqlar plastilindan yasaladi?
3. Plastilindan o'yinchoqlar yasashda qanday asboblardan foydalaniladi?

Plastilindan filcha o'yinchog'ini yasash uchun plastilin bilan ishlash qoidalariga va plastilinga ishlov berish usullariga amal qilish lozim.

#### **Plastilindan filcha o'yinchog'ini yasash texnologiyasi:**

1. Plastilin kerakli hajmda olinib, kerakli shakllarga keltiriladi.
2. Filchaning tana a'zolari, ya'ni bosh, tana qismi, oyoqlari, dumi alohida yasaladi.
3. Filchaning bosh qismi bilan tana qismi bir-biriga biriktiriladi.
4. Quloqlari va dumi bosh qismiga biriktiriladi.
5. Tana qismiga filchaning oyoqlari biriktiriladi.
6. Oxirgi ish: tanadagi barcha qismlarning biriktirilgan joylari tekislanadi.

### **17 – Amaliy mashg'ulot**

#### **Ipdan turli o'yinchoqlar yasash texnologiyasi**

##### **Reja:**

1. O'yinchoqlar to'g'risida ma'lumot berish.
2. Iplar to'g'risida ma'lumot berish.
3. Ipdan o'yinchoqlar yasash texnologiyasi.

**Amaliy mashg'ulotning maqsadi:** O'yinchoqlar va iplar to'g'risida ma'lumot berish. Ipdan o'yinchoqlar yasash texnologiyasini o'rgatish.

##### **Pedagogik vazifalar:**

- talabalarning o'yinchoqlar va iplar to'g'risidagi bilimlarini aniqlash;

- ipdan yasalgan o‘yinchoqlar bo‘yicha ma’lumotlar berish;
- ipdan o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini tushuntirish.

Ta’lim usullari: Tushuntirish, “Aqliy hujum”, amaliy ish, ko‘rgazmalilik.

Ta’lim vositalari: Turli ip turlaridan namunalar, ipdan yasalgan o‘yinchoqlardan namunalar, slaydlar, ko‘rgazmalar va metodik qo‘llanma.

Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Qaysi ip turlaridan o‘yinchoqlar yasash mumkin?
2. O‘yinchoq qanday predmet?
3. Iplardan nimalar yasash mumkin?
4. Ipdan o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini bilasizmi?
5. Qanday ip turlarini bilasiz?

### **Ipdan o‘yinchoqlar yasash texnologiyasi**

Amaliy ishni boshlashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilar ish joyini tekshirib chiqadi. Kamchiliklar bo‘lsa to‘g‘rilashni maslahat beradi. Bugun sizlar bilan to‘quv iplaridan jo‘ja tayyorlaymiz.

#### ***Yasash bosqichlari:***

1- bosqich: Qattiq kartondan o‘rtasi teshik ikkita halqa tayyorlanadi.

2-bosqich: Halqalarga sariq ip o‘raladi.

3-bosqich: O‘ralgan iplar qaychi bilan qirqiladi.

4-bosqich: Ikki halqa ajratiladi va ipning o‘rtasi qalin ip bilan bog‘lanadi.

5-bosqich: Dumaloq paxmoq hosil bo‘ladi.

6-bosqich: Jo‘jani ko‘zlari mato parchalaridan tayyorlanadi.

7-bosqich: Dars yakunida barcha ishlar namoyish etish uchun qo‘yiladi va o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Ipni bog‘lash usulida o‘yinchoqlarga shakl berish usullari

## 18 – Amaliy mashg‘ulot

### Filcha o‘yinchog‘ini tikish texnologiyasi

- Filcha o‘yinchog‘ining andozasini tayyorlashda millimetrli qog‘ozga filchaning har bir detali chiziladi.
- Filchani tana qismining uzunligi 6 sm, eni 8 sm, xartumigacha bo‘lgan qismi 4 sm, ikkita oyoq qismi 2 sm dan qilib chizib olinadi va chizilgan andoza qaychi bilan qirqib olinadi, quloq va ko‘z o‘rni belgilab olinadi.
- Filchaning quloqlari uzunligi 3 sm, eni 2 sm, bel qismi uzunligi 11 sm, eni 1,5 sm, panja qismi 1,5 sm, dum qismi 2 sm o‘lchamda chizib olinadi va chizilgan andoza qaychi bilan qirqib olinadi.
- Filcha o‘yinchog‘i uchun kerakli mato tanlab olinadi. Mato tekislanib dazmollanadi.
- Filcha o‘yinchog‘ining andozasini matoga tayyorlash uchun tayyor andozalar mato ustiga qo‘yib chizib olinadi.
- Andoza qalam bilan belgilanayotgan bo‘lsa, to‘q matoga andoza oq yoki sariq rangi qalam bilan, och rangdagi matoga qora rangli qalamdan foydalanish tavsiya etiladi.
- Matodagi detallarni qirqishda har tomondan 0,5 sm chok haqi qoldirilib, qirqish kerak.
- Filcha o‘yinchog‘ini tayyorlash uchun bel qismi bitta, o‘yinchoqning qolgan detallaridan ikkitadan kerak bo‘ladi. Buning uchun andozani bichishda matoni ikkiga buklab qirqilsa har bir detaldan ikkitadan hosil bo‘ladi.
- Andoza qismlari bir-biriga biriktirib qo‘lda tikiladi. Tayyor tikilgan detallar metall tayoqcha yordamida bilan o‘ngiga ag‘dariladi. O‘yinchoq ichi paxta yoki mayda mato qiyqimlari bilan to‘ldiriladi.
- Qismlari bir-biriga ko‘rinmas chok bilan birlashtirib tikiladi. O‘yinchoqning ayrim qismlari jihozlanadi va bezatiladi.

## 19 – Amaliy mashg‘ulot

### Kartondan harakatlanuvchi o‘yinchoqlar yasash texnologiyasi

#### Reja:

1. Harakatlanuvchi o‘yinchoqlar haqida ma’lumot berish.
2. Modellar yasash texnologiyasini tushuntirish.
3. Kartondan harakatlanuvchi o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini o‘rgatish.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:** Harakatlanuvchi o‘yinchoqlar va modellar yasash haqida ma’lumot berish. Kartondan harakatlanuvchi o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini o‘rgatish.

#### *Pedagogik vazifalar:*

- talabalarning kartondan o‘yinchoqlar yasash haqidagi bilimlarini aniqlash;
- kartondan modellar yasash haqida tushunchalar berish;
- kartondan harakatlanuvchi o‘yinchoqlar yasash texnologiyasini o‘rgatish.

Ta’lim usullari: Tushuntirish, “Aqliy hujum”, amaliy ish, tushuntirish, ko‘rgazmalilik. Ta’lim vositalari: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, kartondan tayyorlangan harakatlanuvchi o‘yinchoq turlaridan namunalari, ko‘rgazmalar, karton, kley, qaychi, qog‘oz.

Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Karton turlarini bilasizmi?
2. Kartondan modellashtirish texnologiyasi qanday?
3. Texnik modellashtirish nima?
4. Kartondan texnik modellashtirish ishining asosiy mazmuni?
5. Texnik modellashtirishning asosiy maqsadi nima?

#### **Kartondan modellar yasashda quyidagi bilimlarga ega bo‘ladilar:**

1. O‘quvchilar model va maket haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.
2. Qo‘l asboblari va moslamalarning tuzilishi bilan tanishadilar.

3. O‘quvchilar avval o‘qituvchi yordamida, so‘ngra mustaqil tarzda modelni yasay bilishlari: ularning xususiyatlarini, ayrim qismlarini, qismlar o‘lchovining bir-biriga munosibligini o‘rganishlari.

4. Modelni tayyorlash uchun qanday material zarurligini aniqlay olishlari.

5. Ish joyini jihozlashlari.

6. Belgilash, o‘lchash, ishlov berish, yelimlash va pardoqlash bosqichlarini bajarishlari.

7. O‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘z mehnatini hisobga olishlari kerak.

### **Kartondan ayiqcha modelini yasash bosqichlari**

1. Ayiqcha modelini yasash uchun rangli karton tanlab olinadi

2. Rangli kartonga ayiqning tana qismi chiziladi.

3. Chizilgan shakl qirqib olinadi.

4. Ikkinchi kartonga uning qo‘l va oyoqlari chiziladi.

5. Chizilgan qo‘llar qirqib olinadi.

6. Tana qismiga qo‘l va oyoqlarini biriktirish uchun teshik o‘rni qalam yordamida belgilanib, bigiz bilan teshib olinadi.

7. Tayyor bo‘lgan qo‘l va oyoqlarni tana qismi ustiga qo‘yib bolt yordamida bir-biriga mahkamlanadi.

8. Ayiqchani harakatlantirish uchun unga ip bog‘lash kerak. Teshiklar o‘rni qalam bilan belgilanib, qo‘yilgan belgilar ustidan bigiz bilan teshib olinadi.

9. Teshiklarning oldi tomonidan orqa tomoniga qaratib ip o‘tkaziladi. Ip o‘yinchoqning markazidan bir-biriga bog‘lanadi. Ipning uch qismiga tugma yoki boshqa qattiq predmet mahkamlanadi.

10. Ipni birgalikda pastga qaratib turganda oyoq va qo‘llar harakatlanishi kerak.

11. Ayiqcha o‘yinchoq‘iga qo‘shimcha bezak berish uchun uning og‘iz va ko‘zlarini rangli qog‘ozdan qirqiladi va yelimlanadi. Panjasi qismi chizib qo‘yiladi. Ayiqcha o‘yinchoq‘i tayyor bo‘ldi.

## 20 – Amaliy mashg‘ulot

### Turli materiallardan svetofor maketini qurish-yasash texnologiyasi

#### Reja:

1. Ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish.
2. Kartondan modellar yasash haqida ma’lumot berish.
3. Svetofor maketini qurish-yasash texnologiyasini tushuntirish.

**Amaliy mashg‘ulotning maqsadi:** Modellar yasash haqida ma’lumot berish. Kartondan model yasash haqida tushunchalar berish. Svetofor maketini qurish-yasash texnologiyasini tushuntirish.

#### *Pedagog vazifalari:*

- talabalarning kartondan modellar yasash haqidagi bilimlarini aniqlash;
- kartondan modellar yasash haqida tushunchalar berish;
- turli materiallardan svetofor maketini qurish-yasash texnologiyasini tushuntirish.

Ta’lim usullari: Tushuntirish, savol-javob, amaliy ish, tushuntirish, taqdimot.

Ta’lim vositalari: Metodik qo‘llanmalar, slaydlar, kartondan modellashtirishdan namunalar, bo‘shagan gugurt qutisi, ko‘rgazmalar, karton, kley, qaychi, qog‘oz.

Mashg‘ulotni boshlashdan oldin o‘quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun “Aqliy hujum” metodi asosida savollar beriladi.

1. Karton turlarini bilasizmi?
2. Kartondan modellashtirish texnologiyasi qanday?
3. Texnik modellashtirish nima?
4. Kartondan texnik modellashtirish ishining asosiy mazmuni?
5. Texnik modellashtirishning asosiy maqsadi nima?

#### **Kartondan modellar yasashda quyidagi bilimlarga ega bo‘ladilar:**

1. O‘quvchilar model va maket haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.
2. Qo‘l asboblari va moslamalarning tuzilishi bilan tanishadilar.

3. O‘quvchilar avval o‘qituvchi yordamida, so‘ngra mustaqil tarzda modelni yasay bilishlari: ularning xususiyatlarini, ayrim qismlarini, qismlar o‘lchovining bir-biriga munosibligini o‘rganishlari kerak.

4. Modelni tayyorlash uchun qanday material zarurligini aniqlay olishlari kerak.

5. Ish joyini to‘g‘ri tashkil etishlari kerak.

6. Belgilash, o‘lchash, ishlov berish, yelimlash va pardoqlash bosqichlarini bajarishlari kerak.

7. O‘zini-o‘zi nazorat qilish va o‘z mehnatini hisobga olishlari kerak.

### **Svetofor maketini yasash texnologiyasi**

1. Svetofor maketini yasash uchun gugurt qutisidan kerakli detallar tayyorlab olinadi.

2. Qutining oldi va orqa tomoniga svetofor chirog‘ining o‘rni belgilab olinadi.

3. Sariq, qizil va yashil rangli qog‘ozdan svetofor chiroqlari uchun doiralar qirqib olinadi.

4. Tayyor doirachalar svetoforning asosiy maketiga yelimlanadi.

Boshlang‘ich sinf texnologiya ta’limida texnik modellash – uchadigan, suzadigan, yuradigan texnik o‘yinchoqlarni, shuningdek, chizmalı namuna asosida modellarni yasash mehnatining maxsus turi sifatida ajratilgan.

Dastlabki darslardayoq o‘quvchilar qog‘oz va kartondan turli texnik elementlarni yasash ishlari bilan tanishadilar, qism va detal, oddiy yig‘ish, detallarni biriktirish haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

## SEMINAR MASHG‘ULOTLARI MAZMUNI

### 1 – seminar mashg‘ulot

#### Ish joyini tashkil etish.

##### Reja:

1. Mehnat xonasida ishlash talablari.
2. Isho‘rninitashkilqilishtalablari.
3. Ish quollaridan foydalanish qoidalari.

##### Seminar mashg‘ulotning maqsadi:

1. Seminar mashg‘ulotlarda ish joyini to‘g‘ri tashkil etish talablarini o‘rgatish.
2. Ish quollaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish, amalda ulardan foydalanishga o‘rgatish.
3. Mavzuni o‘tish bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarini, amaliy ishlarni dars jarayonida yoritib berish.

**Ta‘lim metodlari:** Tushuntirish, “Aqliy hujum”, amaliy ish, “Blits savollari” texnologiyasi. “Klaster” texnologiyasi.

**Ta‘lim vositalari:** Ko‘rgazmalar, xavfsizlik qoidalari, rasmlar, slaydlar.

##### O‘qituvchining vazifasi:

1. Mehnat xonasida ishlash talablari bilan tanishtiradi;
2. Mehnat darslarida ish joyini to‘g‘ri tashkil qilish talabalarini o‘rgatadi;
3. Texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiradi;
4. Amaliy ish quoli turlari va ulardan foydalanish qoidalari bilan tanishtiradi.

##### Ish xonasida ishlash talablari

1. Ish xonasiga faqat o‘qituvchi ruxsati bilan kiriladi.
2. Har bir o‘quvchi faqat o‘z ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoa bo‘lib bajariladigan bo‘lsa, o‘quvchilar o‘z majburiyatlarini yaxshi biladilar.
3. Ish faqat o‘qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.

4. Ishni boshlashdan oldin ish joyini tayyorlab, asboblarni to'g'ri va qulay joylashtirish: O'ng qo'l bilan ushlanadigan asboblarni o'ng tomonga, chap qo'l bilan ushlanadiganini chap tomonga qo'y, sanchiladigan, kesadigan asboblarni hech qachon ikkita asbob orasiga qo'yma, ularni doimo o'z joyiga, o'tkir tomonini narigi, dastasini o'zing tomonga qilib qo'y. Asboblarni o'ynama, ular o'yinchoq emas.

5. Ish vaqtida ish joyingizni tartibli saqlang.

6. O'tmas yoki buzuq asbob bilan ishlamang.

7. Asbobni ishlatganda, uni o'qituvchi ko'rsatganidek ishlating.

8. Asboblarni asrang, ularni to'g'ri, o'z o'rnida ishlating, so'ng ularni tozalab qo'ying.

9. Har bir detalni oldingi safargidan sifatli, chiroyli va tartibli qilishga harakat qiling.

10. Ishni tugatdingizmi, ish joyingizni tezda tozalab, tartibli qilib qo'ying.

**Ish joyini to'g'ri tashkil etish:** O'qituvchi stolning ustiga dasturxon yozib, o'ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho'tka, chizg'ich, qalam, o'chirg'ich joylashtiradi. O'quvchining old tomoniga yelim, qiyqimlar uchun quticha va sochiq joylashtiriladi. O'quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog'oz to'plarni, qog'oz to'plarni va kerakli materiallar joylashtiriladi.

**Sanitariya-gigiyena talablari:** O'quvchi ish stolida ishlayotganda kiyimlarini kir qilmaslik uchun maxsus ish fartuklari va yenglar kiyib olinadi. Ish qurollaridan foydalanishda har bir asbobni yoki ish qurolini tartib bilan ishlatishni, ya'ni bitta ish qurolidan foydalanib bo'lib o'z joyiga qo'yib, keyin ikkinchisini qo'lga olish talab etiladi. Bunda o'quvchini ish stoli batartib bo'ladi. Ish vaqtida o'quvchi qo'lini kiyimlariga, boshiga, yuziga tekkizmaslik, zarur bo'lganda qo'lini sochiqqa artib keyin qo'lini harakatlantirishi mumkin. Ishni tugatgandan so'ng ish qurollari va asboblarini o'z g'ilof yoki idishlariga solib tartib bilan sumkasiga yoki maxsus javonga joylashtirib qo'yishi kerak.

**To'g'ri o'tirish qoidalari:** O'quvchilar ish vaqtida to'g'ri o'tirish qoidalariga amal qilishlari kerak. Har bir asbob yoki ish qurolidan foydalanayotgan vaqtida qo'llarni keskin harakatlantirmaslik, o'rnidan turmaslik, orqasiga qaramaslik, yoniga o'girilmaslik, o'rtog'iga gapirmaslik kerak. Ish vaqtida gavdani to'g'ri tutish, bir tomonga qiyshaymaslik, oyoqlarini to'g'ri joylashtirish, qo'llarni stol ustida harakatlantirish, asbob va ish qurollarni gavdasiga yaqin olib kelmaslik, ish stolida to'g'ri o'tirish kerak. SHunda o'quvchi charchab yoki toliqib qolmaydi.

**Ustaxonadagi asbob-uskunalar.** O'quvchilar ustaxonada ishlayotganlarida har xil asboblardan foydalanishadi. Qaychi, qalam, chizg'ich, igna, angishvona, yelim, yelim cho'tkasi, bigiz, taglik taxtachalar, pichoq, gazlama, rangli qog'oz to'plarni, plastilin, turli urug'lar, barglar, mato bo'laklari, karton to'plarni, sochiq, chiqindilar uchun quticha, stol ustiga plyonka.

#### **Turli asboblardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari:**

##### **Qaychidan foydalanish qoidalari**

1. Qaychini belgilangan joyda, belgilangan holatda saqlang.
2. Qaychining uchini yuqoriga qilib ushlamang.
3. Qaychini ochiq holda qoldirmang.
4. Qaychini yurib turganingizda ishlatmang.
5. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o'rtog'ingizga uzating.
6. Qaychini ushlatayotganda kesilishning yo'nalishi va materialni ushlab turgan chap qo'l barmoqlarini kuzatib turing.
7. Yaroqsiz qaychini ishlatmang, uni o'qituvchiga topshiring.

##### **Bigizdan foydalanish qoidalari**

1. Bigizni o'rinsiz ishlatmang.
2. Sirti silliq, sirg'anchiq qattiq predmetlarni bigiz bilan teshmang.
3. Teshiladigan predmetni qo'lingizda ushlamang, uni stol, taglik ustiga qo'yib teshing.

##### **Pichoq bilan ishlash qoidalari**

1. Uchi yumaloq pichoqdan foydalaning.
2. Pichoqni o'qituvchi ko'rsatganidek ishlating, kesganda qattiq bosmang.

### ***Nina bilan ishlash qoidalari.***

1. Ninani ishlatib bo'lgach, maxsus nina qadaydigan yostiqlikchaga sanchib qo'ying.
2. Ninani hech qachon og'zingizga olmang.
3. Ortiqcha ninalarni ignadonda quruq holatda saqlang.
4. Ishdan oldin va ishdan keyin ninalarni sanab ko'ring, yo'qolgan bo'lsa yo'qolgan ninalarni albatta toping.
5. Qog'oz va kartondan narsalarni yasaganda birinchi teshikni albatta biz bilan teshib oling.

Ko'rilgan choralarga qaramay sinfda baxtsiz hodisa ro'y bersa, o'qituvchi birinchi yordamni ko'rsatishi va maktab vrachini chaqirishi lozim. Ish xonasida yod, bint solingan aptechka bo'lishi shart.

## **2 – seminar mashg'ulot**

### **Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi**

#### **Reja:**

1. Mutafakkirlarning texnologiya fanini tarbiyasi to'g'risidagi fikrlari.
2. Kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yinlarni tashkil etish.
3. Tarbiyaviy tadbir rejasini ishlab chiqish.

Seminar mashg'ulotning maqsadi: Mutafakkirlar merosini o'rganish. Kasb-hunarga oid o'yinlarni tashkil etish. Mutafakkirlar merosidan foydalanib tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

#### **Pedagogik vazifalar:**

- talabalarning tarbiyaviy tadbirlar haqidagi bilimlarini aniqlash va ma'lumotlar berish;
- mutafakkirlar merosida texnologiya fanini tarbiyasi to'g'risida ma'lumot berish;
- kasb-hunarga yo'naltirishga oid o'yinlarni tashkil etish;
- mutafakkirlar merosidan foydalanib tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Ta'lim usullari: Tushuntirish, "Aqliy hujum", seminar ish, ko'rgazmalilik.

Ta'lim vositalari: Metodik qo'llanmalar, tadbirlar rejasi, slaydlar, ko'rgazmalar, gazetalar.

Mashg'ulotni boshlashdan oldin o'quvchilarning bilimlarini aniqlash va fikrlarini umumlashtirish uchun "Aqliy hujum" metodi asosida savollar beriladi.

1. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishdan maqsad nima?
2. Tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish shakllari qanday?
3. Mutafakkirlar texnologiya fanini tarbiyasi to'g'risida qanday fikrlar aytishgan?

4. Mutafakkirlar merosidan foydalanib tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning ahamiyati nimada?

5. Mutafakkirlar merosidan foydalanib qanday tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish mumkin?

### **Mutafakkirlar merosidan namunalar**

1. **Alisher Navoiyning** fikricha, "Insonbo'libdunyogakeldingmi? Biron-bir kasbni egalla, hunar o'rgan, shunda dunyodan hammomga kirib toza yuvinib chiqmagan kishidek o'tmaysan".

2. **Xoja Bahovuddin Naqshband** aytadilar: "Dilbayor-u, dastbakor", ya'ni "Dilingollohda, qo'lingdoimmehnatdabo'lsin.

3. **Sa'diy SHeroziy** insoniyat qadr-qiymati mehnatda, bilimda, hunarga tayanishda, birovga xor bo'lmaslikda, deb bilgan va shunday ta'lim berganlar:

O'z mehnatidan non yegan kishi,

Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

4. **Nizomiy Ganjaviy** shunday degan:

Hunar o'rgan, chunki hunarda ko'p sir,

Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

5. **Abulqosim Firdavsiy** shunday deydi:

Texnologiya fanini tagidadir, ey oqil, har ganj,

Ganj topmas hech kimsa, tortmas ersa ranj

**6. Abu Nasr Al-Forobiy** kasb-hunar va axloqiy fazilatlar muayyan harakatlarni takrorlash, mashq qilish yo‘li bilan paydo bo‘lishini uqtiradi. Mutafakkir: “Har bir kishi o‘zi yoqtirgan kasbni egallaganidan so‘ng, o‘ziga topshirilgan ishga nisbatan yuksak mas’uliyatni his etishi va o‘z kasb-hunarini mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq atvor fazilatlariga ega bo‘lmog‘i kerak”, – deb ta’kidlaydi.

**7. Xusravning** fikricha, dunyodagi eng oliyjanob va oliyhimmat odamlar mehnatkashlar – jamiyat uchun foydali narsalar ishlab chiqaruvchi hunarmandlar, kosiblar, binokorlardir.

Kasbdan shodu xurram yo‘q jahonda,  
Hunardan yaxshidir ham yo‘q jahonda.  
Butun kun rizqining bog‘boni bulg‘ay,  
Har kishin o‘z uyining mehmoni bulg‘ay.  
Arzir uning bo‘lsa boshi osmonda,  
Usiz yashay olmas shoh ham jahonda.

**Guruhlarga seminar ish topshiriqlari:**

1. “Piktogramma” o‘yini orqali kasblar haqida ma’lumot berish.
2. “Mo‘jizalar maydoni” o‘yini orqali kasblar haqida ma’lumot berish.
3. “Ha-yo‘q” o‘yini orqali kasblar haqida ma’lumot berish.
4. “Mimika rollar” o‘yini orqali kasblar haqida ma’lumot berish.
5. “Kasblar alifbosi” o‘yini orqali kasblar haqida ma’lumot berish.

**“Piktogramma” o‘yini.** “Piktogramma” o‘yinida turli kasb egalarining rasmlari tasvirlangan kartochkalar o‘quvchilarga tarqatiladi. O‘quvchilar tasvirlangan rasmdagi kasb egalari to‘g‘risida ma’lumot berishlari kerak. Tasvirlangan kasb nomini, qanday ish bilan shug‘ullanishi va qayerlarda ishlashlari to‘g‘risida bilganlarini gapiradi. O‘quvchilar tomonidan berilgan javoblarni o‘qituvchi qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Agar o‘quvchilar kartochkalarda tasvirlangan kasb egalarining nomlarini topmasa bu kartochka boshqa o‘quvchiga beriladi. O‘yin shu tariqa davom ettiriladi.

**“Mo‘jizalar maydoni” o‘yini.** “Mo‘jizalar maydoni” o‘yinida kasb nomlaridagi harflar sonini hisobga olib qog‘ozga katakchalar chiziladi. O‘ylangan kasb nomi shu katakchalar soniga teng kelishi kerak. O‘quvchilar katakchalarning soniga qarab harflarni aytishadi. O‘qituvchi o‘quvchilar aytgan harflarni katakchalarda borligini ko‘rsatadi. Keyin o‘quvchilar qolgan harflarni ham aytib o‘tishadi. Oxirida o‘quvchilar kasb nomini topishadi.

**“Ha-yo‘q” o‘yini.** “Ha-yo‘q” o‘yinida o‘qituvchi turli kasb nomlarini qog‘ozga yozadi. O‘quvchilar qog‘ozda yozilgan kasblarni nima ish qilishlari, qayerlarda ishlashlari, nima bilan shug‘ullanishlari to‘g‘risida savollar beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblariga qarab to‘g‘ri topgan bo‘lsa “ha” deb, noto‘g‘ri topgan bo‘lsa “yo‘q” deb javob beradi. O‘quvchilar aniq bir yo‘nalishni topgandan so‘ng shu yo‘nalish bo‘yicha savollarni davom ettirishadi. Natijada o‘quvchilar kasb nomlarini topishadi.

**“Mimika rollar” o‘yini.** “Mimika rollar” o‘yini o‘qituvchi o‘quvchilarga kasb egalarining ish jarayonlaridan gapirmasdan lavhalar ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchining harakatiga qarab kasb nomlarini topadilar.

**“Kasblar alifbosi” o‘yini.** “Kasblar alifbosi” o‘yinida kasblar ro‘yxati tuziladi. O‘qituvchi bitta kasbni o‘ylaydi va shu kasb egasi nima ish qilishini muammoli tarzda o‘quvchilarga yetkazadi. O‘quvchilar kasb nomini topishi uchun ikki yoki undan ortiq kasb egalarini nomlarini aytadi. O‘qituvchi keyingi muammoli javoblarni davom ettiradi. O‘quvchilarning o‘ylagan kasblari birin-ketin noto‘g‘ri ekanligi aniqlanadi va ro‘yxatdan o‘chirib tashlanadi. Natijada o‘qituvchi o‘ylagan kasb egasining nomi aniqlanadi.

### **3-seminar mashg'ulot**

#### **Mehnat tarbiyasiga oid tadbirlarni tashkil etish.**

Reja:

1. Mehnat tarbiyasiga oid tadbirlarni tashkil etish.
2. Tadbir turlari .

#### **Seminar mashg'ulotning maqsadi:**

1. Seminarmashg'ulotlarda ish joyini to'g'ri tashkil etish talablarini o'rgatish.
2. Ish qurollaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish, amalda ulardan foydalanishga o'rgatish.
3. Mavzuni o'tish bo'yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarini, amaliy ishlarni dars jarayonida yoritib berish.

Ta'lim metodlari: Tushuntirish, "Aqliy hujum", amaliy ish, "Blits savollari" texnologiyasi. "Klaster" texnologiyasi.

Ta'lim vositalari: Ko'rgazmalar, xavfsizlik qoidalari, rasmlar, slaydlar.

O'qituvchining vazifasi:

1. Mehnat xonasida ishlash talablari bilan tanishtiradi;
2. Mehnat darslarida ish joyini to'g'ri tashkil qilish talabalarini o'rgatadi;
3. Texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtiradi;
4. Amaliy ish quroli turlari va ulardan foydalanish qoidalari bilan tanishtiradi.

Ish xonasida ishlash talablari

1. Ish xonasiga faqat o'qituvchi ruxsati bilan kiriladi.
2. Har bir o'quvchi faqat o'z ish joyida ishlaydi. Agarda ish jamoa bo'lib bajariladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z majburiyatlarini yaxshi biladilar.
3. Ish faqat o'qituvchining ruxsati bilan boshlanadi.
4. Ishni boshlashdan oldin ish joyini tayyorlab, asboblarni to'g'ri va qulay joylashtirish: O'ng qo'l bilan ushlanadigan asboblarni o'ng tomonga, chap qo'l bilan ushlanadiganini chap tomonga qo'y, sanchiladigan, kesadigan asboblarni

hech qachon ikkita asbob orasiga qo‘yima, ularni doimo o‘z joyiga, o‘tkir tomonini narigi, dastasini o‘zing tomonga qilib qo‘y. Asboblarni o‘ynama, ular o‘yinchoq emas.

5. Ish vaqtida ish joyingizni tartibli saqlang.

6. O‘tmas yoki buzuq asbob bilan ishlamang.

7. Asbobni ishlatganda, uni o‘qituvchi ko‘rsatganidek ishlating.

8. Asboblarni asrang, ularni to‘g‘ri, o‘z o‘rnida ishlating, so‘ng ularni tozalab qo‘ying.

9. Har bir detalni oldingi safargidan sifatli, chiroyli va tartibli qilishga harakat qiling.

10. Ishni tugatdingizmi, ish joyingizni tezda tozalab, tartibli qilib qo‘ying.

Ish joyini to‘g‘ri tashkil etish: O‘qituvchi stolning ustiga dasturxon yozib, o‘ng tomoniga qaychi, yelim uchun cho‘tka, chizg‘ich, qalam, o‘chirg‘ich joylashtiradi. O‘quvchining old tomoniga yelim, qiyqimlar uchun quticha va sochiq joylashtiriladi. O‘quvchining chap tomoniga, ish vaqtida xalaqit bermaydigan qilib rangli qog‘oz to‘plarni, qog‘oz to‘plarni va kerakli materiallar joylashtiriladi.

Sanitariya-gigiyena talablari: O‘quvchi ish stolida ishlayotganda kiyimlarini kir qilmaslik uchun maxsus ish fartuklari va yenglar kiyib olinadi. Ish qurollaridan foydalanishda har bir asbobni yoki ish qurolini tartib bilan ishlatishni, ya‘ni bitta ish qurolidan foydalanib bo‘lib o‘z joyiga qo‘yib, keyin ikkinchisini qo‘lga olish talab etiladi. Bunda o‘quvchini ish stoli batartib bo‘ladi. Ish vaqtida o‘quvchi qo‘lini kiyimlariga, boshiga, yuziga tekkizmaslik, zarur bo‘lganda qo‘lini sochiqqa artib keyin qo‘lini harakatlantirishi mumkin. Ishni tugatgandan so‘ng ish qurollari va asboblarini o‘z g‘ilof yoki idishlariga solib tartib bilan sumkasiga yoki maxsus javonga joylashtirib qo‘yishi kerak.

To‘g‘ri o‘tirish qoidalar: O‘quvchilar ish vaqtida to‘g‘ri o‘tirish qoidalariga amal qilishlari kerak. Har bir asbob yoki ish qurolidan foydalanayotgan vaqtida qo‘llarni keskin harakatlantirmaslik, o‘rnidan turmaslik, orqasiga qaramaslik, yoniga o‘girilmaslik, o‘rtog‘iga gapirmaslik kerak. Ish vaqtida gavgani to‘g‘ri

tutish, bir tomonga qiyshaymaslik, oyoqlarini to‘g‘ri joylashtirish, qo‘llarni stol ustida harakatlantirish, asbob va ish qurollarni gavdasiga yaqin olib kelmaslik, ish stolida to‘g‘ri o‘tirish kerak. SHunda o‘quvchi charchab yoki toliqib qolmaydi.

Ustaxonadagi asbob-uskunalar. O‘quvchilar ustaxonada ishlayotganlarida har xil asboblarni va moslamalardan foydalanishadi. Qaychi, qalam, chizg‘ich, igna, angishvona, yelim, yelim cho‘tkasi, bigiz, taglik taxtachalar, pichoq, gazlama, rangli qog‘oz to‘plarni, plastilin, turli urug‘lar, barglar, mato bo‘laklari, karton to‘plarni, sochiq, chiqindilar uchun quticha, stol ustiga plyonka.

**IV BOB. TEXNOLOGIYA FANINING NAZORAT ISHLARINI  
TASHKIL ETISH BO‘YICHA METODIK KO‘RSATMALAR  
TEST SAVOLLARI**

№ 1 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslari dasturi necha bo‘limdan iborat?
Besh bo‘limdan
Olti bo‘limdan
Yetti bo‘limdan
Sakkiz bo‘limdan
Ikki bo‘limdan

№ 2 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf texnologiya ta’limi dasturi bo‘limlari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
qog‘oz va karton bilan ishlash; gazlama bilan ishlash; turli materiallar bilan ishlash; texnik modellashtirish va loyihalash; qishloq xo‘jalik mehnati
qog‘oz va karton bilan ishlash; gazlama bilan ishlash; turli materiallar bilan ishlash; texnik modellashtirish va loyihalash; qishloq xo‘jalik mehnati; tabiat materiallari bilan ishlash
qog‘oz va karton bilan ishlash; gazlama bilan ishlash; turli materiallar bilan ishlash; texnik modellashtirish va loyihalash; qishloq xo‘jalik mehnati; tabiat materiallari bilan ishlash; applikasiyalar qilish
texnik modellashtirish va loyihalash; qishloq xo‘jalik mehnati; tabiat materiallari bilan ishlash; applikasiyalar qilish

qog‘oz va karton bilan ishlash; gazlama bilan ishlash; turli materiallar bilan ishlash; texnik modellar va loyihalash; qishloq xo‘jalik mehnati

№ 3 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarining maqsadi qaysi javobda to‘g‘ri ifodalangan?

Bolalarga sodda mehnat qurollaridan foydalanish hamda o‘z-o‘ziga xizmat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish

Mehnat turlari haqida dastlabki tushunchalar berish

Qizlar va bolalarga dastlabki o‘ziga xos mehnat turlarini o‘rgatish

Mehnat haqida dastlabki tushunchalar berish

Qizlar dastlabki o‘ziga xos mehnat turlarini o‘rgatish

№ 4 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinflarda qog‘oz va karton bilan ishlash darslarining mazmuni qaysi javobda to‘liq ifoda etilgan.

Qog‘oz va karton buklash, tiklash, qiyish, yelimlash, bo‘yash, applikasiya, yassi figuralar, xajmiy figuralar yasash amaliy darslar

Qog‘oz va karton buklash, tiklash, qiyish, yelimlash, bo‘yash darslar

Qog‘oz va kartondan yassi figuralar, hajmi figuralar, applikasiyalar, siluetlar, archa o‘yinchoqlari kabi mavzular

Qog‘ozdan figuralar, hajmi figuralar, applikasiyalar, siluetlar, archa o‘yinchoqlari kabi mavzular

Kartondan yassi figuralar, hajmi figuralar, applikasiyalar, siluetlar, archa o‘yinchoqlari kabi mavzular

№ 5 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslariga gazlama bilan ishlash darslarining mazmuni qaysi javobda to‘g‘ri yozilgan?
Gazlama tayyorlash texnologiyasi, gazlamani rejalash, qiyish, tikish, chok turlari va ulardan foydalanish, kraxmallash, bo‘yash va dazmollar kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan amaliy mashg‘ulotlarni
Usti boshga qarov va ta‘mirlash
O‘z-o‘ziga xizmat qilish etikasini tarbiyalash
Gazlama tayyorlash texnologiyasi, bo‘yash va dazmollar kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan amaliy mashg‘ulotlarni
Qiyish, tikish, chok turlari va ulardan foydalanish, kraxmallash, bo‘yash va dazmollar kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan amaliy mashg‘ulotlarni

№ 6 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida turli materiallar bilan ishlash darslarining mavzulari qaysi javobda to‘g‘ri ifoda etilgan.
Yog‘och va fanera bilan ishlash; metall bilan ishlash; plastmassalar bilan ishlash; loy va plastilin bilan ishlash; papps-mashe bilan ishlash; tabiat materiallari bilan ishlash
Yog‘och va fanera bilan ishlash; metall bilan ishlash; plastmassalar bilan ishlash; loy va plastilin bilan ishlash; papps-mashe bilan ishlash; materiallar bilan ishlash; tabiat materiallari bilan ishlash
Yog‘och va fanera bilan ishlash; metall bilan ishlash; plastmassalar bilan ishlash; loy va plastilin bilan ishlash; papps-mashe bilan ishlash; tabiat materiallari bilan ishlash; turli chiqindilar bilan ishlash

Yogʻoch va fanera bilan ishlash; metall bilan ishlash; plastmassalar bilan ishlash; loy va plastilin bilan ishlash; papps-mashe bilan ishlash

Metall bilan ishlash; plastmassalar bilan ishlash; loy va plastilin bilan ishlash; papps-mashe bilan ishlash; tabiat materiallari bilan ishlash

№ 7 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni oʻqitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

YOgʻoch va fanera bilan ishlash darslarida bolalar qaysi koʻnikmalar olishi koʻzda tutilgan?

jilvirlash; arralash; randalash, tirnoq ochish, kuydirish, boʻyash, yelimlash

jilvirlash; lobzikda arralash; vijigatelda kuydirish, yelimlash, boʻyash, mixlash

jilvirlash; lobzikda arralash; dasarrada arralash; kuydirib rasm chizish, boʻyash, yelimlash, mixlash

randalash, tirnoq ochish, kuydirish, boʻyash, yelimlash

jilvirlash; arralash; randalash, tirnoq ochish, kuydirish

№ 8 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni oʻqitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlangʻich sinf mehnat mavzularida metall bilan ishlashga foydalanadigan materiallar qaysi javobda toʻgʻri berilgan

Mis va alyuminiy simlar, folga va staniol

Mis, qalay, qoʻrgʻoshin, alyuminiy, temir materiallar

Mis sim va plastinkalar, rux idishlar, qalay, qoʻrgʻoshin metallar, alyuminiy, idishlar, temir boʻlaklari

Alyuminiy simlar, folga va staniol

Mis va alyuminiy simlar

№ 9 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Plastmassalar bilan ishlash darslarida ishlatiladigan material namunalari qaysi javobda to‘liq bayon etilgan?
Silaxaiy yechim, PVA yechimi, sun’iy yechimlar
Kleyonka, dermantin, lenolium, fenoplast, Paramon
Qog‘oz yelimlari, qora elim, sirang, klasterlar
Silaxaiy yechim, PVA yechimi
PVA yechimi, sun’iy yechimlar

№ 10 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Tabiat materiallari bilan ishlash darslari o‘z ichiga olgan mavzular qaysi javobda to‘liq yozilgan?
iboralar yasash; o‘t o‘lan va barglardan tasvirlar yasash, po‘stloq, novda va tomirlardan figuralar yasash; urug‘ va danak tasvirlar va figuralar yasash; somon va poxol bilan ishlash, barg va novda bilan ishlash
barg va ko‘nikmalar, po‘stloq va novdalar, urug‘ va yong‘oqlar, somon va poxol bilan ishlash darslari
urug‘, danak, somon, poxol, barg va novda bilan ishlash.
iboralar yasash; o‘t o‘lan va barglardan tasvirlar yasash, po‘stloq, novda va tomirlardan figuralar yasash; urug‘ va danak tasvirlar va figuralar yasash
po‘stloq, novda va tomirlardan figuralar yasash; urug‘ va danak tasvirlar va figuralar yasash; somon va poxol bilan ishlash, barg va novda bilan ishlash

№ 11 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Loy va plastilin bilan ishlash darslari qaysi sinflarda o‘tiladi?
barcha sinflarda
1-2 sinflarda
3-4 sinflarda
3- sinflarda
1-4 sinflarda

№ 12 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Pappe-mashe bilan ishlash darslarida foydalanadigan yechimlar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
silixay yechimi, qora yechim, klastrlar
qog‘oz yelimlari, qora elim, sirang, klasterlar
silaxaiy yechim, PVA yechimi, sun‘iy yechimlar
turi javob yo‘q
barcha javoblar to‘g‘ri

№ 13 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Model deganda nimani tushunasiz?
Model deb tayyorlangan materialidan qat‘iy nazar jismga tashqi ko‘rinishidan o‘xshash bo‘lgan, kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan shakliga aytiladi
Model deb buyum o‘lcham asosida tayyorlangan kichik shakliga aytiladi

Model deb buyumning asliga o‘xshash bo‘lgan nusxasiga aytiladi
to‘g‘ri javob yo‘q
A va V

№ 14 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Binolar loyihalash darslarida o‘quvchilar amaliy faoliyatini samaradorligini oshirish uchun nimalar qilinadi?
Dars ko‘rgazmaliligi oshirish, yarim fabrikalardan keng foydalanish
Texnika vositalaridan foydalanish, buyum namunalarini darsga olib kirish
Rangli qog‘ozlardan foydalanish, asbob-uskunalardan unumli foydalanish
To‘g‘ri javob yo‘q
A va S

№ 15 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida qishloq xo‘jalik mehnati darslari qaysi mavsumiy ishlarga ajratiladi?
Bahorgi, kuzgi ishlarga
Bahorgi, yozgi ishlarga
Kuzgi, qishki ishlarga
Barcha fasllarga
Qishki, yozgi ishlarga

№ 16 . Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida qishloq xo‘jalik ishlari qaysi javobda to‘g‘ri bayon qilingan?
1-4 sinflarda tuvakda o‘stiriladigan gullarga qarov
1-sinfda urug‘lardan o‘stiriladigan ekinlarga qarov
2-sinfda so‘kchaklaridan o‘stiriladigan sabzavot ekinlariga qarov
3-sinfda ko‘chatlarida ekib parvarish qilinadigan bog‘dorchilik ishlari
4 sinfda ko‘chatlarida ekib parvarish qilinadigan bog‘dorchilik ishlari va ularga qarov

№ 17 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Grafik ko‘rgazmali qurolni qaysilari Mehnat darslarida foydalaniladi?
Texnologik karta, ish chizmasi, yaqqol tasvir
Jadvallar, Plakat, Ish chizmasi
Aksonometrik tasvir, Sxematik chizma
Jadval texnologik karta, eskiz chizma
Plakat, eskiz, yaqqol tasvir

№ 18 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Tarqatma materialning qaysilaridan boshlang‘ich sinf mehnat darslarida foydalaniladi?
Andaza, shablon, buyum yoyilmalari
Anketa, test, buklet

Kartochka, perfokata
Fotosurat, gazeta va jurnal materiallari
Barcha buyum namunalari

№ 19 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Quyida ko‘rsatilgan faoliyatlarning qaysi biri mehnat faoliyati hisoblanadi?
maqsadga yo‘naltirilgan barcha faoliyat
aqliy faoliyat
jismoniy faoliyat
foydali faoliyat
ongli faoliyat

№ 20 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida 5 ball normasi qaysi javobda to‘ri ko‘rsatilgan?
dars davomida amaliy ishni namunali bajargan bolaga
savollarga to‘liq javob bergan bolaga
amaliy ish ketma — ketligini to‘liq aytib bergan bolaga
dars vaqtida barcha savollarga to‘liq javob bergan va amaliy ishni o‘z vaqtida bajargan bolaga
ham nazariy ham amaliy talablarni to‘la bajargan bolaga

№ 21 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Loy bilan ishlash, somon va poxol bilan ishlash, applikatsiyasiya mavzusidagi darslar sanoatning qaysi turida uchraydi?
Xalq amaliy sanoatida
Xaykaltaroshlik va grafikada
Rangtasvir va grafikada
Manumentol rangtasvirda
Dastgohli rangtasvirda

№ 22 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Dizayn sanoati qaysi sohalarda qo‘llaniladi?
Dizayn sanoati madaniy turmush va ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi.
Faqat o‘yinchoqlar yaratishda
Faqat avtomobillarni yangi markalarini yaratishda
Faqat liboslarning yangi modellarini yaratishda
Faqat uy ichini jihozlashda

№ 23 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Xalq amaliy sanoati turlari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
Ganch va yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik, zardo‘zlik, naqqoshlik
Me‘morchilik, haykaltaroshlik, gilamdo‘zlik
Duradgorlik, to‘qimachilik, kasblik
Ganch va yog‘och o‘ymakorligi, kulolchilik

Zardoʻzlik, naqqoshlik

№ 24 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni oʻqitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Kichik komplektlik sinfda necha oʻquvchi boʻladi?

2 ta sinf qoʻshilganda 20 tagacha, 3 ta sinf qoʻshilganda 15 tagacha

2 ta sinf qoʻshilganda 20 tagacha

3 ta sinf qoʻshilganda 15 tagacha

4 ta sinf qoʻshilganda 10 tagacha

2 ta sinf qoʻshilganda 15 tagacha

№ 25 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni oʻqitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Mehnat darslarining asosiy metodi qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

Amaliy metod

Laboratoriya metodi

Muammoli metod

Aqliy hujum metodi

Global metod

№ 26 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni oʻqitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlangʻich sinf mehnat darslarida foydalaniladigan chizmachilik elementlari qaysi javobda toʻgʻri berilgan?

Toʻq sidira chizma, punktir chizma, shtrixlangan yuza, toʻq nuqta

Vatman qogʻoz i, sirkul, chizmachilik taxtasi

11 format, 12 format, 22 hamda 24 formatlar

Kofdinatsiya o'qlari, o'q chizma, ramka chiziq
Soyalar, perspektiva, aksonometriya tasvirlar

№ 27 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'rgatiladigan chok turlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
Burma chok, yo'rma chok, qayilma chok
Popop choki, qo'l choki, mashina choki
Oddiy chok, yo'rma chok, tepchima chok
Zanjir chok, jimjima popop choki
Oddiy chok, yo'rma chok, tepchima chok, zanjir chok, jimjima popop choki

№ 28 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Qaysi javobda boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarga to'qish malakalarini tarkib toptirish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarini berish to'g'ri bayon qilingan?
Tasma va yo'g'on iplardan gazlama to'qish texnologiyasiga asoslanib kichik buyumlar yasash, tikish yo'li bilan to'qish orqali to'r va sinkalar to'qish, sodda makrams elementlari yordamida bittalik, ikkitalik va hakoza o'rishlardan foydalanib buyumlar yasash
Gazlama to'qish, gilam to'qish, sholcha o'rish, Paypoq to'qish, jemper to'qish, soch o'rish
Tasma va yo'g'on iplardan gazlama to'qish texnologiyasiga asoslanib kichik buyumlar yasash
Tikish yo'li bilan to'qish orqali to'r va sinkalar to'qish

Sodda makrams elementlari yordamida bittalik, ikkitalik va hakoza o'rishlardan foydalanib buyumlar yasash

№ 29 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida metall bilan ishlash darslarida bolalar foydalanadigan asbob va moslamalar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

Bolg'acha, omburlar, tism, jilvir qog'oz, oddiy qaychi, metall qaychi, otverka, bigiz

Metall qaychi, mayin egov, qum qayroq

Bolg'acha, omburlar, tism, jilvir qog'oz

Oddiy qaychi, metall qaychi, otverka, bigiz

Omburlar, metall qaychi, otverka, bigiz

№ 30 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida yog'och va fanera bilan ishlash darslarida bolalar foydalanadigan asbob va moslamalar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

Vijigatelplabzel arra, mayda tishli dast arra, jilvir qog'oz , teski, bolg'acha, mo'yqalam

Jilvir qog'oz , qora qog'oz , asbest qog'oz i

Dast arra, burch arra, labzil arra

Vijigatelplabzel arra, mayda tishli dast arra

Jilvir qog'oz , teski, bolg'acha, mo'yqalam

№ 31 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida papps-mashe bilan ishlash darslarida foydalaniladigan yelim turlari qaysi javobda to‘liq berilgan?
silikat yelim, qora yelim, klasterlar
Sirang, daraxt yelimlari, qog‘oz elimi
PVA elimi, sun‘iy yelimlar
Duradgorlik yelimi, sirang, qaray yelimi
Barcha javoblar to‘g‘ri

№ 32 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida bolalar foydalanadigan geometrik shakllar qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
Uchburchak, to‘rtburchak, kvadrat, rombik, parallelogramm, Doira, yarim doira, sektor yuzasi, segment yuzasi, Muntazam ko‘pburchaklar
Uchburchak, to‘rtburchak, kvadrat, rombik, parallelogramm
Doira, yarim doira, sektor yuzasi, segment yuzasi
Muntazam ko‘pburchaklar

№ 33 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinflarda mehnat darslarida bolalar ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanadimi?
Yo‘q
Ha

Qisman
makulatura yig'ini bilan shug'ullanadi
metallom yig'ini bilan shug'ullanadi

№ 34 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang'ich sinf mehnat darslarida kasbiy ta'lim berish bo'yicha nima ishlar olib borilishi qaysi javoda to'g'ri ko'rsatilgan?
Ilg'or kasb egalari va mashhur kishilar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi va kasblar haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi
kasb tanlash bo'yicha anketalar olinadi
Kasb tanlash bo'yicha ishlab chiqarish
Hududda joylashgan ishlab chiqarish kasblari bilan tanishtiriladi
Respublika iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutgan sanoat korxonalarini bilan tanishtiriladi

№ 35 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang'ich sinf o'quvchilari darsdan tashqari paytlarda shug'ullanadigan ijtimoiy foydali mehnat turlari qaysi javobda to'g'ri berilgan?
Maklatura yig'ishga jalb qilinadi
Paxta terimiga jalb qilinadi
Sabzavot va poliz ekinlari terimiga qatnashadi
Metallom yig'ishga jalb qilinadi
Shanbaliklarga qatnashadi

№ 36 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida uyga berilgan vazifalarni bajarish necha daqiqadan oshmasligi kerak?
Uyga vazifa berilmaydi
30 daqiqadan
45 daqiqadan
1-2 sinflarga 30 daqiqadan
3-4 sinflarga 45 daqiqadan

№ 37 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

O‘quvchilarni mehnat darslarida ish unumini oshirish necha bosqichda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi?
2
3
4
5

№ 38 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

O‘quvchilar biror ijodiy mehnatga kirishishlaridan oldin pedagog o‘qituvchilar zimmasiga qanday shartlarni amalga oshirish talablari qo‘yiladi?
yasayotgan buyumning zarurligini tushuntirish, uni qo‘llash o‘rni va maqsadini tushuntirish, yasash usullari va jarayonini tushuntirish
yasayotgan buyumning zarurligini tushuntirish

uni qo‘llash o‘rni va maqsadini tushuntirish
yasash usullari va jarayonini tushuntirish

№ 39 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Qog‘ozlarning asosiy jismoniy xususiyatlari qaysilar?
Rangi, qalinligi, zichligi, siyohini ushlab xususiyati, sathning silliq yoki g‘adir-budurligi
Rangi, qalinligi
Zichligi, siyohini ushlab xususiyati
Sathning silliq yoki g‘adir-budurligi

№ 40

X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Mehnat darslarida qanday ko‘rsatmali vositalardan foydalaniladi?
Namuna, rasm, chizma, sxematik namuna, modellar, texnik vositalar
Namuna, rasm
Chizma, sxematik namuna
Modellar, texnik vositalar

№ 41 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Badiiy asar yaratishning eng oson usuli. U tasvirlash texnikasining turli formalarini qirgish va ularni fon tarzida qabul qilingan materiallar hisobiga mustahkamlashga asoslanuvchi turidir. Gap nima haqida ketyapti?
Applikatsiya

Peyzaj
Karton
Eskiz

№ 42 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Applikatsiya necha yil muqaddam paydo bo‘lgan?
2500
3500
3000
2000

№ 43 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Applikatsiya qanday xalqlarda paydo bo‘lgan?
Ko‘chmanchilarda
O‘troq xalq aholida
Dengiz xalqlarida
To‘g‘ri javob yo‘q

№ 44 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Dastlab applikatsiya bilan nimalar bezatilgan?
Kiyim, uy-joy
Ibodatxonalar
Saroylar

Qal'a devorlari
-----------------

№ 45 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Applikatsiya ishida asosiy material nima?
---

Qog'oz
--------

Lenta
-------

Gazlama
---------

Metall
--------

№ 46 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Eng yaxshi applikatsiyalar nimalardan qilinadigan ornamental applikatsiyalardir?
--

Geometrik figuralardan
------------------------

Gullardan,
------------

Urug'dan
----------

Bargdan
---------

№ 47 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o'qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Inson bo'lib dunyoga keldingmi, biror narsani egalla, hunar o'rgan. Ushbu fikr muallifi kim?
--

Navoiy
--------

Naqshband
-----------

Farobiy
---------

Bobur
-------

№ 48 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

“O‘z mehnatidan non yegan kishi, hotam minnatidan ozod ishi” misralar muallifi kim?
Sa‘diy
Navoiy
Bobur
A. Temur

№ 49 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Farzandlarga odob, hunar o‘rgatmak merosdir. Ushbu gap qaysi asardan olingan?
Qobusnoma
Temur tuzuklari
Kalila va dimna
Avesto

№ 50 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Hunarning zarurligi haqidagi ertakni toping?
Oltin baliq, Sehri gilamcha
Hasanxon, Rustamxon
Ziyod, Go‘ro‘g‘li
To‘g‘ri javob yo‘q

№ 51 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Hunar o‘rgat. Chunki hunarda ko‘p sir, yopiq eshiklarni ochar birma bir. Misralar muallifi kim?
Nizomiy
Navoiy
Sa’diy
Naqshbandiy

№ 52 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Yupqa egiluvchan sathiga turli rangda jilov berilgan. Ishlov berish oson va ko‘rinishi chiroyli. Ushbu ta’rif qanday karton haqida?
rangli karton
Filtr qog‘oz
Gul qog‘oz
oddiy karton

№ 53 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Kartonning bu navidan o‘ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi. Ushbu ta’rif qaysi karton haqida?
Kulrang karton
Rangli karton
Oddiy karton
Sariq karton

№ 54 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Ko‘rsatmalilik metodiga qaysilar kiradi?
Namoyish qilish, amaliy ko‘rsatish, ekskursiya
Namoyish qilish
Amaliy ko‘rsatish
Ekskursiya

№ 55 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Amaliy metodlarga nimalar kiradi?
Laboratoriya, mashq, texnik adabiyotlar va hujjatlar bilan ishlash
Ekskursiya, namoyish qilish
Og‘zaki bayon qilish, muammoli o‘qitish
To‘ri javob yo‘q

№ 56 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Kesuvchi ashyolarni qanday g‘ilofda saqlagan ma’qul?
Charm g‘ilofda
Paketda
Qutichada
Qog‘ozda

№ 57 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Chok turlari yumshoq o‘yinchoqlar tikish qaysi bo‘limda o‘rganiladi?
Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash
Texnik modellash
Plastilin va mato ishi
Qog‘oz va karton bilan ishlash

№ 58 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

4-sinfda qog‘oz va karton bilan ishlash mavzusiga necha soat ishlatilgan?
10 soat
9 soat
11 soat
12 soat

№ 59 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

3-sinfda gazlama bilan ishlash mavzusiga necha soat ajratilgan?
7 soat
4 Soat
6 soat
5 soat

№ 60 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

O‘quvchilarni mehnat darslarida ish unumini oshirish necha bosqichda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi?
2
3
4
5

№ 61 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

1-sinfda qog‘oz va karton bilan ishlashga necha soat berilgan
13 soat
12 soat
11 soat
14 soat

№ 62 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

1-sinfda gazlama va tolali materiallar bilan ishlashga necha soat berilgan
4 soat
7 soat
5 soat
8 soat

№ 63 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

1-sinfda plastilin va loy ishi uchun necha soat berilgan
3 soat
1 soat
4 soat
5 soat

№ 64 . Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

1-sinfda turli materiallar bilan ishlash uchun necha soat berilgan
4 soat
1 soat
5 soat
7 soat

№ 65 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

1-sinfda badiiy qurish va yasashga necha soat berilgan
8 soat
4 soat
10 soat
11 soat

№ 66 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

2-sinfda qog‘oz va kartondan ishlash uchun necha soat berilgan
13 soat
10 soat
14 soat
15 soat

№ 67 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

2-sinfda gazlama va tolali materiallar bilan ishlash uchun necha soat ajratilgan
3 soat
2 soat
4 soat
5 soat

№ 68 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Geometrik shakllardan robot qurish yasash, harakatlanadigan o‘yinchoqlar yasash 2 sinfning qaysi bo‘limida bajariladi.
Texnik modellash
Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash
Turli materiallar bilan ishlash
Plastilin va loy ishi

№ 69 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Tikuvchilikda ishlatiladigan ashyolar, gazlama bilan ishlash, to‘g‘ri chok tikishni o‘rganish kabi mavzular qaysi bo‘limga mansub
Gazlama va tolali materiallar bilan ishlash
Plastilin va loy ishi
Texnik modellash
Turli materiallar bilan ishlash

№ 70 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

2-sinfda turli materiallar bilan ishlashga necha soat berilgan
9 soat
1 soat
7 soat
10 soat

№ 71 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

3-sinfda turli materiallar bilan ishlashga necha soat berilgan
2 soat
6 soat
4 soat
2 soat

№ 72 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

3-sinfda badiiy qurish yasashga necha soat ajratilgan
6 soat
13 soat
6 soat
5 soat

№ 73 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

3 sinfda tabiiy xomashyolardan applikatsiya usulida urug‘lardan mozaika qurish yasash qaysi bo‘limga oid
Badiiy qurish yasash
Qog‘oz va karton bilan ishlash
Texnik modellash
Turli materiallar bilan ishlash

№ 74 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Gilamdagi naqshlar, kulolchilik haqida ma’lumot mavzulari nechanchi sinfda berilgan
3 sinfda
2 sinfda
1 sinfda
4 sinfda

№ 75 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Oddiy chok turlaridan foydalanib igna uchun yostiqla, gul urug‘lari uchun xaltacha mavzulari nechanchi sinfda berilgan
3 sinfda
4 sinfda
2 sinfda
1 sinfda

№ 76 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

2 sinfda plastilin va loy ishi uchun necha soat berilgan
5 soat
1 soat
6 soat
8 soat

№ 77 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

2-sinfda texnik modellash uchun necha soat ajratilgan.
15 soat
2 soat
4 soat
5 soat

№ 78 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

“Qush bilan bolasi” kompozitsiyasini qurish yasash “Yil fasllari” manzarasini qurish yasash mavzulari nechanchi sinfda berilgan.
3
2
1
4

№ 79 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

4-sinfda qog‘oz va karton bilan ishlashga necha soat berilgan?
9 soat
8 soat
10 soat
7 soat

№ 80 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

4-sinfda gazlama va tolali materiallar bilan ishlashga necha soat ajratilgan?
7 Soat
8 soat
10 soat
9 soat

№ 81 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

4-sinfda texnik modellashga necha soat berilgan?
2 soat
3 soat
4 soat
5 soat

№ 82 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

4-sinfda plastilin va loy ishiga necha soat ajratilgan?
7 soat
5 soat
4 soat
2 soat

№ 83 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

4-sinfda turli materiallar bilan ishlashga necha soat berilgan?
5 soat
8 soat
7 soat
10 soat

№ 84 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

4-sinfda badiiy qurish yasashga necha soat berilgan?
8 soat
3 soat
5 soat
6 soat

№ 85 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Qol mehnatiga o‘rgatishda qo‘llaniladigan asosiy usullar tizimi nechta?
9 ta
6 ta
5 ta
7 ta

№ 86 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Og‘zaki bayon qilish usuli necha xil ko‘rinishda bo‘ladi?
2
3
5
4

№ 87 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Og‘zaki bayon qilish usuliga qaysilar kiradi
Monologik va dialogik
Suhbat olib borish
Analitik-sintetika
Tushuntirish

№ 88 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Turli mehnat obyektlarida o‘tkaziladigan har qanday ekskursiyalarning mazmuni necha bosqichda
2 bosqichda
4 bosqichda
2 bosqichda
7 bosqichda

№ 89 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan ommaviy ishlar’’ metodik qo‘llanmasining muallifi kim
Xodiyeva D
Mavlonova R
Rustamova P
Samatova E

№ 90 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Texnik modellash va konstruksiyalar maktablarda necha yo‘nalishda amalga oshiriladi
1 ta
2 ta
4 ta
5 ta

№ 91 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

To‘g‘ri uchburchak qayiq modelini yasashda qanday o‘lchamdagi qog‘oz olinadi
120x190
130x180
110x150
150x190

№ 92 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Yumshoq o‘yinchoq tikish uchun andoza nimadan tayyorlanadi
Kartondan
Qog‘ozdan
Yumshoq matodan
Rangli qog‘ozdan

№ 93 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Yumshoq o‘yinchoq tayyorlash uchun qirqib olingan mato atrofidan necha sm qoldirib qirqilishi kerak
0,5 sm
0,4 sm
0,8 sm
1 sm

№ 94 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Agar o‘yinchoq tabiiy jundan tayyorlanayotgan bo‘lsa qanday ipdan foydalaniladi
Qalin ipdan
Ingichka ipdan
Zardan
Yumshoq simdan

№ 95 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

O‘yinchoq tayyorlash murakkablik darajasiga qarab necha turga bo‘linadi
2 tur
3 tur
4 tur
5 tur

№ 96 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Qaysi usulda faqat o‘qituvchi gapiradi, o‘quvchilar esa uning nutqini idrok etib, anglab o‘tiradilar
Monologik bayon qilish usulida
Instruktaj ko‘rinishida
Amaliy ishlar ko‘rinishida
Dialogik bayon usuli

№ 97 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Ko‘rgazmali qurollarning o‘quvchilar tomonidan bajarilishini qanday ishga kiritish mumkin
Amaliy ishlar
Mustaqil ishlar
Ekskursiyalar
Mashqlar

№ 98 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

O‘qituvchining bevosita ishtirokisiz biroq uning topshirig‘I bilan maxsus ajratilga vaqtda bajariladigan ishlar qanday ishlar hisoblanadi
Mustaqil ishlar
Amaliy ishlar
Mashqlar
Ekskursiyalar

№ 99 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Ko‘rgazmali metodlar necha guruhga bo‘linadi
2 guruh
4 guruh
1 guruh
5 guruh

№ 100 X. Sanoqulov, D. Xodiyev, M. Satbayeva Mehnat va uni o‘qitish metodikasi Turkiston iqboli 2015

Qiyinlik darajasi-1

Amaliy metodlar necha guruhga bo‘linadi
3 guruh
6 guruh
4 guruh
2 guruh

## MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKL VA MAZMUNI

Talabalarga “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi” fanidan mustaqil ta’limni tashkil etishda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- mustaqil ravishda darslik, o‘quv qo‘llanmalar va metodik qo‘llanmalardagi mavzulami o‘rganish va tahlil qilish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha o‘rganilgan ma’ruza materiallarini o‘zlashtirish;
- ish turlari bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarish;
- axborot texnologiyalaridan foydalanib, mavzu bo‘yicha taqdimotlar tayyorlash;
- fanga oid BMI, kurs ishlarini o‘rganish, tahlil qilish va tayyorlash;
- zamonaviy ta’lim texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tadbiiq qilish usullarini o‘rganish;
- ta’lim jarayonida muammoli o‘qitish usullari va masofaviy ta’limdan foydalanish.

№	Mustaqil ta’lim mavzulari	Xajmi (soatda)
1	Tabiiy materiallardan applikasiya yasash.	
2	Chiqindi materiallardan choynak taglik yasash.	
3	Qog‘oz va kartondan guldon tayyorlash texnologiyasi.	
4	Milliy uslubda devoriy rasm tayyorlash.	
5	Milliy uslubda qovoq yordamida kompozitsiya tayyorlash.	
6	Kaktus guli kompozitsiyasi. (Sovg‘a tayyorlash)	
7	Chovgun ushlagich tikish.	
8	Biserdan gul yasash.	
9	Rangli qog‘ozdan mozaika yasash.	

10	Ish fartugini tikish.	
11	Gazlamadan yostiqcha tikish.	
12	Somondan applikatsiya yasash.	
13	Pape-mashe usulida turli buyumlar yasash.	
14	Kartondan ramka yasash	
15	Ipdan turli o'yinchoqlar yasash.	

**1- Mustaqil ish mavzusi: Tabiiy materiallardan applikatsiya yasash.**

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Tabiiy materiallardan applikatsiya yasash (gerbariy) mavzusi bo'yicha yo'nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. Tabiiy materiallardan applikatsiya yasaydi. Mavzu yuzasidan texnologiya tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog'lashni ishlab chiqadi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.

4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko‘mak beradi.	Xar bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axborotlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

2-Mustaqil ish mavzusi: Chiqindi materiallardan choynak taglik yasash.

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	CHiqindi materiallardan choynak taglik yasash texnologiyasining mazmun mohiyatini ochib, yo‘nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko‘rsatma beradi.	Mashg‘ulot rejasini tuzib chiqadilar. CHiqindi materiallardan choynak taglik tayyorlash va maktab amaliyoti bilan bog‘lashni ishlab chiqadi.
3. O‘z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg‘ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar

		chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko‘mak beradi.	Xar bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axborotlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

3-Mustaqil ish mavzusi: Qog‘oz va kartondan guldon tayyorlash texnologiyasi.

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Qog‘oz va kartondan guldon tayyorlash texnologiyasining mazmun mohiyatini ochib, yo‘nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko‘rsatma beradi.	Mashg‘ulot rejasini tuzib chiqadilar. Qog‘oz va kartondan guldon tayyorlaydi. Mavzu yuzasidan texnologiya tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog‘lashni ishlab chiqadi.

3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Xar bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.

4-Mustaqil ish mavzusi: Milliy uslubda devoriy rasm tayyorlash.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Milliy uslubda devoriy rasm tayyorlashning mazmun mohiyatini ochib, yo'nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. Milliy uslubda devoriy rasm tayyorlaydi. Mavzu yuzasidan maketlar tayyorlaydi va o'quvchilarga tushuntirish

		texnologiyasini ishlab chiqadi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Xar bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.

5-Mustaqil ish mavzusi: Milliy uslubda qovoq yordamida kompozitsiya tayyorlash.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Milliy uslubda qovoq yordamida kompozitsiya	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. Milliy uslubda

	tayyorlashning mazmun mohiyatini ochib, yoʻnalish beradi. Tegishli adabiyotlardan koʻrsatma beradi.	qovoq yordamida kompozitsiya tayyorlaydi. Mavzu yuzasidan maketlar tayyorlaydi va oʻquvchilarga tushuntirish texnologiyasini ishlab chiqadi.
3. Oʻz xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashgʻulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan koʻmak beradi.	Xar bir talaba oʻz guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va oʻz-oʻzini baholaydi.

6-Mustaqil ish mavzusi: Kaktus guli kompozitsiyasi. (Sovgʻa tayyorlash)

Faoliyat bosqichlari	Oʻqituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va	Mashgʻulotga tayyorgarlik koʻradi

	fikrlarni shakillantiradi.	
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Kaktus guli kompozitsiyasini tayyorlashning mazmun mohiyatini ochib, yoʻnalish beradi. Tegishli adabiyotlardan koʻrsatma beradi.	Mashgʻulot rejasini tuzib chiqadilar. Kaktus guli kompozitsiyasini tayyorlaydi va tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqadi.
3. Oʻz xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashgʻulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan koʻmak beradi.	Xar bir talaba oʻz guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va oʻz-oʻzini baholaydi.

7-Mustaqil ish mavzusi: Chovgun ushlagich tikish.

Faoliyat bosqichlari	Oʻqituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash	Mashgʻulotga tayyorgarlik koʻradi

	mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Chovgun ushlagich tikishning mazmun mohiyatini ochib, yo‘nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko‘rsatma beradi.	Mashg‘ulot rejasini tuzib chiqadilar. Chovgun ushlagich tikishidi va tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqadi.
3. O‘z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg‘ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko‘mak beradi.	Xar bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

#### 8-Mustaqil ish mavzusi: Biserdan gul yasash.

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi.	Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘radi

	Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Biserdan gul yasash mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo‘nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko‘rsatma beradi.	Mashg‘ulot rejasini tuzib chiqadilar. Texnologiya fanini darslarida ko‘rgazmali qurollardan foydalanish mavzusi yuzasidan referat tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog‘lashni ishlab chiqadi.
3. O‘z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg‘ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko‘mak beradi.	Xar bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

9-Mustaqil ish mavzusi: Rangli qog‘ozdan mozayka yasash.

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Rangli qog‘ozdan mozayka yasash mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo‘nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko‘rsatma beradi.	Mashg‘ulot rejasini tuzib chiqadilar. Qog‘ozdan applikasiya tayyorlaydi va tayyorlash texnologiyasi ishlab chiqadi.
3. O‘z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg‘ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko‘mak beradi.	Xar bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o‘z-o‘zini baholaydi.

10-Mustaqil ish mavzusi: Ish fartugini tikish.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Ish fartugini tikish mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo'nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. O'quvchilarda texnologiya fanini ta'limi va tarbiyasini shakllantirish mavzusi yuzasidan referat tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog'lashni ishlab chiqadi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Xar bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil	Talabalar tomonidan	Ishni himoya qiladi va

qilish va natijalarni baholash bosqichi.	amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	o‘z-o‘zini baholaydi.
--	---	-----------------------

11-Mustaqil ish mavzusi: Gazlamadan yostiqcha tikish.

Faoliyat bosqichlari	O‘qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi.	Mashg‘ulotga tayyorgarlik ko‘radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Gazlamadan yostiqcha tikish mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo‘nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko‘rsatma beradi.	Mashg‘ulot rejasini tuzib chiqadilar. O‘quvchilarda texnologiya fanini ta’limi va tarbiyasini shakllantirish mavzusi yuzasidan referat tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog‘lashni ishlab chiqadi.
3. O‘z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg‘ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko‘mak beradi.	Xar bir talaba o‘z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar,

		ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.

12-Mustaqil ish mavzusi: Somondan aplikatsiya yasash.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Somondan aplikatsiya yasash mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo'nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. O'quvchilarda texnologiya fanini ta'limi va tarbiyasini shakllantirish mavzusi yuzasidan referat tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog'lashni ishlab chiqadi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.

4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Xar bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.

13-Mustaqil ish mavzusi: Papye-mashe usulida turli buyumlar yasash.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Papye-mashe usulida turli buyumlar yasash mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo'nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. O'quvchilarda texnologiya fanini ta'limi va tarbiyasini shakllantirish mavzusi yuzasidan referat tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog'lashni ishlab chiqadi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan

		fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Xar bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.

14-Mustaqil ish mavzusi: Kartondan ramka yasash.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakllantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Kartondan ramka yasash mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo'nalish beradi. Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. O'quvchilarda texnologiya fanini ta'limi va tarbiyasini shakllantirish mavzusi yuzasidan referat tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog'lashni

		ishlab chiqadi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Xar bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.

15-Mustaqil ish mavzusi: Ipdan turli o'yinchoqlar yasash.

Faoliyat bosqichlari	O'qituvchi faoliyati	Talaba faoliyati
1. Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi. Natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi savol va fikrlarni shakillantiradi.	Mashg'ulotga tayyorgarlik ko'radi
2. Mavzuni ishlash bosqichi	Ipdan turli o'yinchoqlar yasash mavzusining mazmun mohiyatini ochib, yo'nalish beradi.	Mashg'ulot rejasini tuzib chiqadilar. O'quvchilarda texnologiya fanini ta'limi va tarbiyasini

	Tegishli adabiyotlardan ko'rsatma beradi.	shakllantirish mavzusi yuzasidan referat tayyorlaydi va maktab amaliyoti bilan bog'lashni ishlab chiqadi.
3. O'z xulosalarni yozma bayon etish.	Kuzatadi.	Mashg'ulotni bajarish davomida shakllangan fikrlarni qayd qilib boradi tegishli xulosalar chiqaradi.
4. Umumlashtirish bosqichi	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko'mak beradi.	Xar bir talaba o'z guruhida maslahatlashgan holda mazmuniga qarab axboratlarni tartiblaydilar, ishni himoya bosqichiga tayyorlaydilar.
5. Yakun yasash tahlil qilish va natijalarni baholash bosqichi.	Talabalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	Ishni himoya qiladi va o'z-o'zini baholaydi.


## GLOSSARIY

1.	Applikatsiya – applique	Biror narsaga rang-barang gazlama yoki qog‘oz parchalari yopishtirib yoki tikib naqsh solish usuli.
2.	Eskiz – sketch	Badiiy asar yoki uning alohida qismlari g‘oyasini aks ettiruvchi dastlabki qoralama, xomaki asar. Unda bo‘lajak asarning kompozitsiya yechimi, shakllarning fazoviy kenglikda joylashuvi va ularning o‘zaro nisbatlari, umumiy rang tizimi xususiyatlari belgilab olinadi.
3.	Filtr qog‘oz – filter-paper	Yelimlanmagan qog‘oz
4.	Gerbariy	Ma‘lum maqsadlar uchun maxsus usullar asosida yig‘ib quritilgan o‘simliklar kolleksiyasi.
5.	Gulqog‘oz – wall-paper	Rangli va guli turlicha bo‘lib, muqovalashda, narsalarning ustidan yelimlash, bezash ishlarida keng foydalaniladi. Millimetrli qog‘oz sathi bosma tur shaklida tayyorlanadi. Bir kv. metri 250 grammdan ortiq bo‘lgan qog‘ozga aytiladi.
6.	Karton qog‘ozi – pasteboard	Millimetrli qog‘oz sathi bosma tur shaklida tayyorlanadi. Bir kv. metri 250 grammdan ortiq bo‘lgan qog‘ozga aytiladi.
7.	Kegay	To‘qish uchun ishlatiladigan asbob.
8.	Kulrang karton – grey box	Oq va sariq kartondan pishiqroq, egiluvchan, yaxshi qirqiladi. Yelimdan


		shishmaydi. Turli ishlarda foydalaniladi.
9.	Kvilling	Uzunchoq va ensiz qog‘ozni eshish usulida bejirim va nafis buyumlar yasash usuli.
10.	Materiallar	Biror maqsad uchun kerakli xomashyo, modda. Yasashda ishlatiladigan asosiy materiallar: qog‘oz, gazlama, yog‘och, plastmassa, metall va boshqalar.
11.	Model – model	Biror narsaning xuddi o‘zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan nusxasi yoki tasviriy asar uchun xomaki material bo‘ladigan narsa
12.	Modellash – modelize	Biror narsani ularning modellari yordamida tadqiq qilish, mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o‘rganishdir.
13.	Mozaika – mosaic	Bir xil yoki turli xomashyo (koshin, tosh, yog‘och, marmar, metall va boshqalar) bo‘laklaridan ishlangan tasvir, naqsh. Mahobatli bezak san’atining asosiy turlaridan.
14.	Mulina	Kashta tikish uchun ishlatiladigan rangli ip
15.	Origami	Qog‘ozni buklash yo‘li bilan shakl yasash usuli.
16.	Pape-mashe	Qog‘ozni parchalab yopishtirish yo‘li bilan narsa-buyumlar yasash usuli.
17.	Penoplast	Plastmassaning yengil ko‘piksimon turi. Asosan oq rangda bo‘ladi.
18.	Plakat – placard	Grafika turi bo‘lib, katta varaqqa ishlangan tasviriy san’at asari. Qisqa matn ilova

		qilinadi; tashviqot, reklama, informatsiya va o‘quv ta’lim maqsadlariga ilova qilinadi.
19.	Plastilin – plasticine	Loy, mum va loy-bo‘yoqlardan tayyorlanadigan, tez qurimaydigan plastik massa.
20.	Qaychi – scissors	Turli materiallarni kesish (qirqish) uchun ishlatiladigan asbob. Dastlabki qaychilar bir-biriga egiluvchan yoysimon metall plastina bilan biriktirilgan ikkita pichoqdan iborat bo‘lgan.
21.	Rangli karton – coloured box	Bu yupqa, egiluvchan, sathiga turli rangda jilo berilgan karton bo‘lib, ishlov berish oson va ko‘rinishi chiroyli. Undan hajmi kichik narsalar: papkalar, muqovalar tayyorlash mumkin.
22.	Rasm qog‘ozi – drawing paper	Bu qog‘oz sellyulozadan tayyorlanib, oliy naviga 25% latta qo‘shiladi. Chizmalar chizishda, shuningdek, qo‘l mehnati darslarida foydalaniladi.
23.	Sariq karton – ellow box	Oq kartondan pishiqroq, qirqish qiyin. Kartonning bu turidan o‘ta pishiqlikni talab qiluvchi narsalar tayyorlanadi.
24.	Shagren naqshdor qog‘ozi – shagren patterned papper	Muqovasozlikda va tayyor narsalarning ustidan yopishtirishda, archa o‘yinchoqlarini yasashda foydalaniladi.
25.	Chizmachilik qog‘ozi – draughtsmanship paper	Eng pishiq va qalin qog‘oz bo‘lib, lattadan tayyorlanadi. Undan bayramlar uchun qiziqarli niqoblar tayyorlashda foydalaniladi.

# AMALIY MASHG'ULOT UCHUN QO'SHIMCHA MATERIALLAR




## Kitobga muqova tayyorlash




Qog‘ozdan ketma-ket usulida buklab maket tayyorlash:


Uycha




Qayiqcha




### Pirpirak




### Yelkanli qayiq




### Qushcha




## Baliqcha




## Stakancha




## Lola guli




## Quyuncha




## Erkaklar kuylagi




## Kuchukcha




## Murakkab usulda buklab lola guli




## Qurbaqa



## Murakkab usulda buklab “Oq qushi” yasalishi







Murakkab usulda buklab har xil buyumlardan namunalar




## Murakkab usulda buklab lola guli yasash


1. Avval lola guli uchun barglarni tayyorlang. Buning uchun tomonlari 15 sm bo'lgan kvadrat shaklidagi yashil rangli qog'ozni oling, uni diagonal bo'yicha buklang va qayta oching.




2. Shaklning chetki qismlarini o'rta qayiring.




3. Ikkinchi tomondagi burchagini o'rta qayiring.



4. Qog'ozni hamma tomonlarini yana bir marta qayirib chiqing.



5. Barglarni qayrilgan joylarini sekinlik bilan tekislang. Shaklni ikkinchi tomonga buklang. Barg qismi tayyor bo'ldi.



6. Bargga shakl berish uchun uni qalamga o'rang va sekin oching.



7. Kengligi 1 sm bo'lgan yashil rangli tasmani naychani bir uchiga yelimlang va o'rang.




8. Lola gulni tayyorlashni boshlaymiz. Qizil rangli qog'ozdan 3 dona modulni tayyorlab oling. 2 ta modulni uchinchi modulning karmoniga joylashtiring.




9. Xuddi shu usulda modullarni yig'ishni davom eting. Birinchi va ikkinchi qatorlarda 4 ta dan modul bo'lganida, uchunchi qator modullarini biriktirishni boshlang.



10. 15 ta moduldan iborat bo'lgan uchta qatordagi zanjirli halqani hosil qiling.



11. Ehtiyotkorlik bilan modullarni chetlaridan ushlab, halqani qisqa tomonlarini tashqariga qaratib qayiring




12. 15 tali moduldan yana ikkita qator zanjirli xalqa yasang.



13. Keyingi qatordan boshlab lola gulini barglarni yasash uchun 4 ta modul quydagicha biriktiriladi. Halqa ustiga 3 ta modul, keyin 2 ta va yana 1 modul biriktiring.



14. Lola yaproqlarini ichkari tomonga qayiring. Yaproqlar orasida 2 ta burchak qoldirib keyingi yaproqlarni yasashni davom eting. Ularni ham gulning ichkari tomoniga qayirib qo'ying.



15. Lola gullarning o'rta qismidagi teshigiga tayyorlab qo'yilgan gul bandlarini joylashtiring. Lola bandi mahkam turishi uchun naychani yuqori qismi yo'g'onlashtiriladi. Buning uchun qog'oz bo'laklarini naychaga o'rab yelimlab qo'yiladi. (Naychani yo'g'onlashtirish uchun yelimli massa yoki plastillindan ham foydaldansa bo'ladi).





*Modullarni buklashdan oldin, rangli qog'ozni kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchakla shaklida kesish kerak. Agar siz kerakli o'lchamdagi stiker (maxsus o'lchamdagi) qog'ozlarni ishlatsangiz bunga hojat yo'q albatta.*

**Eslatma:** *Hamma modullarni oldindan tayyorlash shart emas. Ularni ish jarayonida ham tayyorlasangiz bo'ladi, bunda shakllarni, ranglarni miqdorini o'zgartirishingiz mumkin.*







Mozaika usulida namunalar







Kartondan maketlar yasash




2




3



4



5




6




7

## Aplikatsiya usuli ranglar bilan ishlash





## Tuxum po'chog'idan mozaika ishlaridan namunalar









## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. M.Satbayeva Texnologiya fani va uni o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: TDPU, 2015.
2. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Texnologiya fani va uni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.; TDPU, 2007.
3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Boshlang‘ich sinflarda qog‘ozdan amaliy ishlar. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: Navro‘z, 2013.

### **Qo‘shimcha adabiyotlar:**

4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Texnologiya. 2-sinf darsligi. T.: Sharq, 2018.
5. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mehnat ta’limi. 3-sinf darsligi. T.: Sharq, 2016.
6. The Exquisite Book of Paper I lowers: A Guide to Maicing Unbelievably Realistic Paper USA, 2014 Paperback New York, Boston.

### **Internet saytlar**

7. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
8. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
9. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
10. [www.lex.uz](http://www.lex.uz);
11. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz);
12. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).

